



Abdurayim Malikovich
Turobov filologiya fanlari
nomzodi, SamDCHTI o'zbek tili
va adabiyoti kafedrası professori
v.b.

O'zbek tili, tilshunoslikka
kirish, til nazariyasi, umumiy
tilshunoslik, nutq madaniyati
fanlari bo'yicha mutaxassis.

A.Turobov nazariyotchi olim sifatida 100 dan ortiq
ilmiy ishlar, shu jumladan: 4 ta o'quv-uslubiy
qo'llanma, 2 ta lug'at va 2 ta monografiya muallifi.



Abdurayim Turobov * TILSHUNOSLIK NAZARIYASI *

ABDURAYIM TUROBOV

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

DARSLIK

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Abdurayim Turobov

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabalariga darslik sifatida nashr etishga ruxsat bergan (2021-yil 23-noyabr, 500-sonli buyruq. Ro‘yxatga olish raqami 500-262).

“Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti
Samarqand – 2022

A.Turobov. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 254 bet.

Universitetlarning 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabalariga mo‘ljallangan mazkur darslikda tilshunoslik nazariyasi fani, tilning ijtimoiy tabiati, til va tafakkur masalalari, til taraqqiyoti, dunyo tillari bo‘yicha taniqli tilshunos olimlarimizning fikr-mulohazalari talqin etilib, sanab o‘tilgan masalalar xususida talabalarga ilmiy-nazariy tushunchalar beriladi. Darslik bakalavriat yo‘nalishidagi talabalar hamda tilshunoslikning nazariy masalalari bilan qiziquvchilarga mo‘ljallangan.

Учебник для студентов первого курса 5120100 – “Филология и преподавание языка” вузов посвящен предмету теории языкознания, социальной природе языка, языку и сознанию, языку развития языка, интерпретация выдающихся лингвистов мира, и теоретические концепции даны студентам в вышеупомянутых проблемах. Учебник предназначен для студентов, обучающихся на бакалавриате и интересующимися теоретическими вопросами языкознания.

Textbook for first-year students in direction of 5120100 – “Philology and language teaching” of universities is devoted to the subject of the theory of linguistics, the social nature of language, language and mentalitu, language development, interpretation of outstanding world linguists and theoretical concepts given to students in the above issucs. The curriculum is designed for students who are interested in and theoretical issues of linguistics.

Mas’ul muharrir:

Ibodulla Mirzayev – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Ne‘mat Turniyozov – filologiya fanlari doktori, professor

Jo‘liboy Eltazarov – filologiya fanlari doktori, professor

Azamat Pardayev – filologiya fanlari doktori

ISBN 978-9943-6998-0-9

© Abdurayim Turobov, 2022

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022

SO‘ZBOSHI

Mazkur darslik oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti, 5120100 – filologiya va tillarni o‘qitish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi, 1-kurs talabalari uchun “Tilshunoslik nazariyasi” kursi dasturi asosida yaratildi. Darslikda tilshunoslik nazariyasiga oid boshlang‘ich masalalar yoritildi.

So‘nggi yillarda oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari filologiya yo‘nalishida tilshunoslik nazariyasini o‘qish-o‘rganish, o‘qitish ishlari qizg‘in tus oldi.

Darslik Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqilgan fan dasturiga qat’iy amal qilingan holda tayyorlanib, unga quyidagi mavzular kiritildi: “Tilshunoslik nazariyasi fanining maqsadi, vazifalari”, “Tilning ijtimoiy tabiati”, “Til va tafakkur”, “Til – tafakkur – nutq munosabati”, “Til – ramzlar tizimi”, “Tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi”, “Dunyo tillari va ularning tasnifi”.

Tilshunoslik tarixi tilning jamiyatdagi o‘rni, tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti haqidagi turli xil qarashlarni, nazariyalarni tekshiradi. Tilshunoslik nazariyalari ko‘proq umumiy tilshunoslikka asoslangani uchun ayrim bir til haqidagi nazariyalar haqida to‘xtalmasdan, balki umumiy tilshunoslik hajmidagi nazariyalarni o‘rganadi.

Talabalarining tilshunoslik nazariyasini o‘zlashtirishi oson bo‘lishi uchun ayrim o‘rinlarda tilshunoslik nazariyasini jahon tillari grammatik tipologiyasiga solishtirishga harakat qilindi.

Jahon tillarining fonetik, morfologik, sintaktik tizimidagi ayrim grammatik hodisalar barcha tilda ham mavjud. Lekin bu hodisalar ifodalanishi, ma’nosi va boshqa xususiyatlari bilan o‘ziga xos jihatlarga ega.

Shuningdek, grammatik kategoriya sifatida mavjud holatlarni yoritishga va bu o‘ziga xoslikning sababini ochishga

ham alohida e'tibor qaratildi. Darslikda tilshunoslik nazariyasi fanining maqsadi, vazifalari, tilning ijtimoiy tabiati, til va tafakkur, til – tafakkur – nutq munosabati, til – ramzlar tizimi, tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi, dunyo tillari va ularning tasnifi va boshqa muammolarga ham o'rin ajratildi.

Mazkur darslik turli yillar davomida 1-kurslarda o'qilgan ma'ruzalar, kuzatilgan, o'rganilgan, qo'llanilgan tajribalardan kelib chiqib yaratildi.

Darslikda har bir mavzuga tegishli bo'lgan adabiyotlar muallifi, chop etilgan sana va beti matn ichida qavsga olib berildi. Negaki, qiziqqan o'quvchi manbaga murojaat qilib, bu boradagi bilimni yanada kengaytirish imkoni bo'ladi.

Darslikda materiallar o'ziga xos tarzda uzviy bog'liqlikda va ketma-ketlikda berildi. Darslikdagi test savollari talabalarning mustaqil bilimni oshirishga va mustahkamlashga yordam beradi. Har bir mavzuga oid rejalar tuzildi, tayanch so'z va iboralar belgilandi hamda nazariy masalalar ana shu rejalar asosida, tayanch so'z va iboralar negizida yoritildi. Har bir mavzudan keyin talabalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun nazorat savollari, fanning namunaviy o'quv dasturi talablariga asoslangan holda mustaqil ish mavzulari va ularga doir savol hamda topshiriqlar, ularni bajarish yuzasidan tavsiyalar berildi. Shuningdek, darslikdagi test savollari talabalarning mustaqil bilimni oshirishiga va mustahkamlashga yordam beradi. Tayanch so'z va atamalarning o'zbek, rus va ingliz tilidagi nomlanishi berildi. Bu o'quvchilarni jahon tilshunosligidagi terminlarning nomlanishidan boxabar qiladi.

Darslikni nazariy va amaliy jihatdan takomillashtirish, mukammallashtirishga oid fikr va mulohazalarni muallif minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI FANINING MAQSADI, VAZIFALARI

1-§. Tilshunoslik mustaqil fan sifatida

Tilshunoslik nazariyasi fani tilshunoslikning ilmiy-nazariy tomonlarini o'rganadigan fandır. Tilshunoslik nazariyasi fanida tilning paydo bo'lishidan boshlab, tillarning tasnifi, uni tahlil qilish usullari hamda til va tafakkur, til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, tilning ichki tuzilishi, tilning ijtimoiyligi kabi masalalargacha o'rganiladi. Uzoq yillar davomida tilshunoslik fani boshqa bir qancha fanlar qurshovida o'rganilib kelindi. Birinchilardan bo'lib Gegel va Gumboldt ta'limotlariga suyangan holda F.do' Sossyur o'z ta'limotlarida tilni boshqa fanlar emas, o'zining o'rganadigan alohida fani bo'lishi kerak, bu fanning nomi tilshunoslik deb nomlanishi lozim degan g'oyani ko'tarib chiqdi. Bu nazariya tilshunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishiga turtki bo'ldi.

Haqiqatdan ham, til kishilik jamiyati mahsuli bo'lib, jamiyatda kishilarning aloqa qilishiga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Til ayrim shaxslardagina emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishida namoyon bo'ladi. U insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan barcha madaniy-ma'naviy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan, uni avloddan avlodga meros qoldiradigan asosiy vositadir.

F.do' Sossyur tilshunoslik to'g'risidagi o'z mulohazalarini bu fanning ob'ektini chegaralashga urinishdan boshlaydi. Shu sababdan ham: Tilshunoslik goh ma'lumotlar oladigan, goh unga shunday ma'lumotlar berib turadigan qator fanlar bilan juda yaqin bog'langan. Uni shu fanlardan ajratib turadigan chegaralar hamisha ham ko'zga yaqqol tashlanavermaydi, – deb yozadi [F. do'. Sossyur, 2019: 13].

Uning yozishicha, tilshunoslik ob'ektini chegaralashda tadqiqotchining pozitsiyasi, ilmiy nuqtai nafari g'oyat katta ahamiyat kasb etadi. Ko'p tilshunoslar tilni biror hodisa

(tafakkur, milliy ruh va hakazo)ning funksiyasi deb tushunadi va tilni shu hodisaga bog‘lab o‘rganadi. F.do‘ Sossyurning fikricha, bu – noto‘g‘ri. Til o‘z qurilishiga ega bo‘lgan tamomila mustaqil hodisadir [I.Qo‘chqortoyev, 1976: 5].

Biz bu fikrlarga to‘liq qo‘shilgan holda, tilni boshqa fanlardan ajratgan holda o‘z nazariy asoslariga tayanib o‘rganishning tarafdorimiz. Til nazariyasi fani bu borada, ko‘plab muammolarni hal qilib berishi lozim.

Tilning tabiati, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, tuzilishi va bu strukturani tashkil etgan unsurlarining o‘zaro munosabati, nutqiy faoliyat, uning ichki mexanizmi, ishlash tamoyillari kabi muhim masalalarni ilmiy o‘rganishni har taraflama tadqiq etishni talab etadi.

Tilshunoslik – tilning ijtimoiy tabiati, vazifasi, ichki tuzilishini, tillarning ish ko‘rish (faoliyat) qonunlari va tarixiy taraqqiyotini o‘rganuvchi fan. Demak, tilshunoslik inson tilini o‘rganadigan mustaqil fandir [N.Uluqov, 2016: 6].

Tilshunoslik yoki lingvistika (lotin tilida *lingua* – til) til nazariyasini o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan bo‘lib, u “Tilshunoslikka kirish” va “Umumiy tilshunoslik”, “Tilshunoslik tarixi” kabi nomlar bilan ataladigan mustaqil qismlardan tashkil topgan. Fe do‘ Sossyur tilshunoslikni ikkiga bo‘ladi til va nutq tilshunosligiga va bu haqda shunday yozadi: Bu ikki fan (til tilshunosligi va nutq tilshunosligi) uchun tilshunoslik nomini saqlab qolish va nutq tilshunosligi haqida gapirish mumkin. Biroq uni so‘zning o‘z ma‘nosidagi, sof, yagona ob‘ekti til bo‘lgan tilshunoslik bilan adashtirmaslik kerak [F. do‘. Sossyur, 2019: 29]. Biz uch ming yil davomida til lingvistikasini o‘rganib keldik, endi nutq lingvistikasini o‘rganishimiz kerak. Nutq lingvistikasi hali yaxshi o‘rganilmagan soha bo‘lib, o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi.

Tilshunoslik fanining predmeti, o‘rganish manbai o‘z ichki qonuniyatlariga ega bo‘lgan murakkab tizim – tildir. Tilning

o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo'ysunuvchi o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa – munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his–tuyg'ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin [Z.Xolmonova, 2007: 5]. Darahaqiqat, til bugungi holga kelguncha turlicha yondashuvlar qamrovida o'rganildi. Tilga berilgan yagona ta'rifning yo'qligi ham shundan dalolat beradi. Yagona ta'rif kerak ham emas, harxolda to'liq ta'rif berish va tilshunoslikka mustaqil fan sifatida qarashimiz juda muhim.

“Tilshunoslikka kirish” umumiy tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, tilshunoslik fanining asosiy tarkibiy qismlarini, tilshunoslikda qo'llanadigan ilmiy atamalarni va xususiy tilshunoslikda o'rganiladigan masalalarni, masalan, ingliz tilining grammatikasi (morfologiya va sintaksis), fonetikasi, leksikologiyasiga xos masalalarni o'rganish uchun nazariy asos yaratishga imkon beradi. Mazkur fanda, tilshunoslik tarixi sohasida mavjud bo'lgan ilmiy dunyoqarashlarning, turli ilmiy maktablarning shakllanishi va rivojlanishi, umuman olganda, til taraqqiyotining dinamikasi o'rganiladi.

“Umumiy tilshunoslik” til ilmiga xos bo'lgan umumiy masalalarni o'rganadigan mustaqil fan bo'lib, u quyidagi nazariy muammolar talqini bilan shug'ullanadi:

1.Tilshunoslikning predmetini, ya'ni o'rganish sohasini va vazifasini belgilash muammosi.

2.Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyot qonunlari muammosi.

3.Til strukturasi, ya'ni tilning ichki tuzilishi muammosi.

4. Tilning o‘ziga xos sistema-tizim ekanligi muammosi.
5. Tilning belgilik muammosi.
6. Til va tarix muammosi.
7. Til va jamiyat muammosi.
8. Tilning tabiati va ijtimoiy mohiyati muammosi.
9. Til va tafakkur muammosi.
10. Til va nutq muammosi.
11. Til tipologiyasi va universallik muammosi.
12. Tillarning tasnifi muammosi.
13. Tilni tadqiq qilish metodlari va boshqa muammolar.

Umumiy tilshunoslik xususiy tilshunoslikda erishilgan nazariy bilimlarni umumlashtirib, ayrim konkret tillarni ilmiy o‘rganish metodologiyasini va ilmiy metodlarini belgilab beradi.

“Umumiy tilshunoslik” fani, dastavval, talabalarni nazariy jihatdan tayyorlash uchun, ularni shu yo‘nalishda puxta, “hushyor” qilish uchun zarur. Nazariy masalalar bilan mukammal qurollangan talabalargina tom ma’nodagi filolog – tilshunos sifatida shakllanadi [R.Rasulov, 2017: 8].

Ma’lumki, jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida sodir bo‘lgan voqea-hodisalar tilda aks etmay qolmaydi. “V.Gumboldtning tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shundaki, u jahon tilshunosligida birinchilardan bo‘lib tilning sistemaviy tabiatga ega ekanligini asoslab berdi. U “Tillarni turli rivojlanish davriga ko‘ra qiyoslab o‘rganish” asarida har qanday tilni ichki aloqalari va munosabatlarini e’tiborga olgan holda o‘rganish tilshunoslik oldida turgan eng muhim vazifa ekanini bayon qiladi. V.Gumboldt fikricha, tilda hech qanday alohidalik yo‘q, uning har bir alohida elementi butunning bir qismini namoyon qiladi. U tilni har bir tolasi boshqasi bilan zanjir bo‘lib choklangan ulkan to‘qimaga o‘xshatadi. Tildan foydalanayotgan har bir individ bu ulkan to‘qimaning faqat bir qismi bilan ish ko‘rsa ham, lekin bu qism boshqalari bilan

muqarrar aloqa hamda ichki munosabatlar garmoniyasidan iborat bo'lgani uchun butun bir to'qima o'laroq namoyon bo'ladi.

V.Gumboldt tilning sistemaviy tabiatga egaligini e'tirof etish bilan birga, uning belgilar sistemasi ekanini ham bayon qiladi" [A.Nurmonov, 2012: 28].

Xulosa qilib aytganimizda, qariyb 3000 yil davomida kurashib tilshunoslikni boshqa fanlardan ajratib oldik. Endi boshqa fanlar qurshovida o'rganmaslik kerak. Tilshunoslik mustaqil fan ekan, sof grammatik kategoriyalar nuqtayi nazaridan o'rganilishi kerak. Shu bois til haqidagi bilim ham o'ziga xos tarixga ega.


2-§. Tilning ijtimoiy, biologik, fiziologik tabiati

Qayd etish lozimki, til kishilik jamiyatida yaratilgan bo'lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiati ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo'ladi. Bir kishi jamiyatdan uzilib qolsa til kerak bo'lmay qoladi. Til bo'lmasa, bilimlarimiz, to'plagan tajribalarimiz kelajak avlodga etib bormaydi. Til insoniyat tafakkurining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoldiradigan asosiy vositadir. Shu bois tilshunoslik tarixini o'rganish til haqidagi bilim darajamizni boyitibgina qolmay, katta tarbiyaviy ahamiyatga ham egadir.

Umuman, boshqa fanlar singari tilshunoslik fanining tarixini ham mustaqil fan sifatida o'rganish zarurdir. Til tarixi haqida hech bo'lmaganda, o'rtacha bilimga ega bo'lmay turib, bugungi tilshunoslikning erishgan yutuqlari va uning oldida turgan muammolarni o'rganib bo'lmaydi. F. do'. Sossyur tilshunoslikni tilni faqat hujjat sifatida o'rganadigan etnografiya va qadimgi dunyo tarixidan qat'iy chegaralash

lozim. Uni, shuningdek, odamni zoologik tur sifatida o'rganuvchi antropologiyadan ham ajratmoq lozim. Chunki til ijtimoiy faktdir. Modomiki, shunday bo'lsa, uni ijtimoiy fanlar tarkibiga kiritish kerakdir? – degan fikrni qat'iy aytadi [F. do'. Sossyur, 2019: 14-15]. Tilshunoslik fani katta tarixiy jarayonni bosib o'tdi. Bu borada, ayniqsa, qadimgi hind, yunon, xitoy, arab tilshunosliklari tarixini o'rganish qimmatli ma'lumotlar beradi. Bu tilshunosliklar tarixi ancha qadim davrlar bilan o'lchanadi. Bundan tashqari, tilshunoslik fanining ba'zi tomonlari psixologiya, etnografiya, antropologiya, geografiya, matematika, fizika kabi fanlar bilan ham uzviy bog'liq bo'ladi. Tilshunoslikning bu fanlar bilan aloqasini o'rganish hali ham o'z me'yoriga yetgan emas.

Tilning fiziologik tabiati haqida F. do'. Sossyur shunday deydi: ...miya nutq organlariga obrazga mos keladigan ichki turtki (impuls)ni uzatadi. Shundan keyin tovush to'lqinlari A ning og'zidan V ning qulog'iga taraladi, bu esa sof fizik jarayondir. Keyin muloqot jarayoni V da davom etadi, biroq teskari tartibda: quloqdan miyaga o'tish – akustik obrazning tegishli tushuncha bilan psixik bog'lanishi. V ham, o'z navbatida, gapira boshlaganda, nutqning bu yangi harakati davomida birinchi harakat paytidagi yo'l aynan takrorlanadi, nutq V ning miyasidan A ning miyasiga yetgunga qadar o'sha bosqichlarni bosib o'tadi. Buni biz quyidagicha ifodalashimiz mumkin:



[F. do'. Sossyur, 2019: 14-15].

Xulosa qilib aytganimizda, rasmda ko‘rib turganimizdek til ma’nolar tashuvchi belgilar sistemasi ekanligi fiziologik jarayonda voqelanadi.

Xususan, tilshunoslikda, “til va nutq” dixotomiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari anchagina bo‘lishiga qaramay, til belgilarining nutqqa ko‘chirilishi bilan bog‘liq muammolar endigina o‘rganilmoqda. Bu sohada izohlanishi lozim bo‘lgan masalalar hali ko‘p.

Tilning biologik hodisa ekanligi haqida “Yosh grammatikachilar”ning fikrlari. Yosh grammatikachilar tilni individual psixofiziologik hodisa deb qaradilar. Til odamlarning ongida yashaydi, boyiydi va taraqqiy qiladi deb tushuntirdi. Ular o‘z davridagi olimlarning tilni qiyosiy-tarixiy o‘rganuvchilariga qarshi chiqib, jonli tilni ya’ni tilning bugungi holatini o‘rganishni targ‘ib qildi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ular ham o‘z o‘rnida til tarixiga ham murojaat qildi. “Yosh grammatikachilar” yo‘nalishining shakllanishi K.Brugman, G.Ostxaf, G.Paul, V.Delbryuk, A.Leskin singari Leypsig universiteti olimlari nomi bilan bog‘liqdir. Shu sababli, “Yosh grammatikachilar” maktabini Leypsig maktabi deb ham nomlanadi.

“Yosh grammatikachilar” tilning individual psixologik faoliyatini tilda paydo bo‘ladigan yangi hodisalarning psixik hodisalar bilan bog‘iliqligida deb bildi.

Tilning fiziologik tomonini esa tildagi fonetik o‘zgarishlar orqali ko‘rinishini ta’kidladilar. Shu sababli ular ko‘proq fonetikani o‘rganishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydi. Keyingi bo‘lim morfologiya va sintaksisga kam ahamiyat berdilar.

Til birliklarini bir-birlaridan ajratib olib alohida o‘rganishni targ‘ib qildilar. Shundagina har bir birlikni keng va batafsil o‘rganish mumkin deb yondoshdilar. Bu yosh grammatikachilar ta’limotida “atomizm” deb qaraldi. Bu fikrlari

bilan tilni sistem sifatida o'rganuvchilarning qarashlariga qarshi chiqdilar.

Til qonun-qoidalarini anglash uchun ba'zi bir tushunchalarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Bular til sistemasi, me'yori va belgilaridir. Jumladan, til sistema sifatida mavjud deb qaraladi. Sistema o'zi nima? Degan savol tug'ilishi mumkin. Ushbu savol bo'yicha adabiyotlardan birida quyidagicha fikr mavjud: "Sistema deb o'zaro ichki ziddiyat (oppozitsiya)ga ega bo'lgan hodisalarning guruhlanishiga aytiladi. Har bir sohaning o'ziga xos guruhlari sistemasi bor. Masalan, fonetikaning o'ziga xos birliklari bor yoki morfologiyadagi har bir konkret forma ziddiyatli sistemasiga ega. Chunonchi, o'zbek tilida -(i)m, -(i)ng, -i/si; -(i)miz, -(i)ngiz, -lari qo'shimchalari birining o'rnida boshqasini ishlatib bo'lmaydi. Bu xususiyat ularning ziddiyatligidir. Ammo ularning hammasi birgalikda bir narsaning boshqasiga qarashli ekanligini ko'rsatadi. Bu jihatdan ular bir sistemani tashkil etadi [T.Qudratov, 1993: 35]. Sistema bo'lgan joyda albatta, struktura ham bo'ladi. Sistema butunlilik, struktura esa qismlilikdir. Sistema moddiy va ideal sistemaga bo'linadi. Til ideal sistema hisoblanadi. Tilni sistema deb qaraydigan bo'lsak, uning strukturasiga til birliklari sanalgan fonema, morfema, leksema va modellar kiradi.

Amerika tilshunosligi til struktura tuzilishi nazariyasini birinchi navbatda gap tuzilishi va undagi ma'lumotlarni o'rganishga asoslangan holda ishlab chiqadi [T.Bushuy, 2011: 224].

Sistema va struktura tuzilishini tilshunoslikning yirik va mustaqil bo'limlari (fonetika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, uslubshunoslik va boshqa) misolida ham ko'rishimiz mumkin. Demak, til sistemasi keng ma'noda til qurilishining barcha sohasining majmuidir.

3-§. Til kishilar o'rtasidagi aloqa quroli sifatida

Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatda yashaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, kishilarning miyasida, tafakkurida yashaydi, boiydi, taraqqiyot qiladi va rivojlanadi. Til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish vositasi sifatida paydo bo'lgan. Jamiyat bor joydagina til mavjud bo'ladi. Jamiyat bo'lmagan joyda til ham, unga ehtiyoj ham sezilmaydi. Ma'lum jamiyat yo'q bo'lib ketmas ekan uning tili ham o'lik tilga aylanmaydi. Tilning kishilar o'rtasidagi aloqa quroli sifatida xizmat qilishi ham birinchi navbatda va bevosita nutqiy faoliyat bilan bog'liq. Til nutqiy faoliyatning tarkibiy bir qismi. Shunday bo'lmaganda edi, til lug'atlar kabi nomlar ro'yxati bo'lib qolar edi. Boshqacha qilib aytganimizda, har birimizning miyamizda bilgan so'zlarimizdan shakllangan til korpusimiz mavjud. Til korpusimizdan kerakli so'zlarni olib jumlar tuzish nutqiy faoliyat mahsulidir. Faqat bu yerda paradigmatic va sintagmatic munosabatlar zanjiri sistemasining ishlash jarayoni sodir bo'ladi. Mana shu narsaning o'zi tilni kishilar o'rtasidagi aloqa quroli sifatida tasavvur qilishimizga imkon beradi.

Til sistemasi juda murakkab tuzilishga ega bo'lgan ma'lum bir butunlikni tashkil etadi. Mazkur sistemaning asosiy unsurlarini til belgilari tashkil qiladi. Ammo shuni ham aytish kerakki, bu tilning ijtimoiyligini, uning jamiyat taraqqiyoti mahsuli ekanligini inkor etmaydi, balki uni yanada aniqroq namoyon qiladi. Chunki til belgilari ham butun bir jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgandir. Belgilar jamiyatdagi mavjud narsa, predmet va voqea-hodisalarni nomlash uchun xizmat qiladi. Ularning ba'zilar esa ana shular o'rtasidagi semantik-grammatik aloqani o'rnatish uchun qo'llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tilshunosligimizda, "til va nutq" dixotomiyasiga asoslangan tadqiqot ishlari anchagina bo'lishiga qaramay, til belgilarining nutqqa

ko‘chirilishi bilan bog‘liq muammolar endigina o‘rganilmoqda. Bu sohada izohlanishi lozim bo‘lgan masalalar hali ko‘p.

Insonlar ibtidoiy holatidan ilk madaniylashgan va ongli harakatlangan davrlaridan boshlab jamiyat hayotidagi o‘z yashash sharoitiga yangicha o‘zgarishlar qilishga kirishdi. Zero, bu davrda hayvonot dunyosidan farqli ravishda ularda aloqa-munosabat vositasi, aniqrog‘i mazmunli (madaniy holda) yashash uchun nutq (so‘zlashuv), ya‘ni til, nutq va yozuv hamda shu asosda ongli mehnat faoliyati paydo bo‘ladi. Til – nutq va yozuv ham ijtimoiy hodisa sifatida yuzaga kelib, u faqat insoniyatga xos belgi hisoblanadi, kishilik jamiyatidagina mavjud bo‘ladi va unga xizmat qiladi.

Tilga jahon tilshunosligida xilma-xil va juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Shunday ta’riflardan biri va eng ommaviylashgani: “til kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi” deb berilgan ta’rifdir. Lekin bu uning vazifasiga ko‘ra mohiyatini belgilab beradi. Tilning material nuqtai nazardan nimani taqozo etishining bunga aloqasi yo‘q. Bu jihatdan til o‘ziga xos murakkab sistemani tashkil etadi.

4-§. Vilgelm fon Gumboldt va Ferdinand do‘ Sossyurlarning til va tilshunoslik fanining o‘rganish sohasidagi fikrlari

Ko‘pchilik olimlarning e’tirofiga ko‘ra, umumiy tilshunoslikning asoschisi nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) hisoblanadi. U shu asosda tilshunoslik fanining asosiy masalalarini belgilab berishga intildi. V.Gumboldt ta’rificha, til murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sifat va xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir, shuning uchun ham tilni ilmiy o‘rganishda, uning haqiqiy mohiyatini tushunishda antinomiya (qarama-qarshilik) metodini qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

V.Gumboldt bask, malay-polinez tillari va Amerika hindularining tillari bo'yicha boy bilimga ega bo'lgan. Bu unga bilim doirasini favqulodda kengaytirishga, o'z kuzatishlaridan ko'pincha asosli va aniq xulosalar chiqarishga imkon beradi. Uning falsafiy-lingvistik qarashlari zamondoshlariga va o'zidan keyingi tilshunoslarga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

“Masalan, Bopp uni hurmat bilan tilga oladi, G.Shteyntal, G.Kursius, A.Bleyxer, K.Fossler, A.A.Potebnya, hatto mustaqil tilshunos hisoblagan I.A.Boduen de Kurteneday olim ham o'zlarini Gumboldtning shogirdi degan edilar” [S.Usmonov, 1972: 62].

Bunda o'zining tadqiqot dasturini bayon qiladi va qiyosiy metodning asosiy qoidalarini belgilab beradi.

V.Gumboldtning ayrim falsafiy-lingvistik qarashlari:

1.Gegel “Ruh falsafasi” (1817) asarida til haqida alohida fan yaratish kerak, degan fikrni nazariy jihatdan asoslab bergan bo'lsa, V.Gumboldt esa 1820 yilgi ma'ruzasida til haqida mustaqil fan yaratish zarurligi g'oyasini asoslab bergan.

2.Til hodisalarining o'zaro uzviy bog'liq ekanligini asoslab bergan. “Tilda,-deydi V.Gumboldt, – hech qanday ayrim hodisa yo'q. Tilning har bir alohida-alohida unsuri (elementi) o'zini bir butunning tarkibiy qismi sifatida namoyon qiladi”.

3.Tilning tovush tomoniga yuqori baho beradi: “Tilning tovushlari ifoda vositasidir, til uni tafakkur uchun yaratgan”.

4.Til bilan tafakkurning o'zaro uzviy bog'liq ekanligini ta'kidladi.

5.Til faqat jamiyatdagina mavjud va u faqat jamiyatdagina uzliksiz rivojlanib turuvchi faoliyat ekanligini bayon qiladi.

6.Til bilan nutqni farqlaydi, tilning umumxalq xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. Til ham, nutq ham qaysidir ma'noda ham individual ham ijtimoiydir.

7.Fridrix Shlegel kabi flektiv tillarni agglyutinativ tillardan yuqori qo'yadi. Ammo bu to'g'ri emas.

V.Gumboldtning lingvistik antinomiylari

Til bir butun holda o'zaro qarama-qarshi birliklar munosabatidan tashkil topadi. Bu esa o'z navbatida tildagi antinomiylarni taqoza etadi.

Til va tafakkur antinomiylasi:

1.Tilsiz tafakkur, tafakkursiz til bo'lmaydi. Har ikkalasi bir-birining taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Inson faoliyatida til va tafakkur bir-biridan ajralgan holda yashamaydi.

2.Tilning faoliyat va oldingi avlod faoliyatining mahsuli ekani antinomiylasi.

Til bir tomondan, bir kishi tomonidan nutq jarayonida yaratilgan narsa, ya'ni nutq jarayonida yaratilayotgan mahsulot sanaladi. Ikkinchi tomondan, til bu oldingi avlod faoliyati natijasi, jamiyatning mahsuli va merosidir.

3.Til va nutq antinomiylasi.

V.Gumboldt til va nutqning boshqa-boshqa narsa ekanligi haqidagi g'oyani olg'a tashlaydi. Til – nutq antinomiylasi tilning faoliyati mahsuli antinomiylasi bilan uzviy aloqadordir.

4.Nutq va tushunish antinomiylasi.

Nutq va tushunish bu til faoliyatining turli shakllari, nutqiy qobiliyatning ikki tomoni sanaladi. So'z faqat bir kishi nutqidagina aniq ma'nosiga ega bo'ladi. Jonli nutqda hech kim bir so'zni aniq bir ma'noda tushunmaydi.

5.Tilda ob'ektivlik va sub'ektivlik antinomiylasi.

Bir tomondan, yakka shaxs tilni oldingi avloddan tayyor holda qabul qiladi, ikkinchi tomondan, nutq jarayonida uni qayta yaratadi.

6.Tilda ijtimoiylik va individuallik antinomiylasi.

Tilni butun bir xalq yaratadi. Ammo yakka har bir kishining tafakkurida yashaydi. Alohida shaxslar nutqida

voqelanadi. Shu sabab ham, tilda ijtimoiylik va individuallik antinomiyasi mavjuddir.

7. Tilda zaruriylik va erkinlik antinomiyasi.

Til avloddan avlodga beriladi. Ayni paytda har bir shaxs va avlod uzluksiz individualdir. Ijtimoiy holda tildan foydalanish paytida har bir shaxs tilga ta'sir qiladi va unga yangi elementlar olib kiradi. Bu esa tilda zaruriylik va erkinlik antinomiyasini taqoza qiladi.

8. Belgining erkinligi va til elementlarining motivlangani antinomiyasi.

V. Gumboldt so'z sezgi a'zolarimizga ta'sir qiluvchi narsaning ekvivalenti emas deydi. Shu sabab ham bir narsani hamma tilda har xil so'z bilan nomlaymiz. Bu esa so'zning erkinlik belgisini ta'minlaydi. Til elementlari tilning ichki qonuniyatlariga, strukturasi moslashadi. Bu esa tilda belgining erkinligi va til elementining motivlanganlik antinomiyasining mavjudligini ko'rsatadi.

9. Tilda umumiylik va alohidalik antinomiyasi.


Til bir vaqtning o'zida alohida shaxsga hamda butun bir jamiyatga mansub bo'ladi. Til har bir shaxsning ongida yashaydi, taraqqiy etadi. Shu bilan birga til alohida bir shaxsga emas, butun bir jamiyatga taaluqlidir.

Ferdinand do' Sossyurning lingvistik qarashlari:

Nazariyotchi olim Ferdinand do' Sossyur (1857-1913)ning ilmiy g'oyasi tilning murakkab ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama ijtimoiy hodisa ekanligiga asoslangan.

F. do' Sossyur tilshunoslikning o'rganish ob'ekti nutqiy faoliyat bo'lishi kerak deydi. Shu bilan birga F. do' Sossyur birinchi bor, nutqiy faoliyat til va nutqdan tashkil topgan butunlik ekanligini isbotlab berdi. Shunday ekan, tilshunoslik nutqiy faoliyat bilan birga til va nutqni o'rganishi lozim. F. do' Sossyur til va nutqni mutloq farqladi, boshqa – boshqa hodisalar ekanligini ta'kidladi.

Tilshunoslik fanining chegarasini, predmetini aniqroq ta'riflash maqsadida F. do' Sossyur til bilan nutqni ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qo'ydi. Uning fikricha, til nutq faoliyatining faqat bir tomonini tashkil etadi. Til bilan nutqning asosiy farqi – til ijtimoiy, nutq esa individual hodisa ekanligidir. Bu fikr ham nisbiy bo'lib, bir tomonlama olib qaralganda to'g'ri. Aslida til ham, nutq ham ijtimoiy, ham individual hodisalardir. Til bilan nutqning o'zaro munosabatini F.do' Sossyur quyidagi sxemada ko'rsatadi:



Tilshunoslik nutq faoliyatini o'rganishi zarur. Chunki, til va nutq nutqiy faoliyatning mahsuli. F.do' Sossyur til lingvistikasi va nutq lingvistikasi deb ikkiga bo'ldi. Til lingvistikasini o'rganishni birinchi darajali, nutq lingvistikasini o'rganishni ikkinchi darajali vazifa qilib qo'ydi. Bu jadvalda ijtimoiy tabiati jihatidan qaralganda til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. I.Qo'chqortoyev "F.do' Sossyurning lingvistik konsepsiyasi" kitobida: "Tildan foydalanuvchi individni birinchi galda tilning hozirgi holati (sinxronik holati), tilda hozir mavjud bo'lgan vositalar sistemasi qiziqtiradi. Shu ma'noda tilning faqat sinxronik holati sistema hisoblanadi. Bu nuqtai nazar tilshunoslik fani uchun qanchalik muhim bo'lmasin, u tilning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi. Til ifoda ehtiyojlariga moslashib boruvchi qurol. Tilning ifoda talablariga moslashuvi nutq jarayonida to'xtovsiz amalga oshib boradi", – deb yozadi [I.Qo'chqortoyev, 1976: 30-31]. F.do' Sossyurning yuqorida keltirilgan jadvalida sinxroniya va diaxroniya tilga tegishli bo'lgan hodisalardir. Bizning

nazarimizda, tilning diaxronik holati ham sistemani taqozo etadi. Umuman til sof belgilar sistemasidir. Shuning uchun Ferdinand do‘ Sossyur “Til tafakkurni ifoda qiluvchi belgilar yig‘indisidan iboratdir”, – degan fikrni aytgan edi.

Til – ma’lum bir ijtimoiy jamoaga tegishli kishilarning nutqiy faoliyati orqali to‘plangan xazinadir. Bu har bir til egasi ongida virtual mavjud bo‘lgan grammatik sistema, to‘g‘rirog‘i, u individlar yig‘indisi ongida yashaydi. Chunki til hech bir alohida individda to‘liq mavjud emas, u to‘liq holda faqat jamoada mavjud bo‘ladi [F. do‘ Sossyur, 1977: 52]. Til jamoa tafakkurida mavjud bo‘lgan sistem xarakterli ijtimoiy hodisadir. Ma’lum bir kishi tafakkurida to‘liq holda namoyon bo‘lmaydi. Tilning yashash joyi, rivojlanadigan, taraqqiyot qiladigan joyi ham jamoa qolaversa, butun bir millat taffakkuri, ongidir. Shunday bo‘lgani uchun ham til ijtimoiy hodisadir.

Ma’lumki “Yosh grammatikachilar” psixologizm ta’sirida tilni yakka shaxsning tasavvurlari tizimi sifatida talqin qilar edilar. XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida unga zid ravishda tilning fikriy aloqa vositasidan iborat ijtimoiy vazifasini, ijtimoiy mohiyatini ta’kidlashga intilish kuchayadi. Bu intilish Dyurkgeym va Levi-Byurlning g‘oyalarida o‘zining falsafiy tayanchiga ega bo‘ladi. Natijada F.do‘ Sossyur va uning shogirdi Antuan Meye tomonidan sotsiologizm oqimiga asos solinadi. Ular buni “ijtimoiy tilshunoslik” deb ataydilar.

Bu oqim o‘ziga fransuz tilshunoslari Jozef Vandries, Sharl Balli, Albert Sheshe, norvegiyalik Alf Sommerfeldt, Emil Benvenist kabi mashhur olimlarni birlashtiradi.

Sotsiologizm oqimining asosiy qoidalari, F.do‘ Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” nomli asarida ¹

¹ Каранг:Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики / Пер. с французского А.М.Сухотина, под редакцией и с примечаниями Р.И.Шор. – М.: Едиториал УРСС, 2004.-256 с.

bayon qilinadi va muallif shu asari bilan jahon tilshunosligida mashhur bo‘ladi.

“Umumiy tilshunoslik kursi” Sharl Balli va Albert Sheshelarning ustozdan tinglagan va yozib olgan ma’ruzalarining 1916-yilda nashr qildirgan to‘plamidir. Bu asar dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Birinchi marta rus tiliga 1933-yilda tarjima qilinib nashr etilgan va keyinchalik qayta-qayta rus tilida nashrdan chiqqan². F.do‘ Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” nomli asari fransuz tilidan o‘zbek tiliga mohir tarjimon, nazariyotchi olim, filologiya fanlari doktori, professor I.Mirzayev tomonidan to‘liq tarjima qilinib 2019-yilda nashrdan chiqdi³.

Bu asarning o‘zbek tiliga asliyatdan tirjima qilinishi nazariy tilshunosligimiz uchun katta voqelik sifatida baholanmog‘i lozim.

Ferdinand do‘ Sossyurning ayrim qarashlari:

1. Tilshunoslik faninig ob’yekti tildir. Til ko‘p qirralidir: vazifasiga ko‘ra til fikriy aloqa vositasidir. Demak, til ijtimoiy hodisadir; ichki tuzilishiga ko‘ra til belgi tizimidir.

2. F.do‘ Sossyur tashqi va ichki tilshunoslikni farqlaydi, ularni bir-biriga qarshi qo‘yadi. Ular o‘zaro aloqador emas degan munozarali fikrni aytadi. Tashqi va ichki tilshunoslik farqli, ularni bir-biriga qarshi qo‘yish to‘g‘ri, ammo ular o‘zaro aloqador.

3. F.do‘ Sossyur tilda uch nuqtai nazarni farqlaydi: a) Til – nutq, b) til shakllar sistemasi sifatida ma’no tashiydi. Til belgisi ifoda va ma’no tomoniga egadir, v) individual nutqiy akt – aytilgan hodisa, aytilish, aytilgan gap.

² Каранг: Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике / Пер. с фр. Б.П.Нарумова. – М.: Прогресс, 1990. – С. 44.

³ Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. –Тошкент, 2019. –308 б.

4. F.do‘ Sossyur tilda sinxroniya (hozirgi) va diaxroniya (tarixiy) aspektni farqlaydi.

5. F.do‘ Sossyur til bilan nutqni farqlar ekan, shu bilan bog‘liq holda fonemani til hodisasi, tovushni esa nutq hodisasi sifatida talqin qiladi.

6. F.do‘ Sossyur til (nutq) birliklari orasidagi munosabatlarning ikki qarama-qarshilikdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Bular paradigmatic va syntagmatic munosabatlardir. Paradigmatic munosabatda til birliklari bir paradigmaga vurtual chiziq bo‘yicha joylashadi. Paradigmatic munosabat til birliklarining nutqqa ko‘chirilgungacha bo‘lgan holatidir.

Sintagmatic munosabatda til birliklari, gorizontal chiziq bo‘yicha joylashib, so‘zlar bir-biri bilan semantik-grammatik munosabatga kirishib, so‘z birikmasi yoki gapni hosil qiladi.

7. F.do‘ Sossyur til haqidagi fanni semiotika yoki semiologiya deb atashni tavsiya qiladi. Chunki, uningcha, til sof belgilar tizimi, yoki semiotik tizimdir.

Xulosa qilib aytganda, F.do‘ Sossyur jahon tilshunosligi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan. Uning tilshunoslik merosi zo‘r qiziqish bilan o‘rganilmoqda va u hozir ham umumiy tilshunoslik taraqqiyotiga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

F.do‘ Sossyur tomonidan asoslangan sistem-struktur tilshunoslik o‘tgan yillar mobaynida o‘nlab yangi-yangi lingvistik oqim va maktablarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi [A.Rahimov, 2015: 30].

Tilshunoslikda sotsiologizm oqimi F.do‘ Sossyurdan keyin mustahkamlandi, tilshunoslikning sotsiolingvistika sohasi shakllandi. Shu sohaga doir turli ilmiy asarlar va darslik-qo‘llanmalar yaratildi.

5-§. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi

“Tilshunoslik chinakam fan sifatida faqat XIX asrning boshlarida shakllandi. Bunga uch xil tarixiy sharoit sabab bo‘ldi.

Birinchidan, fanga tarixiy yondoshish paydo bo‘ldi. Til dalillari tarixiylik tamoyili asosida izohlana boshladi.

Ikkinchidan tilshunoslik faniga romantizm qarashlari ta’sir ko‘rsatdi.

Uchinchidan, sanskrit tili bilan tanishish qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi” [S.Usmonov, 1972: 58].

Bulardan tashqari, nemis olimi Fridrix Shlegel (1772-1829) erishilgan nazariy o‘rganish g‘oyasini ilmiy ravishda mustahkamladi. U 1808-yilda nashr qilingan “Hindlarning tili va donoligi haqida” nomli mashhur asarida birinchi bo‘lib “qiyosiy grammatika” atamasini (terminini) qo‘lladi. Shlegel bu asarida lotin, grek, german va fors tillarini sanskritga qiyoslash natijasida ularning leksik-grammatik jihatdan tarixan qarindosh ekanligini ko‘rsatib berdi. Shlegel sanskritni turkiy tillarga ham qiyoslagan. U o‘zi tekshirgan tillarni grammatik qurilishi jihatdan flektiv va qo‘shimcha oluvchi tillarga ajratdi. Bu bilan u jahon tillarining tipologik (morfologik) tasnifiga asos soldi.

Ko‘rinadiki, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishida Shlegel asarining mazmun va mundariyasi yanada muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Aslida qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devoni lug‘atit turk” asari bilan dastlabki qadamlarni qo‘ygan. Ammo, Yevropalik olimlar bu asar bilan tanish bo‘lmagan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik haqida gapirganda shu sabab ham Mahmud Koshg‘ariyni e’tibordan chetda qoldirishgan.

Mutaxassislar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik tarixini uning mazmun va mundarijasi asosida shartli ravishda to‘rt davrga bo‘ladilar:

1.Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik yaratilgandan boshlab yosh grammatikachilar maktabi qarashlarining shakllanishigacha bo‘lgan davr (XIX asrning birinchi choragi – 1870-yil).

2.Yosh grammatikachilik qarashlarining hukmronlik davri (XIX asrning 70-90-yillari).

3.F.do‘ Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” (1916) nomli asari maydonga kelgungacha va xett yozma yodgorliklari o‘qilgangacha bo‘lgan davr (XIX asr oxiri va XX asrning dastlabki ikki o‘n yilligi).

4.F.do‘ Sossyur g‘oyalari tarqalgan vaqtdan bizgacha bo‘lgan davr.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga bitta muallifi noma‘lum asar va 4 ta aniq mualliflarning asarlari asos bo‘lgan. Ular Frans Bopp, Rasmus Rask, Yakob Grimm ba A.X.Vostokovlardir.

1.1811-yilda Rossiyada muallifi ko‘rsatilmagan holda “Sanskrit tilining rus tili bilan o‘xshashligi haqida” nomli asar nashr qilingan.

Unda slavyan, lotin, grek va german tillarining ichki tuzilishi qiyoslangan. Ular o‘rtasidagi o‘xshashliklar va farqlar ko‘rsatib berilgan.

2.Frans Bopp (1791-1867) 1816-yilda “Sanskritning tuslanish sistemasini, uni grek, lotin, fors va german tillarining tuslanish sistemasiga qiyoslash” nomli asarini nashr qildiradi. Bu bilan tilshunoslikka “Hind-yevropa tillari” tushunchasini va terminini olib kiradi. Muallif bu asarida faktlarni qiyoslash usuli bilan tillarning “ibtidoiy holati”ni tiklash mumkin va men tillarning “ibtidoiy-holati”ni tiklashga yaqinlashyapman, degan fikrni olg‘a suradi.

Frans Bopp 1833-1852-yillarda “Sanskrit, zend, arman, grek, lotin, litva, beski, slavyan, got va nemis tillarining qiyosiy grammatikasi” nomli uch tomlik asarini nashr qildirdi. Bu uning asosiy ilmiy ishi hisoblanadi. Unda muallif tillardagi flektiv shakllarning dastlabki manbalarini ochishga harakat qiladi. Ammo amalda qiyosiy tilshunoslikni yaratadi. U fleksiya tushunchasini faktlar tahlilida mustahkamlaydi. Tillarning grammatik qurilishini “organizm” deb ataydi. Bunda til elementlari o‘zaro bog‘liqdir degan g‘oya bor.

Xett yozma yodgorliklarini 1916-yilda chex olimi Bedrjix Grozniy o‘qigan. Shundan keyin Xett tilini o‘rganishga qiziqish ortadi. Natijada keyinchalik tilshunoslikda xettologiya sohasi shakllanadi.

Frans Bopp tillarning grammatik qurilishini qiyosiy-tarixiy metod asosida chuqur o‘rganish natijasida o‘zining tipologik tasnifini taklif qiladi.

Tilshunoslik tarixi mutaxassislarining qayd qilishlaricha, Frans Bopp agglyutinatsiya nazariyasining asoschisidir.

3.Rasmus Rask (1787-1832) ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yaratilishiga munosib hissa qo‘shgan. U tilshunoslik tarixini qunt bilan o‘rgangan, ayni vaqtda ijodiy, tanqidiy o‘rganishga harakat qilgan. Masalan, u 24 yoshida nashr qildirgan “Island tili bo‘yicha qo‘llanma” nomli birinchi asarida mantiqiy grammatikaning ayrim tamoyillarini asosli ravishda quyidagicha tanqid qilgan.

“Grammatikaning vazifasi so‘zlarni qanday yasash haqida ko‘rsatma berish emas, balki so‘zlarning qanday yasalishini va o‘zgarishini tasvirlashdir” [N.A.Kondrashov, 1979: 42].

Rasmus Rask ilmiy jamoatchilikka asosli ravishda 1818-yilda nashr qilgan “Qadimgi shimol tili sohasida tadqiqot yoki island tilining kelib chiqishi” nomli asari bilan tanildi. Unda muallif german tillarining slavyan tillarining, litva, lotin va grek tillarining tarixan o‘zaro qardoshligini isbotlagan. Ayni

vaqtda Iskandinaviya tillarining boshqa Hind-yevropa tillariga qardoshligi va iskandinaviya tillarining kelib chiqishi bilan ham qiziqqan.

Rasmus Rask grammatik va leksik qiyoslashlarga ko'proq e'tibor bergan. Frans Boppdan farq qilib, o'z oldiga katta muammolarni hal qilish vazifasini qo'ymagan. O'zi qiyoslayotgan tillarning dastlabki shakllarini tiklash bilan shug'ullanmagan. Rasmus Rask sanskritga murojaat qilmagan.

4.Yakob Grimm (1785-1863) ham 4 tomlik nemis tili grammatikasi bilan qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka munosib hissa qo'shdi. Muallif nemis tilini barcha german tillariga qiyoslash yo'li bilan nemis tilining tarixiy grammatikasini yaratdi. Bunda muallif tahlilni qo'lyozmalardagi til faktlaridan boshladi. Tilni tabiiy organizmga, moslashtiradi, o'xshatadi.

Yakob Grimm "Nemis tili tarixi" (1848) asari bilan ham mashhurdir.

Yakob Grimm german tillarining grammatik shakllarini tarixiy taraqqiyot jarayoni nuqtai nazaridan yoritib berdi. U fanda birinchi bo'lib tovushlarning o'zgarishi ma'lum qonuniyat asosida yuz berishini isbotlashga harakat qildi va shunga binoan til taraqqiyotini asosan nutq tovushlari o'zgarishida ko'rdi.

Yakob Grimm til bilan xalq, til tarixi bilan xalq tarixi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri tushungan. U "Nemis tili tarixi" asarida shunday deydi: "Xalqlar haqida suyaklar, qurollar va mozorlarga qaraganda jonliroq bo'lgan guvoh bor." Bu ularning tilidir. Til –inson ruhining nafasidir.

Yakob Grimm tilning paydo bo'lishi bilan ham qiziqqan va 1931-yilda "Tilning paydo bo'lishi haqida" nomli asarini nashr qildirgan. Unda muallif yangi tillarning qadimgi tillardan yomon emasligini ta'kidlaydi, ammo undov nazariyasini quvvatlaydi.

5.A.X.Vostokov (1781-1864) qiyosiy-tarixiy metod asoschilari qatoriga slavyan tillari materiallari bo'yicha mansubdir. U tilshunoslik tarixida quyidagi kabi asarlari bilan mashhurdir:

- 1.“Slavyan tili haqida mulohazalar” (1820).
- 2.“Rus tili grammatikasi” (1931).
- 3.“Rumyansev muzeyidagi rus va slavyan qo'lyozmalarining tasviri” (1343).
- 4.“Ostromirovo Evangeliyasi”(1843).
- 5.“Buyukrus viloyati tili lug'ati bo'yicha tajriba” (1852).
- 6.Ikki tomlik “Cherkov-slovyan tili lug'ati” (1858-1861).

A.X.Vostokovning “Slavyan tili haqida mulohazalar” nomli asari slavyan tillarining tarixiy fonetikasi bo'yicha birinchi ilmiy ish hisoblanadi. Unga muallif qadimgi slavyan tilida alohida burun unlisi bo'lganligini isbotlab bergan. Eski rus tilining eski slavyan, polyak, serb tillariga tarixan bo'lgan munosabatini yoritgan hamda slavyan va rus tillarining taraqqiyot davrlarini belgilagan: qadimgi (IX-XIV), o'rta davr (XV-XVI) va yangi davr.

A.X.Vostokov rus tilining grammatik qurilishi sohasida ham chuqur kuzatishlar olib borgan. Natijada nemis tilshunosi Karl Bekker qarashlari asosida rus tilining to'rtta gap bo'lagi: sub'ekt, predikat, ob'ekt, atribut haqida birinchi bo'lib ma'lumot bergan.

6-§. Intralingvistika

Intralingvistikani ichki lingvistika deb ham tushunsak bo'ladi. Intralingvistika til birliklarining sistem aloqasini, munosabatini tashqi lingvistikaga bog'liq bo'lmagan holda o'rganadi. Ichki lingvistikaning o'rganish ob'ekti fonologiya, leksikologiya va grammatika sanaladi. Tovushlar birikib sistem aloqa hosil qilishi jarayoni tadqiq qilinadi. Har qanday tovush to'g'ri kelgan ikkinchi tovush bilan birika olmaydi. Bu

yerda ham ma'lum qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu qonuniyatlar ichki lingvistikada o'rganiladi.

7-§. Ekstralingvistika

Ekstralingvistikani tashqi lingvistika deb ham ataymiz. Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq tarzda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi. Til juda murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, bugungi taraqqiyot bosqichiga kelguncha ko'plab faktorlar ta'sirida bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar tilning rivojlanishi uchun muhim vazifani bajaradi.

Nazorat uchun savollar:

1. Tilshunoslik bilimi nazariyasining o'rganish ob'eti haqida nimalarni bilasiz?

2. Tilshunoslikka kirish fanining asosiy tekshiruv ob'ekti nimalardan iborat?

3. Umumiy tilshunoslikda qanday masalalar o'rganiladi?

4. Mikro va makrolingvistikalar haqida ma'lumot bering.

5. Til sistemasi va uning asosiy unsurlari nimalardan iborat?

6. Semotika deganda qaysi sohani tushunasiz? Til belgisi deganda -chi?

7. Jamiyat taraqqiyoti va insonlarning ongli harakati, o'zaro munosabatida til-nutq va yozuvning muhim o'rni haqida nimalarni bilasiz?

8. Til qanday fanlar bilan uzviy aloqador?

9. Tilning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?

10. Tilning material asosini nima tashkil etadi?

11.Ferdinand do‘ Sossyur va Vilgelm fon Gumboldtlarning til va tilshunoslik fanini o‘rganish sohasidagi fikrlarini aytib bering?

12.Komporativistikaning asoschilari kimlardan iborat?

13.Frans Boppning qiyosiy – tarixiy tilshunoslik sohasidagi xizmatlari nimalardan iborat?

14.Rasmus Raskning qiyosiy – tarixiy tilshunoslik sohasidagi xizmatlarini sanang?

15.Yakov Grimning qiyosiy – tarixiy tilshunoslik sohasidagi xizmatlari haqida gapiring?

16.Aleksandr Vostokovning qiyosiy – tarixiy tilshunoslik sohasidagi xizmatlari haqida nimalarni bilasiz?

17.Tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi hamda tilning ijtimoiy hodisaligi haqida “Yosh grammatikachilar “ fikrlarini izohlang?

Tayanch so‘z va birikmalar:

Tilning ichki tuzilishi, tillarning tasnifi, til va tafakkur, til va jamiyat, lingua, tilning tuzilishi, tilning sistemasi, lingvistik tipologiya, universallik nazariyasi, makrolingvistika, mikrolingvistika, me‘yor, fonetik me‘yor, talaffuz me‘yori, so‘z yasash me‘yori; morfologik me‘yorlar, sintaktik me‘yorlar, uslubiy me‘yorlar, lug‘aviy me‘yorlar.

Adabiyotlar:

1.Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –308 б.

2.Қўчқортоев И. Ф. дў. Соссюрнинг лингвистик концепцияси. –Тошкент, 1976 йил. 36 б.

3.Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. - Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. 190 b.

4.Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –T. 2007. 177 b.

5.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017 yil, 312 b.

6.Nurmonov A. Tanlangan asarlar, 2-jild. Lingvistik ta’limotlar tarixi. –Toshkent, 2012 yil, 232 b.

7.Қудратов Т.Нутқ маданияти асослари. –Т.: “Ўқитувчи”, 1993. 35-б.

8.Бушуй Т. Язык в истории развития человеческой мысли. –Т.: Фан, 2011.–384 с.

9.Усмонов С. Умумий тилшунлик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. 208 б.

10.Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. –Труды по общему языкознанию. –М.: «Прогресс», 1977, с.39.

11.Соссюр Фердинанд де. Курс общей лингвистики / Пер. с французского Сухотина А.М., под редакцией и с примечаниями Шор Р.И. –М.:Едиториал УРСС, 2004. –256 с.

12.Соссюр Ф. де. Заметки по общей лингвистике / Пер. с фр. Нарумова Б.П. –М.: Прогресс, 1990. – С. 44.

13.Rahimov A. Umumiy tilshunoslik kursi. – Samarqand, 2015. 123 b.

14.Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. –М.: Просвещение, 1979. 224 с.

15.Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. Ярцева В.Н. – 2-е изд., доп. – М. : Большая рос. Энцикл., 2002. 709 с.

TILNING IJTIMOIIY TABIATI

8-§. Til va jamiyat. Til taraqqiyotining jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi

Til ijtimoiy hodisami, tabiiy hodisami degan savollar tilshunoslik tarixida ko'p martalab bahs munozaralarga sabab bo'lgan. Nemis olimi Avgust Shleyxer naturalizm oqimiga asos soldi va tilga ham tabiiy hodisa deb qaradi. Naturalizm oqimi tushunchasi bo'yicha tillar ham xuddi odamlar kabi tug'iladi, yashaydi, boiydi, qariydi va o'ladi deyildi. Albatta, tilga bunday baho berish noto'g'ri tushuncha edi. Materialistlar uzil-kesil til tabiiy hodisa degan g'oyani rad etadi. Til jamiyatni taqoza etuvchi ijtimoiy hodisa deb qarashadi. Chunki til otadan qon bilan, onadan sut bilan o'tmaydi. Aytaylik, o'zbek xanodonida tug'ilgan bolani nemislar tarbiyalab olsa tili nemischa chiqadi, nasldan naslga o'tganda o'zbekcha chiqishi kerak edi. Bu narsani Hindistonda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar ham tasdiqlaydi. Bo'rilar to' dasida yashagan bolalarning tili chiqmaganligi ham til bo'lishi uchun jamiyat bo'lishi kerak ekanligining isbotidir. Til genetikaga bog'liq emas, insonning xarakteri, antropologik tuzilishi avloddan avlodga o'tadi. Genetika fanida til va jamiyat emas irsiyat o'rganiladi. Til va jamiyatni esa sotsiologiya fani o'rganadi.

Til va jamiyat o'rtasida uzviy aloqa mavjud. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat bilan chambarchas bog'liq.

Til jamiyatda rivojlanadi, uning grammatik qurilishi ham takomillasha boradi.

Til jamiyatda odamlar o'rtasidagi aloqani shakllantiruvchi ijtimoiy hodisadir. Odamlar bo'lsagina tilga ehtiyoj sezamiz. Demak til jamiyatdagina yashaydi, rivojlanadi, taraqqiy qiladi. Shu sababli ham til ijtimoiy hodisadir. Jamiyatning umri tilning umri bilan barobar bo'ladi. Til jamiyat bilan birga

yashaydi, jamiyat o'lsagina til ham o'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

9-§. Kishilik tarixida urug'dosh til, qabila tili, elat, xalq va millat tili

Bugungi kunda jahonda www.ethnologue.com saytida berilgan ma'lumotga ko'ra, 7097 til va sheva bor. Sof tillar 3000 tadan ko'proq. O'ntadan kam odam gaplashadigan tillar soni 500 tadan ko'proq. O'z-o'zidan ko'rinadiki sheva va lahjalar soni sof tillar sonidan anchagina ko'p. Qadim zamonda albatta, tillar soni ko'p bo'lmagan. Odamlar ko'payishi natijasida bir joydan turli tomonlarga siljishi yoki ko'chishi oqibatida shevalardan urug'dosh til, qabila tili, elat, xalq va millat tili paydo bo'lgan. Shu sababli ham tillar oilalarga birlashayapdi. O'z navbatida bir-biriga o'xshaydi. Komporativistikaning kashf qilinishi butun dunyo tillarining geniologik tasnifini yaratish imkonini berdi. Shevalardan yangi-yangi tillarning paydo bo'lishi odamlar o'rtasidagi kishilik jamiyatidagi ming yillar davomida bir-birini ko'rmaslik, aloqa qilmaslik oqibatidan kelib chiqqan.

Xalq tili ma'lum bir o'ziga xos belgi, xususiyatlari bilan umumiy birlikka ega bo'lgan tildir. U til taraqqiyotining qadim davrlarida shakllanish jarayonida bo'lib, rivojlanib kelgan. Bu til shakli hozir ham mavjud. Jumladan, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki davrlarida urug', qabila va elat tillari sifatida shakllanib kelganligi kuzatildi. Urug', qabila va elatlarning birlashuvidan xalq yuzaga kelgach, ularning tillari ham xalq tiliga aylandi. Boshqacha aytganda, tarixiy taraqqiyotning ma'lum davrlarida qo'llanib, rivojlanib kelgan urug', qabila, elat tili (lahjalari) keyinchalik umumbirlikka ega bo'lib, xalq tili yoki umumxalq tili tarzida shakllandi. Demak, umumxalq tili etnos (xalq)ning shakllanish davri bilan yuzaga

keladi. O‘zbek xalqining shakllanish jaryoni haqida taniqli o‘zbekshunos olim akademik K.Shoniyozovning fikri xarakterlidir. U o‘zbek xalqining etnik sifatida shakllanish jarayonini uch bosqichga bo‘ladi: 1-bosqich –IX-X asrlar; 2-bosqich –X asr o‘rtalaridan to XI asr o‘rtalarigacha; 3-bosqich –XI asr o‘rtalaridan to XII asr o‘rtalarigacha. Ana shu davrlarda etnosga (xalqqa) xos barcha omillar me‘yoriga yetib, o‘zbek xalqi shakllangan [K.Sh.Shoniyozov, 2001: 337-338]. S.Malovning fikricha “Etnik”ning shakllanish jarayoni VII-IX asrlar bilan belgilash mumkin, zero qadimgi bitiklarda “elat” va budun (ya’ni xalq) atamaları mavjud [S.E.Malov, 1952: 50]. Qolaversa ilk etnik birlik urug‘ – qabilalar davridan boshlangan. Bu davrlarda ilk etnik uyushma yuzaga keladi. Shuning uchun bu uyushmani etnik uchun etnogeneznining boshlanish davri deb qarash mumkin. Bu albatta bizning mulohazamiz. Shunga ko‘ra, xalq tilining shakllanish jarayonini, taraqqiyot bosqichlarini belgilasa bo‘ladi.

Jumladan, urug‘, qabila, elat va xalq tili umumxalq tilining ilk bosqichi hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi ilmiy manbalarda bu til ko‘rinishlari umumxalq tilining quyi shakli sifatida qaralib, “lahja-dialekt va shevalar” nomi bilan atala boshlandi. Demak, (urug‘, qabila, elat va xalq tiliga xos) “sheva”, “lahja”, “dialekt” kabi tushunchalar umumxalq tilining ilk yoki quyi bosqichini ifodalovchi shakl sanaladi. Ular “yozuv tili”dan oldin ham, “yozuv tili”dan keyin ham umumxalq tilining keyingi ko‘rinishlarini xalq og‘zaki ijodi va jonli so‘zlashuv tilining yozma shaklini, ayniqsa, o‘zbek adabiy tili, milliy o‘zbek adabiy tili kabi yuqori ko‘rinishlarining yuzaga kelishida ham asosiy manba bo‘ldilar.

Xalq tilidagi qayd etilgan “sheva, lahja, dialekt, xususan, adabiy til, milliy til” kabi tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari o‘zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta’riflari bo‘yicha ilmiy manbalarda juda ko‘p fikrlar mavjud.

Ularning ba'zilar to'g'ri talqin etilgan bo'lib, ayrimlari hali ham munozaralidir.

Xalq tilining quyi shakl (sheva, lahja dialekt va so'zlashuv tili kabilar) ilmiy adabiyotlarda to'liq va ancha yaxshi talqin etilgan. Ammo ba'zan "lahja" atamasining mazmuni aniq ifodalanmay qolgan. Ayrim ishlarda "lahja" ba'zan "sheva" ma'nosida, ba'zan esa "dialekt"ga tenglashtiriladi. Ilmiy manbalarda yozilishicha, "sheva, lahja va dialekt" tushunchalari umumxalq tilining o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan mahalliy hududlar doirasidagi xalq tilining quyi shaklini ifodalaydi. Dialekt shevalar yig'indisi bo'lib, bir necha shevalardan tashkil topadi. Lahja esa o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda keng va tor ma'nolarda qo'llanilgan: keng ma'noda "dialekt", tor ma'noda esa "sheva" o'rnida ishlatilgan. Bu atama ko'pgina ilmiy manbalarda "dialekt" tushunchasi bilan teng ma'noda qo'llangan. Aslida bu atama arabcha "lahja" – o'zbekcha "sheva" demakdir. Demak, "lahja" so'zi ko'p hollarda "dialekt" atamasi ma'nosiga teng kelmas ekan.

So'zlashuv tili tushunchasi – tilning nutq jarayoni bilan bog'liq bo'lgan umumxalq tilining o'ziga xos shaklidan biridir. So'zlashuv tilining boshqa til shakliga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari, tomonlari, shakllanish va ta'rifi, ayniqsa, atamasi kabi masalalarda anchagina munozarali fikrlar bor. Tilshunoslikda "so'zlashuv" tilining atamasi uzil-kesil hal etilgan emas. Jumladan, bu tushuncha bilan bog'liq bo'lgan "so'zlashuv tili", "jonli so'zlashuv tili", "adabiy so'zlashuv tili", "og'zaki so'zlashuv tili", "xalq og'zaki tili", "jonli xalq tili" kabi shakllardagi atamalar to'g'risida aytilgan fikr va mulohazalar fikrimiz dalilidir.

Ba'zan bu atamalar ifodalagan tushunchaning nutqiy hodisalariga qarab, ilmiy manbalarda "so'zlashuv nutqi", "jonli so'zlashuv nutqi", "kundalik so'zlashuv nutqi", "og'zaki nutq"

kabi qator atamalar bilan yuritilganligini kuzatamiz. Bu haqda B.O‘rinboyevning “O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari” kitobida batafsil fikr bildirilgan. Olim o‘z kitobida ilmiy adabiyotlardagi bu atamalar haqida bayon etilgan fikr-mulohazalarni birma-bir tahlil etib, bu borada ma‘lum bir xulosaga kelgan [B.O‘rinboyev, 1974: 12-13]. Lekin, bu haqda ba‘zi bir mulohazalar ham bor. Jumladan, “so‘zlashuv nutqi” atamasi o‘rnida ko‘pchilik ilmiy adabiyotlarda qo‘llanilgan “jonli so‘zlashuv nutq” yoki “jonli so‘zlashuv tili” atamasidan birini qo‘llash ma‘qulroq deb o‘ylaymiz. Buni quyidagicha izohlash mumkin: “so‘zlashuv nutqi” til taraqqiyotining oldingi davrlardagi shakl qanday tarzda aks etganligini kuzatib bo‘lmaydi. Uni faqat yozma manbalardagina qisman aks etganligini kuzatish mumkin. Bu atama nisbatan mavhum va umumiylikka ega. “Jonli so‘zlashuv tili” esa hozirgi, ya‘ni ob‘ekt va sub‘ektning muloqoti davom etayotgan payt, ko‘z o‘ngida suhbatlashish mavjud bo‘lganligi uchun u haqda to‘liq tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Bizningcha, har ikkala holatni ham bitta atama bilan qo‘llash qulayroqdir.

To‘g‘ri, B.O‘rinboyev “so‘zlashuv nutqi” atamasini qo‘llashni behuda tanlamagan. Bu fikrni ham ko‘pgina olimlar ma‘qul topishgan. Haqiqatdan ham, “so‘zlashuv tili”, qayd etilganidek, inson tilning nutqiy shakl, og‘zaki ko‘rinishidir. Ammo, har bir nutq til bilan ifodalanadi, tilning og‘zaki shakli sanaladi, tilsiz nutqning bo‘lishi mumkin emas. Til barcha xildagi so‘zlashuv ko‘rinishlarini – xoh u og‘zaki bo‘lsin, xoh u yozma shaklda bo‘lsin – o‘zida mujassamlashtirgan asosiy manba sanaladi. Til va nutq bir-biriga bog‘liq hodisalardir. Ularni bir-biridan tamoman ajratib qarash asossizdir. Lekin ular bir xil hodisa emas. Til nutq uchun moddiy materialdir. Shu material asosida nutq tashkil topadi. Tildagi hamma narsa til jamoasi uchun umumiy bo‘ladi. Tilda ruhiy va moddiy material mavjud. Fonema, morfema, leksema (so‘z) kabilar

kishi xotirasida mavjud bo'lgan obrazlar, ruhiy material hisoblanadi. Nutq yaratilayotgan yaratilishi yoki yuzaga chiqishi uchun ma'lum tovush to'plami (kompleksi)da namoyon bo'ladigan ma'no ifodalashda qo'llanadigan fonemalar, morfemalar, so'z shakl, so'z birikmalari va gaplar unga moddiy material sanaladi. Bu moddiy material hamisha til qobig'ida, ongda saqlanadi. Bundan til bir tomondan moddiy hodisa bo'lsa, ikkinchi tomondan ruhiy hodisadir, degan xulosa kelib chiqadi. Tilning ruhiy hodisaligini uning ongda saqlanishi ko'rsatadi. Uning moddiyligini esa nutq jarayonida yuzaga keluvchi mavjud tovushlar belgilaydi. Biz xotiramizda saqlangan qoidalaridan tezkorlik bilan foydalanib, biror fikrni yuzaga chiqarish uchun so'zlar va grammatik ma'no tashuvchi morfemalardan so'z shaklni va gaplarni hosil qilamiz. Masalan, miyamizda noxosdan biror bir hodisa yoki narsani bilish fikri tug'ildi, deylik. Miyamizda yuzaga kelgan bu fikr savol tariqasida yuzaga chiqadi. Bu fikrni aytish jarayonida ongimizdagi alohida fonema, morfemalarni qabul qilib so'z shaklga – leksemalarga aylanadi va gap tartibi shakllanadi. Til ruhiy hodisadan moddiy hodisaga aylanadi. Bu jarayon tugashi bilan tilga tegishli narsalar (materiallar) yana alohidalik holiga (alfavit tartibidagi tovushlarga) qaytadi va ongimizda so'z boyligi tarkibini hosil qiluvchi til materiali tarzida saqlanaveradi.

Demak, ma'lum til jamoasidagi kishilar ongida tovush obrazlari sifatida saqlanadigan va hamma vaqt haqiqatga aylanishga tayyor turgan fonema, morfema, leksema (so'z), gap va ular bilan bog'liq bo'lgan turli lisoniy qoidalar, gaplarning modellari tilga tegishlidir. Tilga oid narsalar chegaralangan miqdordadir. Ularning soni turli tillarda turlicha bo'ladi. Qaysi tilda til vositalari nisbatan ko'p bo'lsa, o'sha til boy hisoblanadi. Jamoa hayotining butun sohalarini o'zida qamragan til jamiyat taraqqiyoti bilan rivojlanib boradi.

Jamiyat ehtiyojiga javob bermay qolgan til elementlari iste'moldan chiqib boradi, ular o'rnida yangi ifoda vositalari paydo bo'ladi.

Tilda paydo bo'lgan yangi narsalar dastlab ayrim jamoa shaxslari nutqida ko'rinadi, so'ng asta-sekinlik bilan butun jamoa ongiga singadi. Ana shundan keyin, uni hamma bir xil anglaydigan, talaffuz etadigan bo'lgach, u umumtil ixtiyoriga o'tadi. Bunday hodisalar avval so'zlashuv tilida namoyon bo'ladi. "So'zlashuv tili" qadimdan mavjud bo'lib, uning qadimiy shakli faqat tarixiy yozma manbalarda va xalq og'zaki ijodiyotidagina saqlanib qolgan. Hozirgi shakl mavjud nutqimizda "jonli so'zlashuv tili" shaklida qo'llanib kelinmoqda. Demak, "so'zlashuv tili" tushunchasida umumiylik (qadimgi va hozirgi), "jonli so'zlashuv"da esa faqat hozirgi, ko'z o'ngimizda mavjud bo'layotgan tushuncha anglashiladi.

So'zlashuv tili xalq tilining barcha ko'rinishlari kabi og'zaki va yozma shakllarda qo'llaniladi. Uning og'zaki ko'rinishi yozuvdan oldin ham qo'llanilgan. Bu davrlarda u yozma shaklning vazifasini bajargan. Jumladan, xalq og'zaki ijodiyotida, sheva va dialektlar (urug', qabila tillari)ning o'zaro umumiy muomalasida keng qo'llanilgan. Chunki, u sheva va dialektlardagi umumiy, ko'p tomondan bir xilda shakllangan til xususiyatlarini o'zida singdira borgan. Xuddi shu xususiyat yozuvdan so'ng ham davom etgan. Shu sababli yozuv paydo bo'lgan davrlarda so'zlashuv tilining har ikkala shakldagi til xususiyatlari, deyarli farqlanmagan. Til taraqqiyotining ma'lum davrlariga kelib, adabiy til shakllanib, o'z mavqeiga ega bo'la borishi, ayniqsa, umumturkiy til va umumturkiy adabiy til davrlaridan boshlab, ular o'rtasidagi farqlar ancha kuchaya borgan. Xalq tillari va ularning o'ziga xos adabiy va milliy adabiy tillarining shakllanishi davrlarida esa so'zlashuv tilining shakl o'rtasidagi munosabat o'zgardi.

To'g'ri, ushbu ta'riflarda "ishlangan / ishlanmagan", "silliqlashgan / silliqlashmagan" shakldagi so'zlar qo'llanilgan. Ammo, so'zlashuv tilidagi asosiy belgi hisoblangan, uning har ikki (og'zaki va yozma) ko'rinishida mavjud bo'ladigan adabiy tilga xos va adabiy tilga xos bo'lmagan xususiyatlar to'liq aks etmay qolgan. Agar bu ta'rifda bir tomondan yuqorida aytilganidek, so'zlashuv nutqining adabiy tilga xos, ikkinchi tomondan esa dialektik xususiyatlari tilga olinganda masalaga to'g'ri yondoshilgan bo'lur edi.

Shuni aytish lozimki, "so'zlashuv nutqi" yozma nutq bilan dialekt o'rtasidagi oraliq formadir. Chunki, so'zlashuv nutqida yozma nutqqa va dialektga xos hodisalarni uchratamiz [B.O'rinboyev, 1974: 12-13].

"Til" umumiylikka, "nutq" esa xususiylikka ega. Boshqacha aytganda, "til" birliklari umumiylik va mohiyatni invariantlarda, nisbatan o'zgarmas barqarorlikda, nutq birliklari esa variantlarda, xususiyl ko'rinishlarda aks ettiradi. Til imkoniyat bo'lib, nutq shu imkoniyatning ma'lum darajada yuzaga chiqarilishidir.

Aytilganlardan quyidagicha xulosaga kelishi mumkin bo'ladi.

Birinchidan, "so'zlashuv tili" tushunchasi, qayd etilganidek, tilning so'zlashuv bilan bog'liq barcha ko'rinishlarini ifodalaydi, o'zida mujassamlashtira oladi, umumxalq tilining quyi va yuqori bosqichlari o'rtasidagi til ko'rinishi sanaladi.

Ikkinchidan, shunga ko'ra, so'zlashuv tilida adabiy tilga xos barcha (ishlangan, silliqlangan, normalashgan) xususiyatlar bilan birga dialektlar va boshqa (adabiy tilga xos bo'lmagan) uslubiy ko'rinishlar ham mavjuddir.

Uchinchidan, so'zlashuv tili yozma va og'zaki shakllarga ega bo'lib, yozma shaklda og'zakiga qaraganda adabiy tilga xos xususiyatlar ustun turadi. Og'zaki shakl yozuvdan oldin

ham mavjud bo'lib, tilning turli (adabiy tilga xos bo'lmagan) uslubiy, dialektal, individual qatlamlaridan foydalanishda keng imkoniyat yaratadi hamda qo'llanishida ancha qulaydir.

To'rtinchidan, so'zlashuv tili adabiy til va milliy adabiy tillarning rivojlanishi, shakllanishida muhim rol o'ynagan til shaklidir. Chunki, adabiy til ham, milliy til ham umumxalq tilining quyi tarmoqlari (dialekt va shevalar, xalq ijodiyoti hamda so'zlashuv tili) bilan bog'liq holda ularning davrlar osha qo'llanib kelinayotgan turli an'anaviy uslubiy ko'rinishlari, materiallari asosida shakllanadi. Tildagi barcha xususiyatlar xuddi shu so'zlashuv tilida mavjud bo'lib, ularning taraqqiyotida muhim omillarni yaratadi.

Adabiy til va milliy adabiy til ilmiy adabiyotlarda umumxalq tilining yuqori shakli sifatida qaraladi. Shu bilan birga, adabiy til bilan milliy adabiy til, tamoman boshqaboshqa til hodisasi emas, ular, deyarli bir tushuncha doirasida (ayniqsa, bu fikr hozirgi milliy til doirasida) tushunilishi ham mumkin. Shu sababli, ular haqida berilgan ta'riflar, deyarli bir xillikka ega. Lekin ulardagi umumiy tomonlar hamisha to'g'ri kelavermaydi. Chunonchi, adabiy til milliy adabiy tilga qaraganda ancha oldingi davrlar mahsuli hisoblanadi, deyarli umumxalq tilining quyi bosqichlari (mahalliy sheva, dialektlari)ning shakllanish bilan bog'liq holda yuzaga kela boshlaydi. U har bir davrga xos milliy til xususiyatlarini o'zida singdira boradi. Shuning uchun ham, uning til taraqqiyotidagi ma'lum shart-sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan tarixiy davrlarga xos xususiy tomonlari bor.

Jumladan, adabiy til o'z taraqqiyoti davrida o'zigacha bo'lgan yozuv tili (yozma manbalar tili) va so'zlashuv tilining barcha ko'rinishlari asosida taraqqiy etib keladi. Milliy adabiy til esa yagona til birligi asosida tashkil topgan, ma'lum bir davrda shakllangan millat tilidir. Adabiy til bilan milliy adabiy tilning o'zaro munosabatlari ularni alohida-alohida tahlil

etishda yanada oydinlashadi. Afsuski, xuddi shu o‘zaro munosabatlar tahlilida qator mulohazali masalalar borki, dastavval ana shu muammolarni yechish lozim bo‘ladi.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligining hozirgi adabiy til qurilishini o‘rganishda ko‘pgina darslik va qo‘llanmalar nashr etildi. Bular turli xil nomlar bilan atalgan. “O‘zbek tili”, “O‘zbek adabiy tili”, “Hozirgi o‘zbek tili”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Hozirgi zamon o‘zbek tili” kabilar shular jumlasidandir. Ularning barchasi ham “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” yoki milliy adabiy til qurilishini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Bizningcha, bir tushunchadagi atamani turli shaklda qo‘llash hamma vaqt ham foydali bo‘lmay, g‘aliz va noto‘g‘ri fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, o‘zbek tilshunosligida bu atamalarning bir xilligiga o‘z vaqtida e’tibor berilmaganligi sababli ilmiy adabiyotlarda “adabiy til” va “milliy adabiy til” tushunchalarining izohlanish ta’rifi va shakllanish jarayonlari, umuman ularning o‘zaro munosabati masalalarida bir-biriga zid fikrlarning tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuning uchun yuqorida aytilgan atamalarning adabiyotlardagi tahlil va xulosalariga aniqlik kiritish lozimdir. Aks holda akademik A.Hojiyev aytganidek, “adabiy til” va “milliy adabiy til” tushunchalarining shakllanish jarayoni va ularning ta’rifi haqida ishonchli, ilmiy tasavvurga ega bo‘lish hamda ma’lum bir tarixiy davr adabiy tilini aniq va to‘g‘ri yoritish qiyin [A.Hojiyev, 1988: 8].

Demak, ilmiy adabiyotlarda ushbu masalalarning o‘rganilish holatini ko‘zdan kechirish, so‘ng shu asosda ma’lum bir xulosaga kelish lozim bo‘ladi.

Xuddi shu ma’noda “O‘zbek tili” atamasi hozirgi til qurilishiga doir o‘quv adabiyotlari nomiga unchalik to‘g‘ri kelmaydi. “O‘zbek tili” atamasini qo‘llash ancha ixcham,

ammo bu atamaning ma'nosi umumiylikka ega. Uni o'zbek tili taraqqiyotining barcha davrlari va umumturkiy tildan keyingi o'zbek xalqining shakllanish davrlari tiliga nisbatan ham qo'llash mumkin. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda xuddi shu fikr to'g'ri qayd etilgan. Jumladan, "O'zbek tili" tushunchasi umumxalq o'zbek tili va o'zbek milliy tili tushunchasi bilan teng turadi [X.Doniyorov, B.Yo'ldoshev, 1988: 5-6].

"O'zbek adabiy tili" tushunchasida ham "O'zbek tili" atamasidagidek umumiylik xususiyati bor. Lekin u adabiy tilning shakllanish davrlari bilan bog'liq holda farqlanadi.

Demak, "O'zbek tili" va "O'zbek adabiy tili" atamalari ifodalagan davrlar "Hozirgi o'zbek tili" yoki "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (milliy tilga nisbatan ham) atamalariga qaraganda ancha keng davrni ifodalaydi. "Hozirgi o'zbek tili" yoki "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (o'zbek milliy tili) tushunchalari o'zbek tilining so'nggi davrlari tiliga xos atamalardir. Ular millatning va umumtil birligining shakllanishi bilan bog'liq hodisadir. O'zbek millatining shakllanishdan oldingi tillarda milliy birlik va umumtil birligi elementlarigina mavjud edi. Boshqacha aytganda, bu hodisa to'liq shakllanmagan edi. Xullas, qayd etilgan atamalarni o'z o'rnini bilan qo'llash fan uchun ham, mutaxassis va o'quvchi uchun ham to'g'ri tushuncha hosil qiladi.

Lekin tadqiqotlarda xuddi shu tushunchalar har xil tahlil qilinmoqda. Jumladan, "adabiy til milliy til yoki umumxalq tilining qayta ishlangan, silliqlashtirilgan va muayyan normaga solingan qismi"dir, tarzidagi ta'rifdan to'g'ri va aniq xulosa chiqmaydi [X.Doniyorov, B.Yo'ldoshev, 1988: 5-6]. Unda "adabiy til", "milliy til" doirasida uning bir qismi yoki "milliy tilning ishlangan, silliqlashtirilgan va muayyan normaga solingan yuqori qismi, yoki adabiy til milliy tilga qaraganda tor tushunchaga ega, degan xulosa chiqadi. Ikkinchidan, adabiy til milliy tildan so'ng shakllangan, milliy til adabiy tilga asos

bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Uchinchidan, milliy til bilan umumxalq tili baravalashtirilgan, teng qo‘yilgan. Milliy til tushunchasiga adabiy til kiradi, chunki adabiy til tushunchasi milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan ancha torroqdir.

“Milliy til” tushunchasi “umumxalq tili” tushunchasiga baravardir. U hozirgi davrning umumxalq tilidir. Xuddi shunday boshqa o‘rinda “adabiy til o‘z mohiyatiga ko‘ra umumxalq tilidir”, deb qaralgan [X.Doniyorov, B.Yo‘ldoshev, 1988: 5-6]. Bu fikrlar haqiqatan ham hozirgi tilga nisbatan to‘g‘ridir.

Umumxalq tili tushunchasi til taraqqiyotining hamma davrlariga xos tushuncha bo‘lsa, “milliy til ma’lum davrga xosdir, millatning asosiy birligini tashkil qiluvchi tushuncha sifatida yuzaga kelgan. Umumxalq tili tushunchasi esa, qadimdan mavjud bo‘lib, u hozirgi vaqtda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va u hozirgi vaqtda milliy til tushunchasi bilan barobar qo‘llanadi”. Darhaqiqat, milliy tilning shakllanish davri millatning va unga xos bo‘lgan til birligining yuzaga kelishi bilan bog‘liq. U adabiy til taraqqiyotining so‘nggi davriga xos rivojlangan tildir. Adabiy til esa milliy tilga nisbatan millat shakllanishdan oldingi davrlar mahsulidir. Adabiy til ham, milliy til ham umumxalq tilining yuqori shakli bo‘lib, barcha quyi shakl ular uchun asosiy rivojlanish manbaidir.

Ba’zi ilmiy manbalarda aytilganidek, milliy til shakllangandan so‘ng, to‘g‘rirog‘i, millat shakllangandan so‘ng, adabiy til bilan milliy til tushunchasi teng kelishi mumkin. Ammo, adabiy tilni milliy tilning (millatning) shakllanishdan oldingi davrlarga nisbatan qaraganda, umumxalq tilining ushbu ikki ko‘rinishini tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki, hamisha adabiy til milliy til uchun asosiy me’yor yoki asos hisoblanadi. “Adabiy til“ tushunchasi bilan

“milliy adabiy til” tushunchasi jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir davriga kelib bog’lanadi. Shuning uchun ular o’rtasida farq bo’lishi tabiiy. Shu bois ularga berilgan ta’rif bir xil bo’lmaydi. Demak, hozirgi paytda tilshunoslar qayd etgan fikrlarda ham mulohaza talab o’rinlar bor. Haqiqatdan ham, ushbu ta’rif milliy tilga xosdek ko’rinadi. Chunki, u millat bilan bog’lab ta’riflangan. Bu ta’rifni adabiy tilga ham, milliy tilga ham to’liq mos keladi, deb bo’lmaydi. Shuningdek, adabiy tilga berilgan ikkinchi bir ta’rif ham to’laqonlikka ega emas.

Ayrim olimlar adabiy tilni hozirgi davr tili yoki milliy til doirasida ta’riflashni tavsiya etadilar. Masalan, “milliy til” tushunchasiga “adabiy til” ham kiradi. Chunki, adabiy til tushunchasi milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan ancha torroqdir degan tahlilidan so’ng, “adabiy til, milliy til yoki umumxalq tilining qayta ishlangan, silliqashtirilgan va muayyan normaga solingan qismidir”, degan ta’rifni tavsiya etadilar [X.Doniyorov, B.Yo’ldoshev, 1988: 6]. Bu ta’rif davr xususiyati, milliy til doirasida berilgan. Chunki, hozirgi til milliy adabiy til sanaladi. Bu ta’rifda ham “adabiy til tushunchasining milliy til yoki umumxalq tili tushunchasiga nisbatan ancha torroqdir”, deyilgan fikrda mavhumlik bor. Ularning o’ziga xos farqli tomonlari aks etmagan. Umuman, o’zbek tilshunosligida adabiy til bilan milliy adabiy til ta’riflarida ularning o’zaro munosabatlaridagi farqli tomonlar hisobga olinmagan, balki, faqat umumiy funksional birligi qayd etilgandir. Ta’riflarga bir yoqlama yondoshilgan. Aniqroq qilib aytganda, o’zbek tilshunosligida adabiy til va milliy adabiy til tushunchalari haqida aniq va yagona to’g’ri fikrga kelingan emas. Adabiy til hamma vaqt ham milliy adabiy til tushunchasiga to’g’ri kelmaydi.

Qayd etilgan fikrlarning ba’zisi faqat hozirgi davrga nisbatan to’g’ri kelishi mumkin. Chunki, hozirgi milliy til adabiy til qurilishiga bo’ysunadi, uning qonun-qoidalari

asosida ish ko‘radi va, aksincha, hozirgi adabiy til hozirgi milliy til talabi asosida rivojlanib boradi, milliylikka asoslanadi, milliy tilning yuqori shakli sifatida ish ko‘radi. Ular o‘rtasidagi munosabatni yanada aniq va to‘g‘ri yoritish maqsadida manbalarda aytilgan quyidagi fikrlarni keltiramiz: “milliy adabiy tilning bo‘lishi millatning shakllanishga bog‘liq bo‘lib, adabiy til esa millat shakllangunga qadar ham bo‘lishi mumkin. Shu sababli adabiy til termini ikki xil ma’noda qo‘llanib keladi, ya’ni: 1) millat shakllangunga qadar bo‘lgan davrda, bir tomondan, o‘zining turli stillari bilan davlatning ish yuritishiga, adabiyot, din, fan kabilarga xizmat qiluvchi yozuv tili, ikkinchi tomondan, xalq poetik ijodi tili; 2) milliy tillar taraqqiy etgan davrlarda – umumxalq tilining ishlangan, normalashgan, yozma va og‘zaki shaklda millatning madaniy hayotida, ijtimoiy faoliyatning barcha sohalarida xizmat qiladigan formasi ma’nolarida qo‘llanadi” [A.K.Borovkov, 1934: 9].

O‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni 1940-yillargacha davom etgan. O‘zbek adabiy tili 1920-yillardan oldin (o‘ziga xos mahalliy dialektlari asosida shakllangan mahalliy adabiy til shaklida bo‘lib, 1920-1940-yillarda ana shu mahalliy shakldagi) til birliklari o‘zbek adabiy tilining shakliga aylana bordi. Mahalliy o‘zbek dialektlarining asta-sekin rivojlanib, umumxalq o‘zbek tiliga aylanishi, bu dialektlar zaminida yagona o‘zbek adabiy tilining tashkil topishi uzoq vaqtlar samarasidir [G‘.Abdurahmonov, 1962: 8].

Chunki, ular birdaniga hozirgi milliy adabiy tilimiz tarkibiga singib ketgan emas. Hatto, bu jarayon hozir ham davom etmoqda. Buni hozirgi o‘zbek milliy adabiy tili tarkibida mavjud bo‘lgan mahalliy sheva va dialektlarning til qurilishi sohalarini taqqoslaganda sezish mumkin.

Hozirgi o‘zbek milliy adabiy tilini 1930-1940-yillardan boshlab shakllangan deb aytsa bo‘ladi. Chunki, bu davrda

oldingi davr adabiy tili deb yuritilgan mahalliy o'zbek (dialektlari, so'zlashuv tili va yozma manbalar tili asosida shakllangan) adabiy tiliga xos bo'lgan fonetika, leksika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, ayniqsa, yozuvga doir imlo qoidalarini isloh qilish, til taraqqiyotini yangi davrga moslash, qayta shakllantirish, ishlash, silliqlash, normaga solish kabi ishlar hal etila boshlangan edi.

Shunga qaramay, hozirgi davr o'zbek milliy adabiy tili og'zaki, ayniqsa yozma manbalar til materiallari lisoniy nuqtai nazardan yanada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmoqdaki, uni jiddiy tadqiq etish zarurligi sezilmoqda. Ta'kidlaganimizdek, o'zbek tilining davlat tili mavqeiga ega bo'lishi va O'zbekistonning mustaqillikka erishishi respublikada yangicha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalqimizning o'zligiga xos milliy qarashlari vujudga keldi. Xorijiy davlatlar bilan teng huquqlilik aloqalari o'rnatilib, savdo-sotiq, ilm-fan va boshqa sohalarida hamkorlik qilinishi kabi voqealar, tarixiy sharoitlar natijasi davlat tili – o'zbek milliy adabiy tili taraqqiyotiga ta'sir etdi.

Hozirgi yozma manbalarda, ilmiy adabiyotlarda, ayniqsa matbuot tilida bu hol sezilarli darajada ko'rinadi. Til taraqqiyotida lug'at boyligi nisbatan tez o'zgaruvchan bo'ladi, tilning boshqa sohalariga qaraganda ancha tez boyib boradi. Ana shu o'zgaruvni yozma manbalar orasida matbuot tili tezroq o'z sahifasida qamrab olib, uning keng qo'llanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun matbuot materiallari tili adabiy tilning eng ilg'or shakli sanaladi. Tildagi har qanday yangilik, yangi bo'lgan tushuncha-atama yoki so'z birinchilar qatori matbuotda o'z ifodasini topadi va keng jamoatchilikka targ'ib qilinadi. Shuning uchun ham, matbuot tili amaldagi adabiy tildan hamisha oldinda yuradi.

10-§. Tilning ijtimoiy vazifalari

Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Tilning ijtimoiy tabiati uning jamiyatda mavjud bo'lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Shu sabab ham buyuk nazariyotchi olim F.do' Sossyur tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqida shunday deydi: "Til belgilari o'z tabiatiga ko'ra garchi psixik bo'lsa ham, lekin u abstraksiya emas, balki jamiyat a'zolari xotirasida joylashgan reallikdir" [F. do'. Sossyur, 1977: 53]. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog'liqdir. Jamiyatda ro'y beradigan har qanday voqelik, ma'lum ma'noda tilda o'z ifodasini topadi. Aytaylik, hayotga bitta yangi narsa kirib kelsa, uning nomi tilda albatta, aks etadi.

Akbarshoh bolaga hech qanday til ataylab o'rgatilmasa, u qaysi tilda gapiradigan bo'lishini bilishni istaydi. Ana shu maqsadda shoh o'n ikki emizikli bolani ajratib olib, Agradan 6 mil uzoqlikdagi qal'aga joylashtiradi, ularni tarbiyalashni o'n ikki soqov enagaga topshiradi. Tilsiz qorovulga qal'a darvozasini ochish qat'iyan ta'qiqlanadi, darvoza ochilsa, uning boshi sapchaday uzib tashlanishi aytiladi. Bolalar o'n ikki yoshga yetganda, shoh ularni huzuriga keltiradi. Hind faylasuflari bu bolalarning tili sanskrit bo'lib chiqadi deb hisoblaydilar. Ammo bolalar shoh huzuriga kelganda, barcha hayratdan tosh qotib qoladi.

Chunki bola bechoralar hech bir tilda gapirmas edilar. Ular o'z enagalaridan fikrlarni turli imo-ishoralar bilan ifodalab, hech qanday tilsiz muomala qilishni o'rgandilar [N.Uluqov, 2016: 23]. Bu misol tilning biologik yoki tabiiy hodisa emasligini yana bir bor isbotlaydi. Til ijtimoiy hodisa bo'lgani uchun ham bolalar jamiyatdagi gunglarning imo-ishoralaridan boshqa hech narsani o'rganmadi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy hodisa ekanligini o'rganadi. Tilning paydo bo'lishi, bir butun sistem sifatida

shakllanishi, ijtimoiy hodisa tarzida voqelanishi uning tarixiyligi bilan bog'liq.

Tilning jamiyatdagi ko'rinishlari. Kishilar til orqali aloqa-munosabatga kirishadilar, til aloqa vositasi sifatida mavjuddir. Qaysiki tildan odamlar foydalanmasa, iste'moldan chiqadi. Til iste'molda bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat bo'lishi kerak. Til aloqa vositasi tarzidagi ahamiyatini yo'qotdimi, uning avvalgi holatini sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

Jahon tilshunosligida til va uning ijtimoiyligi, paydo bo'lishi va rivojlanish jaroyonlari haqida xilma-xil fikrlar bildirilgan. Tilning ijtimoiyligi, rivojlanishi va nutq bilan munosabati xususida Ferdinand do' Sossyur va Vilgelm fon Gumboldtlarning fikrlari yetakchi o'rin egallaydi. Nazariyotsi olim Ferdinand do' Sossyurning fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan vositadir. Ijtimoiy tabiati jihatidan qaranganda til ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgilar sistemasidir.

Tilning taqdiri uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bog'liq. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan birga o'ladi [M.Irisqulov, 1992: 10].

Til qonunlarini, uning rivojlanishi jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan chambarchas bog'liq holda o'rgangandagina bu masalani to'g'ri hal qilish mumkin. Hamma narsa sistemadan iborat bo'lgani kabi til ham o'zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o'zaro munosabati bilan butun bir ideal tizimni tashkil etadi Bu masala F.do' Sossyur va Vilgelm fon Gumboldt qarashlarida aniq aks etadi.

Tilning ishlash tizimi haqida N.Xomskiy quyidagi fikrlarni yozadi: "Inson ongida dastlab mazmunini tashkil etuvchi propozitiv tizim vujudga keladi. So'ngra ushbu tizim grammatik transformatsiya deb nomlanuvchi formal operatsiya

yordamida fizik signal qiyofasini oladi” [V.A.Zveginsev, 2001: 80-81].

V.A.Zveginsev to‘g‘ri qayd qilganidek, tilning yashash makoni inson ongidir. Til insonlar ongida taraqqiy qiladi, yashaydi va rivojlanadi. Til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tadigan irsiy hodisa emas, aksincha, til jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so‘zlay boshlashi uni o‘rab turgan til muhitiga bog‘liq. Misol uchun, o‘zbek bolasi go‘daklikdan tojiklar orasida tarbiyalansa, u faqat tojikcha so‘zlab, o‘z ona tilini bilmasligi mumkin. Ammo bolaning biologik belgilari (yuz tuzilishi, sochining rangi va hokazolar) o‘zgarmagan holda shakllanib boradi.

Til jamiyatga xizmat qiladi, jamiyatda yashaydi, taraqqiy qiladi. Shuning uchun ham tom ma’noda ijtimoiy hodisadir.

11-§. Og‘zaki va yozma nutq. Yozuv va savodxonlik muammolari

Og‘zaki nutqning umri insoniyat umri bilan barobardir. Yozma nutq insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida yaratilganligi bilan og‘zaki nutqdan tubdan farqlanadi. Odamzod yaratilishi bilan o‘z jamiyatida bir-biri bilan muloqat qilishga ehtiyoj sezadi. Shu ehtiyojni qondirish uchun og‘zaki nutqni shakllantirgan. Yozma nutq paydo bo‘lgan davrgacha juda ko‘plab ma’lumotlar og‘izdan-og‘izga o‘tib avloddan avlodga o‘tib kelgan. Og‘zaki nutqning rivojlangan holati xalq og‘zaki ijodi asarlari namunasiga aylangan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalarini bir joyga yiqqanimizda 400 tomndan oshib ketishi ham og‘zaki nutqning naqadar boyligiga va uzoq o‘tmishga borib taqalishiga guvoh bo‘lamiz. Til bilan jamiyat taraqqiy qilishi, qolaversa til adabiyot, ma’naviyat va ma’rifat taraqqiyoti uchun ham birlamchi vosita sanaladi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda shuni ham aytish lozimki, tilni madaniyat bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri tenglashtirib

bo'lmaydi. Chunki madaniyat asl ma'nosiga ko'ra mafkuradir, til esa har qanday mafkura uchun ham bir xilda xizmat qiladi [A.Reformatskiy, 1967: 16]. Ammo, har bir millatning tili uning milliy madaniyatini taqozo etadi, zotan, millatning madaniyati uning tilida ham aks etadi.

Xulosa qilib aytganimizda, tilsiz adabiyot ham, madaniyat ham, mafkura ham rivojlanmaydi. Barchasi uchun til muhim vosita sanaladi.

Til fikr ifodasi uchun zarur, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan, birisiz ikkinchisini tasavvur qilolmaydigan chambarchas bog'liq jarayonlar hisoblanadi. Demak, til ham, fikr ham kishilik jamiyatida shakllangan. Nutq birliklari – tovush, morfema, so'z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-tuyg'u, aqliy bilish, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog'liqdir. Til ideal sistema sifatida jamiyatda aloqa vosita vazifasini bajaradi.

Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi:

1.Og'zaki nutqda jonli til qanday bo'lsa, shundayligicha bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. Yozma nutqda esa til aloqamunosabatning muhim vositasi sifatida ma'lum qoliplarga solinadi. Bo'y-basti bilan namoyon bo'la olmaydi.

2.Og'zaki nutqda kishilar o'z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ma'lum ma'noda nisbatan ko'proq chiqarib berib, bir-birlariga ta'sir ko'rsatadilar. Shunday paytda tilning hissiy ta'sir vazifasi yaqqol seziladi. Tilning muayyan ma'lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta'sir ko'rsatishi uning hissiy-ta'siriy vazifasi hisoblanadi. Og'zaki nutq xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy ta'sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bu jarayonda so'zlovchining ko'z va mushaklari, mimika katta rol o'ynaydi. Bular ham ma'lum bir ma'noni tashish vazifasini bajaradi. Bunda turli tasviriy til vositalaridan, jumladan, modal so'zlar, javob talab

qilmaydigan so‘roq, tartibni o‘zgartirishda foydalaniladi. Yozma nutqda esa bu imkoniyatlar cheklangan bo‘ladi. Ya’ni ifodalamoqchi bo‘lgan fikrimizning ma’lum foizlarigina yozma nutqda aks etadi. Qolganlari esa ichki bilim va nutqni yozma nutqqa aylantirish paytida yo‘qotiladi.

3. Nutqning ma’lumotlarni to‘plash vazifasi. Nutq aloqa vositasi, hissiy ta’sir ifodasi bo‘lib qolmay, to‘plash vazifasini ham bajaradi. Yozma nutq orqali to‘plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazamiz. Bunda nutqning ikki (og‘zaki va yozma) ko‘rinishidan foydalaniladi. Nutqning og‘zaki ko‘rinishi inson nutqining paydo bo‘lishi davridan boshlab aloqa-munosabatda keng foydalanib kelinmoqda. Yozma shakli esa yozuvning yuzaga kelishi bilan bog‘liq bo‘lib, tilning ma’lumot to‘plash vazifasida muhim o‘rin egallab kelmoqda.

4. Yozma nutq til taraqqiyotining keyingi paytlarida shakllangan. Bu jarayon jahon yozuvlari va ularning paydo bo‘lish tarixi bilan belgilanadi. Aslida, yozuv ham til kabi qadimiy bo‘lib, u ijtimoiy xarakterga ega. Biroq, yozuvning o‘ziga xos qulaylik tomonlari ham bor. Yozuvning eng qulay tomoni unga vaqt va masofaninig daxlsizligidir.

5. Yozma nutq o‘zgarmaydi, og‘zaki nutq esa o‘zgaruvchan hodisadir. Tilning o‘zi doimiy xarakatdagi dinamik o‘zgarib boruvchi, to‘xtovsiz taraqqiy qilib boradigan ijtimoiy hodisadir. Tildagi o‘zgarishlarni yozuv orqaligina bilib olamiz. Faqat yozuv tufayligina tilning taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni tekshira olamiz.

Amerika qit’asida yashovchi ko‘pchilik xalqlarning yozuvi yo‘q. Yozuv jamiyatning madaniy taraqqiyotida muhim faktordir.

Tilning umri oldida bir avlodning umri juda kichik vaqt bo‘lgani uchun, bir kishining umri davomida, tildagi o‘zgarishlarni deyarli sezmaymiz. Aslida til to‘xtovsiz o‘zgarib

boruvchi hodisa. Yozuvning umri esa uning amal qilish muddati bilan o'lchanadi. Shu sabab ham yozuvdagi o'zgarishlarning guvohi bo'lib boramiz. Hamma xalqlar kabi o'zbek xalqi ham bugungi fonografik yozuvdan foydalanish vaqtigacha juda ko'plab yozuvlardan foydalangan.

Piktografik yozuv. Umuman kishilik jamiyatida ilk yozuvning paydo bo'lishi piktografiya (chizib yozaman) bilan bog'lanadi. Shuning uchun u piktografik (chizib yozaman) yozuv deb yuritiladi. Bu atama lotincha piktus "chizilgan" va grapho "yozaman" degan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini anglatadi. L.Blumfeld bu yozuvga misol tariqasida Amerikaning mahalliy odjibva qabilasi daraxt po'stlog'iga bir qancha shakllar chizilgan bo'lib, muqaddas qo'shiq tartibini bildirgan. Yana bir misol, mandan qabilasining a'zosi daraxt po'stlog'iga uzun chiziq tortib, uning bir tomoniga miltiq va o'ttizta qunduzning rasmini, ikkinchi tomoniga esa savsar, suvsar hamda qutos mo'ynalarining suratlarini chizgan. Bu orqali u bir miltiq va o'ttizta qunduz mo'ynasiga savsar, suvsar hamda qutos mo'ynalarini almashtirish istagini bildirgan.

Bu dastlabki yozuv bo'lgani uchun, bir rasmni hamma har xil o'qishi mumkin bo'lgan. Mavhum otlarni ifodalash imkoni bo'lmasdi. Shu sabab ham bu yozuv o'z o'rnini keyingi ideografik yozuvga bo'shatib berdi.

Piktografik yozuvdan so'ng nisbatan takomillashgan ideografik yozuv shakllantirildi. Ideografik yunoncha idea – tushuncha va grafo – yozaman degan ma'nolarni anglatgan. Uning boshqa bir nomi logografik yozuvdir. Logos – so'z va grafo – yozaman degan ma'nolarni anglatadi. Bu yozuvda qo'llangan belgilarni ideogrammalar, yoki logogrammalar deb atagan. Bu yozuv bo'yicha har bir belgi ma'lum bir so'z tushunchasini bildirgan.

Keyinchalik logografik yozuvning shakllantirilgan shakli asosida ieroglifik yozuv paydo bo'lgan. Bu yozuvning nomi

yunoncha ieroglifik “muqaddas yozuv” soʻzidan olingan. Mazkur yozuv Qadimgi Xitoy va Arabistonga taaluqlidir. Bu yozuvda ifodalanuvchi narsa bilan maʼlum maʼnoda bogʻlangan xususiyat saqlanadi. Keyinchalik alifbo tushunchasi ham paydo boʻla boshladi. Alifbo belgilari shaklan mixlarga oʻxshaydi. Keyinchalik yozuvlar takomillasha borib, murakkab belgilar soddaroq boʻlgan belgilarga aylana boshlagan va natijada fonografik yozuv paydo boʻla boshlagan. Fonografik yozuv gʻalizlik va tushunmovchiliklarga barham berdi. Mukammal yozuv bu fonografik (nutq tovushlarini ifodalay oladigan) yozuvdir. Umuman, tilning paydo boʻlishi kabi bu yozuvning shakllanish tarixi ham uzoq davrlar bilan belgilanadi.

Fonografik yozuv ham turli shaklga ega boʻlgan. Shulardan biri sillabik yoki boʻgʻin yozuvi deb yuritilgan. Bu yozuv koʻp boʻgʻinli soʻzlarni mayda qismlarga ajratishni taqoza etgan. Bunda biror tushunchani yozganda boʻgʻinlar qoʻshilgan. Ierogliflar bugungi biz soʻzlarni boʻlayotgan boʻgʻinlarni ifodalash vazifasini bajardi. Dastlab mazkur yozuv qadimgi Messopotomiyada keng tarqalgan. Keyinchalik esa Hindiston, Arabiston va Yunonistonda ham qoʻllanila boshlagan.

Yuqorida sanalgan yozuvlarning barchasi oʻqish va oʻqitish ishlarini ancha murakkablashtiradi, zero, piktografik yozuv belgilari butun bir jumlanı, ideografik yozuv belgilari soʻzni (tushunchani), ieroglifik yozuv belgilari esa boʻgʻinlarni ifodalagan.

Shuni ham aytish lozimki, keyinchalik ieroglifik yozuvlarda alifbo belgilari paydo boʻla boshlagan va piktogrammalarga nisbatan osonroq, soddaroq yozuv vujudga kelgan. Shunday qilib yozuvning eng soddalashtirilgan va qulay usuli fonografik yozuv paydo boʻlgan. Fonografik soʻzi ham yunoncha boʻlib, phone –tovush va grapho – yozaman

degan ma'nolarini anglatadi. Bu yozuv tovushlarni ifodalagani sababli keyingi yozuvlardan ancha qulaydir.

12-§. Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta'siri. Tillarning chatishuvi masalasi. Kreol tillar. Pijin tillari. Xalqaro tillar. Sun'iy tillar

1.Me'yorlashtirilgan tillar. Adabiy til shakliga ega bo'lgan barcha tillar me'yorlashtirilgan tillar jumlasiga kiradi. Masalan, hozirgi rus tili, o'zbek tili va boshqa tillarning adabiy tili olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Adabiy til ma'lum qolipga solingan bo'lsa-da, tarixiy taraqqiyot davomida takomillashib, o'zgarib, boyib boradi. Me'yorlashtirilgan tillarda so'zlashuvchi odamlar mavjud bo'ladi, ya'ni jamiyatiga ega bo'ladi. Me'yorlashtirilgan tillar ma'lum normaga solingan, qayta ishlangan, hammaga tushunarli bo'lgan til shaklidir.

2.Qadimiy tillar. Bu tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, rivojlangan, yozuvlari yaratilgan bo'lib, buyuk asarlar, madaniy-ma'naviy yodgorliklar yaratilgan tillardir. Bu tillar keyingi davrlarda shakllangan bir qator tillar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Qadimiy tillar ham kishilik jamiyatining ta'siri bilan yuzaga kelgan va tilning umumiy taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etgan. Bu tillarning gaplashuvchi jamiyati yo'q bo'lgani uchun keyingi davrlarda iste'moldan chiqib qoladi. Lotin, oromiy, sug'd, xorazm kabi juda ko'p tillar eng qadimiy tilning yaqqol namunasi. Bunday tillarning fanda faqat nomlarigina saqlangan bo'lib, hozirgi davrda bu tillarda gaplashuvchi millat ham yo'q. To'g'ri, V.Gumboldt nazariyasiga ko'ra ularning ildizi asosida yangicha shakldagi tillar taraqqiy etib, bir qancha etnik guruhlar, hatto millatlar (masalan, lotin tili ildizi asosida ispan, portugal, fransuz kabi millatlar va ularning tillari) paydo bo'lgan.

3. Mahalliy tillarga kam sonli aholi gaplashadigan tillar kiradi. Ba'zi joylarda bir qishloqning alohida 400-500 kishi gaplashadigan tili mavjud. Mahalliy tillarning o'z yozuvi mavjud emas. Bunday tillar faqat og'zaki shakldagina bo'lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi. Amerika qit'asidagi ko'pchilik mahalliy hindularning tillari hozirgacha saqlanib qolgan. Sekin-sekin adabiy tilga singib ketishi oqibatida kelajakda mahalliy tillar yo'qolib ketish havfi katta.

4. Kreol tillari mustamlakachilik davrida afrikaliklar, sharq mamlakatlari xalqlari va amerika hindulari tillarining aralashuvi natijasida paydo bo'lgan tillardir. Kreol tillari asosan mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) aralashishidan kelib chiqqan.

Kreol tillarning har biri o'ziga xos til xususiyatlariga ega bo'ladi. Aralash tillarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rinib turadi.

5. Pijin tillari ham Yevropaliklar tillari bilan mahalliy tillarning chatishividan yuzaga keladi. Pijin tillari kreol tillardan farq qiladi. Pijin tillaridan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladi. Lekin kreol, pijin tillari jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qilsa-da, bu tillar mustaqil til tarzida keng qo'llanilmaydi. Pijin tillari uchun jamiyat yo'q.

Pijin tillari rivojlanib keyinchalik kreol tiliga aylanishi mumkin. Eng keng tarqalgan pijin tiliga "pijin-inglish" tilini misol qilib ko'rsatish mumkin.

6. Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof yaratgan *esperanto tili* sun'iy tilning yorqin misolidir. Bu tilning grammatikasi ishlab chiqilgan, lug'aviy asosi Yevropa tillariga asoslanilgan, grammatikasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida shakllantirilgan. Bu tilga juda ko'plab mashhur asarlar tarjima

qilingan. Hammaga tushunarli bo'lishi uchun dunyo miqyosidagi majlislarning olib borilishini hisobga olib bu til yaratilgan. Gazeta, jurnallar, teleko'rsatuv va radio eshittirishlar ham olib boriladi. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog'liq.

Nazorat uchun savollar:

1.Fanda tilning ijtimoiy hodasaligi va uning boshqa ijtimoiy hodisalardan farqi haqida qanday ma'lumot mavjud?

2.Til va uning ijtimoiyligini, paydo bo'lishi va taraqqiy etish jaroyonlari haqida dunyo tilshunosligida qanday nazariyalar mavjud?

3.Tilning ijtimoiyligi va taraqqiyoti masalasida Ferdinand do' Sossyur va Vilgelm fon Gumboldtlarning qanday fikrlari mavjud?

4.Fanda inson tilining paydo bolishi haqida qanday farazlar (nazariyalar) aytilgan?

5.Til va yozuv, ularning paydo bo'lishi haqidagi farazlar va ularning (piktografik, piktogramma, ideografik-logografik, ieroglifik, fonografik, sillabik yozuv, stenografiya, transkripsiya) shakllari haqida so'zlab bering?

6.O'rta Osiyo xalklari qo'llagan yozuvlar va ularning (oromiy Urxun-Enasoy, uyg'ur, arab, lotin va h.). shakllari haqida qanday ma'lumotlarni bilasiz?

Tayanch so'z va birikmalar:

O'lik til, lotin, sug'd, qadimiy xorazm, biologik jarayon, ijtimoiy hodisa, til bilan nutq antinomiyasi, til va tafakkur, irsiy hodisa, bazis, ustqurma, biologik va ijtimoiy (sotsial) faktorlar, tovushga taqlid, undov, biologik faraz, mehnat chaqiriqlari va ijtimoiy kelishuv nazariyalari, imo-ishoralar, hissiy ta'sir, piktografik (suratli) yozuv, ideografik yozuv, logografik yozuv, fonografik yozuv, sillabik yozuv, kreol tillari, pijin tillari, sun'iy tillar.

Adabiyotlar:

1. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Т.: 2001, –464 б.
2. Малов С.Е. Енисейская письменности тюрков. –Л.: “Наука”, 1952, –114 с.
3. Ўринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. –Т.: “Фан”, 1974, –148 б.
4. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти, 1-том. Морфология. –Т.: “Фан”. 1988, 8-б.
5. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. –Т.: “Фан”, 1988, –206 б.
6. Боровков А.К. Узбекский литературный язык. «Язык и мышление», т.П.- –Л.: Изд.АН. 1934, стр.9.
7. Абдурахмонов Ғ. Миллий тилларнинг тараққиёти масаласи. –Т.: 1962, 8-б.
8. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. –Труды по общему языкознанию. –М.: «Прогресс», 1977, с.39.
9. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. –190 b.
10. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. –256 b.
11. Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – М.: Эдиториал УРСС, 2001.–246 с.
12. Реформатский А.А. Введение в языковедение. –М., 1967. –562 с.

TIL VA TAFAKKUR

13-§. Til va tafakkur

Til va tafakkur o‘zaro bog‘liqdir. Shunchalik bog‘liqki, hatto ko‘pgina olimlarga ular bir-biridan aniq farqlanmaydigan sintetik hodisa sifatida ko‘rinadi. Shuning uchun ular til va tafakkur haqida emas, balki til-tafakkur haqida gapirishni lozim ko‘radilar.

Til bilan tafakkurning o‘zaro munosabati tilshunoslikda ham, falsafada ham eng muhim va murakkab muammolardan biridir. Bu muammo fanda anchagina o‘rganilgan va unga doir ko‘plab monografik tadqiqotlar nashr qilingan. Ularda til bilan tafakkurning o‘zaro dialektik bog‘liqligi, birining ikkinchisiz mavjud bo‘lmasligi, o‘zaro munosabatda amal qilishi dalillar bilan yoritib berilgan.

Tafakkur inson oliy nerv (asab) tizimining (bosh miyaning) faoliyati bo‘lib, so‘z, so‘z birikmalari va gaplarda, ya’ni nutqda o‘z ifodasini topadi.

Tafakkurning moddiy qobig‘i tildir. Shunday ekan, tafakkur bilan til, birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydigan dialektik birlikni tashkil etadi [N.Uluqov, 2016:36].

Til bilan tafakkur o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgani holda, ularning har biri o‘zlariga xos xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Demak, til bilan tafakkur o‘rtasida nihoyatda murakkab munosabat mavjud. Asosan ana shuning uchun bu munosabat tilshunoslik tarixida ham, falsafa tarixida ham eng muhim muammolardan biri hisoblanib kelindi.

Til, ko‘pchilik tomonidan qayta-qayta ta’riflanganidek, kishilarning o‘zaro fikriy aloqa vositasidir. Tafakkur esa ob’ektiv borliqni va voqelikni kishi miyasida aks ettirishning yagona va oliy darajali shaklidir. Shuning uchun tafakkur moddiy dunyoning kishi tomonidan bilib olinishida, aks

etishida ideal jarayon sifatida xizmat qiladi. Bu o‘rinda tafakkur kishining amaliy faoliyatiga asoslanadi. Shuning uchun uning shakllanishida, gavdalanishida va amal qilinishida moddiy negiz kishining miyasi hisoblanadi.

Tafakkur bilish quroli sifatida kishining ong shaklidir, ijtimoiy jihatdan ongning birinchi darajali tarkibiy qismidir. Ayni vaqtda tafakkur kishining ijtimoiy va amaliy faoliyati tufayli tarixiy va mantiqiy ma’noda yana ijtimoiy ongga aylanadi.

Har qanday g‘oyaviy hodisa kabi tafakkur ham ob’ektiv va moddiy hodisa tufayli amal qiladi. Bunday ob’ektiv va moddiy qobig‘ tildir. Bu jihatdan til bilan tafakkur birini ikkinchisidan ajratib bo‘lmaydigan, o‘zaro ziddiyatli va bir-biriga aks ta’sir ko‘rsatuvchi dialektik birlikni tashkil qiladi. Ammo bu birlikni ba’zi olimlar boshqacha tushunganlar: ular til bilan tafakkurni tamoman birday hisoblab, aql tildan iboratdir deb ta’kidlaganlar. Masalan, nemis faylasufi tilshunosi V.Gumboldt ta’rificha, til bir butun ruhdan iborat. Shuning uchun u ruh qonunlari asosida taraqqiy qiladi. Demak, tilning istiqboli ruhning istiqboliga bog‘liq.

“Til xalq ruhining tashqi ko‘rinishidir, – degan edi V.Gumboldt, – xalqning tili uning ruhidir, xalqning ruhi esa uning tilidir – bularda o‘xshagan boshqa qandaydir ikki narsaning bir-biriga bunchalik o‘xshashligini tasavvur qilish qiyin. Ularning qanday qilib yagona va idrok qilib bo‘lmaydigan narsaga birlashib ketishi biz uchun tushunarli bo‘lmay qolmoqda. Bularning qaysi biri muhimroq, kattaroq ahamiyatga ega ekanligini aniqlashga urinmasdan, xalqning ruhida tillardagi xilma-xillikning real-hal qiluvchi tamoyilini va haqiqiy sababini ko‘rishimiz kerak. Chunki xalqning ruhi hayotiy va mustaqil hodisa hisoblanadi, til esa unga tobe’dir” [V.A.Zveginsev, 1964: 88-89].

Yoki akademik N.Ya.Marr ham o‘z ta’limotida til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib qo‘yar edi.

“Til, – degan edi N.Ya.Marr, – tovushlarda zuhur etgani uchungina mavjuddir. Tafakkur zuhur etmasdan ham amal qilaveradi... Til (tovush tili) o‘z vazifalarini fazoni so‘zsiz yengayotgan eng yaxshi ixtirolarga topshiriq bera boshladi, tafakkur esa o‘zining o‘tmishda to‘plagan va foydalanmayotgan boyliklari hamda yangidan to‘planganlari tufayli tobora yuksalib bormoqda va tilni tamomila iste’moldan chiqarib, uning o‘rnini bosadigan bo‘lib bormoqda. Bo‘lajak til – tabiiy materiyadan xoli bo‘lgan, texnikada o‘sib borayotgan tafakkurdir.”

Hech qanday til, hatto har holda tabiat mezonlariga bog‘liq bo‘lgan tovush tili ham tafakkurga bardosh berolmaydi [N.Ya.Marr, 1931: 62].

Bu mutlaqo noto‘g‘ri ta’limotdir. Chunki til va tafakkurning dastlabki unsurlarini yuzaga keltiruvchi, ayni vaqtda yuzaga kelishini rag‘batlantiruvchi, dastlabki unsurlarini yuzaga chiqaruvchi, omillar, qo‘zg‘atuvchi sabablar bir vaqtda va bir xil muddatda shakllangan, keyingina o‘sha unsurlarning o‘zaro aks ta’sir qonuni asosida rivojlana borishi bilan to‘la ma’nosidagi til va tafakkur shakllangan. Ular, ya’ni til va tafakkur shundan buyon o‘zaro aks ta’sir qonuni asosida rivojlanib insoniyat oldidagi vazifasini to‘la bajarib kelmoqda. Bundan keyin ham shunday bo‘laveradi.

Ammo til bilan tafakkurni bir-biridan ajratgan holda talqin qilish, tushintirish darslik qo‘llanmalarda ham va ular orqali ta’lim jarayonida ham o‘z aksini topdi. Masalan: ”Til ayrim kishida mustaqil ravishda mavjuddir” [P.I.Ivanov, 1967: 291]. “Til har bir ayrim kishida mustaqil tartibida mavjuddir” [M.Vohidov, 1970: 175]. Til to‘liq holda ayrim kishida mustaqil holda mavjud emas. Tilga bunday baho berish haqiqatga yiroq. Ammo, tilning ma’lum bir qismi ayrim

kishida mustaqil holda mavjud. Til butun bir millat kishilari ongida to'liq holda saqlanadi, voqelanadi, mavjud bo'ladi.

14-§. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarining o'zaro munosabati

Tafakkur til bilan uzviy bog'liq bo'lib, u bilish jarayoni sifatida o'zini yakka shaxsning nutq faoliyatida ko'rsatuvchi real jarayonidir. Ijtimoiy ong sifatida esa u o'zining mavjud bo'lish shakliga muayyan tillarda ega bo'ladi. Demak, til va tafakkurning ijtimoiy tabiati ichki tomondan bir xildir. Tilning vazifasini ikki tomonlama vazifaning birligisiz tassavur qilib bo'lmaydi: til bir vaqtning o'zida ham fikrlash va bilim natijasini nutq faoliyatida saqlash uchun vositadir, ham fikrlash jarayonining o'zi uchun vositadir. Bu jarayon nutq shaklida seziladigan va akustik holatdir. Demak, til yordamisiz fikr shakllanmaydi, tafakkur amaliyoti sodir bo'lmaydi. Nutqiy faoliyat yordamida fikr shakllanadi, tafakkur amaliyoti sodir bo'ladi.

Tafakkur voqelikning tushuncha, hukm va xulosada oliy shaklda makon va zamon bilan bog'liq holda aks etishidir. U o'zining barcha haqiqiy natijalari bilan kishi miyasidagi g'oyaviy nusxasi va obrazidir. Tafakkurning asosiy masalasi uning chinligi masalasidir. Til esa voqelikning in'ikosi emas, balki fonema, morfema, leksema kabi birliklarning qonunlari asosida uyushgan murakkab tizimdir. Tafakkur voqelikni ma'naviy – g'oyaviy holatda aks ettiradi, uning qonunlarini tanib biladi va kishining amaliy faoliyati tufayli moddiy dunyo haqida bilim hosil qiladi. Til tafakkurni moddiy shaklda yuzaga chiqaruvchi vosita sifatida nutq tufayli amal qiladi. Bunday vaqtda til va tafakkur aks ta'sir qonuniga asoslanadi.


Demak, til ham, tafakkur ham borliqdagi narsa va hodisalar bilan munosabatga bo'ladi. Ammo tafakkur shu narsa va hodisalar bilan ularni g'oyaviy tarzda in'ikos ettirish, til esa

nutq faoliyatida ularni tafakkur orqali moddiy tarzda ifodalash jihatidan munosabatda bo‘ladi.

15-§. Tafakkur tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishi

Taffakkurimizda tashqi moddiy olam so‘z orqali tushuncha tarzida gavdalanadi. Tushuncha narsa, voqea va hodisalarning kishi miyasida tasavvur hosil qilish jarayonidagi in‘ikosidir. Tushunchaning paydo bo‘lishida insonning bir necha xil a‘zolari, ko‘z, quloq, his etish va fikrlash qobiliyati ishtirok etadi. Kishilar biror predmetning nomini eshitgandan, u haqda fikr yuritadi, natijada tasavvur orqali uning miyasida shu narsa va voqea – hodisaning aksi (in‘ikosi) paydo bo‘ladi. Tushunchani tasavvur qilishda tasavvur hammadagi bir xil bo‘lmaydi. U kishining bilimi, tajribasi va hokozolar bo‘yicha farqlanadi. Ba‘zi bir ko‘rmagan, eshitmagan yangi predmet va hodisalarning nomini eshitganimizda biror bir aniq tasavvur qilolmaymiz. Hattoki, ko‘rib turgan yangi narsalarning nomini bilmaymiz. Aytaylik, Hindistonda o‘sadigan mevani umrimizda ko‘rmagan, emagan u haqda eshitmagan bo‘lsak. Uning nomini eshitganda dastlab hech qanday tushunchaga ega bo‘lmaymiz. Ko‘z oldimizga hech narsani keltira olmaymiz, natijada tasavvurimizda in‘ikosini hosil qila olmaymiz. Shu sabab ham aniq bir tasavvur hosil qilishimiz uchun yetarli ko‘nikma, bilim va tajriba talab qilinadi. So‘z tushunchaning tildagi atalish nomi hisoblanadi. Masalan, ma‘naviyat o‘chog‘i, o‘quv predmeti bo‘lgan narsa va u haqdagi tushuncha o‘zbek tilida kitob, rus tilida kniga, ingliz tilida book. Bitta narsani har xil tilda har xil nomlaganimiz bilan o‘sha bitta narsani tushunamiz. Shu sabab ham tilda shakl o‘zgaruvchan, mohiyat o‘zgarmasdir. Mana shu bir narsaning turli xil tilda turlicha nomlanishi so‘zdir. So‘z narsa va tushuncha bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular doim birga yashaydi, tushunchasiz so‘z,

soʻzsiz tushuncha boʻlishi mumkin emas. Soʻz tilshunoslikning deyarli barcha sathlari obʻekti. Tushuncha esa mantiq fanida oʻrganiladi. Soʻz, narsa va tushuncha orasida shunday bogʻliklik borki, ularni bir - birisiz tasavvur etish ham qiyin. Yaʼni bir - biri bilan uzviy bogʻlangan hodisalardir. Buni quyidagi rasm orqali ifodalasak boʻladi.



Mana rasmda koʻrib turganingizdek, bular bir-biri bilan uzviy bogʻliq hodisalardir. Narsaning biror tildagi nomi soʻz, narsani denotat, tushunchani signifikat deb ham nomlaymiz. Bizning tafakkurimizda tashqi moddiy olamning aks etishi uchun maʼlum narsalar talab qilinadi. Bular til bilish, yaʼni soʻz nomini bilish, soʻz orqali ifodalanayotgan shu narsa haqida bilimga ega boʻlish. Buning uchun shu narsaga avval duch kelgan, koʻrgan boʻlishimiz lozim. Shundan soʻnggina shu soʻz va narsa haqida tushunchaga ega boʻlamiz. Bu fikrlar asosan, soʻzning atash maʼnosiga tegishlidir. Koʻchma maʼnolarda bir soʻzni har millat, har kim har xil tushunishi mumkin.

16-§. Til qurilishi qonunlari va tafakkur qurilishi qonunlari

Til oʻziga fonetika va grammatikaning muayyan qonunlarini birlashtirgan, nutq orqali tovushlar tizimi orqali mavjud boʻluvchi moddiy hodisadir.

Maʼlumki, tilni fikrning moddiy qobigʻi deyish qabul qilingan. Ammo bu qoida “qobigʻ” qandaydir tashqi fikr sifatida emas balki ichki fikr sifatida, u bilan uzviy bogʻliq

holda tushunilgan taqdidragina to'g'ri. Gap shundaki, fikrda turli "qobig'" bo'lishi mumkin emas. Har qanday til fikrning nutq shaklida voqe' bo'lishidir. Yoki, aksincha har qanday bevosita voqe' bo'lgan fikr nutq shaklidagi tildir.

Til va tafakkurning har biri o'zicha ichki tuzilishiga va birliklariga ega. Masalan: fonema, morfema, leksema, so'z birikmasi va gap (so'z birikmasining ham gapning ham qolipi-modeli nazarda tutilyapti) til birliklaridir. Tushuncha, fikr, hukm va xulosa tafakkur birliklaridir. Til birliklari ifodalovchi, tafakkur birliklari esa ifodalanuvchi hodisalardir.

Til milliy xususiyatga egadir, millatning eng muhim belgilaridan biridir. Tafakkur esa umumiy insoniy xususiyatga egadir, ya'ni tafakkur shakllari va qonun-qoidalari barcha millatlarda bir xildir.

So'nggi davr tilshunos olimlar ishlarida til va nutq hamda tafakkurning bir-biri bilan munosabati haqidagi fikrlaridan quyidagilar xarakterlidir:

Ayrim olimlarning fikrlariga ko'ra, ular biri boshqasidan aniq farqlanmaydigan sinkretik hodisalar sifatida tasavvur etiladi. Albatta, til bilan tafakkurning o'zaro munosabati tilshunoslikda ham, falsafada ham eng muhim murakkab muammolardan biridir. Shu bois mazkur mavzuni o'rganish jarayonida bu muammolarning fanda ular o'zaro dialektik bog'liq bo'lgani holda, har biri faqat o'zigagina xos xususiyatlariga ko'ra farqlanishini ham e'tibor markazida tutmoq muhim.

Tafakkur, albatta, insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog'lanadi. Bilish bo'lganda ham tafakkur aqliy bilishni taqozo etadi. Shu bois hissiy bilishni tafakkur bilan tenglashtira olmaymiz. Zero, bilishniig bu turi jonli mavjudotlarning barchasiga xosdir. Tafakkur esa faqat insonga berilgan in'omdir. Shuning uchun tafakkurni bilishning eng yuqori bosqichi deb atash mumkin. Biroq, yuqoridagilardan hissiy

bilishni tafakkurdan ajratib qo'yish, ularni qarama-qarshi hodisalar tarzida tushunish lozim degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shuning uchun ham, bu ikki hodisa umumiy jarayonning ikki bosqichini taqozo etadi. Aqliy bilish sezgilarimizdan, hissiy bilishdan oziqlanadi. Lekin, shunday bo'lsa-da, tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanadi:

a) tafakkur sezgi a'zolariga nisbatan narsa va hodisalar mohiyatini chuqurroq ochib beradi;

b) tafakkur sezgimizga nisbatan voqelikni umumiyroq aks ettirib, narsa va hodisalar o'rtasidagi doimiy munosabat, aloqalarni ham aniqlaydi;

v) biz sezgilarimiz orqali narsa-hodisalar orasidagi oddiy munosabatlarni bilamiz. Tafakkur esa ularning umumiy bog'lanishini, taraqqiyot qonunlariga munosabatini bilib olishimizga yordam beradi.

Tafakkur orqali biror narsani bilish uchun, avvalo, u haqda tushuncha hosil qilish kerak. Predmet haqida tushuncha hosil qilishda umumiy qonun-qoidalar yoki umumiy tushunchadan foydalaniladi. Bunda, albatta, tafakkurning til bilan munosabati yanada aniqroq seziladi.

Tafakkurning muhim xususiyati uning til bilan uzviy bog'langanligidir. Inson tafakkuri til bilan birga rivojlanadi. Tafakkur natijalari tilda mustahkamlanadi. Til o'zining shu xislati bilan insonga bilim to'plashga, uni saqlashga, avloddan avlodga yetkazishga yordam beradi. Til tafakkurni takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumiyashtirish va juz'iyashtirish qurolidir. Insonni hayvonot olamidan ajratib, uni ongli mavjudotga aylantirgan xislat ham tafakkur va tildir.

Til va tafakkur voqelikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, real voqeyilikka ta'sir ko'rsatishda ko'rinuvchi, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insongagina xos bo'lgan tarixiy muhim xislatdir.

Lekin, shunday bo'lishiga qaramay, amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur ajralmas bo'lsa-da, ularni alohida fanlar sifatida o'rganamiz. Tafakkurni mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik o'rganadi. Tafakkur umumbashariy bo'lsa, tilning qonun-qoidolari milliy xarakterga egadir. Dunyodagi tillarning qonun-qoidolari bir-biridan ba'zan kamroq, ba'zan keskin farq qiladi. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa insonning millati, irqidan qat'i nazar, hammada bir xildir.

Mantiq fani tafakkurni tarkibiy qismlarga ajratganda, u uch birlikdan: tushuncha, muhokama va xulosadan tarkib topganini ko'rsatadi. Tilshunoslik fani nutqni tarkibiy qismlarga bo'lganda, nutq tovushi (fon), morf, so'z, gap va matnlarga ajratadi. Demak, til va tafakkur birliklari miqdor jihatdan to'g'ri kelmaydi.

Ba'zi olimlar tafakkurdagi tushuncha tildagi so'zga, muhokama esa gapga to'g'ri keladi, degan fikrni ilgari surishgan. Lekin bugungi kunda mazkur fikrning asossizligi dalillanmoqda. To'g'ri, tilda ko'pchilik so'zlar ma'lum bir tushuncha bilan bog'langan: *kitob*, *gul*, *daraxt* va h.k. Shuningdek, *uchun*, *bilan*, *kabi*, *biroq* singari yordamchi so'zlar ham borki, ular tushuncha bilan bog'lanmaydi. Agar gaplarning barchasi voqea-hodisalarning mavjudligi, yo'qligi, rostligi yoki yolg'onligi ifodalanganda, unda gap bilan muhokamani bir-biriga teng deyish mumkin bo'lardi. Ammo tilimizda ba'zi gaplar so'roq shaklida, buyruq shaklida beriladi, mantiqning esa bu singari xususiyatlardan holi ekanligini ko'ramiz. Yana shu narsa ahamiyatga molikdirki, gap bo'laklari barqaror xususiyatlidir. Bir gap tarkibida ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqllovchi, hol funksional jihatdan o'zgaras xarakterga ega bo'ladi. Mantiqiy bo'laklar esa beqarordir. Gapdagi har bir so'z mantiq sub'ekti yoki predikati bo'lib kelishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, til va tafakkur

birliklari na miqdor, na sifat jihatdan bir-biriga to‘g‘ri keladi. Demak, til bilan tafakkur har qancha uzviy bog‘langan bo‘lsa ham, mushtarak hodisalar emas. Ammo til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib qo‘yish ham mumkin emas. Ular doimo biri ikkinchisini taqozo qiladi. Tafakkur tilda yashaydi, u faqat til vositasi orqali namoyon bo‘ladi. Taniqli nemis olimi Velgelm Fon Gumboldt ta‘biri bilan aytganda, bunchalik bir-biriga o‘xshash boshqa bir narsani o‘ylab topish qiyindir.

Til fikrlash jarayonining voqelanishi sifatida tafakkurning to‘liq hajmi va barcha unsurlarini namoyon qiladi. Shuning uchun B.P.Ardentov: “Kishi miyasining til bilan bog‘liq bo‘lgan butun faoliyatini tafakkur deb bilish lozim”, – degan edi.

Til va tafakkurning bir-biridan ajralmas hodisa ekanligi haqida qadimgi Yunoniston olimlari Demokrit, Aristotel davrlaridan boshlab bugungi kungacha ilmiy xulosalar aytilib kelinmoqda. Bu sohada Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, M.Koshg‘ariy, A.Navoiy kabi O‘rta Osiyolik mutafakkirlar tomonidan aytilgan fikrlar ham qimmatlidir.

Til va tafakkurning uzviy bog‘liqligini Ferdinand do‘ Sossyurning quyidagi fikrlarida yanada aniqroq ko‘rsa bo‘ladi: “Tilni, shuningdek qog‘oz varag‘iga ham o‘xshatish mumkin. Fikr qog‘ozning yuza tomoni, tovush esa uning orqa tomonidir; orqa tomonni qirqmasdan turib, yuza tomonini yam qirqib bo‘lmaydi. Tilda ham fikrni tovushdan, tovushni fikrdan ajratib bo‘lmaydi; bunga abstraksiyalash yo‘li bilangina erishish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, yo sof psixologiyaga yoki sof filologiyaga olib keladi [F. do‘. Sossyur, 2019: 130].

Til bilan tafakkur muammolari xususida gapirganda shunga ham alohida e‘tibor berish kerakki, til bilan nutq ham mushtarak hodisalar emas. Shu bois, masala tavsifini to‘liq berishga ulgurmagan bo‘lsa-da, F.do‘ Sossyur “til va nutq” dixotomiyasi haqidagi fikrni birinchi bo‘lib izohlagan edi. Til

bilan nutq ham o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Ularning birini ikkinchisiz tasavvur etish mumkin emas. Biroq, shunday bo‘lishiga qaramay, ular o‘rtasida jiddiy farqlar ham ko‘zga tashlanadi. Bunday farqlarni tilning mavhum, virtual hodisa ekanligida, nutqning esa konkret, aktual hodisa ekanligida ko‘ramiz. Bundan tashqari, til ijtimoiy hodisa bo‘lsa, nutq ijtimoiylikdan ko‘ra xususiylik alomatlari bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan ular tafakkur ifodasiga ham har xil yondashadi. Boshqacha aytganda, tafakkur ifodasi virtual belgilar bilan emas, balki aktual belgilar bilan ko‘proq bog‘lanadi, chunki, til aloqa quroli bo‘lishi uchun nutqqa ko‘chirilishi kerak.

Shuni ham aytish kerakki, til bilan nutqning birligi va qarama-qarshiligi qonuniyatlariga faqat keyingi yillardagina ahamiyat berila boshladi. Hozirgacha mavjud tilshunoslikka doir ishlarning ko‘plarida tilni nutqdan va, aksincha, nutqni tildan farqlamadilar. Buning natijasida tilning sistema ekanligi, sistemaning belgilar (ishoralar) yig‘indisidan iboratligi mukammal o‘rganildi-yu, mazkur belgilarning nutqda real qo‘llanilishi masalasini o‘rganish ikkinchi darajali bo‘lib qoldi. Shu bois tilning nutqda voqe bo‘lishi, real qo‘llanilishi muammolarini o‘rganish hozirgi tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qoldi.

Ta’kidlash lozimki, nutq mantiqsiz bo‘lmaydi. Bu esa, o‘z navbatida, tafakkurning nafaqat til bilan, balki nutq bilan ham uzviy aloqadorligidan dalolat beradi. Til va tafakkur deganda, til umumiy holda, ya’ni nutqdan ajratmagan holda tasavvur etiladi. Biroq, hozirgacha mavjud ishlarda xususiylik belgilari deyarli tadqiq etilmadi.

Nutqning xususiyligini o‘rganish boshqa fanlar bilan, jumladan, psixologiya bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bu jihatdan so‘zlovchining nafaqat nutq a’zolari o‘rtasida, balki fikrlash qobiliyatlari, so‘zlashish usullari o‘rtasida ham farq borligini ko‘ramiz. Bunda bolalar va kattalarning fikrlash qobiliyati va

til unsurlaridan soʻzlashish jarayonida foydalanish darajalari oʻrtasida ham mavjud farqlarni hisobga olish kerak boʻladi.

Yuqoridagilardan tashqari shuni ham aytish lozimki, til birliklari bilan tafakkur birliklarini tenglashtirib boʻlmasligi haqida maʼruzalar matnida keltirilgan misollarga alohida eʼtibor qaratishni tavsiya etamiz. Chunki, mazkur masala doirasida aniq tasavvur hosil etish uchun soʻz bilan tushuncha aynan bir-biriga mos kelavermasligini bilish muhimdir. Mustaqil maʼnoni taqozo etuvchi soʻzlar tushuncha ifodalay oladi. Biroq til birliklaridan yordamchi soʻzlar soʻz hisoblansa-da, tushuncha ifodalay olmaydi. Gapni muhokama, xulosa singari tafakkur birliklari bilan tenglashtirib boʻlmasligini talaba chuqur oʻzlashtirishi uchun gapning barcha turlarini voqea-hodisaning mavjudligi, yoʻqligi, rostligi, yolgʻonligi kabi jihatlaridan tashqari, soʻroq, buyruq mazmunidagi gaplarning borligiga ham eʼtibor qaratishi zarur. Zero, mantiq qonuniyatlari bunday xususiyatlarga tayanmasligi maʼlum.

Til va tafakkur oʻzaro dialektik munosabatda ekan, ularni oʻrganuvchi tilshunoslik bilan mantiq oʻrtasida ham ana shunday aloqalar mavjud. Mantiq – tafakkur shakllari, qonunlari va usullarini oʻrganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli boʻlishini taminlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika boʻlimi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha soʻz va soʻz birikmalari orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Har bir kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur boʻlsa, mantiqning shakli va qonunlarni oʻzlashtirish ham shunchalik zarurdir. Mantiq shakllari tushuncha, xulosalar hamma xalqlar uchun umumiy boʻlsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan oʻz grammatikalariga ega. Bu shuni koʻrsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bogʻliq, ular bir-birlarini toʻldiradi.

Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganadigan ob'ektining tabiati asos qilib olinadi. Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. Til uzliksiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli a'zoimizga o'xshaydi. Ana shu xususiyatlarini o'rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiy belgilarga ega ekanligini isbotlaydi. Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Til faqat kishilarga xos bo'lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog'liqdir. Lekin, yana takror aytish lozimki, tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o'xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so'zlar, so'z birikmalari va jumlarlar orqali ifodalaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi.

Shuning uchun ham til grammatikaning o'rganish ob'ekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o'rganish ob'ektidir. Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o'z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan. Til birliklari – fonema, morfema, leksema kabilar bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-sezgi, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog'liqdir.

Nazorat uchun savollar:

1.Til bilan tafakkur tarixan va hozir o'zaro qanday munosabatda?

2.Til tafakkurning paydo bo'lishi, ularning rivojlanishi haqida qanday fikrdasiz?

3.Til va tafakkur haqida akademik N.Ya.Marr qarashlari va unga munosabatingiz?

4.Nima uchun til moddiy – akustik, tafakkur esa ma’naviy-g‘oyaviy xususiyatiga ega?

5.Nima uchun til milliy, tafakkur esa umuminsoniy xususiyatga ega?

6.Til va tafakkur birliklari.

7.Til ham, nutq ham aloqa vositiasi. Farqlari nima?

8. Til va nutqning umumiylikka, xususiylikka munosabati qanday?

9.Til va nutqning hajmi, vaqti, muddati haqida nimalarni bilasiz?

10.Til va nutqning qaysi biri diaxron, sinxron, qaysi biri sinxron xususiyatga ega? Nima uchun?

11.Til va nutqning ijtimoiy mohiyatga ega bo‘lish usullari.

12.Nutq turlari.

13.Nima uchun til o‘ziga xos tizim (sistema) va nima uchun barqaror, ochiq tizim?

14.Til birliklari va ularning qaysi birida tez-tez o‘zgarishlar bo‘lib turadi?

15.Tilning ichki tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so‘z va birikmalar:

Sinkretik hodisalar, til bilan tafakkur, aqliy bilish, hissiy bilish, mantiq sub’ekti, predikat, dixotomiya, virtual belgi, aktual belgi, aloqa quroli, his-sezgi, idrok, nutq tovushi (fon), morf, so‘z, gap, matn, dialektik birlik, oliy nerv, asab tizimi.

Adabiyotlar:

1. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. 190 b.

2. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX в веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –Москва, 1964.стр. 88-89.

3. Марр Н.Я. Мышление и язык. –Ленинград, 1931, стр. 62.

4. Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. –Toshkent: O'qituvchi, 1967 yil, 291 b.

5. Vohidov M. Maktabgacha tarbiya psixalogiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1970 yil, 175 b.

6. Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. 308 б.

TIL – TAFAKKUR – NUTQ MUNOSABATI

17-§. Til va nutqiy faoliyat

Til sintagmatik qatorga o'tish orqali nutqiy faoliyatda tafakkur munosabatini namoyon qiladi. Nutqiy faoliyat bir qarashda individual hodisadek tuyulgani bilan ma'lum jihatlari bilan ijtimoiy hodisa hamdir. Umuman til va nutq ham ijtimoiy, ham individual hodisalardir. Bular bir - biri bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turlari sanaladi. O'z navbatida til va tafakkur ham o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan birini ikkinchisiz tasavvur etish qiyin bo'lgan hodisalar hisoblanadi. Til ijtimoiy hodisa sifatida tafakkurning harakatga kelishi ya'ni nutq orqali voqealanishidir. Tafakkur bilish jarayoni bilan bevosita bog'lanadi. Tafakkur aqliy bilishning hosilasi sifatida izohlanishi lozim. Ongli bilishning eng yuqori bosqichi bo'lgan tafakkur yuritish faqat insonga berilganligi bilan ajralib turadi. Tafakkur til bilan birga paydo bo'lgan va birga rivojlanadi. Til va tafakkur orasida gap borganda, nutq munosabati ham tushuniladi. Chunki til nutq orqali oydinlashadi. Bu uch hodisa ham o'z-o'zidan ijtimoiy hodisalar sanaladi. Biz o'rganilayotgan narsa hodisa va voqealar haqida fikr yuritishimiz jarayonida til – tafakkur va nutqiy faoliyat baravar ishtirok etadi. Bu ijtimoiy hodisalar bir-biri bilan shunchalik bog'liqqi go'yoki bir hodisadek tushiniladi. Tafakkur erishgan yutuqlar tilda aks etib nutqiy faoliyatda yuzaga chiqadi. Til sistemasining ishlash jarayonida qatnashadi. Bilish hissiy va ongli bilishga bo'linadi.

Shu bilan birgalikda hissiy bilishning insonlarga ham xosligini va farqini nazardan soqit qilmasligimiz kerak. Professor N.Turniyozev ta'kidlaganidek, bu ikki hodisa umumiy jarayonning ikki bosqichini taqozo etadi. Aqliy bilish sezgilarimizdan, hissiy bilishdan oziqlanadi.

Lekin, shunday bo'lsa-da, tafakkur sezgidan, idrok va tasavvurdan quyidagi jihatlariga ko'ra farqlanadi:

a) tafakkur sezgi organlariga nisbatan narsa va hodisalar mohiyatini chuqurroq ochib beradi;

b) tafakkur sezgimizga nisbatan voqelikni umumiyroq aks ettirib, narsa va hodisalar o'rtasidagi doimiy munosabat, aloqalarni ham aniqlaydi;

v) biz sezgilarimiz orqali narsa-hodisalar orasidagi oddiy munosabatlarni bilamiz [N.Turniyozov, 2002: 71].

Tafakkur qilganimiz uchun ham til har doim taraqqiyotda va rivojlanishda, agar tafakkur bo'lmaganida edi til qotib qolardi, ya'ni rivojlanishdan to'xtardi.

Til bilan tafakkurning o'zaro munosabati tilshunoslikda ham, falsafada ham eng muhim murakkab muammolardan biridir. Shu bois mazkur mavzuni o'rganishga qaratilgan mashg'ulotlarda talabalar bu muammolarning fanda anchagina o'rganilganligini, ular o'zaro dialektik bog'liq bo'lgani holda, har biri faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlariga ko'ra farqlanishini ham e'tibor markazida tutmog'i muhim.

Psixologik nuqtai nazardan tafakkurimiz ifodalovchisidan ajratib olinganda, bo'laklarga bo'linmaydigan amorf massadan iborat. Faylasuflar va lingvistlar e'tirof etadilarki, belgilar yordamisiz bir tushunchani ikkinchi tushunchadan aniq farqlash mumkin emas. O'z holicha olingan tafakkur go'yo tumanlikka o'xshaydi [A.Nurmonov, 2009: 44]. Tildagi tushunchalar tovushlar orqali ifodalanadi. Bir tovush ikkinchi bir tovushdan ma'no jihatdan farq qilgani uchun, tafakkurimizdagi farqli tushunchalarni ham tovushlar orqali ajratamiz.

Tafakkur insonning bilish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, sezgilar orqali bilishdan farqlidir. Tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog'langanligini aytish mumkin. Chunki tilni tafakkursiz yoki, aksincha, tafakkurni tilsiz tasavvur etish qiyin. Biroq shunday bo'lsa-da, til va

tafakurning har biri o'z ichki tuzilishiga va birliklariga ega. Masalan, fonema, morfema, leksema, so'z-shakl, so'z birikmasi va gap singarilar qoliplari bevosita tilga tegishli birliklar hisoblansa, tushuncha, fikr, hukm va xulosa singarilar tafakkur bilan uzviy bog'liq birliklar hisoblanadi. Aytish joizki, til birliklari ifodalovchi, tafakkur birliklari ifodalanuvchi xususiyatlarga egadir. Til milliy xususiyatga ega, tafakkur esa umuminsoniy xususiyati bilan undan farqlanadi. Tafakkur shakllari va qonun-qoidalari barcha millatlarda bir xildir.

Yuqoridagilardan tashqari shuni ham aytish lozimki, til birliklari bilan tafakkur birliklarini tenglashtirib bo'lmazligiga alohida e'tibor qaratishni tavsiya etamiz. Chunki, mazkur masala doirasida aniq tasavvur hosil etish uchun so'z bilan tushuncha aynan bir-biriga mos kelavermasligi haqida bilish muhimdir. Mustaqil so'zlarni taqozo etuvchi so'zlar tushuncha ifodalay olsa-da, biroq yordamchi so'zlarni taqozo etuvchi til birliklari so'z hisoblansa ham, tushuncha ifodalay olmaydi. Gapni muhokama, xulosa singari tafakkur birliklari bilan tenglashtirib bo'lmazligini talaba chuqur o'zlashtirish uchun gapning barcha turlarini voqea-hodisaning mavjudligi, yo'qligi, rostligi, yolg'onligi kabi jihatlaridan tashqari, so'roq, buyruq mazmunidagi gaplarning borligiga ham e'tibor qaratish zarur. Zero, mantiq qonuniyatlari bunday xususiyatlarga tayanmasligi ma'lum.

18-§. Nutq faoliyati og'zaki va yozma nutq

Til va nutq dialektik munosabati o'zining dastlabki haqiqiy, mukammal ilmiy - nazariy yechimini tilshunoslik fanida keskin burilish yasagan buyuk tilshunos olim Ferdinand do' Sossyur asarlarida topdi [R.Rasulov, 2017: 165].

Til va nutq dialektikasida til o'ziga xos murakkab tuzilishga (strukturaga) ega bo'lgan bir butun sistema sifatida

faoliyat ko'rsatadi. F.do' Sossyur: Til tushunchasi, umuman, nutqiy faoliyat tushunchasiga to'g'ri kelmaydi; til nutqiy faoliyatning faqat muayyan (aniq) va juda muhim qismi. U – ijtimoiy hosila, nutqiy faoliyatga nisbatan tilning har bir sohibida mavjud bo'lgan layoqatning voqelanishi va qo'llanishini ta'minlash maqsadida jamoa tomonidan qabul qilingan zarur tamoyillar majmuidir, – deydi [F. do'. Sossyur, 2019: 17].

A.Rahimov to'g'ri ta'kidlaganidek: “So'zlovchi nutq jarayonida til kodlarining turli kombinatsiyasi asosida o'z istaklarini ifoda etadi. Bunday kombinatsiyaning ob'ektiv voqelanishida esa ruhiy mexanizmlar muhim ahamiyat kasb etadi [A.Rahimov, 2015: 66].

Bu fikrlarga qo'shilgan holda quyidagilarni bayon qilamiz. Til murakkab ideal sistema sifatida nutq faoliyatida tafakkur orqali moddiylashadi. Bayon qilmoqchi bo'lgan fikrlarimizni nutqiy faoliyat orqaligina tinglovchiga yetkazamiz. Nutqiy faoliyat, til, nutq va tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydigan hodisalar sifatida qarashimiz lozim. Nutqiy faoliyat til va nutqqa qaraganda nihoyatda keng tushuncha.

Nutq o'z navbatida ichki va tashqi, og'zaki va yozma shakllarga bo'linadi. Har qanday nutq ma'lum bir so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan tinglovchi yoki o'quvchiga qaratilgan matnning shakllantirilgan tashqi ko'rinishidir. Tildagi birliklar sanoqli, ammo nutqiy faoliyat mahsuli cheksiz va o'rni kelsa takrorlanmasdir. Boshqacha qilib aytganimizda, bir marta ishlatgan jumla (gapimiz)ni ikkinchi marta nafaqat o'zimiz balki, boshqa hech kim ishlatmasligi ham mumkin. Nutqning to'g'ri tuzilganligi uning adabiy til me'yorlariga mosligidir. To'g'ri nutq tuzish uchun so'zlovchi adabiy til me'yorlarini egallab olgan bo'lishi kerak. Makon va zamonda chegaralanganlik, past va baland ohangda aytilish, xato, g'alizlik, sohta va boshqa xususiyatlar mutlaqo nutqqa xos. Bu

xususiyatlarning birortasi ham tilga xos tushunchalar emas. Nutq to'g'ri bo'lishi uchun, asosan, ikki me'yorga – urg'u va grammatik me'yorga qat'iy amal qilishni talab qiladi.

Birinchidan, nutqni to'g'ri tuzishda grammatik vositalarning qo'llash me'yorlari ham muhim o'rin egallaydi.

Ikkinchidan, aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham sharq mutafakkirlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblaganlar.

Uchinchidan, nutqning mantiqiyligi grammatik to'g'ri tuzilmagan nutq ham, fikrni ifodalash uchun muvaffaqiyatsiz tanlangan lug'aviy birlik ham mantiqning buzilishiga olib kelishi tabiiydir. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchiga ifodalanayotgan fikrning to'liq borib yetmasligiga, ba'zan, umuman anglashilmasligiga olib keladi.

To'rtinchidan, nutqning tozaligi deganda, eng avvalo, uning adabiy tilning lisoniy me'yoriga muvofiq kelish-kelmasligi tushuniladi.

Nutq mana shu sanab o'tilgan xususiyatlari bilan tildan ajralib turadi. Albatta, tafakkur sanab o'tilgan nutqqa xos to'rtta xususiyatda bevosita ishtirok etadi. Nutq va tafakkur munosabatlari shu belgilarda yaqqol kesishadi, aniqroq qilib aysak, birlashadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, til bilan tafakkurni bir-biriga teng deyish to'g'ri bo'lmaydi. Bu haqda M.Irisqulov quyidagilarni yozadi: "1) kishi o'ylab yurgan fikrini til orqali ifodalaydi deyish haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Kishi fikrining boshqalarga aytish mumkin bo'lgan qisminigina til yordamida suhbatdoshiga (o'quvchisiga yetkazadi). 2) til moddiy, tafakkur esa g'oyaviy hodisalardir; 3) ikki narsani teng deyish uchun ularning tarkibini ham bir-biri bilan qiyoslash va ular bir-biriga mos kelsa, ularni teng deyishga asos tug'iladi. Ma'lumki, tafakkurni mantiq fani, tilni esa tilshunoslik

o'rganadi. Mantiq fani tafakkurni tarkibiy qismlarga ajratganda, u uch birlikdan: tushuncha, muhokama va xulosadan tarkib topganini qayd etadi. Tilshunoslik fani nutqni tarkibiy qismlarga bo'lganda nutq tovushi (fon), morf, so'z, gap, matnlarga ajratadi. Demak, til va tafakkur birliklari bir-biriga miqdor jihatdan ham to'g'ri kelmaydi; 4) ba'zi olimlar tafakkurdagi tushuncha tildagi so'zga, muhokama esa gapga to'g'ri keladi, degan fikrni ham ilgari surishadi. Ma'lum bo'lishicha bu fikr ham asossiz ekan" [M.Irisqulov, 1992: 238-239]. Mana bu fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, til va tafakkur boshqa-boshqa bo'lgan, ammo bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisalardir. Shunday ekan til va tafakkurni bir-biridan ajratib qo'yish ham mumkin emas. Til sistemasining ishlashi uchun tafakkur zaruriy omildir. Til, nutqiy faoliyat, nutq jarayoni ierarxik munosabatlarida tafakkur bab-baravar qatnashadi. Avvalom bor tafakkur birlamchi qolganlari esa ikkilamchi hodisa sifatida o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. Yoki boshqacha qilib aytsak, tilni tafakkur yaratdi. Til va nutq nutqiy faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi. Shuningdek, bevosita til sistemasining ishlashi, yani nutqiy faoliyat tafakkur orqali voqelanadi.

19-§. Lisoniy va nutqiy birliklar

Til va nutq alohida hodisalar ekan ularning birliklari ham alohida bo'lishi shubhasiz. Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Tilshunoslikda til va nutq birliklarini belgilashda yakdil fikr mavjud emas. Turli xil olimlar turli xil qarashga ega. Aytilayotgan shu fikrlarning o'zi ham til va nutq birliklarini belgilashda ishlatilgan mezonlar ham nisbiy ekanligidan dalolatdir. Ko'pchilik tomonidan til birliklariga: fonema, morfema, leksema va modellar kiritilgan bo'lsa, nutq birliklariga esa: tovush, harf, so'z, so'z birikmasi, gap va matnlar kiritilgan. Til birliklari vertikal qatorda bizning ongimizda

joylashgan bo'lsa, nutq birliklari esa til birliklarining gorizontal qatorga ko'chishidir. Bunda nutqiy faoliyat muhim rol o'ynaydi. Til birliklaridan nutq birliklari hosil qilinadi. Til va nutq birliklari quyidagi qismlardan tashkil topgan.

Fonema. Tilning eng kichik birligi fonemadir. Fonema boshqa mayda qismlarga ajratilmaydi. Fonema tilda eng kichik birlik bo'lgani bilan, eng katta vazifani bajaradi. Barcha birliklar tarkibida fonemalar mavjud bo'ladi. Fonemaning nutqdagi birligi tovush va harfdir. Fonema tovushning ma'no farqlashga xizmat qiladigan turidir. Yoki boshqacha qilib aytsek, fonema so'zlarni tovush jihatdan farqlaydi. Masalan: *bolg'a – bolta, ko'z – so'z, men – sen* kabi. Bolg'a so'zidagi g' o'rniga t (tovush) harfini qo'ydik va yangi so'z yasaldi. Bu so'zdagi faqat t harfi (tovushi) gina fonema hisoblanadi.

Morfema. Tovushlar qo'shib ma'no ifodalaydi. So'zning eng kichik ma'no ifodalovchi qismi morfemadir. So'zning har qanday qismi ham ma'no ifodalavermaydi. Masalan, kitob so'zining birinchi bo'g'ini ki- hech qanday ma'noga ega bo'lmagani uchun morfema ham bo'la olmaydi. Fonema ma'no farqlashga xizmat qiluvchi eng kichik birlik bo'lsa, morfema ma'no ifodalashga xizmat qiluvchi eng kichik birlikdir. Shu sabab ham morfemalar boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydi. Masalan: o'qi+t+uvchi+lik, ish+chi+lar+ga, tadbir+kor+lik kabi so'zlaridagi -t,-uvchi,-lik, -chi, -lar, -ga, -kor, -lik kabilar. Morfema so'z va so'zning tarkibiy qismidan iborat bo'ladi. Shu jihatdan morfemalarni ikkiga: o'zak morfema va affiks morfemalarga bo'lamiz. Morfema har doim bo'g'inga teng kelavermaydi: *ki-tob, qa-lam, daf-tar*. Ba'zan bo'g'inga teng keladi: *sen-ga, gul-ning, men-da*.

Leksema. Leksema til birligi. Uning nutqdagi birligi so'zdir. Leksema fonemalarning qo'shilishidan iborat bo'ladi. Chap tomondan fonema bilan, o'ng tomondan so'z bilan qo'shiladi. Har bir leksema ma'lum bir ma'no ifodalaydi.

Til birligi bo'lgan leksemaning tashqi – ifoda tomoniga uning shakli, tovush jihati – nomema kirs, leksemaning semema, ma'no-mazmun tomoniga denotatlar – narsa, hodisa, harakat, holat, belgi – keng ma'nodagi muayyan predmetlarni nomlaydi [R.Rasulov, 2017: 199]. Masalan: qalam leksemasi anglatgan ma'no denotat tafakkurimizda o'quv quroli degan ma'noni paydo qiladi. Qalam so'zi qalam tushunchasini beruvchi leksemaning ma'nosini shakllantiruvchi q+a+l+a+m fonemalarining sistem bog'lanishi asosida hosil qilingan. Har bir leksema shu kabi denotativ va semantik ma'no ifodasiga ega bo'ladi. Leksema tayyor holda til birligi sifatida nutqqa ko'chiriladi. U hammaga tushunarli bo'lgan so'z tarzida nutqda voqelanadi. Leksema til sistemasining leksik birligidir yoki boshqacha qilib aytsak, lug'at boyligidir.

Model. Tilimizda so'z birikmalari va gaplar tayyor holda uchramaydi. Ularning qolipi yoki andozasi bo'ladi, xolos. Shu qoliplar asosida istalgancha gaplar tuzamiz. Gap tarkibidagi leksemalar, morfemalar ma'lum model qonuniyatlari asosida birikib keladi. Har qanday bir leksema ikkinchi leksema bilan birika olmaydi. Shuningdek, qoliplar ham turlicha bo'ladi. Masalan: ega+kesim gap modeli, *Akmal keldi*, aniqlovchi+kesim gap modeli *katta ko'cha* kabi. Turkiy tillarda gap qolipi bo'yicha avval ega keyin kesim kelsa, Hind – Yevropa tillari qolipi bo'yicha asosan avval kesim keyin ega joylashadi. Til sistemasining ishlashi uchun muhim bo'lgan qolip, tafakkurimizda tayyor turganligi nutqiy faoliyat orqali turli jumalarni to'g'ri tuzishimizda muhim vazifani bajaradi.

Tovush. Fonemaning nutqdagi ko'rinishi tovushdir. Tovush ham fonema kabi boshqa mayda bo'laklarga bo'linmaydi. Yozuvda harf bilan ifodalanadi. Tovushlar tilning moddiy materiali hisoblanadi. Akustik, fiziologik, lingvistik belgilari mavjud bo'ladi. Bir-biridan farqli bo'lgani uchun ma'lum sanoqligina tovushlardan turli-tuman cheksiz so'zlar

yaratiladi. Tovush nutq birligining minimal moddiy birligi sifatida ijtimoiy vazifa bajaradi. Tovush paydo bo'lish tomonidan olib qaralganda birlamchi, fonema esa ikkilamchi. Bular bir – biri bilan chambarchas bog'liq, bir – biriga o'tib turadigan birliklardir. Masalan: *kel – ket, ko'z – so'z, men – sen* kabi. Bu misollarda tovush fonemaga fonema tovushga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Tovush nutqning moddiy materialidir. Akustik jihatdan u past yoki baland eshitilishi mumkin. Tovushni eshitamiz va tafakkurimizda uning ifoda belgisini idrok qilib ma'lum narsaning in'ikosini gavdalandiramiz. Uning eng muhim belgisi bir-biridan farqli bo'lishi sanaladi. Yoqsa, til sistemasida tashilayotgan turfa xil ma'nolarni chiqarolmas edik. Tilimizda mavjud bo'lgan o'ttiztangina ortiq tovushlar orqali 120 000 dan ortiq so'zni hosil qila olmas edik.

So'z. Til birligi sanalgan leksemaning nutqdagi birligi so'zdir. Leksemaning so'zga aylanishi nutqiy faoliyatning roli bilan chambarchas bog'lanadi. So'z nutq jarayonida oydinlashadi, voqelanadi. Ya'ni so'z, aniq moddiy qobiqqa ega bo'ladi. So'zning tilimizdagi vazifasi nominativ vazifa bajarishidir. Ya'ni so'z aniq tushunchani ifodalab, tafakkurimizda tushuncha tasavvurini hosil qiladi. So'z fikr ifodalab kelishidan tashqari alohida gap ham bo'lib kelishi mumkin. So'z xali to'liq o'rganilmagan sath bo'lishi bilan birga, deyarli tilning barcha bo'limlarining ob'ekti hamdir. Har bir so'z fonetik, grammatik va semantik jihatdan shakllangan bo'ladi. Shuningdek, so'z o'zidan katta nutq birliklari sanaladigan: so'z birikmasi, gap va matnning qurilish materialidir.

So'z haqida jahon tilshunosligida turfa xil nazariy qarashlar mavjud. Bu borada olimlar yakdil fikrda emas, shuningdek yagona va mukammal ta'rifi hanuzgacha yaratilgani yo'q. So'z tilning markaziy, yadroviiy, birligi sanaladi. F.Do'.Sossyur so'z haqida shunday deydi: so'zdagi

muhim narsa tovushning o‘zi emas, balki shu so‘zni qolgan barcha so‘zlardan farqlashga imkon beradigan tovushiy farqlardir, chunki aynan shular ma‘no tashuvchilar hamdir [Sossyur, Ferdinand Do‘., 2019: 136]. Professor M.M.Mirtojiyev so‘z o‘z ma‘nosi va o‘z shakli bilan mavjud ekan, u o‘zi ifoda etgan ob‘ekti bilan mantiqan umumiylikka ega bo‘lishi turgan gap. Bu umumiylik o‘sha so‘z leksik ma‘nosi orqali ifoda topgan tushuncha vositasida namoyon bo‘ladi [M.M.Mirtojiyev, 2017: 90], – desa, Professor M.N.Peterson umuman so‘zning qoniqarli ta‘rifi yo‘q, bunday ta‘rifni berish ham qiyin; so‘z – shunday sodda tushunchaki, unga biror mantiqiy ta‘rif berish ham mumkin emas, – deydi [M.N.Peterson, 1929: 27]. Professor T.Bushuy so‘z ko‘p o‘lchovli til birligi bo‘lib, uning ta‘rifini berish uchun turli xususiyatlarini hisobga olishi kerak deb hisoblaydi [T.Bushuy, 2011: 28]. E.Sepir esa, so‘zni vazifaviy birlik emas, shakliy birlik deb qaraydi [E.Sepir, 1934: 221]. Sh.Balli, so‘z tushunchasini tilshunoslikdagi eng noaniq tushuncha, deb ataydi [Sh.Balli, 1935: 315-317]. F.M.Peshkovskiyning so‘z haqidagi quyidagicha fikrini keltirish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz: ”So‘z tilshunoslik fanining o‘ta murakkab tushunchalaridan birini taqozo etadi. Insonning tili so‘z orqali mavjudligiga, tilshunoslikning barcha masalalari so‘z orqali o‘z ifodasini topishiga qaramay, so‘z tushunchasi tilshunoslar uchun jumboq bo‘lib qolmoqda” [A.M.Peshkovskiy, 1925: 122].

Hozirgi tilshunoslikda so‘z va u orqali berilgan tushuncha masalasi har qancha dolzarb bo‘lsa ham, bu sohada hali aniqroq to‘xtamga kelinganini qayd eta olmaymiz.

So‘z birikmasi. So‘z birikmasini o‘rganishda asosan rus tilshunosligida ham, uning ta‘sirida o‘zbek tilshunosligida ham V.V.Vinogradovning ta‘rifiga asoslanilib kelindi. Mana o‘sha mashhur ta‘rif: So‘z birikmasi predmet, harakat birligi va hakoza larni ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lgan, yagona murak-

kab ma'nolarni ifodalaydigan, sintaktik jihatdan tashkil topgan va semantik tomondan bir butun hisoblangan ikki mustaqil so'zning birikuvidir [V.V.Vinogradov, 1954: 10]. Boshqa olimlarning ta'rifiga nisbatan bu ta'rif ancha mukammal va so'z birikmasining tabiatini keng va atroflicha qamrab olganligi bilan ham ajralib turadi. Bu ta'rifda sintaktik va semantik jihatlari ham chetda qolmagan. Yagona murakkab ma'nolarni ifodalaydigan barqarorlik ham nazardan soqit qilinmagan.

So'z birikmalari ikki xil bo'ladi: erkin bog'lanishli so'z birikmalari, turg'un bog'lanishli so'z birikmalari.

Erkin so'z birikmalari til birligi emas. Shu sabab ham, tilimizda mavjud emas. Tilimizda tayyor holda uchramaydi. Nutq jarayonida o'zimiz shakllantiramiz. So'z birikmasi so'z va gap o'rtasidagi kamida ikkita so'zdan tuzilgan nutq birligidir. So'zlardan so'z birikmalarini, so'z birikmalari va so'zlardan gaplarni hosil qilamiz. So'z birikmasi ham nominativ vazifani bajarib, atash ma'nosiga ega bo'ladi. So'z birikmalarida qatnashgan so'zlarning biri hokim so'z bo'lsa, ikkinchisi shu so'zga tobe so'z bo'lib keladi. Shu sabab ham tobe – hokim munosabati asosiga qurilgan bo'ladi. Hokim so'z qaysi so'z turkumi asosida yaratilgan bo'lsa, shu so'z birikmasi ham shunday nom bilan ataladi.

Turg'un so'z birikmalari matn segmentlari tarzida butunligicha olinadi. Ular sintaktik tahlil qilish jarayonida bo'laklarga bo'linmaydi. Yaxlitligicha bir gap bo'lagi vazifasida keladi. Lekin, ularni frazeologik birliklar bilan chalkashtirmasligimiz lozim bo'ladi. *Oliy Majlis, kelajagi buyuk, Buyuk Navoiy* kabi. Bu kabi turg'un so'z birikmalari yaxlitligicha (aniqlovchi va to'ldiruvchi) bitta bo'lak vazifasida kelmoqda. Turg'un holatdagi komponentlar munosabatiga asoslangan so'z birikmalari hududi ancha keng bo'lib, ular jumlasiga sof turg'un birikmalardan tashqari, qo'shma atamalar, turg'un nomlar, parafrazalar, tarkibli

atamalar, soʻz birikmasi qolipidagi turgʻunlik belgisiga ega frazeologik iboralar, murakkab terminlar va ularning idiomatik maʼnoli turlari, frazemalar, metaforik xususiyatga ega boʻlgan birliklar ham kiradi. Bular kichik sintaksisda oʻrganiladi.

Shuningdek, bir nechta soʻzlardan tuzilgan soʻz birikmalariga murakkab soʻz birikmalari deyiladi. Masalan: *Obod qishloq dasturi asosida, yoshlar ittifoqi yigʻilishi, Vatanimiz hududi sarhadlari* kabi. Mana bu soʻz birikmalari tarkibida 3 ta 4 ta soʻzlar ishtirok etgan. Shu sabab ham murakkab soʻz birikmalarini tashkil qilgan.

Soʻz birikmalaridagi hokim soʻzning maʼnosini izohlash va toʻliqroq ifodalash uchun tobe soʻz talab etiladi. Tobe soʻz hokim soʻzning maʼnosini ochishga xizmat qiladi. Masalan: *katta koʻcha, yorugʻ xona, baland bino* kabi.

Soʻz birikmalarida hokim va tobe soʻzning joylashish tartibi teskari munosabat asosiga quriladi. Boshqacha qilib aytsek, birinchi kelgan soʻz tobe soʻz keyin kelgan soʻz esa hokim soʻz boʻladi. Soʻroqni har doim hokim soʻzga beramiz. Soʻz birikmalarida soʻzlar grammatik, semantik va sintaktik munosabat asosida birikadi. Soʻz birikmalaridan qoʻshma soʻzlar kelib chiqadi.

Gap. Gap fikr ifodasini beruvchi kommunikativ birlikdir. Jahon tilshunosligida gapga xilma-xil taʼriflar berilgan. Gap nisbiy tugallangan, tugallangan ohang bilan aytiluvchi fikr ifodasini beruvchi nutq birligidir. Gaplarni toʻliq tugallangan fikr ifodasini beruvchi deya olmasligimizga sabab, matn tarkibidagi har qanday gap ham alohida nisbiy tugallangan boʻladi, sababi keyingi gap bilan ham semantik jihatdan bogʻlangan boʻladi. Matn tarkibidagi barcha gaplarning oʻrtasida semantik bogʻliqlik seziladi. Yaʼni biri bogʻdan, ikkinchisi togʻdan boʻlmaydi.

Biz gap orqali bir-birimiz bilan aloqaga kirishamiz, muloqat qilamiz. Muloqatning eng kichik birligi ham gap

hisoblanadi. Gaplar soʻz va soʻz birikmalaridan tuziladi. Birgina soʻz va soʻz birikmalari orqali kommunikativ vazifa bajaruvchi gapning aloqa munosabatini bera olmaymiz. Gapda intonatsiya ham muhim rol oʻynaydi. Shakllangan va tugallangan intonatsiya gapning shakllanishiga xizmat qiladi. Predikativlik ham gapning muhim belgilaridan biridir. Gaplarni tuzilishiga koʻra: sodda gap, qoʻshma gap kabi turlarga boʻlib oʻrganamiz. Gap shakllanishi uchun subʼekt (ega), predikat (kesim) boʻlishi birlamchi vosita sanaladi. Tilshunoslikning galdagi vazifasi, jonli nutqda jumlar qanday boʻlsa, shundayligicha oʻrganishdir. Tilni oldindan yasab olingan qoliplarga solib oʻrganishdan qochishimiz, nutq lingvistikasining bosh talablaridan biridir.

Matn. Eng yirik nutq birligi matndir. Matnning nutq birligi ekanligi masalasi bevosita nutqiy faoliyat mahsuli ekanligini koʻrsatadi.

Gap matnning qurilish materiali tarzida talqin etilganda masala mohiyatini nisbiy tushunish kerak, chunki, bu oʻrinda mustaqil soʻz va soʻz birikmasining matn tarzida maxsus qoʻllanishi eʼtiborga olinmaydi. Ayni paytda bogʻlanishli nutq materiali nazarda tutilmoqda.

Kommunikativ birlik deganda, muloqot birligini tushunamiz, muloqot esa, oʻz navbatida, nutqda shakllanadi.

Chex tilshunosi Yan Korjenskiy matn talqinini *semantik va pragmatik komponent* tushunchalari bilan bogʻlab olib boradi. Bunda u semantik komponent birinchi galda matn materialini uyushtiruvchi maʼno baʼzasi hamda uning voqelanishini taʼminlovchi vositalarni taqozo etishini taʼkidlaydi. Olim semantik komponent jumlasiga soʻzlovchini, yaʼni inson omilini ham kiritadi. Pragmatik komponent deganda esa, maʼno ifodasi sistemasida ahamiyat kasb etuvchi munosabatlarni tushunadi. Masalan, *men, sen, u, biz, siz, ular* kabi kishilik olmoshlarini pragmatik unsurlar jumlasiga kiritish

mumkin. Ko'rsatish va so'roq olmoshlari esa, kishilik olmoshlaridan farqli ravishda, semantik, yoxud matn komponentlari sirasiga kiradi. Chunki ular aktantlar o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Kishilik olmoshlari esa aktant vazifasida keladi.

Matn tarkibida mavjud bo'lgan morfologik vositalarning ham birini matn komponenti deb, ikkinchisini semantik komponent deb ajratib o'rganish uchun ham, bizningcha, ehtiyoj sezilmaydi. Zotan, ularning barchasi matn komponentlaridir. Matn komponentlarining semantik yoki sintaktik jihatlari haqida so'z yuritilganda, ularning har birini yo semantik, yoxud sintaktik rejaga ko'ra o'rganish o'z-o'zidan talab qilinishi shubhasizdir [N.Turniyozov, 2012: 65].

M.V.Lyapon ham matn lingvistikasi muammolarini murakkab sintaktik qurilmalar asosida talqin etadi. U matn tavsifi quyidagi to'rt konsepsiyaga asoslanishi mumkinligini ko'rsatadi:

1.Matn – bu jumalarning o'zaro munosabatidan kelib chiquvchi xabardir. Matn tadqiqotchi uchun til hodisalarini o'rganishda birdan-bir manbadir.

2.Matn – bu so'zlovchining nutqiy qobiliyatini ro'yobga chiqaruvchi vositadir. Bu jarayonda matn tilning nutqda real qo'llanilishini ta'minlovchi makon vazifasini ham bajaradi.

3.Matn – bu so'zlovchining faol nutqiy faoliyati mahsulidir.

4.Matn – bu til sistemasining kommunikativ jarayonda muhim funksiya bajaruvchi eng yuqori pog'onasidir.

20-§. Lisoniy paradigma va munosabatlarning asosiy turlari

Til sistemasi birliklari biri boshqasi bilan bog'liq tarzda yashar ekan, bunda ularning birinchi navbatda paradigmatic va sintagmatic munosabatlari namoyon bo'ladi. Lisoniy

paradigma til birliklarining paradigmatic munosabatda aloqaga kirishuvidir. Tilshunoslikda paradigma termini ikki xil ma'noni anglatadi. 1.Tilning sistemasi va strukturasi qoidalariga mos holda muayyan invariant doirasida mavjud bo'lgan variantlar. Bu variantlardan biri kommunikativ jarayonda har so'zlovchi tomonidan tanlanadi. 2.Nutq zanjirida til sistemasi unsurlarining tasniflanishi [R.Kobrin, 1987: 31]. Lisoniy paradigmadagi til birliklari bo'lgan fonema, morfema, so'z va gapning aloqaga kirishuvi orqali sintagmatik qatorda nutqiy faoliyatni shakllantirishini tushinamiz. Albatta, har qanday kichik birlik o'zidan katta birlik ichida faollashadi. Masalan, fonemalar morfemada, morfemalar so'zda, so'zlar gapning ichida ham paradigmatic ham sintagmatik zanjirni hosil qiladi. Paradigmatic munosabatda kelgan til birliklari vertikal xarakterli bo'ladi. Ba'zi olimlar paradigma tushunchasini tilga, sintagma tushunchasini esa faqat nutqqa tegishli deydi. Fonemalar vertikal holatda bog'lanib sistema ichida makroparadigma holida shakllanadi. Ular amalda qo'llanilganda sintagmatik munosabatni taqozo etadi.

Nazorat uchun savollar:

1.Til va nutqiy faoliyat tushunchalari o'zaro qanday munosabatda?

2.Nutq faoliyatning og'zaki va yozma nutqqa ta'siri?

3.Til tafakkurning paydo bo'lishi, ularning rivojlanishi haqida qanday fikrdasiz?

3.Lisoniy paradigma va munosabatlarning asosiy turlari deganda nimalarni tushunasiz?

4.Nima uchun til moddiy – akustik, tafakkur esa ma'naviy – g'oyaviy xususiyatiga ega?

5.Nima uchun til milliy, tafakkur esa umuminsoniy xususiyatga ega?

6.Til va tafakkur birliklarining o'ziga xos xususiyatlarini nimalardan iborat?

7.Lisoniy tasnif asoslari. Til ham, nutq ham aloqa vositasi. Farqlari nima?

Tayanch soʻz va birikmalar:

Nutqiy faoliyat, sintagmatik, tafakkur, individual hodisa, ijtimoiy hodisa, til va nutq, bilish jarayoni, aqliy bilish, ongli bilish, nutq munosabati, sezgi, idrok va tasavvur, tushuncha, fikr, hukm, xulosa, dialektik munosabat, sistema, til kodlari, obʼektiv voqelanish, ruhiy mexanizm, ideal sistema, nutqning mantiqiyligi, nutqning tozaligi, lisoniy meʼyor.

Adabiyotlar:

1.Turniyozov N.Tilshunoslikka kirish., –Samarqand: 2002. –76 b.

2.Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. –Toshkent: “Taʼlim”, 2009. –160 b.

3.Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –312 b.

4.Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –308 б.

5.Rahimov A. Umumiy tilshunoslik kursi. –Samarqand, 2015. –123 b.

6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: “Oʻqituvchi”, 1992. –256 b.

7.Кобрин Р. Языковые отношения и базовые единицы языка // Вопросы языкознания, 1987, № 5. –С.31.

TIL – RAMZLAR TIZIMI

21-§. Tilning semiotik tabiati

Semiotika boshqa fanlar qatori lingvistikaga tegishli bo‘lib, aloqa vositasi bo‘lgan inson tilini o‘rganadi. Semiotika lingvistikadan materiallar yig‘adi, shuningdek, kibernetikadan, biologiyadan, psixologiyadan, jamiyatshunoslikdan, madaniyat tarixidan, adabiyotshunoslikdan foydalanadi. Shunga qaramay, o‘z navbatida, u ham ushbu fanlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi, ya’ni u fanlarning birlashishidan rivojlanadi.

Semiotik fikrlar belgilarning tushunchalar bilan bog‘lanishida, belgining muammosi bilan Arastu va B.Brextlar shug‘ullanganlar. Shuni aytish kerakki, belgilar muammosining tarixini Yevropaliklar doimo o‘rganib kelishgan. Qadimgi Rim antik davrida ham semiotika o‘rganilgan. XVI-XVII asrlarda belgilar muammolari bilan Lokk, Gassendi, Kondilyaklar shug‘ullanishgan. Tilshunos olim Ferdinand do‘ Sossyur umumiy ko‘rinishdagi til birliklarini o‘rganib chiqadi. Til belgisining sxemasini yaratadi. Sossyur belgilar nazariyasida ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlar borligini aytadi. Masalan, kitob so‘zining ifodalovchi tomoni ikkita unli va uchta undosh, jami beshta k, i, t, o, b harflaridan iboratdir. Ifodalanuvchi tomoni esa uning leksik ma‘nosi sanaladi. Ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlar mavjudligi barcha mustaqil so‘zlarga xosdir.

Ferdinand do‘ Sossyur lisoniy belgining tabiati haqida alohida fikr yuritgan. Belgilarni ikki tamoyilga asoslanib o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi. Birinchi tamoyil belgining ixtiyoriyligi, ikkinchi tamoyil esa ifodalovchining chiziqli xarakteri, shuningdek belgining o‘zgarmasligi va o‘zgaruvchanligi haqida to‘xtalgan.

Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi izoh talab qilmaydi, albatta. Shuningdek, tilning kishilar o‘rtasidagi eng muhim

aloqa vositasi sifatida ta'riflanganiligi ham ma'lum. Lekin bu ta'rif tilning vazifasiga ko'ra mohiyatini belgilab beradi. Tilning material nuqtai nazaridan nimani taqozo etishining bunga aloqasi yo'q. Bu jihatdan til o'ziga xos murakkab sistemani tashkil etadi. Shuning uchun Ferdinand do' Sossyur: "Til tafakkurni ifoda qiluvchi belgilar yig'indisidan iboratdir", – deb javob beradi. Shuning uchun Sossyur lingvistik ta'limotida lingvistik belgi masalasi markaziy o'rinni egallaydi [A.Nurmonov, 2009: 35]. Lisoniy belgi narsa bilan uning nomini emas, balki tushuncha va akustik obrazni bog'laydi. Akustik obraz esa moddiy sado ham, sof fizik narsa ham emas. Undagi sadoning psixik alomatidan his etish organlarimiz vositasida oladiganimiz – tasavvurdir [F. do'. Sossyur, 2019: 77].

Xulosa qilib aytganimizda, biz bir so'zni eshitganimizda avvalo u haqda o'ylaymiz, fikrlaymiz keyin ongimizda in'ikosi gavdalanadi. Idrok etayotganimizda eshitilgan so'zning muhim belgisi o'sha narsani to'liq tasavvur qilishimiz uchun birinchi omil bo'lib xizmat qiladi.

22-§. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati

Til belgilari xususidagi fikrlarda, yuqorida qayd etilganidek, F. do' Sossyur, asosan, morfemalarni va so'zlarni e'tiborga oladi va ularni belgi deb talqin etadi. Bugungi tilshunoslikda so'z birikmalari va hatto gap ham belgi deb tan olinmoqda [V.G.Gak,1989: 46]. Buning asosiy sababi ularning ikki jihatga – mazmuniy va shakliy yaxlitlikka ega bo'lishidir. Shuning uchun fonemalarni til belgilari jumlasiga kiritib bo'lmaydi. Chunki ularda shakliy butunlik, nutq tovushiga xoslik mavjud, xolos. Fonemalar, shunday bo'lishiga qaramay, til belgilarining xom ashyosi sanaladi.

Belgi tanlash masalasi ham salmoqli mavqega egadir. Bu haqda F.do' Sossyur muhim ilmiy ahamiyatga molik fikr bildiradi. Uning fikriga ko'ra, belgi tanlash erkin bo'lib, u har

bir xususiy sistemaning ichki qonun-qoidolari asosida amalga oshiriladi. Biroq buni nisbiy tushunmoq lozim. Chunki har qanday belgi ham til sistemasining faol a'zosiga aylangach, uni o'zgartirib bo'lmaydi va natijada erkinlik tushunchasi kun tartibidan tushiriladi. Til belgilari sistemani tashkil etar ekan, ular tilning ijtimoiyligi uchun faol xizmat qiladi. Biroq, belgi tildan nutqqa ko'chirilgach, unda xususiylik alomatlari vujudga kela boshlaydi. Chunki nutq o'z mohiyatiga ko'ra xususiydir. Shuning uchun biz til bilan nutqni F. do' Sossyur dixotomiyasiga ko'ra birini ikkinchisiga qarama-qarshi qo'yib o'rganamiz. Mazkur qarama-qarshilik ular o'rtasidagi umumiylik va xususiylik, virtuallik va aktuallik, statiklik va dinamiklik kabi farqlarda aniq ko'zga tashlanadi. Demak, til bilan nutq bir-biriga asosli ravishda suyansa ham, ular mushtarak hodisalar emas. Lekin til bilan nutq o'rtasida uzviylik mavjudligini inkor etib bo'lmaydi, zotan, til nutq uchun kerak bo'lsa, nutq ham, o'z navbatida, til uchun zarurdir. Nutq materiali til hisoblanadi, tilning esa qo'llanish ob'ekti nutqdir.

Tilning semiotik tabiatini o'rganadigan fan semiotika deb nomlanadi. Semiotika belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot sifatida belgilarni, hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati kabilarni o'rganadi. Semiotikada ikki turdagi, ikki tipdagi belgilar farqlanadi, ya'ni tabiiy belgilar (yoki belgilar – priznaklar) va sun'iy belgilar (yoki belgilar – informatorlar) [R.Rasulov, 2017: 186]. Semiotikada belgi va tushunchalar munosabatlari o'rganiladi. Matndagi belgilar sistemasi tilning semiotik tabiatini taqozo etadi. Belgilar tabiiy va sun'iy belgilarga bo'linadi. Tabiiy belgilarga telefonlarimizga SMS kelganda chalinadigan gudoklar, yomg'ir yoki qor yog'ishidan oldin osmonga to'plangan quyuq bulutlar kiradi. Bu belgilar ongimizda ma'lum tushunchalarni uyg'otadi.

Sun'iy belgilar shartli belgilardir. Shartli belgilar axborot almashinuviga xizmat qiladi. Kommunikativ belgi sifatida til belgilari hisoblanadi. Sun'iy belgilar soʻz, gaplar kabi kommunikativ maʼno ifodalaydi. Tilni tafakkur va jamiyat bilan bogʻlaydi.

Signallar, belgilar, mimika kabi yordamchi aloqa vositalari qoʻllanish doirasining chegaralanganligi bilan tildan farq qiladi. Til jamiyat faoliyatining hamma sohasida eng muhim aloqa vositasi sifatida xizmat qiladi [N.Uluqov, 2016:16]. Professor N.Uluqov toʻgʻri taʼkidlaganidek, semiotik vositalar, signallar, belgilar, mimika kabilar yordamchi aloqa vositalari hisoblanadi.

23-§. Til strukturasi elementlari – til sathlari


Shunga eʼtibor berish kerakki, til belgilari oʻziga xos semiologik sistemani (ishoralar sistemasini) tashkil etadi. Ammo bu ishoralar yoki belgilar boshqa shunga oʻxshash belgilardan farq qiladi. Masalan, yoʻl qoidalari belgilari. Albatta, bu belgilar ham oʻziga xos tildir. Biroq ularni mashina haydovchilar koʻproq tushunadilar va bu belgilar shu doirada faol xizmat qiladi. Demak, bunday belgilarni ijtimoiy hodisa deb boʻlmaydi. Boshqacha aytganda, ular ruhiy holat bilan bogʻlana olmaydi.

Semiotika lingvistikaga ham judayam yaqin boʻlib, eng toʻla va aniq aloqa tizimi boʻlgan – odamzod tilini oʻrganadi [I.Yoʻldoshev, Oʻ.Sharipova, 2007: 185].

Til quruq axborotning oʻzinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga yetkazmasdan gapiruvchining unga munosabatini, uning xohish - istagi va bahosi, ruhiy holatini ham aks ettiradi. Tildan boshqa barcha signal sistemalari oʻzgaruvchan xarakterga ega. Masalan, yoʻl qoidalarini bildiruvchi biror belgini yaxshiroqʻi bilan almashtirish mumkin. Lekin tilda bunga yoʻl qoʻyilmaydi. Til unsurlari maʼlum bir shaxsning

xohishiga ko'ra o'zgarib ketavermaydi. Til o'zining ichki qonunlariga ko'ra jamiyat ta'sirida rivojlanadi va o'zgaradi. Ma'lum kishilar kelishib tilda o'zgarish qilsa ham til sistemasi qabul qilmaydi. Bu belgilar o'sha kishilar uchun tushunarli bo'ladi, xolos. Biror bir belgi til sistemasiga kirdimi, uni chiqarib tashlay olmaysiz. Biz tilimizning yaqin tarixida tilga o'zgartirishlar kiritishga urinishlar qilib ko'rdik. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida: *aeraportni* → *tayyoragoh*, *samalyotni* → *tayyora*, *institutni* → *oliygoh*, *universitetni* → *dorulfunun*, *fakultetni* → *kulliyot*, *gazetani* → *haftanoma*, *jurnalni* → *oynoma* va hakoza yuzlab so'zlarni o'zgartirmoqchi bo'ldik, bo'lmadi.

Til amalda qo'llanilganda, uning sistemasi tarkibidagi belgilar nutqqa ko'chiriladi va nisbatan kichikroq belgining har biri o'zidan katta belgi tarkibida faollik oladi. Bundan tashqari, ma'lum bir belgi ikkinchisining o'rnida qo'llanilishi ham mumkin. Masalan :



Belgi strukturasi haqida ikkita qarama-qarshi fikr bor. Birinchi fikr tarafdorlari belgini ham ifoda planiga, ham material va mazmun planiga ega, deyдилar. Bu nuqtai nazarga qarama-qarshi turgan ko'p sonli olimlar belgi bir tomonlama hodisa, u faqat ifoda planiga ega, belgi hamma vaqt mazmun bilan alohida, deb hisoblaydilar. Birinchi nuqtai nazar tarafdorlari uchun ma'no bu belgi munosabatining predmet yoki tushuncha turlarida ifodalanishidir, bilim fakti haqiqatni real aks ettirishdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyat bo'lmas ekan, til ham bo'lmaydi. Jamiyat undan kundalik muomala ehtiyojlarida foydalanmas ekan, u rivojlanishdan to'xtaydi. Demak, til va jamiyat bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Boshqa

signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchidir. Ular tilda qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, uni to'ldiradi.

Ma'noga bunday yondashuv ishorada aks etilmasligi mumkin emas. Chunki, 1) tovush qatori faqat predmetni ko'rsatmaydi; 2) belgi shartli, ixtiyoriy, mazmun esa shartli emas, u haqiqatni aks ettirishda aniqlanadi; 3) ma'no bilim fakti, miyada saqlanadi, belgi hamma vaqt undan tashqaridadir.

Belgilar sistemasini o'rganish, uni sistemalashtirish bilan bog'liq ko'plab muammolarning paydo bo'lishi tilshunoslikka yaqin bo'lgan maxsus semiotika fanini yuzaga keltirdi. Bu fan miloddan avvalgi davrga borib taqaladi. Antik davr olimi Demokritning so'z va predmet haqidagi munozaralari fikrimizning dalilidir.

Semiotikaning beshta yo'nalishi bor:

1. Mavjud tabiiy va biologik belgilarni o'rganuvchi biosemiotik yo'nalish.

2. Insonning madaniyati darajasi, urf-odati va holatini tasvirlovchi etnosemantik yo'nalish.

3. Tabiiy tillarni, ularning uslubiy va bir-biridan ajralmaydigan belgilar sistemasini o'rganadigan lingvosemiotik yo'nalish.

4. Belgilangan material bilan bog'liq bo'lmagan holda o'ziga xos umumiy xususiyatlarni belgilovchi mavhum semiotik yo'nalish.

5. Mazkur yo'nalishlarning hammasi uchun umumiy bo'lgan masalalarni o'rganuvchi umumiy semiotik yo'nalish.

Bilim – sub'ektning tevarak-atrofdagi olamni idrok ettirishga qaratilgan faoliyatdir. Bilim buyumlarni, voqealarni, harakatlarni va shu kabilarni ko'rsatuvchi belgilar sistemasi shaklida yuzaga chiqadi. Belgi bilan ma'no ajralmasdir: ma'nosiz belgi, belgisiz ma'no bo'lishi mumkin emas.

24-§. Tilshunoslik fani bo‘limlari

Boshqa fanlar kabi tilshunoslikni ham bir nechta qismlarga bo‘lib o‘rganamiz. Har bir bo‘limning o‘z o‘rganish sohasi, ob‘ekti mavjud. Tilshunoslik fani quyidagi bo‘limlarga bo‘lib o‘rganiladi.

1.Fonetika bo‘limida nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u kabi masalalar har taraflama o‘rganiladi.

2.Leksikologiya tilning lug‘at boyligini o‘rganadi. Bunda so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari, ma‘no kengayishi, torayishi, faol va nafaol so‘zlar kabi masalalar o‘rganiladi.

3.Leksikografiya bo‘limida lug‘at tuzish tamoyillari va turlari tadqiq qilinadi.

4.Frazeologiya bo‘limida so‘zlarning ko‘chma ma‘noda ishlatilishi, frazeologik turg‘un birikmalar va ularning turlari har tomonlama o‘rganiladi.

5.So‘z yasalishi bo‘limida so‘z yasash usullari tahlil qilinadi.

6.Semasiologiyada til belgilarining ma‘no turlari tadqiq etiladi. Sema yunoncha so‘z bo‘lib ma‘no, logiya ta‘limot demakdir. Semasiologiyada so‘zning ma‘no xususiyatlari o‘rganiladi.

7.Morfemika bo‘limida so‘zning tarkibiy qismi bo‘lmish o‘zak, negiz, qo‘shimchalar va ularning turlari tadqiq qilinadi.

8.Grammatikada tilning grammatik qurilishi, grammatik kategoriyalari tadqiq qilinadi. Grammatika ikki tarkibiy qismga ajratiladi: Morfologiyada so‘z turkumlari, sintaksisda esa so‘z birikmasi, gap va uning turlari o‘rganiladi.

9.Orfografiya bo‘limida so‘zning to‘g‘ri yozilish qonun qoidalari o‘rganiladi. Orfo lotincha so‘z bo‘lib to‘g‘ri grafiya yozaman demakdir. Bunda bosh harflar imlosi, bo‘g‘in ko‘chirilishi, so‘zlarni ajratib yozish, qo‘shib yozish, chiziqcha bilan yozish kabi masalalar o‘rganiladi.

10.Orfoepiya bo'limida tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish me'yorlari o'rganiladi. Orfo lotincha so'z bo'lib to'g'ri epiya gapiraman demakdir. Bunda urg'uni to'g'ri qo'yish, to'g'ri nafas olish masalalari ham o'rganiladi.

11.Punktuatsiya bo'limida mavjud bo'lgan tinish belgilarini to'g'ri qo'llash tamoyillari o'rganiladi.

12.Til tarixi bo'limida til tarixida bo'lgan fonetik, lug'at boyligi va grammatikada sodir bo'lgan o'zgarishlar tekshiriladi.

13.Dialektologiya bo'limida tildagi lahja va shevalarga oid so'zlar o'rganiladi.

14.Uslubiyat bo'limida nutq uslublari har tomonlama o'rganiladi.

15.Etimologiya bo'limida so'zlarning kelib chiqishi, qaysi tildan o'zlashganligi va tarixiy rivojlanish taraqqiyoti tadqiq qilinadi.

16.Onomosiologiya bo'limida narsa va predmetlarga, voqea hodisalarga nom berish jarayoni tadqiq etiladi. Onamastikada atoqli otlar o'rganiladi. Atoqli otlar ham o'z navbatida ikkiga bo'linadi: antroponimika ism va familiyalarni o'rgansa, toponimika joy nomlarini tadqiq qiladi.

17.Grafika bo'limida har bir tilning harflar tizimi o'rganiladi va hakoza.

Tilning mana shu sanab o'tilgan asosiy bo'limlari tilning lug'at boyligini tashkil etadi.

25-§. Tilning fonetik tuzilishi, morfologik qurilishi, so'z yasalishi va lug'at tarkibi

Til strukturasi (qurilishi)ga ko'ra, tilshunoslik, asosan, fonetika-fonologiya, leksikologiya va morfologiya, sintaksis deb nomlanuvchi to'rt bo'limdan tashkil topadi. Uning ichki sistemasi va taraqqiyoti bilan bog'liq barcha muammolar ana shular bilan uzviy tutashadi. Fonetika tilshunoslik fanining

mustaqil bo'limlaridan biri bo'lib, unda nutq tovushlari o'rganiladi. Nutq tovushlari tilimizning xomashyosi, uning moddiy boyligi hisoblanadi, zotan, inson tili tovushlar orqali mavjuddir. Tilning barcha birliklari oddiy fonema (bir-biridan farqlanuvchi tovush)lardan boshlab matngacha ana shu tovushlar yordamida o'z ifodasini topadi.

Fonetikaning asosiy predmetini tovushlarning akustik va artikulyasion xarakteristikasi tashkil etadi. Artikulyasiya deganda nutq a'zolarining tovush hosil qilish vaqtidagi harakati va holatini tushunamiz. Tovush hosil qilishda hamma nutq organlari bir xil qatnashmaydi. Ba'zi organlar faol qatnashsa, ba'zilar passiv ishtirok etadi. Shu sabab ham undoshlarni ikki xil artikulyasiya o'rniga ko'ra va artikulyasiya usuliga ko'ra tasnif qilamiz. Hosil bo'lish o'rnidan havo oqimining portlab yoki sirg'alib o'tishi artikulyasiya usuli deb ataladi.

Ammo nutq tovushlari sof lingvistik jihatdan ham o'rganiladi. Bunda tovushlarning funksional jihatlari fonologiyaning predmetini tashkil etadi. Fonologiya - fonetik ma'lumotlarga asoslanuvchi va fonetikaning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi, fonemalarning funksional qimmatini o'rganuvchi sohadir.

Fonema tildagi o'zidan yuqori bo'lgan birliklarni, ya'ni morfemalar, so'z, so'z formalarini va morfemalarni tashkil etuvchi va ularni farqlashga xizmat qiluvchi tilning eng kichik birligidir. Demak, fonetikasi inson nutqining material tomonini, ya'ni artikulyatsiyasi va akustikasi haqidagi fan deb, fonologiyani esa tildagi tovushlarning ma'nosini farqlashga xizmat qiluvchi, ularning funksional jihatlari o'rganuvchi fan deb atash mumkin.

Fonetika tovushlarni akustik va artikulyasion jihatdan o'rganadi. Tovushlarning funksional tomonini fonologiya o'rganadi. Fonema tilda eng katta vazifa bajaruvchi eng kichik birlikdir. Chunki fonemadan kichik birlik mavjud emas.

Boshqa birliklar kabi u mayda birliklarga bo‘linmaydi. Eng katta vazifa bajarishiga sabab barcha birliklar tarkibida fonema mavjud bo‘ladi.

O‘pkadan kelayotgan havo oqimi turli xil to‘siqqa uchrab, tovush hosil qiladi va buni biz eshitamiz. Har bir tovushning tembri bo‘lib, akustika ana shu narsa bilan bog‘liqdir. Tovushni talaffuz qilganimizda tembrining balandligi, kuchi, qisqa yoki cho‘ziqligi bir-biridan farq qiladi. Bu narsa tebranishning miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Tebranish qancha ko‘p bo‘lsa, tovush tembri shuncha baland bo‘ladi. Tebranish shiddati nutq tovushining kuchiga bog‘liq bo‘ladi. Tebranish darajasi qanchalik katta bo‘lsa, shiddatli bo‘lsa, tovush ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Tovushning kuchi havoning nutq a‘zolarimizga qanday zarb bilan urilishiga qarab har xil bo‘ladi. Shu asosda undosh tovushlarni tasnif qilamiz.

Nutq tovushlari nutq apparati ishtirokida hosil qilinadi. Nutq apparatiga, o‘z navbatida, quyidagilar kiradi:

a) bronxlar, traxeya, diafragma, ko‘krak qafasi organlari o‘pkadan kelayotgan havo oqimini bo‘g‘iz, og‘iz, burun bo‘shliklariga yetkazib berish vazifasini o‘taydi;

b) bo‘g‘izdagi halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon tog‘aylar va un paychalari organlari, bu apparatlar bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan. Ovoz bo‘g‘iz bo‘shlig‘ida hosil bo‘ladi;

v) til, kichik til, tanglay, lablar va tishlar og‘izda joylashgani sababli, og‘iz bo‘shlig‘i apparatlari deyiladi. O‘pkadan kelayotgan havo oqimi turli xil to‘siqlarga uchrashi natijasida portlashi yoki sirg‘alishi sodir bo‘lib portlaydi yoki sirg‘aladi va shovqin hosil qilinadi. Shovqin og‘iz bo‘shlig‘ida paydo bo‘ladi;

g) burun bo‘shlig‘i apparati *m*, *n*, *ng* tovushlarini hosil qilishda o‘pkadan kelayotgan havo oqimining ma‘lum bir

qismi burun bo'shlig'i devorchalariga urilib, qo'shimcha jilo, ton hosil qiladi.

Nutq a'zolarining tovush hosil qilishda o'rinlari turlicha bo'lib, til, kichik til, lablar, yumshoq tanglay va un paychalari aktiv a'zolar hisoblanadi. Tishlar, qattiq tanglay va burun bo'shlig'i passiv a'zolar sanaladi.

Undosh tovushlar tasnifi. Undosh tovushlarni uch tomondan tasnif qilish orqali o'rganamiz. 1. Artikulyasiya (hosil bo'lish) o'rniga ko'ra. 2. Artikulyasiya (hosil bo'lish) usuliga ko'ra. 3. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra.

1. Artikulyasiya o'rniga ko'ra har bir tovushning qaysi nutq organida paydo bo'lishi o'rganiladi. Bunda ham o'z navbatida undoshlarni uch guruhga bo'lib o'rganamiz. a) lab undoshlari; b) til undoshlari; v) bo'g'iz undoshi.

Bevosita lablar ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar lab undoshlaridir. Bularga: *b, p, m, v, f* tovushlari kiradi. Bular ham o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi: a) *b, p, m* undoshlari lab-lab; b) *v, f* undoshlari pastki lab va yuqori tishlar orasida hosil bo'ladi. Shu tufayli ham *v, f* tovushlari esa lib-tish undoshlari hisoblanadi.

Bevosita til ishtirokida hosil bo'luvchi tovushlar til undoshlaridir. Til undoshlari ham o'z navbatida quyidagi uch guruhga bo'linadi: a) til oldi undoshlari: *d, j, dj, z, y, k, l, n, ng, r, s, t, x, s, ch, sh, q, g'*; b) til o'rta undoshi: *y*. Bu tovush tilning o'rta qismida hosil bo'luvchi birgina undoshdir; v) til orqa undoshlari til va tanglayning orqa qismida hosil bo'luvchi undoshlardir. Ularga: *k, g, ng, q, g', x* tovushlari kiradi. Bular ham o'z navbatida yana ikkiga bo'linadi: *k, g, ng* sayoz til orqa, *q, g', x* chuqur til orqa undoshlaridir.

Bo'g'izdagi un paychalari hosil qilgan oraliqdan o'tishi orqali paydo bo'luvchi birgina *h* undosh tovushi bo'g'iz undoshi deyiladi.

2.Artikulyasiya (hosil bo‘lish) usuliga ko‘ra tasnifda nutq organlari hosil qilgan to‘siqdan havo oqimining portlab yoki sirg‘alib o‘tishi nazarga olinadi. Bu tasnifga ko‘ra undosh tovushlar uch guruhga bo‘linadi: a) portlovchi undoshlar: *b, g, d, dj, k, p, t, s, ch, q*. Bu undoshlarni talaffuz qilganimizda nutq organlari hosil qilgan to‘siqdan chiqishda portlaydi. Shu sabab ham portlovchi undosh tovushlar deyiladi; b) sirg‘aluvchi undoshlar: *v, j, z, y, s, f, x, sh, g‘, h*. Bu tovushlarni talaffuz qilganimizda nutq organlari hosil qilgan to‘siqlardan sirg‘alib o‘tishi natijasida hosil bo‘ladi; v) portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlar: *m, n, ng, l, r*. Bu tovushlarni hosil qilishda bir paytning o‘zida ham portlash ham sirg‘alish sodir etiladi. Shu sabab ham bu tovushlarni portlovchi-sirg‘aluvchi undoshlar deb nomlaymiz. Bularidan *l* undoshi tilning ikki yonida ochilib qolgan oraliqdan sirg‘alib o‘tganligi uchun yon tovushi ham deyiladi. *R* undoshini hosil qilishda ham portlash ham sirg‘alishdan tashqari til titraganligi sababli titroq undoshi ham deyiladi. *M, n, ng* undoshlari talaffuzida ham portlash, ham sirg‘alishdan tashqari havo oqimining bir qismi burundan chiqqanligi tufayli burun tovushlari deyiladi.

3.Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra undosh tovushlar yana ikki turga bo‘linadi: a) sonorlar: *m, n, ng, l, r*. Bu tovushlar tarkibida ovozning miqdori shovqinga nisbatan ko‘p bo‘ladi. Bu tovushlarni ovozdor undoshlar ham deyish mumkin; b) shovqinlilar: *b, v, g, d, j, dj, z, y, k, p, s, t, f, x, s, sh, q, g‘, h*. Bu tovushlar tarkibida shovqin ko‘proq bo‘ladi, ba’zilar tarkibida esa ovoz mutloqa qatnashmaydi. Shu sabab ham shovqinlilar deyiladi. Shovqinlilar ham o‘z navbatida yana ikkiga bo‘linadi: a) jarangli undoshlar: *b, v, g, d, j, dj, z, y, g‘*. Bu undoshlar tarkibida oz bo‘lsada ovoz qatnashadi. Ovoz va shovqindan hosil bo‘ladi; b) jarangsiz undoshlar: *k, p, s, t, f, x, s, sh, q, h*. Bu undoshlar tarkibida ovoz mutloqa qatnashmaydi. To‘liq shovqindan hosil bo‘ladi.

Nutq tovushlarining o‘zgarishi. Nutq tovushlarini talaffuz qilganimizda turli xil o‘zgarishlarga uchraydi. Ba’zan tovush almashishi, ba’zan tovush tushishi hodisasi ro‘y berishi mumkin. Bulardan tashqari tovush o‘zgarish hodisalarining quyidagi turlari mavjud. Singormanizm, assimilyasiya, dissimilyasiya, metateza, tovush orttirilishi, tovush moslashuvi va boshqa hodisalar.

Singormanizm hodisasi. Singormanizm unli tovushlarning moslashuvi, ohangdorligi, uyg‘unligini qamrab oladi. Singormanizm hodisasi faqat turkiy tillarga xos. Eski o‘zbek tilida bu hodisaga amal qilingan. Hozirgi kunga kelib, sekin-sekin bu hodisa unitilib ketayapdi. Bu hodisaga binoan so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida qanday unli kelsa, keyingi bo‘g‘inda ham shu unli kelishi lozim. Masalan: *uzum, quruq, burun* kabi.

Dissimilyasiya hodisasi. Dissimilyasiya ikkita o‘xshash tovushning noo‘xshash tovushga aylanib ketish hodisasidir. Dissimilyasiya hodisasi ham ikki xil bo‘ladi: a) progressiv dissimilyasiya: *zarur – zaril, birorta – bironta*; b) regressiv dissimilyasiya: *koridor – kolidor, ittifoq – intifoq* kabi.

Assimilyasiya hodisasi. Assimilyasiya qator kelgan tovushlar bir-biriga ta’sir qilib o‘xshash tovushga aylanib ketishidir. Bu hodisa ikki xil bo‘ladi. a) oldingi tovushning keyingi tovushni o‘ziga moslashtirishi progressiv assimilyasiya deyiladi: *aytdi – aytti, yurakga – yurakka*; b) keyingi tovushning oldingi tovushni o‘ziga o‘xshatib olishi regressiv assimilyasiya deyiladi: *tuz+siz – tussiz, bir+ta – bitta* kabi.

Metateza hodisasi. Metateza undosh tovushlarning talaffuzga qulay bo‘lishi uchun o‘rin almashinishidir: *yog‘mir – yomg‘ir, tuproq – turpoq, aylanmoq – aynalmoq* kabi.

Tovush orttirilishi hodisasi. Tovush orttirilishi hodisasi so‘zning barcha o‘rinlarida, ya’ni boshida, o‘rtasida, oxirida

kuzatiladi: *stadion* – *istadion*, *spravka* – *ispravka*, *fikr* – *fikir*, *tank* – *tanka* kabi.

Tovush moslashuvi hodisasi. Bu hodisa bo'yicha so'zlarni talaffuz qilish paytida ikki jarangsiz tovushdan biri ikkinchisini o'ziga qisman o'xshatib oladi: *to'qson* – *to'xson*, *taqsim* – *taxsim*, *maqsad* – *maxsad* kabi.

Gaplologiya hodisasi. Gaplologiya hodisasiga ko'ra so'z tarkibidagi ma'lum bir bo'g'inning to'liq tushib qolishi nazarda tutiladi: *qayin og'a* – *qaynog'a*, *qayin ona* – *qaynona* kabi.

Diareza hodisasi. Diareza hodisasida so'z talaffuzi paytida biror tovushning tushirilib qoldirilishi nazarda tutiladi. Bu hodisa faqat talaffuz shakliga xos. Yozma shaklida asliga muvofiq to'g'rilab yoziladi. Masalan: *Samarqand* – *Samarqan*, *go'sht* – *go'sh*, *past* – *pas* kabi.

Epenteza hodisasi. Epenteza hodisasida so'z o'zagiga qo'shimcha qo'shilganda yangi tovush qo'shilishi kuzatiladi. Masalan: *bu* + *ga* – *bunga*, *u+da* – *unda*, *shu+ dan* – *shundan* kabi.

Tilning morfologik qurilishi. O'zak va negiz. Sintaktik munosabat orqali nutqda qo'shimchalar asosida so'zlarni shakllantiramiz. Shunday ekan o'z-o'zidan ularni tahlil qilishda qismlarga bo'lib o'rganamiz. Masalan: *gul-chi*, *o'qi-tuvchi-lik*, *ish-chi-lar-i-miz*. Bu yerda sanalgan misollardagi qismlardan faqat uchtagina ya'ni *gul*, *o'qi*, *ish* mustaqil holda leksik ma'no ifodalaydi. Qolganlari mana shu uchta so'zni shakllantirishga hissa qo'shadi, xolos. Ammo, o'zicha leksik ma'no anglatmaydi. So'zning o'zicha leksik ma'no ifodalab boshqa lug'aviy qismlarga ajratilmaydigan shakli o'zak deyiladi. Masalan: *gul*, *suv*, *ish*, *o'qi* kabi.

O'zakka so'z yasovchi qo'shimchalarning qo'shilishi natijasida negiz hosil qilinadi. Demak, negiz faqat yasama so'zlardagina mavjud bo'ladi. Barcha so'zlarda negiz

bo'lavermaydi, ba'zan bir so'zda birdan ortiq yasovchi qo'shimcha bo'lsa, birdan ortiq negiz bo'laveradi. Masalan: *temir+chi+lik*, *chorva+chi+lik* kabi. Negizga ham o'z navbatida shakl yasovchi va so'z yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi. Masalan: *gul+chi+ga*, *kitob+xon+lar* va hakoza. Bundan ko'rinadiki, negiz turli xil tarkibiy qismlarga bo'linadi. Bu tarkibiy qismlar ma'no bildiruvchi o'zak va leksik ma'no anglatmovchi qo'shimchalardan iborat bo'ladi. Morf va morfemalar ham bir - birdan farqlanadi. Bularni bo'g'inlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Masalan: *suv+chi* so'zi ikki bo'g'indan tashkil topgan. Bu so'zning bo'g'inga va morfemalarga bo'linishi mos keladi. Ammo, *u+kam* so'zi ikki bo'g'inga shu tarzda bo'linadi. Morfemaga esa *u+kam* tarzida emas *uka+m* tarzida ajratiladi.

Ba'zan bir morfemani 2 ta 3 ta morf bilan ifodalash mumkin. Bunda bu morflarni allamorf deb ataymiz. Bir qo'shimchani turli xil yozilishi allamorfdir. Masalan: *kelguncha*, *chiqquncha* so'zlaridagi -guncha, -quncha yoki *uyga*, *boqqa* so'zlaridagi -ga va -qa qo'shimchalari allamorfdir.

Qo'shimchalarning turlari. Mustaqil holda leksik ma'no anglatmay, o'zak va negizga qo'shilib turli xil ma'no jilolarini qo'shadigan morfologik birliklar qo'shimchadir. Qo'shimcha morfemalar uchga bo'linadi: a) so'z yasovchi; b) shakl yasovchi; v) so'z o'zgartiruvchi.

So'z yasovchi qo'shimcha morfemalar o'zak yoki negizga qo'shilib uning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan yangi so'z yasaydi: -chi, -la, -paz, -kor va hakoza.

So'zning lug'aviy ma'nosini o'zgartirmasdan, qo'shimcha ma'no qo'shadigan morfemalarga shakl yasovchi qo'shimchalar deyiladi: -jon, -xon, -cha, -choq va hakoza. Bunga otlardagi ko'plik, erkalash, kichraytirish, fe'llardagi

zamon, nisbat, mayl sonlarning ma'no turlarini yasovchi qo'shimchalar kiradi.

Bir so'zni boshqa so'zlarga bog'laydigan, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelishini ta'minlaydigan qo'shimchalar so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar deyiladi: -ng, -si, -ning, -ni, -ga, -da, -man, -san va hakoza.

Qo'shimchalar o'zakka ko'ra joylashishiga qarab uchga bo'linadi: prefiksal, infiksal, postfiksial.

Prefiksal morfemalar ko'proq fors-tojik tillaridan kirib kelgan so'zning olidga qo'shiladigan ba-, ser-, no-, be-kabilardir.

Infiksal morfemalar so'z o'zagining ichiga joylashadi: *kitob-kutub* kabi.

Postfiksial morfemalar so'z o'zagidan so'ng qo'shiladi: *bog'bon, oshpaz, gulchi* kabi.

So'z yasalishi tizimi. Tillarda yangi ma'noli so'zni hosil qiluvchi har qanday usul so'z yasalishi deyiladi. O'zbek tilida ot, sifat va fe'l so'z turkumlarida so'z yasalish tizimi bor. Professor A.Hojiyev ravish turkumida morfologik usuldagi so'z yasalishi yo'qligini qat'iy aytgan: O'zbek tiliga oid ilmiy adabiyotlarda, darslik va qo'llanmalarda „ravish turkumi“ o'ziga xos morfologik kategoriyalarga ega emasligi, lekin o'ziga xos so'z yasalishiga egaligi bilan alohida so'z turkumi hisoblanishi tan olinadi. Biroq ravish yasovchilar deb qaralayotgan faktlarning tahlilidan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilida ravish yasash uchun xizmat qiluvchi bironta ham morfema (affiks yoki yordamchi so'z) yo'q. O'zbek tilida ravish yasovchi faol qo'shimchalar deb baholanuvchi -cha, -larcha, -lab kabilarni ravish yasovchi (umuman, so'z yasovchi) hisoblash mumkin emas. [A.Hojiyev, 2007: 59].

Bugungi zamonaviy tilshunoslikda asosan besh xil usul bilan so'z yasalish usuli mavjud.

1. Soʻz oʻzagiga soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshib yangi soʻz yasash usuli eng keng tarqalgan usullardandir. Bunday soʻz yasash usulini morfologik yoki affiksatsiya usuli ham deyiladi. Masalan: *suvchi*, *gulli*, *bilimli*, *aqlli* kabi soʻzlarda qoʻshimcha qoʻshilishi orqali mutloq yangi soʻz yasalgan.

2. Ikki va undan ortiq soʻzning qoʻshilishidan yangi qoʻshma soʻz yasaladi. Bu usulga sintaktik yoki kompozitsiya usuli ham deyiladi. Masalan: *xontaxta*, *koʻzoynak*, *gultojixoʻroz*, *oybolta* kabi soʻzlar. Shuningdek, ikki soʻzni juftlash orqali ham yangi soʻz yasalishi sintaktik usulga misol boʻladi: *bordi-keldi*, *omon-eson*, *qovun-tarvuz* kabi.

3. Qisqartirib yangi soʻz yasashga qisqartma soʻzlar yoki abbreviatura ham deyiladi. Bunday soʻz yasash xususiyati faqat ot soʻz turkumiga xos: *AQSH– Amerika Qoʻshma Shtatlari*, *XDP–Xalq demokratik partiyasi*, *SamDCHTI– Samarqand davlat chet tillar instituti* kabi.

4. Bir soʻz turkumidan boshqa soʻz turkumiga koʻchirish orqali yangi soʻz yasalishi konversiya yoki semantik usulida soʻz yasalishi deyiladi. Sifat va feʼl ot soʻz turkumiga, son ravish soʻz turkumiga oʻtadi. Boshqa soʻz turkumiga koʻchgan soʻz yangi maʼno anglatadi va gapdagi vazifasi ham oʻzgaradi.

5. Takrorlash orqali yangi soʻz yasash. Bunday soʻz yasash usulida soʻzlar takrorlanish orqali yasaladi. Masalan: *xola-xola* (*oʻyin nomi*), *yoʻl-yoʻl* (*mato rangi*), *bip-bip* (*avtobus*) kabi.

Tilning leksik tarkibi. Tilning leksik tarkibidagi barcha soʻzlar bir xil tarzda ishlatilavermaydi. Baʼzi soʻzlar juda koʻp ishlatilsa, baʼzi soʻzlar ahyon-ahyondagina ishlatiladi. Shu sababdan ham soʻzlarni yana ishlatilish tarkibi jihatdan quyidagi turlarga boʻlib oʻrganamiz:

1. Umumxalq ishlatadigan soʻzlar. Bunday soʻzlarni faol soʻzlar ham deymiz. Kim boʻlishidan qatʼiy nazar hamma, har kuni ishlatadigan soʻzlar hammaga tushunarli boʻlgan soʻzlar

umumxalq ishlatadigan soʻzlardir. Masalan: *ona, ota, bir, suv, havo, bormoq, kelmoq* kabi.

2.Shevalarga oid soʻzlar. Bunday soʻzlar maʼlum hududdagina ishlatilib, asosan shu yerda yashovchi kishilargagina tushunarli boʻladi. Masalan: adabiy tildagi tuxum soʻzi, shevada mayak. Adabiy tildagi sigir, Xorazmda inak.

Kasb – hunarga oid soʻzlar. Bunday soʻzlar terminlar ham deyiladi. Sinus, minus, tenglama matematikada. Tarse, intoq, talmeh adabiyotshunoslikda va hakoza. Atama va terminlarni ayrim lugʻatlarda bir narsa deb koʻrsatishadi. Bu notoʻgʻri, atama keng manoda barcha nomlar boʻlsa, termin esa har bir sohaga tegishli boʻlgan lugʻaviy birliklardir. Terminlar xilma-xil boʻlib, ular mavzu jihatidan ham oʻzaro bir nechta guruhni tashkil qiladi:

1. Ijtimoiy-siyosiy terminlar;
2. Fan va texnikaga doir terminlar;
3. Sanoat sohasiga oid terminlar;
4. Qishloq xoʻjaligiga doir terminlar;
5. Madaniy-maʼrifiy, sanʼatga doir terminlar;
6. Savdo va moliyaga doir soʻz va terminlar;
7. Kiyim-kechakka doir terminlar;
8. Harbiy ish, fizkultura, hamda sportga oid terminlar;
9. Salomatlikka va dorilarga oid terminlar;
10. Oziq-ovqatga doir terminlar va hakoza.

1.Eskirgan soʻzlar. Bunday soʻzlar yana oʻz navbatida ikkiga: tarixiy va arxaizmlarga boʻlinadi. Tarixiy soʻzlarga oʻz nomi bilan soʻzning oʻzi ham nomi ham eskirib tarixda qolgan soʻzlar kiradi. Masalan: *paranji, ellikboshi, kanizak va hakoza*. Arxaizmlarda esa soʻzning oʻzi eskirgan boʻlib, maʼnosi saqlangan boʻladi. Yaʼni, bugungi kunda sinonimi ishlatiladigan soʻzlardir. Masalan: *yanoq, rayon, podsho va hakoza*.

2.Neologizmlar. Tilimizda yangi paydo bo'lgan so'zlar. Til ochiq tizim bo'lgani sababli, tinimsiz yangi so'zlar o'zlashtiriladi. Masalan: *layk, (layk qilmoq), parol, login, onlayn, blog, post, selfi, status, mobil versiya, domen, internet-provoyder, operator, moderator, spam, e-meyl, sayt-vebsayt, chat, meta* va hakoza.

Bu sanab o'tilgan shevalarga oid so'zlar, kasb-hunarga oid so'zlar, eskirgan so'zlar, neologizmlar nafaol leksika qatlamiga tegishli bo'ladi.

Tilning lug'at tarkibi. Tillarning lug'at boyligi so'zlar va iboralardan iborat bo'ladi. Uning bu boyligi hamma uchun umumiy bo'lib, hamma tomonidan birday qo'llanilishi mumkin. Bu boylik tilning tarixiy taraqqiyoti davomida to'plangan. Bu esa o'z navbatida, tilning tarixiy taraqqiyoti hisobiga ham, shu bilan birga boshqa turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy aloqalari davrida o'zlashtirgan leksik birliklari hisobiga ham amalga oshgan. Ana shu tarixiy jarayonlar nuqtai nazaridan qaralganda, tillarning lug'at boyligida ikkita yirik qatlam – o'z va o'zlashgan qatlam borligi ma'lum bo'ladi.

So'zlarning ma'lum bir maqsad asosida to'plangan va tartibga solingan hamda alfavit tartibida joylashtirilgan yig'indisi lug'at deyiladi. Lug'atlar kitob shaklida yoki boshqa shaklda (chunonchi, qo'lyozma shaklida) bo'lishi mumkin. Lug'atlar ma'lum bir tilning so'z boyligini aniqlashda, ularning ma'nolari va yozilishlarini ko'rsatib berishda, nutq madaniyatini ko'tarishda, umuman kishilarning madaniy hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari undagi muhim qatlam hisoblangan lug'aviy birliklar – lug'atlarda namoyon bo'ladi. Zero, lug'aviy birliklar insonlar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo'nda va ta'sirchan qilib ifodalaydi. Tilning lug'at tarkibida frazeologizmlarning

qanchalik ko‘p bo‘lishi, o‘sha tilning imkoniyatlari shunchalik kengligidan dalolatdir. Bir xalqning tilida asrlar davomida yuzaga kelgan minglarcha iboralar avloddan-avlodga o‘tib kelaveradi.

Lug‘atshunoslik tilshunoslikning lug‘at tuzish ishi bilan shug‘ullanadigan maxsus bir sohasidir. Lug‘atchilikning nazariy va amaliy tomonlari bor. Lug‘at tuzishning ilmiy asoslari va tamoyillarini ishlab chiqish, lug‘at tiplarini belgilash, uni yaratish usullarini asoslab berish bu sohaning nazariy masalalari bo‘lib hisoblanadi. Tilning so‘z boyligini to‘plash, lug‘at tuzish uchun kartotekalar tuzish va ularni tartibga solish kabilar lug‘atshunoslikning amaliy tomonidir. Avvalambor lug‘atlarni ikki turga bo‘lamiz: Qomusiy lug‘atlar

2. Lingvistik lug‘atlar.

1.Qomusiy (ensiklopedik) lug‘atlarda ilmiy, siyosiy, adabiy hamda ishlab chiqarishga xos tushunchalar, mashhur kishilar haqida batafsil ma’lumot beriladi. “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, “U kim, bu nima”, “Salomatlik” kabi lug‘atlar qomusiy lug‘atlarga misol bo‘la oladi.

2.Lingvistik lug‘atlar bir tilli va ko‘p tilli bo‘lishi mumkin. Bir tilli lingvistik lug‘atlarga:

Izohli lug‘at – tilda mavjud bo‘lgan so‘zlar ma’nolariga izoh beriladi.

Imlo lug‘ati – orfografik lug‘at ham deyiladi. Bunday lug‘atlar so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi hisobga olinib tuziladi.

Orfoepik lug‘ati – so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishga yordam beradi.

Sinonimlar lug‘ati – sinonim so‘zlarni topishga yordam beradi.

Omonimlar lug‘ati – omonim so‘zlarni topishga yordam beradi.

Antonimlar lug‘ati – antonim so‘zlarni topishga yordam beradi.

Paronimlar lugʻati – paronim soʻzlarni topishga yordam beradi.

Frazeologik lugʻat – iboralarni oʻrganishga yordam beradi.

Morfem lugʻat – soʻzlarni tarkibiy qismlarga ajratishga yordam beradi.

Terminologik lugʻat – maʼlum fan sohasi boʻyicha atamalarga izoh beriladi. Terminologik lugʻatning vazifalari (xususan, koʻp tilli) lugʻat lugʻatini tashkil etuvchi soʻzlar va iboralarning grammatik, uslubiy yoki boshqa lingvistik xususiyatlarini oʻz ichiga olmaydi. Terminologik lugʻatning lugʻati (oʻziga xos ensiklopedik lugʻat sifatida) lingvistik lugʻat lugʻatidan tubdan farq qiladi: unga, qoida tariqasida, faqat ismlar yoki ismli soʻz birikmalari kiradi.

Chappa (ters) lugʻat – bu lugʻatda soʻzlar oxirgi harfi boʻyicha joylashtiriladi.

Oʻzlashma soʻzlar lugʻati – boshqa tillardan olingan soʻzlar keltiriladi.

Chastotali lugʻat – maʼlum bir asarda qaysi soʻz necha marta ishlatilgani haqida statistik maʼlumot beradi.

Elektron lugʻat – bu kompyuterdagi yoki boshqa elektron qurilmadagi lugʻat. Soʻnggi oʻn yillikda butun dunyo boʻylab kompyuter tilshunosligi faol rivojlanmoqda. Bu internetning tobora kuchayib borishi va tabiiy til interfeysiga ega boʻlgan koʻplab yangi texnik qurilmalarning paydo boʻlishi bilan bogʻliq. Korpus lingvistikasini yaratish bugungi leksikograflarimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Koʻp tilli lingvistik lugʻatlarga tarjima lugʻatlari kiradi. Masalan: Oʻzbekcha – inglizcha soʻzlar lugʻati, nemischa – ruscha soʻzlar lugʻati kabi.

26-§. Yozuv. Yozuv tarixidan. Yozuv turlari

Til nutq orqali rivojlanadi, yozuv orqali ifodalanadi. Yozuvning paydo bo'lishiga juda ko'plab narsa va hodisalar sabab bo'lgan. Shu sabab ham insoniyat tarixidagi ulkan qadamlardan biri yozuv kashf etilgan. Yozuv til uchun yordamchi vosita sifatida paydo bo'ldi.

Hayotimiz davomida to'plangan g'oya va tajribani yozuvsiz avlodlarga yetkazish juda qiyin va katta yo'qotish orqali ma'lum foizlardagina amalga oshiriladi. Buning uchun tinimsiz takror qilib turish shart bo'lar edi, biroq og'zaki nutq ko'p mehnat talab etadi. Yozuv esa zamon va makon zanjirini ulotqirib minglab yillarga etib boradi va kelajakka muayyan tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Shu sababli ham xalq og'zaki ijodida variantlilik keng tarqalgan. Birgina sevimli dostonimiz "Alpomish" 40 xil ijro etilgan. Yoki boshqacha qilib aytmoqchi bo'lsak, psixologlar bir voqeani 6 kishi bir-biriga so'zlab berish orqali ma'no butkul o'zgarib ketishini tajribada sinab ko'rganlar. Yozuv mana shularga yo'l qo'ymaydi, fikrni o'zgartmasdan boshqa birovlariga yetkazib berishga imkon beradi. Yozuv borligi uchun ham qadim davrlarda yaratilgan Urxun-Enasoy tosh bitiklaridan tortib Shiroq, To'maris afsonalarigacha, Lutfiy, Navoiy, Furqatdan tortib Usmon Nosir, G'afur G'ulom, Abduvali Qutbiddingacha bo'lgan shoirlarimiz asarlarini o'qib biz hozirgacha hayratlanamiz.

O'zbek xalqi ko'p jabr ko'rgan. A.Makedonskiy O'rta Osiyoni bosib olgandan so'ng, barcha asarlarni to'platib (bular ichida "Avesto", "To'maris", "Shiroq" afsonalari ham bor edi) ba'zi bir qisminigina lotin tiliga tarjima qildirib boshqa qismini yoqtirib yuborgan. Shu sabab xalq yozuvga ishonmay qolib, og'zaki nutq va yodlash orqali g'oyalarni avloddan - avlodga yetkazib bergan. Shuning uchun ham xalq donoligi sanalgan fol'klor o'zbek xalqi orasida keng rivojlangan. O'zbek xalq

ogʻzaki ijodi namunalarini toʻplab nashr ettirsak, 40 tomlik kitob boʻlishi ham fikrlarimizni asoslaydi. Bunchalik boy meʼros kamdan kam xalqda uchraydi.

Xalqimizning oʻtmishidagi yozuvlari haqida gap borganda, 20 dan ortiq yozuv haqida gapirishga toʻgʻri keladi. Negaki, yurtimizning turli joylaridan topilayotgan arxeologik topilmalardagi yozuvlar mana shularni taqozo etadi. Bu yozuvlar quyidagilardir:

1. Finikiya (Kanʻon) yurti Somiy konstonant yozuvi (miloddan avvalgi XIII asrdan – eramizning I ming yillik boshiga qadar)

2. Oromiy (miloddan avvalgi I ming yillikda finikiy yozuvidan ajrab chiqqan, bu yozuv X-IX asrlarda moslashtirilgan).

3. Sugʻdiy (miloddan avvalgi IV asrdan – milodiy XI asrlargacha).

4. Xorazmiy (miloddan avvalgi I asrdan – IV asrgacha).

5. Pahlaviy (miloddan avvalgi I asrda Parfiya davlatida shakllangan).

6. Boxtariy (miloddan avvalgi IV-III asrlarda Baqtriya davlatida shakllangan).

7. Kxorashti (Yunon) (eramizdan oldingi III-I asrlar).

8. Monaviy (III asr).

9. Suryoniy (IV asr).

10. Braxma (IV asr).

11. Eftalit (V-VI asrlar).

12. Urxun (V-VIII asrlar).

13. Uygʻur (IV-XVI asrlar).

14. Arab (VII-XX asrning 1929 - yiligacha).

15. Lotin (1929-1940).

16. Kirill (1940-yildan hozirgacha).

17. Lotin (1993-yildan boshlab).

Umumiy holda eng qadimgi yozuvlarimizga e'tibor berib keyingi yozuvga taqqoslab qaraganimizda, dastlabki yozuvlarimiz juda murakkab bo'lib, vaqt o'tishi bilan ular ixchamlashib, sodda, yozishga qulay bo'lgan variantlarga almashganligining guvohi bo'lamiz.

Ba'zi adabiyotlarda birinchi yozuv shartli ravishda narsa-buyum yozuvi deb e'tirof etiladi. Fikrni dalillash uchun bir nechta misollar keltiriladi. Yozuv bo'lmagan vaqtlarda narsalarga semiotik tizim sifatida ma'no berilib aloqa qilingan. Bizningcha, bu yozuv emas. Ma'nolar til ichida yaratiladi. Bu degani so'zlar (yozuvlar) bilan ifodalanadigan ob'ektlar bilan emas. F.do' Sossyur so'zlarning ma'nosi turdosh tushunchalar o'rtasidagi tafovutlardan kelib chiqishini to'g'ri ta'kidlagan.

Tildagi narsalar orqali semiotik farqlash tizimi hozir ham bor. Ma'noni nutq yoki qog'ozdagi belgi – yozuvlardan tashqari, boshqa predmetlar o'rtasida sistematik tarzda ajratish mumkin bo'lgan har qanday ob'ekt ham berishi mumkin. Masalan, o'zbeklar orasida, xonadonga qiz so'rab sovchilar kelishsa rozichilik istagi bo'lsagina, tugunchasini ochishadi. Yoki xonadonga mehmon kelganda osh-palov suzilsa, turing degan ma'noni anglatadi. Bugungi kunda, ayniqsa, shaharlarda do'ppi kiyib yursangiz, tinchlikmi? – deb so'rashadi. Tildagi ma'no va yozuvni bir-biridan ko'plab jihatlari bilan farqlab, bugungi kun o'quvchilari teran tushinib olishi lozim.

Bizningcha, dastlab piktografik yozuvlar kashf qilingan. Bu so'z lotincha va grekcha so'z qo'shimchalaridan tuzilgan bo'lib, chizib yozaman degan ma'noni anglatadi. Piktogrammalar orqali kerakli fikrlar tarqoq holda ifoda etilgan. Bu yozuvda so'zning grammatik shakllari mavhum bo'lib so'zni turlicha joylashtirib o'qish mumkin bo'lgan. Shu jihatdan bu yozuvni mantiqiy yozuv deb tushunsak ham bo'ladi. Chunki chizilgan rasmlar muvofiqligiga qarab, insonning o'zi bir-biri bilan bog'liq so'zlar asosida mantiqiy

fikr yuritib gaplar tuzishi kerak bo'lgan. Bir gap, so'z tartibini almashtirish o'qish, urg'uni turli so'zga berish asosida turli xil ma'no keltirib chiqarar edi. Sanab o'tgan bu xususiyatlar piktografik yozuvning murakkabligidan va kamchiligidan dalolat beradi. Shuningdek, bu yozuvning keyingi rivojlangan barcha yozuvlardan qulay va ustunlik jihatlari ham bor. Shu sabab ham piktografik yozuvdan bugungi kungacha foydalanamiz. Masalan: yo'l chetidagi belgilar, yoki butun dunyoni zabt etgan mashhur "Coca-cola" firmasi ishlab chiqarayotgan salqin ichimlik suvlari etiketkasidagi mo'jazgina quti va unga bir odamning bo'sh idishni solayotganini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu rasm-yozuvni, kimyoviy usulda plastinkalardan tayyorlangan suv idishlari bir marta ishlatilishga mo'ljallangan, qayta suv va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlatish sog'liq uchun ziyon, bo'shagach tashlash kerak deb o'qish kerak. Agar shu fikr so'zlar bilan yozilishi kerak bo'lsa, birinchidan, ko'p joyni egallaydi, ikkinchidan, qancha, xalq iste'mol qilsa shuncha tilga tarjima qilib yozishni taqozo etadi. Kichik etiketkaga ko'p tillarda yozishning imkoni yo'q darajadadir. Bular piktografik yozuvning qulayligini va turli tillarda gaplashuvchi odamlarning tushunaverishini ko'rsatadi, tarjimaga va tarjimonga hojat qolmaydi.

Piktografik yozuv taraqqiyoti asosida logografik yoki ideografik yozuv paydo bo'ldi. Bunda tildagi har bir so'z o'z ramziy simvoliga ega bo'ladi. Logogrammalar bu yozuvning birligini tashkil etadi. Piktogramma to'g'ridan-to'g'ri predmetni rasm orqali ko'rsatsa, logogramma esa so'zning ma'nosini tushuncha orqali ifodalaydi. Ieroglifik yozuv logografik yozuvning rivojlangan mukammal ko'rinishidir. Ieroglif so'zi grekcha "muqaddas yozuv" degan so'zdan olingandir. Bizning qadimiy ajdodlarimiz bu yozuvdan foydalanishgan. Negaki, oltoy tillari oilasiga kiruvchi bizga

qardosh bo'lgan yapon xalqi bo'g'in, koreys xalqi fonografik, xitoy xalqi ieroglifik yozuvlardan hali hanuzgacha foydalanib kelmoqdalar. Keyinchalik Ozarbayjonda paydo bo'lgan tasavvuf ta'limotida yozuvlarni ilohiylashtirib, muqaddas yozuv deb qaragan. Alloh k, n harflarini paydo qilgach, kun so'zi va butun olamdagi yorug'lik paydo bo'ldi deb tushunishgan. Boshqa narsalarni ham shunday sharhlagan. Masalan, qadimgi davlatchiligimizdagi gerblar va o'zbek xalqi 92 ta urug'ining ramziy tamg'alari logografik yozuvni eslatadi. Tamg'alar turkiy xalqlarning deyarli barchasida bo'lgan.

Logografik yozuvda barcha tushunchalarni ifodalash qiyin edi. Ieroglifda esa alfavit tushunchasi paydo bo'la boshladi. Har bir mavhum tushuncha va voqea hodisa, narsa uchun yangi belgilar qabul qilaverish natijasida, ierogliflar soni 40-50 mingtagacha etib borgan. Buni o'rganish juda katta vaqtni talab etar edi. Yuqoridagi (piktografik, logografik va ieroglifik) yozuvlar ma'lum qatlam kishilarigagina mo'ljallab yaratilgan, ularga xizmat qilgan. Keyingi taraqqiyot natijasida yozuvga talab kuchayishi tufayli ommaviylashtirish jarayoni yuz bergan. Keng xalqqa tushunarli bo'lishi uchun yozuvlar tovushni ifodalashi, ixcham, sodda, qulay, oddiy, oson, yozganda qo'l uzilmasligi, o'qiyotganda bir-biridan farqlash uchun ayrim o'ziga xos belgilar kabi jihatlar bo'lishi kerak. Yozuvlarni ommaviylashtirish sababli yozuvlar bu talablarga javob bermay qoladi.

Shuning uchun bo'lsa kerakki, juda murakkab yozuvlarni soddalashtirish ehtiyoji tufayli fonografik yozuv paydo bo'lgan. So'zni tovush orqali idrok qilish, har bir eshitilayotgan tovushga alohida belgi (harf) qabul qilish istagi fonografik yozuvni yuzaga keltirgan. Demak, tilda yuz mingdan ortiq so'zlar bor bo'lib, ularni ma'lum tovushlar bilan ifoda etish ehtiyoji, yozuvning soddalashtirilishini taqozo qilgan.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlardayoq Turon zaminining turli o'lkalari mahalliy tillariga ularning har bir tovush sistemasiga mustaqil holda moslashgan, sifat jihatidan mutlaqo yangi – sug'diy, xorazmiy, pahlaviy, baxtariy kabi yozuvlarning shakllanganligi bizning yozma madaniyatimizning naqadar uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Yoki yoziv qurolining nomi karandash (kara+dash) so'zining etimologiyasi ham fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Mana shu yozuvlar ichida sug'd yozuvi yodgorliklari keng miqyosda va uzoq vaqt iste'molda bo'lganligi bilan alohida ajralib turadi. Sug'd yozuvlari orasida yoshi 2000 yilga borgan namunalar bor.

Qog'ozga bitilgan va bizgacha yetib kelgan sug'dcha matnlarning eng qadimiysi IV asr boshlariga mansub bo'lib, fanda "Eski maktublar" deb nom olgandir. Bu maktublar 1906-yili inglizlarning A.Steyn boshliq ekspeditsiyasi tomonidan Uyg'uristonning Dunxuan degan yeridan topilgan.

Sug'd yozma yodgorliklarning eng so'ngisi Talas daryosi vodiysidagi qoya toshlar sirtiga X-XI asrning birinchi choragida bitilgan tashrifnomalardir. Bu yozuv oromiy yozuvi asosida paydo bo'lganligi bois, oromiy yozuviga o'xshaydi. II asrning oxiri va III asrning boshlarida Xorazm yozuvi ho'jalik hisobot xujjatlari, tangalardagi yozuvlar, qabrlarga o'rnatilgan haykallar va boshqa joylarda uchraydi.

V-VIII asrlar davomida turkiy xalqlar Urxun - Enasoy (ba'zi manbalarda dulbarjin, runik, tosh yozuvi deb ham yuritiladi) yozuvidan keng foydalangan. Bu yozuvda turkiy tilda bir qancha yozma obidalar bitilgan. Bu yozuvlar tosh, pishirilgan loy, metall, teri, yog'och, qog'oz va boshqa materiallarga yozilgan. Keng hududda qo'llanganligi bois yozma yodgorliklar Lena, Oltoy daryolari bo'ylaridan, Mo'g'uliston, Markaziy Osiyodan, Sibirning barcha joylaridan topilgan.

Bu yozuvlarning “tosh bitiklari” deb atalishining boisi ko‘p yodgorliklar qabr toshlariga o‘yib yozilganidadir. Sibir kartasini chizayotgan rus olimi Semyon Remezov Urxun va Talas daryolari sohilida noma’lum yozuvda bitilgan qabr toshlarini uchratgan va dastlabki xabarni bergan. Bundan keyin 1730-yilda Sibirga surgun qilingan shved ofitseri Filipp Iogann Strahlenberg Enasoy daryosi bo‘yida noma’lum alfavit bilan yozilgan qabr toshlariga duch keladi. Shvetsiyaga borib bu yozuvning jadvalini nashr ettirib butun Yevropaga ma’lum qiladi. Ammo 150 yil davomida hech kim o‘qiy olmaydi. Bu vaqtda turli xil xalqlar bu yozuvga bizning qadimiy yozuvimiz deb nisbat bergan.

1893-yilda yodgorliklarni birinchi bo‘lib daniyalik olim Vilgelm Tomsen o‘qishga musharraf bo‘ladi. U turkiy tillardagi so‘zda ba’zi bir tovushlarning ikki marta qo‘llanish yoki qo‘llanmaslik o‘rinlarini aniqlab, uni yodgorlikka taqqoslab ko‘rdi. Shuningdek, yodgorlik o‘ngdan chapga, yuqoridan pastga qarab o‘qilishiga oydinlik kiritdi. Shu yili rus olimi V.Radlov ham barcha harflarni o‘qidi. Shundan keyin ularni har taraflama chuqur o‘rganish boshlandi.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan obidalarini o‘qish, turli tillarga tarjima qilish va nashr etishda V.Radlov, V.Tomsen, S.Malov, H.O‘rqun, T.Tekin, D.Rosse, A.Steyn, A.Qayumov, I.Stebleva, G‘.Abdurahmonov, A.Rustamov va boshqalarning xizmatlari kattadir.

Bu yodgorliklar dunyoning ko‘plab davlatlarida saqlanayapti. 8 ta unli 4 ta belgi bilan, 29 ta undosh qattiq va yumshoq shaklida ifodalangan. Urxun-Enasoy yozuvi turkiy xalqlar kashf qilgan alifbo ekanligi bilan boshqa alifbolardan farqlanadi.

745-yilda turk hoqonligining sharqiy qismini uyg‘urlar bosib olgan. Shundan so‘ng turkiy xalqlarda uyg‘ur alfaviti qo‘llangan. Bu alfavit turkiy xalqlar orasida XVI asrgacha

ancha keng ishlatilgan. Uygʻur yozuvi run yozuvi bilan ham uzoq vaqt parallel qoʻllangan.

Bu yozuvda baʼzi harflar unlini oʻrni bilan undosh tovushni koʻrsatgan. Shu sabab jami 19 ta grafik belgi, 5 ta unli va 16 ta undosh tovushni ifodalagan. Bu yozuvni chuqur oʻrganib keng oʻquvchilar ommasiga yetkazishda horijiy turkologlar V.V.Radlov, G.Vamberi, S.E.Malov, V.Tomsen, oʻzbek olimlaridan M.Isxoqov, N.Rahmonov, Q.Sodiqov va boshqalarning hizmatlari beqiyosdir.

VII-VIII asrlarda Turonzamin yerlarini arablar bosib oladi. Ular bu yerga islom dinini va arab yozuvini olib kirdilar. Eski din va yozuvni yoʻq qilish uchun koʻp kurashlar olib boradi. Hatto yozuvni qabul qildirgandan keyin, tilni ham arablashtirish uchun kurash olib borgan. Shu sabab koʻplab asarlar arab va fors tilida yozilgan. Arab grafikasi asosidagi harflar turkiy xalqlar oʻrtasida oʻn toʻrt asr mobaynida qoʻllanilib kelindi. Bizning boy meʼrosimiz arab alifbosida ifodalangan. Shunday ekan keyingi davrda nima uchun arab alifbosidan voz kechdik? – qabilidagi savollar tugʻilishi tabiiy. Buning bir nechta sabablari bor.

Birinchidan, arab grafikasi juda murakkab boʻlib, dastxat uchun yaratilgan edi.

Ikkinchidan, oʻrganish gʻoyat qiyin va chalkashlik jihatlari bor edi.

Uchinchidan, arab grafikasiga asoslangan oʻzbek alifbosidagi harflar unli fonemalarni yetarli aks ettirmas edi.

Toʻrtinchidan, arab grafikasidagi har bir harf soʻzning toʻrt joyida toʻrt xil yozilishi natijasida 124 ta harf boʻlib, bularni oʻrganish qiyinchilik tugʻdirib bosmaxonalarda harf kassalariga va yozuv mashinkalariga joylashtirish noqulay va murakkab edi.

Beshinchidan, arab alifbosida faqat arab tilining oʻzigagina xos boʻlgan ayn, zo, to, dod, sod, zal, ha, sa harflari bor edi.

O‘zbeklar bu harflarni talaffuz qilishda qiynalar va xatoga yo‘l qo‘yar edi. Harflar shu tilda bor bo‘lgan tovushlarni ko‘rsatishi kerak.

Oltinchidan, unli va undosh fonemalarning belgilari har doim ham aniq ajrab turmas edi. Shu sabab bir so‘zni turli xil qilib o‘qish mumkin edi. Masalan; alif, vov, yo harflari ba‘zan unli, ba‘zan undoshni anglatar edi.

Yettinchidan, arab alifbosi imlosida tinish belgisining qo‘yilishi, bosh harflar imlosi, harflarni harf birikmalari orqali ifodalash, harflarning ost va ust qismiga nuqtalar qo‘yish bilan farqlash holatlari mavhumlik, qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi.

Sakkizinchidan, alifboni almashtirish uzoq vaqtni va katta mablag‘ni talab qiluvchi murakkab ish. Ammo rus grafikasi negizida totalitar tuzum mamlakatida yagona yozuv sistemasini vujudga keltirish juda muhim edi. Rus alfaviti belgilari doirasidan chetga chiqmay harflarni birlashtirish mamlakat iqtisodiga juda katta foyda keltirar edi. Bir narsani har bir qardosh xalq uchun alohida, ya‘ni o‘z alfavitida bosib chiqarish katta mablag‘, mehnat talab etar edi. Bundan tashqari, turkiy tillarda yozilgan maqola yoki kitobni ayrim turkiy tilda ish yurituvchi respublikaning o‘zidagina bosib chiqarish mumkin bo‘lgan. Chunki o‘sha paytdagi barcha xalqlarning harflari “Известия” gazetasi bosmaxonasidan boshqa birorta ham tipografiya kassasida to‘la topilmagan.

To‘qqizinchidan esa, arab alifbosi asosidagi milliy yozuvimizda uzoq vaqt, ya‘ni o‘n to‘rt asr ish yuritsak ham, bu yozuv asli zo‘rma-zo‘rakorlik, bosqinchilik siyosati orqali kiritilgan edi.

Mana shu kabi sanab o‘tilgan xususiyatlar o‘tgan asrning birinchi choragidayoq arab alifbosidan voz kechish shartini ma‘naviy inqilobning asosiy masalalaridan biriga aylantirib qo‘ygan edi. O‘sha vaqt matbuotida berilgan fikrlarga

qaraganda, alifboni isloh qilish oson kechmagan va ilmiy jamoatchilik orasida katta tortishuvlarga sabab bo'lgan.

O'qimishli kishilar, olimlarning bir qismi arab alifbosiga asoslangan yozuv va imloga o'zgartishlar kiritishni ma'qul deb topgan bo'lsalar, ikkinchi qism ziyolilar arab alifbosiga umuman teginmaslikni talab qilganlar. Uchinchi turkum olimlar arab alifbosiga ancha o'zgartishlar kiritish, shulardan arab tiligagina xos bo'lgan tovushlarni yo'q qilish, shuningdek, imlo qoidalarini ham birmuncha o'zgartish kerakligini kun tartibiga qo'yganlar. To'rtinchi guruh ziyolilar alifboga kirmay qolgan o'zbek tili fonemalariga harflar olishga tarafdor bo'lsalar-da, arab tili tovushlarigagina xos bo'lgan harflarni ham saqlab qolishni xohlaganlar. Bularning hech qaysisiga qo'shilmasdan lotin alifbosiga o'tish tarafdorlari ham bor edi. Birinchi bo'lib lotin alifbosini yoqlab chiqqan ziyolilar (o'sha vaqt ta'biri bilan aytganda), "lotinchilar" shoir Botu va adabiyotshunos olim Sayid Ali Usmoniylar edi. Shu asosda qisqa vaqt ichida arab grafikasidan voz kechib lotin alifbosiga o'tildi. 1929-yil may oyida Samarqandda chaqirilgan O'zbekiston imlo va terminologiya konferensiyasi lotin grafikasi asosidagi, 24 ta undosh va 9 ta unli harfdan iborat o'zbek alifbosini tasdiqladi. Atigi 11 yildan so'ng esa 1938-1940-yillarda lotin alifbosini rus grafikasi asosidagi yangi alifbo bilan almashtirdik.

Konferensiya o'zbek adabiy tilini singarmonizmli shevalarga asoslashni zarur topganidan alifbodagi unli harflarni 9 ta qilib belgilagan edi. 1934-yili yanvarda Toshkentda qaytadan imlo qurultoyi chaqirilib, alifbo va imlo qoidalari boshqatdan ko'rildi, ularga bir qancha o'zgarishlar kiritildi. Unli harflar 5 taga qisqartirildi.

Oliy Kengash o'zining 1940-yil 8-maydagi sessiyasida "O'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi o'zbek alfavitiga ko'chirish haqida qonun"

qabul qildi. Bu alfavitni aka-uka Kirill va Mefodiyalar slovyan alifbosi asosida kashf qilgan. Shu sabab ham bu yozuvni kashfiyotchilar nomi bilan atab kirillitsa deb yuritamiz. Yangi o'zbek alifbosi quyidagicha edi: A, Б, В, Г, Д, Е, Ё, Ж, З, И, Й, К, Л, М, Н, О, П, Р, С, Т, У, Ф, Х, Ц, Ч, Ш, Ъ, Ы, Э, Ю, Я, Ў, Қ, Ғ, Ҳ, apostrof ('). Keyinchalik apostrof olib tashlandi. Apostrofning vazifasi ham ayirish belgisiga yuklatildi. Bu alifboga asoslangan imlo qoidalar ham ishlab chiqildi.

1993-yil 2-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Lotin yozuviga asoslangan O'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Bunda yangi alifbo 31 harf va tutuq belgisi (apostrof)dan iborat etib belgilandi. Bu alifbo bo'yicha kirilcha "sh" harfini "ş", "ch" xarfini "ç" tarzida yozish kerak edi. Bizga yaxshi ma'lumki, bunday harflar kompyuterning jahon standartlariga mos kelmas edi. Shu sabab kompyuterda bor bo'lgan belgilar (o'tish va apostrof) kiritildi. Bu belgilar orqali O', G' harflarini ifodalashda, shuningdek, belgilari ma'no farqi s, h harfini ajratish kabi holatlarda foydalanadigan bo'ldik. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga asosan lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf 3 harf birikmasi va 1 apostrofdan iborat deb o'zgartirildi. Kompyuterda yo'q bo'lgan Ş, Ğ belgilari sh, ch kabi bor bo'lgan harf birikmalari bilan ifodalaniladigan bo'ldi. Shu asosda mukammal imlo qoidalar ham ishlab chiqildi.

Lotin alifbosining qulayliklari talaygina. Bu alifbo nisbatan avvalgi alifbolardan o'zbek tilining tovush tizimini, jozibadorligini, nafosatini, ohangdorligini to'laroq ifodalashga xizmat qiladi. Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek

alifbosining kirillitsadan sifat va tartib jihatdan yaxshi xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

1.Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi elektron texnikasi bilan bevosita bog‘landi. Harflar eng ilg‘or davlatlar qabul qilgan va kodlari 0 dan 127 gacha bo‘lgan harf hamda belgilar tizimiga moslashdi.

2.Bir tovushni ikki yoki uch harf yordamida ifodalagan (ч-sh, ш-sh, нr-ng) tajribasidan foydalanib, jahonda qabul qilingan jadvaldan alifbomiz uchun o‘rin topish imkoniyati tug‘ildi. Buning o‘qitish, bosmaxona ishlari va xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun afzalliklari mavjud.

3.Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida “o‘tish” (‘) belgisidan foydalaniladi. Alifbodagi o‘, g‘ tovushlarini ifodalashda foydalanilgan “o‘tish” (‘) belgisi lotin yozuvida mavjud va uning kodi 96 hisoblanadi. Bu belgi apostrofga o‘xshasa-da undan farq qiladi, chunki apostrofning (‘) kodi 39 hisoblanadi.

4.Lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosida harflarning turli kombinatsiyalari mavjud emas.

5.Kirill alifbosidagi (е, ё, ю, я) grafemalari lotin alifbosiga kiritilmadi. Ularni alifboda mavjud bo‘lgan y+e, y+o, y+u, y+a harflari bilan ifodalash mumkin. Negaki ilgari Yo‘ldoshevni ikki xil: Йўлдошев va Юлдошев deb yozishga yo‘l qo‘yilar edi. Bu narsalar o‘z - o‘zidan barham topdi.

6.Ц harfi, ayirish va yumshatish belgilari tushirib qoldirildi. Ц harfi, ayirish va yumshatish belgilari o‘zlashma so‘zlarda uchrashi hisobga olindi. Til ochiq tizim ekan har qanday o‘zlashma so‘z tilning talaffuz qonuniyatlariga bo‘ysinishi kerak. Ya’ni, til o‘zlashma so‘z olingan til qonuniyatlariga moslashishi kerak emas, so‘z til qonuniyatlariga moslashishi kerak. Oldingi alifboda shunday nuqsonlar bor edi. Bu nuqsonlar yangi alifboda bartaraf etildi.

7. Dynyoning eng ilgʻor davlatlarining oʻttiz foizidan koʻprogʻi lotin alifbosiga asoslangan alifbolardadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Tilning semiotik tabiatini oʻrganadigan fan nimalardan iborat?

2. Morfologiyani tekshiruv obʻekti nimalardan iborat?

3. Leksik va grammatik maʼnolar qanday farqlanadi?

4. Infiksal morfema qanday tillarda kuzatiladi?

5. Grammatik maʼno deganda qanday maʼnoni tushunasiz?

6. Grammatik kategoriyalar tillarda farqlanadimi?

7. Soʻzlarni turkumlarga boʻlishda nimalar eʼtiborga olinadi?

8. Fonetika va fonologiya haqida maʼlumot bering.

9. Fonema va allofonlar qanday farqlanadi?

10. Sigarmonizm hodisasi nima va u qaysi tillarga xos?

11. Undosh tovushlarning tasnifi nimalar bilan bogʻliq?

12. Leksikologiyani tekshiruv obʻekti nimalardan iborat?

13. Leksikologiyani qanday boʻlimlarini bilasiz?

14. Oʻzbek xalqi foydalangan yozuvlar haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch soʻz va birikmalar:

Semiotik, tabiiy belgilar, sunʼiy belgilar, informatorlar, kommunikativ belgi, signallar, belgilar, mimika, til strukturasi, fonetika, fonologiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, akustik, artikulyasion, vokalizm, konsonantizm, monoftong, diftong, triftong, morfema, prefiksal, infiksal, postfiksal, reduplikatsiya, ichki fleksiya, suppletivizm, sintetik vosita, analitik vosita, leksikografiya, orfoepik, morfem, chastotali lugʻat, ters lugʻat, dialektal lugʻat, terminologik lugʻat, etimologik lugʻat, sinxronik, diaxronik.

Adabiyotlar

1. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yoʻnalishlari. –Toshkent: “Ta’lim”, 2009. 160 b.

2. Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –308 б.

3. Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков / 3-е издание, доработанное. –Москва : “Просвещение”, 1989.

4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –312 b.

5. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. –190 b.

6. Yoʻldoshev I., Sharipova Oʻ. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent: “Iqtisod moliya”, 2007. –192 b.

7. Туробов А.М. Лотин алифбосига аосланган ўзбек ёзуви ва имло қоидалари. –Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2005 йил, –80 б.

TILLARNING SHAKLLANISHI VA TARAQQIY QILISHI

27-§. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar

Tilning paydo bo'lishi va shakllanishi juda ko'plab ijtimoiy faktorlarga asoslanib, uzoq yillardan buyon ko'plab kishilarni qiziqtirib kelgan. Shu sabab ham til ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar bir xil fikrda emas. Til ko'plab ijtimoiy faktorlarga asoslanib paydo bo'lganligi sababli ham bir-birini rad qiluvchi, qarama-qarshi har xil farzlar paydo bo'lgan. Albatta, tilning paydo bo'lishi uzoq davrni taqozo qiladi.

Qadimgi davrlarda ibtidoiy kishilar yig'indisi sotsial-biologik hodisa sanalgan. Tilning paydo bo'lishida jamiyatning paydo bo'lishi birinchi omillardan biri hisoblanadi. Ya'ni biologik omillar tilning paydo bo'lishi uchun yetarli emas edi. Qolaversa, odamzot paydo bo'lgandan buyon til mavjud, shu sabab ham tilning paydo bo'lishi odamning paydo bo'lishi bilan bog'liq. So'zlashish imkoniyati faqat insonlargagina ta'lluqlidir. Yevropa olimlari tomonidan tarqatilgan odam maymundan paydo bo'lgan, degan safsata ancha vaqt hukm surdi. Aynan, F.Engelsning "Maymunning odamga aylanish jarayonida mehnatning roli" asari shunday g'oyani olg'a surdi. Odamning bugungi kundagidek holatga yetib kelishida mehnatning roli cheksiz katta ahamiyatga ega. Ammo, maymunning odamga aylanishi masalasini ilmiy asoslangan emas. Aksincha, Amerika sotsiologvistlari maxsus laboratoriyada maymunning odamga eng yaqin turini topib, ularga mingdan ortiq so'zlarni o'rgatishga musharraf bo'lishdi. Ya'ni, maymunning miyasining og'irligini tarozida tortib eng yengili aqlli bo'lishini hisobga oldi. Maymunlarning birinchi qilgan xatosi o'rgangan birorta so'zini, ikkinchi so'zga qo'shib kombinatsiya qilolmadi. Xolbuki, mingta so'z yordamida cheksiz kombinatsiyalar qilish mumkin edi. Ikkinchi qilgan

xatosi esa o'rgangan mingta so'zining birortasini ham ikkinchi maymunga o'rgata olmadi. Insonlar esa o'rgangan bilim va tajribalarini, xotira bazasi leksik boyligidagi so'zlarni tinimsiz bir-biriga o'rgatadi. Shu tajribaning o'ziyoq, odamning maymundan paydo bo'lgan degan safsataning puch ekanligini ilmiy asosladi. Odamsimon maymunlar bo'lmagan, ammo ibtidoiy odamlar ayrim jihatlari bilan maymunga o'xshaganligi uchun bunday g'oyalar ilgari surilgan edi. So'zsiz, million yillar ilgari yashagan odamlarning ov qilish, ovqatlanish kabi yashashi maymunlarga bir oz o'xshagan bo'lishi mumkin. Lekin insonlarga berilgan nutq a'zolari faqat uning o'zigagina tegishlidir. Dastlab bu a'zolar rivojlanmagan bo'lishi shubhasizdir, chunki odamning tabiatga, jamiyatga munosabati uzoq yillar davomida uning nutq a'zolarining asta-sekin takomillashuviga sabab bo'lgan. Bunda mehnat va u orqali paydo bo'lgan jamiyatning o'rni kattadir. Shu sababdan ham, tilning paydo bo'lishi muammosini ikki omil bilan – biologik va ijtimoiy omillar bilan bog'lash o'rganish maqsadga muvofiqdir. Biologik omillar inson miyasining, tafakkurining va ular bilan chambarchas aloqada bo'lgan nutq a'zolarining uzoq yillar maboynida o'sishini talab etsa, ijtimoiy omillar insonning taraqqiy qilish jarayonini va jamiyat salmog'ining o'rnini belgilaydi.

Tilning paydo bo'lishidagi biologik omillarga tovushga taqlid hamda undov haqidagi omillar kiradi. Bugungi kungacha tilning paydo bo'lishi haqida turli xil nazariyalar mavjud. Har bir nazariya boshqa-boshqa bo'lgani bilan bir-birini to'ldiradi, shuningdek bir nuqtada kesishuvchi tomonlari ham uchraydi. Quyida tilning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarning asosiylari haqida ma'lumot beramiz.

Tovushga taqlid nazariyasi. Qadimgi yunon olimlari tomonidan aytilgan nazariya bo'lib, Demokrit va Platonlar tarafdorlari tomonidan olg'a surildi. Tilning paydo bo'lishida

tovushga taqlid nazariyasi bo'yicha ibtidoiy odamlar tevarak – atrofdagi turli predmetlarning tovushlariga, masalan, suvlarning shildirab oqishi, shamolning uvullashi, qushlarning sayrashi, hayvonlarning bo'kirishi, ma'rashi kabilarga taqlid qilish asosida nutq paydo bo'lgan. Masalan, *qarsak, qarg'a, olashaqshaq, kakku, sharshara, shildiramoq, vishillamoq, uvullamoq, chirillamoq, g'irillamoq, taqir-tuqur, gumbur-gumbur, miyov* kabi. Bunday nomlar barcha tillarda uchraydi. Tillarda uchraydigan bunday so'zlar ko'pchilikni tashkil etmasligini inobatga oladigan bo'lsak, butun bir til mutloq tovushga taqlid nazariyasi asosida yaratilgan deyishimiz to'g'ri emasligi seziladi. Umuman borliqda tovush chiqaradigan narsalardan ko'ra tovush chiqarmaydigan narsa va hodisalar ancha ko'pligi aniq. Butun bir til tovushga taqlid asosida paydo bo'ldi desak, u holda tosh, kitob, daftar, daraxt, oftob kabi so'zlar qaysi tovushdan yoki qayerdan paydo bo'ldi degan haqli savol tug'iladi? Tildagi minglab jonsiz narsalar tovush chiqarmaydiku. Tovushga taqlid asosida nomlar qo'yilganda edi, bugungi kundagi minglab tillarda nomlar bir xil bo'lib qolardi. Tillar bunchalik turli-tuman bo'lmasdi. Tillar soni 3000 taga yetmasdi. Barcha tabiatdagi tovush chiqarayotgan narsalarning tovushiga taqlid qilish uchun inson tanasidagi nutq organlari nihoyatda rivojlangan bo'lishi lozim. Yuqorida sanab o'tilgan misollar albatta, chiqargan tovushlari asosida nomlanganligini hech kim inkor etmaydi. Ammo, bunday so'zlar butun boshli tildagi leksik qatlamning juda kam qismini tashkil etadi.

Demak, tovushga taqlid nazariyasi tilning paydo bo'lishiga asos bo'la olmaydi.

Undovlar nazariyasi. Bu nazariya tarafdorlari, tildagi barcha so'zlar insonlarning ichki tuyg'ulari, qahr-g'azablari, his-hayajonlari, beixtiyor chiqargan tovushlari asosida paydo bo'ladi degan fikrni himoya qiladilar. Barcha tillarda so'zlar

tarkibining ma'lum bir qismi, undov so'zlar ham bo'lib, ular asosida so'zlar hosil bo'ladi. Masalan: dod-dodlamoq, oh-ohlamoq, voy-voylamoq, uf-uflamoq, tuf-tuflamoq kabi. XVIII asrda yashagan fransuz olimi Jan Jak Russo ham shu nazariya tarafdorlaridan biri bo'lgan. Undov asosida paydo bo'lgan so'zlar juda ozchillikni tashkil qiladi. Ular hatto taqlid so'zlardan ham oz hisoblanadi. Bunday so'zlar tillardagi leksik qatlamning bir foizini ham tashkil qilmaydi. Undov nazariyasi tarafdorlari aytganidek, tildagi barcha so'zlar undovlar asosida paydo bo'lgan bo'lsa, his-hayajonni bildirmaydigan juda ko'plab so'zlar qay tarzda paydo bo'ldi degan haqli savol tug'ilishi, tabiiy. Shunday ekan, bu nazariya ham tilning paydo bo'lishi uchun asos bo'la olmaydi.

Mehnat chaqiriqlari nazariyasi. Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, tildagi barcha so'zlar ibtidoiy jamoa davridagi kishilarning birlashib mehnat qilishlari natijasida paydo bo'lganligini da'vo qilishadilar. Mehnat qilishdagi qiyqiriqlar, chaqiriqlar mehnat jarayonidagi harakatni bir ritm, bir qolipga solishga vosita vazifasini o'tagan. Mehnat jarayonidagi odamlar tomonidan hosil qilingan qiyqiriqlar, chaqiriqlar hech qachon kishilarning aloqa vositasi bo'lgani emas. Shunday chaqiriqlar asosida hosil bo'lgan so'zlar hozirgi zamondagi tillarda uchramaydi. Negaki bunday hayqiriqlar, chaqiriqlar lug'aviy manoga ega emas.

Imo-ishora nazariyasi. Bu nazariyani yaratgan kishilar tovush tili paydo bo'lguncha insonlar imo-ishora orqali bir-birlari bilan aloqa qilgan deb hisoblaydilar. Nemis olimi Vundt birinchilardan bo'lib bu nazariyani asoslashga uringan bo'lsa, keyinchalik N.Y.Marr uni yanada takomillashtirgan. Inson mehnat qurollarini yaratgunga qadar kishilarda tovush tili bo'lmasdan imo-ishora tili bo'lgan. Bir yarim million yil davomida imo-ishora tili orqali aloqa qilganlar, deb isbotlashga uringanlar.

Xolbuki, odamsimon maymunlar mehnat qilishni bilmagan davrlarida ularning oldingi ikki oyog‘i qo‘l vazifasini emas balki oyoq vazifasini bajargan, zotan shunday ekan o‘sha davrlarda odamsimon maymunlar qaysi a‘zosi bilan imo-ishora qilib bir-biri bilan aloqa qila olgan. N.Y.Marning da‘vo qilishicha, odamlar yarim million yil davomida “imo-ishora tili” orqali aloqa qilganlar va keyinchalik bu tovush tiliga aylangan. Bu xato fikr edi. N.Y.Marr ham o‘z davrida odam maymundan paydo bo‘lganligiga ishonishgan. Shu sabab ham shunday yanglish fikrlarni aytgan edi. Xulosa qilib aytganimizda, inson nutqining taraqqiyotida imo-ishora tili kishilarning aloqa vositasi bo‘lgan degan fikr ilmiy jihatdan o‘z isbotini topmadi.

Ijtimoiy kelishuv nazariyasi. Bu nazariya XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, uning tarafdorlari har bir narsaga nom qo‘yayotganda odamlar o‘zaro kelishib olishgan degan fikrni olg‘a suradi. Bu fikrning o‘zi ham ilmiy asoslangan g‘oyaga ega emasligini ko‘rsatib turadi. Negaki, o‘zaro kelishib olish uchun ham insonlarda yuqori darajada rivojlangan til va tafakkur bo‘lishi taqozo etiladi. Bundan kelib chiqayapdiki, bu nazariya tilning paydo bo‘lishini emas, balki til rivojlanishining xarakterli tomonlarining bir qisminigina ko‘rsatib bera oladi, xolos. Boshqa nazariyalarga qaraganda bu nazariya haqiqatga ancha yaqinroq. Hozirgi kunda ham u yoki bu yangi paydo bo‘lgan narsani nomlashda o‘zaro kelishilib olinadi. Lekin bunday hodisalar tillarning lug‘at tarkibi boyishi uchun katta ahamiyatga ega. Ammo, tilning paydo bo‘lishiga hech qanday aloqasi yo‘q.

Shuningdek, BMTning axborotlashtirish xalqaro akademiyasi akademigi Lev Melnikov va boshqa ko‘plab tilshunoslarning fikricha, til olloh taolo tomonidan insonga berilgan ne‘mat. Alloh faqat insongagina oliy fikrlash va so‘zlash qobiliyatini ato etgan. Tilning yaratuvchisi alloh taoladir.

Xulosa shuki, tilning paydo bo'lishini yuqorida sanab o'tilgan nazariyalarning birortasi ham materialistik asosda hal qilmasa ham, ularning ahamiyatini to'liq inkor eta olmaymiz. Tilning paydo bo'lishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib ko'plab omillar ishtirok etgan. Boshqacha qilib aytganimizda, yuqorida sanab o'tilgan nazariyalar tilning paydo bo'lishi va taraqqiy etishini tushuntirishga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shgan. Biz yuqorida sanab o'tgan farazlarning barchasi ma'lum foizlarda to'g'ri. Tilning paydo bo'lishini bitta faraz yoki bitta nazariya bilan bog'lab o'rganishning o'zi noto'g'ri. Bitta farazda jamiyatning roli hisobga olinmagan bo'lsa, mehnat chaqiriqlari va ijtimoiy kelishuv farazlarida biologik omillar chetda qolgan. Bu sanab o'tilgan farazlarning barchasida, ma'lum ma'nolarda haqiqat mavjud.

28-§. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi

Ma'lumki, tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligini uning qonuniyatlarini insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari sifatida o'rganamiz. Yaqinlargacha tilga tarixiy yondashish muammosi XVIII asr faylasuflarining ishlarida o'z aksini topdi degan yanglish fikrlar mavjud edi.

Xolbuki, bobokalon tilshunos olimimiz Mahmud Koshg'ariy yaratgan "Devonu lug'atit turk" asarida tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi haqida yetarlicha ma'lumotlar bor. S.Mutallibov ta'kidlaganidek, Mahmud Koshg'ariy yaratgan "Devonu lug'atit turk" asari faqat o'sha davr uchungina katta voqea bo'lib qolmay, bugungi turkologiya uchun ham o'z qimmatini saqlab kelmoqda. U haqli ravishda turkologiya fanining asoschisi hisoblanadi.

Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk"dan tashqari turkiy tillar sintaksisiga doir "Javohirun nahv fil lug'atit turk" ("Turkiy tillarning nahv (sintaksis) javohirlari") asarini ham

yozgani haqida ma'lumot beradi. Afsuski, bunday nodir asar hanuzgacha topilgani yo'q.

“Devonu lug‘atit turk” (qisqacha “Devon”) asarining faqat bitta nusxasi 1914-yilda Turkiyada topildi. U kotib Muhammad bin Abu Bakir Damashqiy tomonidan 1265-1266-yillar orasida Koshg‘ariyning o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan ko‘chirilgan. Shu nusxa asosida 1915-1917-yillarda Turkiyada “Devon”ning uch tomi nashr qilindi, 1928-yilda Vengriyada K.Brokkelman tarjimasida nemis tilida bosildi, 1939-yilda Turkiyada Basim Atalay tarjimasida turk tilida, 1960-1963-yillar orasida esa Toshkentda o‘zbek tilshunosi Solih Mutallibov tarjimasida o‘zbek tilida nashr qilindi.

Professor B.O‘rinboyev M.Koshg‘ariy qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi deb hisoblaydi va bu haqda shunday yozadi: “M.Koshg‘ariy turkiy tillar qurilishini tasvirlashda qiyosiy usuldan foydalanib, tilshunoslikda qiyosiy – tarixiy metodning asoschilaridan biri bo‘lib qoldi [B.O‘rinboyev, 1999: 19].

B.O‘rinboyevning bu fikriga o‘xshash fikrni professor A.Nurmonov ham aytadi: “Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik XIX asrdan paydo bo‘ldi deyiladi va uning asoschilari sifatida Frans Bopp, Rasmus Rask hamda Yakob Grimmilar e‘tirof etiladi. Buning sababi shundaki, G‘arb olimlari Mahmud Koshg‘ariyning “Devon”i bilan XX asrning birinchi choragiga qadar tanish bo‘lmagan. Agar tanish bo‘lganlarida, uning tilshunoslikdagi xizmatlari oldida tiz cho‘kkan va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya singari yo‘nalishlarning otasi sifatida Mahmud Koshg‘ariy e‘tirof etgan bo‘lardilar [A.Nurmonov, 2012: 188].

Mahmud Koshg‘ariy Xalil, uning shogirdi Sibavayxi kabi mashhur arab tilshunoslarining asarlarini qunt bilan o‘rganadi, turkiy tillardan tashqari arab, fors tillari va ularning shevalarini ham o‘rganadi.

Mahmud Koshg'ariy tilning ijtimoiy mohiyatini, til taqdiri jamiyat taqdiri bilan uzviy bog'liq ekanini, xalqlar o'rtasidagi turli munosabatlar ularning tillarida ham o'z aksini topishini to'g'ri tushungan.

“Boshqa tillardan so‘z olish masalasidagi pozitsiyasi uni bizning davrimizga yaqinlashtiradi. Chunki Mahmud Koshg'ariy turmushda ishlatiladigan asbob va boshqa narsalar, kiyimlar, ovqatlar, dorilar nomlari sifatida kirgan chet so‘zlarni zarur va foydali deb hisoblagan va bunday so‘zlarni o‘z asariga kiritgan. Ammo ona tilida mavjud bo‘lgan so‘zlar o‘rnida chet so‘zlardan foydalanishni zararli deb hisoblagan. Masalan, o‘g‘izlarning qumg‘on so‘zi o‘rnida forscha oftova so‘zini ishlatishlarini u tanqid qildi”[S.Usmonov, 1972: 52].

Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi ham “Devon”da tadqiq qilingan. Masalan, ma’noning kengayishi (tug‘moq ilgari faqat odamga nisbatan qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik hayvonlarga nisbatan ham qo‘llanadigan bo‘lgan; o‘pka asli odam organini anglatgan bo‘lsa, keyinchalik “achchiq”, “g‘azab” ma’nolarini ham ham ifodalaydigan bo‘lgan), torayishi (sobon so‘zi ilgari qo‘sh va omochlarning hammasi ma’nosida qo‘llangan bo‘lsa, keyinchalik faqat “omoch” ma’nosidagina qo‘llanadigan), metafora usulida ma’no ko‘chishi (yuqorida keltirilgan tug‘moq so‘zining ma’nosi kengashiga sabab metaforadir), metonimiya usulida ma’no ko‘chishi (bulut, omion so‘zlarini “yomg‘ir” ma’nosida, og‘il so‘zini “qiy”, “go‘ng” ma’nosida qo‘llash), sinekdoxa usulida ko‘chishi (soch so‘znini “qiy”, “go‘ng” ma’nosida qo‘llash), sinekdoxa usulida ko‘chishi (soch so‘zini “bosh” ma’nosida qo‘llash) kabi semantik jarayonlar Mahmud Koshg'ariyning nazaridan chetda qolmagan. Bulardan tashqari, so‘zlardagi omoniya va sinonimiya hodisalari ham asarda tilga olinadi. [S.Usmonov, 1972: 52].

“Devon”da soʻzning maʼno va fonetik tuzilishini tahlil qilish asosida koʻpgina etimologik izohlar ham beriladi. Masalan, oʻylamoq soʻzining oʻzagi oʻy - (hozirgi adabiy tilda uy-) “qazilgan yer”, “yer uy”, “turar joy” maʼnolarini ifodalab, “fikr,” “xayol” maʼnolaridagi soʻz esa aslida oʻy boʻlmay, oʻg boʻlgani koʻrsatilga.

“Devon” ayrim notoʻgʻri talqinlarga barham berishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan: “Shu vaqtgacha, Qarshi nomi moʻgʻullar kelgandan soʻng berilgan, bu-moʻgʻulcha soʻz deb yuriladi. Holbuki, “Devon”da “Qarshoq qasri” [H.Hasanov, 1963: 399] deb izohlangan. Bu qaysi tildan olinganligidan qatʼi nazar, Oʻrta Osiyo xalqlariga moʻgʻullardan ancha oldin maʼlum va tushunarli boʻlgan. Demak, Qarshi-oʻzbekcha soʻz, qasr, qoʻrgʻon degan maʼnoda deyaveramiz [H.Hasanov 1963: 35].

“Devon”ning geografiya fani uchun ahamiyati beqiyosdir.

“M.Koshgʻariyning “Devonu lugʻotit turk”ini, – deydi taniqli geograf Hamidullo Hasanov, – ayni vaqtda “Joy nomlarining lugʻati” desak mubolagʻa boʻlmas. Uning dunyo kartasida yozilgan yirik nomlaridan tashqari juda koʻp mayda nomlar tilga olingan, ularga geografik va etimologik izohlar berilgan” [H.Hasanov, 1963: 74].

U arab yozuvi sistemasidagi harflarning turkiy tillardagi mavjud tovushlarni ifodalash uchun yetarli emasligini aytib, arab yozuviga yangi belgilar kiritadi. Aniqrogʻi, arab yozuidagi 18 harfni – shu harflardan yettitasi ustiga maxsus qoʻshimcha belgi qoʻyish orqali 25 taga yetkazadi. Natijada 25 ta tovush oʻzining yozma – harf shakliga, ifodasiga ega boʻladi [R.Rasulov, 2017: 44].

Umuman olganda, Mahmud Koshgʻariyning “Devoni lugʻatit turk” asari tilshunoslik taraqqiyoti uchungina emas, tarix adabiyotshunoslik, etnografiya, geografiya kabi koʻplab

fanlar uchun ham ilmiy va amaliy ahamiyati cheksiz bo'lgan manbadir.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari yanada atroflicha sinchiklab o'rganilishi va unda yoritilgan har bir yirik soha bo'yicha tadqiqot olib borilishi va natijalarni nashr qilish lozim. Toki Koshg'ariyshunoslik mustaqillik yillarida mazmun jihatdan ham, mundarija jihatdan ham yangi bosqichga ko'tarilishi kerak.

A.N.Kononov, H.Negmatov quyidagilarni yozadi: "Tilni kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida, jamiyat hayotini aks ettiruvchi ko'zgu sifatida tushungan Mahmud Koshg'ariy o'zining mashhur "Devon"ida aynan bir davrga oid bo'lgan turlicha turkiy tillar hodisalarini, faktlarini qiyosiy-tarixiy metod asosida solishtiradi, taqqoslaydi. Chunki o'sha davrda aynan mana shu metod arab tilshunosligida juda keng tarqalgan bo'lib, bu arab tilining ko'p shevali til ekanligi xususiyatidan kelib chiqadi"[A.N.Kononov, X.Ne'matov, 1981: 131].

"Mahmud Koshg'ariydan so'nggi asrlarda O'rta Osiyoda bir qancha filologik asarlar maydonga kelganligi fanga ma'lum. Masalan, XIII asrga oid "Tarjimoni turki va arab", Ibn Muhannaning "Kitobi tarjimoni forsi va turki va mo'g'uli"(XIII-XIV asrlar) asari shular jumlasidandir. Bu asarlar yetarlicha o'rganilib, sharhlangan emas. Ammo ularning eski o'zbek tili lug'at tarkibini va grammatik xususiyatlarini yoritishda ma'lum ahamiyati borligi shubhasizdir" [S.Usmonov, 1972: 53].

Bulardan keyin esa Markaziy Osiyo tilshunosligida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asarlar maydonga keldi. Bu eng avvalo Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir.

Alisher Navoiy ikkita lingvistik asar yozgan. Ularning biri 1499-yilda yaratilgan "Muhokamatul lug'atayn" (Ikki til muhokamasi) bo'lib, shundan buyon Alisher Navoiy

tilshunoslik tarixida tilshunos sifatida ham mashhur bo'lib kelmoqda.

Unda turkiy tilning, ya'ni eski o'zbek tilining badiiy adabiyot yaratishda fors tilidan tubdan farqlanmasligini, so'z va uning ma'nosi til bilan tafakkur orasidagi munosabat, shakl bilan mazmun munosabati, tillarning kelib chiqishi, eski o'zbek tilida so'zlarning ma'no boyligi, omonimiya, so'z boyligi va sinonimiya, so'z yasash masalalari va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

Alisher Navoiy qadimgi greklar logos so'zini turlicha qo'llaganlari kabi so'z bilan uning ma'nosini ko'pincha birga olgan, ajratmagan. U so'z terminini "so'z" ma'nosida ham, "ma'no", "tushuncha" ma'nosida ham qo'llay bergan.

Alisher Navoiy "Muhokamatul lug'atayn"da eski o'zbek tilining ichki tuzilishini, ayniqsa morfologik tuzilishini ancha chuqur tahlil qilgan. Masalan, fe'lning o'zlik, orttirma va birgalik nisbatlarini, ravishdosh shakllarini, ko'makchilashuvchi fe'l yordamida tuzilgan murakkab fe'llarni, sifatning orttirma darajasini va kuchaytirma shakllarini, ayrim so'z yasovchi qo'shimchalarning ma'nolarini ko'rsatib, ularni misollar bilan izohlab bergan.

Masalan: chopishmoq, topishmoq, o'pishmoq, yugurt, yashurt, chiqart, oppoq, qop-qora, qip-qizil, sap-sariq, yum-yumoloq, yap-yassi, op-ochuq, chup-chuqur, ko'm-ko'k, bo'm-bo'sh.

Alisher Navoiy ikki tilning ichki tuzilishini chog'ishtirar ekan, o'zbek tilining lug'at tarkibi jihatidan ham, grammatik qurilishi jihatdan ham fors tilidan qolishmasligini aniq misollar tahlilida isbotlab berdi.

Ayni vaqtda Alisher Navoiy o'sanmoq, aldamoq, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, qizg'anmoq, siylanmoq, sig'inmoq, yolinmoq, tergamoq, siypamoq, ingramoq, mung'aymoq, sipramoq,

o‘rtanmoq, gangiramoq, siypamoq, ingramoq, mung‘aymoq, sipqormoq, gangiramoq kabi 100 ta o‘zbekcha fe’lni tahlil qilib, ularning fors tilida muqobili yo‘qligini ta’kidlaydi.

Bu bilan, ya’ni keltirilgan misollar bilan o‘zbek tili lug‘at tarkibining bir qismini ma’nodosh so‘zlar tashkil qilishini ham ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy fors tilini biror daraja kamsitmaydi, balki forscha ijod qilayotgan o‘zbek shoirlarini o‘zbek tilida ham ijod qilishga chorlaydi.

B.O‘rinboyevning ta’kidlashicha, Alisher Navoiy ikki tilni chog‘ishtirganda 100 fe’lni keltirib, ularni tahlil qiladi va o‘zbek tilini xazina deb biladi.

Masalan, fors-tojik tilida “giryā kardan” birikmasi o‘zbek tilida yig‘lamoq, ingramoq, singramoq, yig‘lamsinmoq, sixtamoq, o‘kurmoq, inchkiramoq, fe’llari bilan, “no‘shidan” so‘zi o‘zbek tilidagi ichmoq, sipqormoq, tamshimoq bilan berilishini izohlaydi [B.O‘rinboyev, 1999: 34].

Chunki Alisher Navoiyning “Majolis un - nafois” asarining ikkinchi majlisida tilga olingan 90 ta shoirdan 16 tasi turkiycha va forscha ijod qilgan. Asarning uchinchi majlisida tilga olingan 110 ta shoirdan esa atigi 3 tasigina turkiycha ijod qilgan.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy XV asrda Xurosonda til bilan bog‘liq bo‘lgan vaziyatni aniq ko‘rsatib bergan. Ikkinchidan, Alisher Navoiy o‘zbekcha va forscha, ikki tillilikka alohida e’tibor bergan.

Alisher Navoiyning arab, fors va o‘zbek tillarining ijtimoiy mohiyati haqidagi qarashlari ham e’tiborga loyiqdir. Masalan, u arab tilini ilohiyat va fan tili sifatida, fors tilini davlat va adabiyot tili sifatida, o‘zbek tilini esa go‘zal va ifodali til sifatida baholagan.

Shunday qilib, Alisher Navoiy o‘zining jahonga mashhur badiiy asarlari bilan Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy kabi so‘z

mulkining sultonlari tomonidan asos solingan o‘zbek adabiy tilini yuksak pog‘onaga ko‘targan bo‘lsa, “Muhokamatul lug‘atayn” asari bilan esa Mahmud Koshg‘ariy asos solgan umumiyturkiy tilshunoslikning o‘zbek tilshunosligi qismini o‘z davri e‘tibori bilan yangi pog‘onaga ko‘tardi, o‘zbek tilshunosligida chog‘ishtirma grammatikaga asos soldi.

Xulosa qilib aytganda, o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda ko‘pchilik fanlar qatori tilshunoslik ham keyingi asrlar tilshunosligiga samarali ta’sir ko‘rsatish darajasida taraqqiy etgan.

29-§. Tillarning o‘zaro ta’siri va rivojlanishi

Til doimiy harakatda, o‘zgaruvchan, boyib boruvchi va dinamik xarakterli rivojlanishdagi ijtimoiy hodisadir. Til turg‘un dogmatizmdan iborat hodisa emas. Jamiyat rivojlanishdan to‘xtasa til ham rivojlanishdan to‘xtaydi. O‘sha til o‘lik tilga aylanadi. Har qanday tilning rivojlanishida ichki va tashqi omillar sabab bo‘ladi. Til rivojlanishining ichki omillariga til tizimidagi birliklarning o‘ziga xos tarzda boyib taraqqiy qilib borishi kirs, tashqi omil esa tillarning ochiq tizim ekanligida namoyon bo‘ladi. Bunga birinchi navbatda jamiyat, tillararo munosabat va o‘zaro ta’sir jarayoni kiradi. Boshqacha qilib aytganimizda ekstralingvistik jarayon tillarning tashqi omil asosida rivojlanishining asosiy faktorlaridan biri sanaladi. Shu sabab ham tilshunoslik intralingvistika va ekstralingvistika kabi ikki turga bo‘linadi.

Intralingvistikani (in) ichki lingvistika (tilshunoslik) deb ham tushunsak bo‘ladi. Intralingvistika til tizimining sistem aloqasini, munosabatini tashqi lingvistikaga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘rganadi. Tillarning umumiy va xususiy qonuniyatlar asosida taraqqiy qilishini ichki va tashqi tilshunoslikka bo‘lib o‘rganganimizda ko‘ramiz. Ichki qonuniyatlar til sathlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar bilan cheklanadi. Tashqi

qonuniyatlar umumiy qonuniyatlar ham deb nomlanib barcha tillarga xos bo'lgan lisoniy jarayon va hodisalarni o'rganadi. Til sathlari tinimsiz taraqqiyotda rivojlanib boradi, ayniqsa leksik sathda kuchli seziladi. Ichki lingvistikaning o'rganish ob'ekti fonologiya, leksikologiya va grammatika sanaladi. Tovushlar birikib sistem aloqa hosil qilish jarayoni tadqiq qilinadi. Har qanday tovush to'g'ri kelgan ikkinchi tovush bilan birika olmaydi. Bu yerda ham ma'lum qonuniyatlar mavjud bo'lib, bu qonuniyatlar ichki lingvistikada o'rganiladi.

Ekstralingvistikani tashqi lingvistika deb ham ataymiz. Tashqi lingvistika tilning taraqqiyoti va vazifasini ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar bilan bog'liq tarzda o'rganadi. Shunga ko'ra, ushbu lingvistika tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadi. Til juda murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, bugungi taraqqiyot bosqichiga kelguncha ko'plab faktorlar ta'sirida bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-tarixiy, etnik, jo'g'rofiy kabi faktorlar tilning rivojlanishi uchun muhim vazifani bajaradi.

Lingvistik taraqqiyot hodisasi asosan uch aspektda kuzatiladi: fonetik, leksik, grammatik.

Til taraqqiyotining ichki qonuniyatlari fonetikada sezilarli darajada o'z ifodasini topgan. Nutq tovushlari orasida o'zaro siljish, almashinish, orttirilish, tushib qolish kabi fonetik hodisalar ham ma'lum ichki qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Biz bu haqda assimilyasiya, dissimilyasiya, singarmonizm, metateza, tovush orttirilishi, tovush moslashuvi, gaplogiya, diareza, epenteza hodisasi haqida yuqorida to'xtalgan edik.

Fonetik qonuniyatlarning xarakterli jihatlarini sifatida qadimdan tilimizda bo'lgan fonetik o'zgarishlar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan: adog' – ayoq. Ado bo'lmoq tugamoq, ekin maydonining pastki qismi adog'i, inson tanasining pastki qismi oyoq. Ya'ni vaqt o'tishi bilan –d tovushi

–yo tovushiga siljigan. Jonli soʻzlashuv tilimizda unlilar 15 tagacha uchraydi, ammo alifbomizda 6 ta harf bilan ifodalanadi. Tilimiz tarixidan maʼlumki oʻzbek tilida singormanizm unli tovushlar moslashuvi milliy hodisasi mavjud boʻlgan. Singormanizm hodisasi boʻyicha birinchi boʻgʻinda kelgan unli shu soʻzning keyingi boʻgʻinlarida ham takrorlanib kelishi lozim. Masalan: *kulgu*, *suzuk*, *uzuk*, *unum*, *toroq*, *qilgʻiliq*, *tushum* kabi. Bugungi kunda sekin-sekin bu hodisa unitilib bormoqda.

Leksik qonuniyatlarning xarakterli jihatlari sifatida qadimdan tilimizda boʻlgan soʻzlarning arxaiklashib qolishi, tilimizga neologizmlarning kirib kelishi doirasida koʻrishimiz mumkin. Til ochiq tizim sifatida mavjud boʻlgani uchun birorta til yoʻqqi boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirmagan boʻlsa. Tilning lugʻat tarkibidagi neologizmlar bunga yorqin misol boʻladi: “*koronavirus*”, “*mishka*”, “*prezentatsiya*”, “*layk*”, (“*layk qilmoq*”), “*parol*”, “*login*”, “*onlayn*”, “*blog*”, “*post*”, “*selfi*”, “*status*”, “*mobil versiya*”, “*domen*”, “*internet-provoyder*”, “*operator*”, “*moderator*”, “*spam*”, “*e-meyl*”, “*sayt-vebsayt*”, “*chat*” va hakoza. Bu kabi yuzlab soʻzlar soʻnggi paytlarda tilimizga kirib oʻzlashib, kundalik soʻzlashuv leksikasiga aylanib bormoqda. Shuningdek, leksik taraqqiyotning ichki omillariga yasama soʻzlarning oʻzaklarining tub soʻzga aylanib borishi misolida ham koʻrishimiz mumkin. Masalan, pichoq soʻzi qadimda pich (bich) + oq yasalmasidan iborat boʻlgan. Bugungi kunda tub soʻz sifatida qaraladi. Tarixiy oʻzak boʻyicha yasalmadir.

Tildagi soʻzlarning maʼnosida boʻladigan juda koʻplab oʻzgarishlar ham til rivojlanishi uchun turtki boʻladi. Bunga maʼno koʻchishi, bir turkumdan ikkinchi turkumga oʻtish, soʻzlarning atamaga aylanishi, soʻzlarning ichki manba orqali yasalishi kabilar leksik taraqqiyotning vositalari hisoblanadi.

Grammatik qonuniyatlarning xarakterli jihatlari tildagi matnlararo miqdoriy o'zgarishlarda ko'rinadi. So'z turkumlariga oid kategoriyalar grammatikada ma'no to'dalariga birlashadi. Grammatik kategoriyalar ham til taraqqiyotining ichki omili hisoblanadi. Grammatikada grammatik vositalarni ma'no to'dalariga birlashtirish orqali farqlaymiz. Grammatik vositalar tilning rivojlanishi uchun xizmat qiladi. Kelajakda tillar tipologiyasi orqali yaratilayotgan universal grammatika orqali grammatik qonuniyatlar umumlashtirilib ko'rsatilishiga erishiladi. Universal grammatika tillarni sistem tadqiq qilish va rivojlanishi uchun nihoyatda muhim. Masalan, zamon, son, shaxs-son, egalik kabi kategoriyalarni barcha tillarda birlashtirsa bo'ladi. Bugungi kunda zamon kategoriyasini ingliz tilida o'n oltita, o'zbek tilida to'qqizta yana boshqa tillarda boshqacha turlarga bo'lib talqin qilinishi tillarni o'rganish uchun murakkablik tug'dirishi tabiiy. Tillar sistem xarakterga ega ekan, barcha tillar ma'lum grammatik qonuniyatlar orqali rivojlanadi. Aksariyat hollarda, bir tilga tegishli bo'lgan qonuniyat boshqa tilga ham begona emasligi muqarrar. Kelajakda yaratilajak universal grammatikada ham bir tilda uchraydigan, ammo boshqa tillarga tegishli bo'lmagan hodisalar alohida ta'kidlanadi. Masalan, rod kategoriyasi rus tiliga xos o'zbek tilida mavjud emas. Bu kategoriya turkiy tillarga tegishli emas deb ko'rsatiladi.

Til rivojlanishining dinamik jarayoni dastlabki yozuv paydo bo'lgan davridayoq o'z qonunlariga ega bo'lgan. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik shuni ko'rsatadiki, har qanday til oilasi rivojlanishida boshqa tillar ta'sirida bo'lib, ma'lum tayanch tilga borib taqaladi. Ushbu rivojlanish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Asosiy til yangi tillarning paydo bo'lishiga olib keladigan dialektlarga bo'linadi. Yangi tillar, tillar oilasini tashkil etuvchi tillar guruhlari va kichik guruhlari

uchun asosiy tillardir. Tillar tug'ilmaydi lahja va shevalardan kelib chiqadi. Ming yillar davomida aloqaning uzilishi asosida bir til shevalaridan yangi tillar paydo bo'laveradi. Tillarning ko'payishi shu tarzda sodir bo'ladi.

Masalan, umumiy hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi hindu-eron bo'limi uchun asosiy til hind tilidir. Ushbu hind-eron asosiy tili hind va eron tillari guruhlariga bo'lingan. Tillarning bunday "ko'payishi" tanadagi hujayralar o'sishiga o'xshaydi, bu esa A.Shleyxerga tilni biologik organizm bilan solishtirishga sabab bo'ldi. Qiyosiy - tarixiy tilshunoslik shuni ko'rsatadiki, bu ko'paytirish ko'lami boshqacha bo'lishi mumkin. Ba'zi lingvistik oilalar (hind-yevropa, semit-gemitik, turkiy) ko'plab tillarni o'z ichiga oladi, boshqalari (Chukchi-Kamchatka, Koinsan, Tungus-Manchurian) oz tillarni o'z ichiga oladi. Tillar o'rtasidagi tafovut darajasi ham har xil bo'lishi mumkin. Masalan, turkiy va fin-ugur tillarining bir-biridan ajralib turishi shuni ko'rsatadiki, dialektlarning bo'linishi va ajralishi jarayonlari har xil intensivlik darajasida bo'lgan.

Alohida tillar ham qayd etilgan, ular tillar oilasini tashkil qiladi. Bunday tillar ko'pincha yapon tiliga taalluqlidir. Qiyosiy-tarixiy usul g'oyasiga ko'ra, bunday alohida til, til oilasining yagona vakili hisoblanadi.

Jahonda bugungi kunda, dialektlarni "unutish" jarayoni har xil sur'atlarda davom etmoqda. Agar Angliya yoki Frantsiyada bu ko'rsatkichlar ancha yuqori bo'lsa, Germaniyada "unutish" jarayoni sekinroq kechmoqda. Bu jarayon hozir ham rus tilida kuchli davom etmoqda. Arab tilida shevalarni saqlab qolishga urinish tarixdan juda kuchli bo'lgan. Chunki tilda katta o'zgarish sodir bo'lsa, muqaddas qur'onni tushunmay qolamiz degan hadik bo'lgan.

Shu bilan birga, adabiy til, lahjalar farqlarini kamaytirish bilan birga, til tizimlarining o'ziga xos "ko'payish" turini

shakllantiradi. Og‘zaki nutq nuqtai nazaridan adabiy tilning og‘zaki shakli, barcha dialektlar o‘rtasida farq paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. O‘z navbatida, og‘zaki tillar tizimida o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu shuni anglatadiki, adabiy til tizimi ham tafovut tufayli rivojlanadi.

Uning quyi tizimlarga bo‘linishiga olib keladigan adabiy tilning tafovuti va shunga mos ravishda bu jarayonni tilning rivojlanishini ko‘rib chiqishga majbur qiladigan asoratlar bilan bir qatorda, adabiy tillar sonining ko‘payish jarayoni ham mavjud. Bu jarayon tarixiy vaqt miqyosida jadal sur‘atlar bilan davom etmoqda.

Adabiy tilning shakllanishi nafaqat tizimlarning “ko‘payishi”ni, balki ularning murakkablashuvini ham o‘z ichiga oladi. Adabiy tilda bir vaqtning o‘zida ikkita nutq materiallari mavjud bo‘ladi: yozma va og‘zaki. Ularning orasidagi bog‘liqlik mavjud. So‘zlar muayyan imlo asosida yoziladi. Bu holda, so‘zning individual tovushlari va imlo qismlari o‘rtasida ularning yozishmalari o‘rnatiladi. Ushbu yozishmalar, bir tomondan, alifboning maqsadi bo‘yicha, ikkinchi tomondan, imlo qoidalari tomonidan tuzilgan bo‘lib, ular so‘zning imlosini muayyan shaklda so‘zning talaffuzini ko‘rsatadigan qilib yaratishga imkon beradi.

Bularning barchasi birgalikda adabiy tilning rivojlanishi va umumiy so‘z boyliklarining o‘sishi bilan bog‘liq.

30-§. Tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi soha qiyosiy -tarixiy tilshunoslik ekanligi

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik shakllangandan so‘ng tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlar ilmiy isbotini topdi. Til taraqqiyoti derivatsion qonuniyatlar asosida amalga oshadi. Til juda murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, undagi birliklar bir-biri bilan uzviy bog‘langan. Har bir til birligi o‘zidan katta birlik ichida faoliyat ko‘rsatadi. Fonema, morfema sathida, morfema esa

leksema sathida va hakoza. Shunday ekan o‘z navbatida, ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Fonetik–fonologik o‘zgarishlar tilning ichki qonuniyatlari bilan bog‘liq hodisadir. Tildagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetika hamdir. Qardosh tillardagi (hind-yevropa tillari, turkiy tillar) tarixiy fonetik o‘zgarishlar natijasida so‘zlardagi etimologik va geneologik o‘xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy –fonetika o‘rganadi. Masalan: *net, nes, ne, nou* so‘zlari yoki *mama, modar, maze* bir til oilasiga kiruvchi rus, tojik, ingliz, nemis va boshqa tillarda bir-biriga juda yaqin talaffuz qilinadi. Qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi tarixiy-fonetik o‘zgarishlarni o‘rganish orqali tipologik, qiyosiy-tipologik fonetika, fonologiya sohalari paydo bo‘ldi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiyshunoslikda ilk bor imlo talaffuzdagi tovushlarni ifodalashdan o‘jiz ekanini ochib berdi. Uning o‘zi birinchi bo‘lib yozuvdagi kamchilikni to‘ldirish maqsadida ayrim harflarni belgiladi. Mahmud Koshg‘ariy turkiyshunoslikda ilk bor tovushlarni maxsus kuzatdi, ularni ilmiy jihatdan o‘rgandi. Birinchilardan bo‘lib, qiyosiy–tipologik fonetika va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikka xissa qo‘shdi. Tovushlarning kombinatsiya natijasidagi mavqelarini-akustik va fiziologik holatlarini belgiladi. Olim fonetikaga doir juda ko‘p yangiliklarni ochdi, bu sohani yangi-yangi qoidalar bilan boyitdi. Olim ularning undosh tovushlardan farqini ajratar ekan, ulardagi kenglik va torlik, cho‘ziqlik va qisqalik holatlaridagi qonuniyatlarni ko‘rsatib bergan. Unli tovushlardagi ana shu xususiyatlarni asos qilib muallif turkiy tillardagi umumiylik va ular orasidagi xususiylikni belgilaydi. Tilda fonema eng kichik birlik bo‘lishiga qaramay, eng katta vazifani bajaradi. Mahmud Koshg‘ariy e‘tiroficha, fonetik jarayon g‘oyat ko‘p holatlar bilan bog‘liq. Shuning uchun uni izchil va to‘g‘ri talqin qilish ham unga katta imkoniyat

yaratadi. Olim undan shu maqsadlarda foydalangan. Chunonchi, u fonetik jarayonlarning ko'p holatda so'zlar etimologiyasini aniqlashga yordam berishini qayd etadi. "Devonu lug'otit turk"da Mahmud Koshg'ariy shu usul orqali juda ko'p so'zlarning etimologiyasini belgilaydi. Bu albatta, hozirgi umumturkologiya va o'zbek tilshunosligi uchun so'zlar etimologiyasini aniqlash, xususan, etimologik lug'atlar tuzish yo'lida g'oyat ahamiyatlidir. Darhaqiqat, turkiy tillarda ko'pgina so'zlar bir bo'g'inli bo'lgan. Turkiy tillarda undoshlar juftligi, undosh tovushlarning juft holda qator kelishi yoki kelmasligi haqida turkologiya va o'zbek tilshunosligida xilma-xil fikrlar mavjud. Ayrim olimlar undosh tovushlarning takrorlanib kelganligini tan olmasalar, ayrimlar uni cho'ziq undoshlar deb ataganlar. Ba'zilar uni boshqa tillarning ta'siri sifatida ko'rsatgan. Mahmud Koshg'ariyning ushbu fonetik jarayon yuzasidan tahlili bu boradagi qarashlarga ham oydinlik kiritishi mumkin. Olimning qayd etishicha, tovushlardagi ikkilik turli maqsadda yuzaga keladi. Chunonchi, mubolag'a, ta'kid, kuchaytiruv maqsadlari sabab bo'lishi mumkin. Ba'zan bir tovushning ikkinchi tovushga singishi ham ushbu fonetik jarayonni yuzaga keltiradi. Tadqiqotchi undoshlardagi juftlik tilda keyin yuzaga kelgan fonetik jarayon ekanligi haqidagi g'oyasini olg'a surar ekan, ularning so'z turkumlari bo'yicha ham turlicha ekanligini qayd etadi. Mahmud Koshg'ariy bu jarayonni qoidalashtirib, aslida bir harf ikki qayta takrorlangan so'z turkiy tillarda sira yo'qdir. U faqat oxirgi harfi "t" bo'lgan fe'llardagina paydo bo'ladi. Ismlarda esa bu holat juda ozdir, deydi. Xullas, Mahmud Koshg'arining nafaqat o'zbek tilshunosligida, balki umumturkologiya fonetikasiga doir nazariy fikrlari haligacha mukammal o'rganilgan emas.

Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Barcha tillarga tegishli tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlari bilan bog'liqlikda aks ettirish umumiy fonetik qonuniyatdir. Masalan, singarmonizm (tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiy fonetik qonuniyatdir. Chunki singormanizmda tovushlar moslashadi. Shu sabab ham fonetik hodisa sanaladi. Bu hodisa boshqa til oilalarida uchramaydi.

2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarni ifodalaydi. Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o'zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdir.

Fonetik qonuniyatlar davr nuqtayi nazaridan ikkiga bo'linadi.

1. Til tarixining tarixiy tovush o'zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2. Zamonaviy tilshunoslik ma'lum bir til doirasida hozirgi paytda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni o'rganadi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o'zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Fonetik va fonologik o'zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro'y beradi.

1. Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida ma'lum bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2. Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi.

Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

Nazorat uchun savollar:

1. Tilning paydo bo'lishi haqidagi farazlar haqida nimalarni bilasiz?

2. Tilning tarixiy taraqqiyoti qanday shakllangan?

3. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o'zgaruvchanligi qanday sodir bo'lgan?

4. Tillarning o'zaro ta'siri va rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?

5. Tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha qiyosiy – tarixiy tilshunoslik ekanligi haqida nimalarni bilasiz?

Tayanch so'z va birikmalar:

Tovushga taqlid farazi, undov farazi, biologik omillar, mehnat chaqiriqlari farazi, imo-ishoralar, ijtimoiy kelishuv nazariyalari, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, lingvogeografiya, sub'ekt, predikat, ob'ekt, atribut.

Adabiyotlar

1. O'rinboyev B. O'zbek tilshunosligi tarixi. –Samarqand: 1999. –80 b.

2. Nurmonov A. Tanlangan asarlar, 2-jild. Lingvistik ta'limotlar tarixi. –Toshkent, 2012. –232 b.

3. Usmonov S. Umumiy tilshunlik. –Toshkent: O'qituvchi, 1972. –208 b.

4. Hasanov H. Mahmud Koshg'ariy. –Toshkent. 1963.

5. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –312 b.

6. Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. (Devoni lug'otit turk). 3 jildlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. –T.: Fan, 1960. –500 b.

7.Кононов А.Н., Нигматов Х.Г. Махмуд Кашгарский о тюркских языках. История лингвистических учений. Средневековый восток. –Л., 1981. –135 с.

8.Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. Ярцева В.Н. – 2-е изд., доп. –М. : Большая рос. Энцикл., 2002. –709 с.

DUNYO TILLARI VA ULARNING TASNIFI

31-§. Dunyo tillari

Til universalialari barcha tillarga tegishli hodisalardir. Barcha tillar sistem xarakterga ega bo'lgani uchun, struktural tipologiyaning ob'ekti sanaladi. Dunyo tillarining tipologik tasnifini quyidagi turlarga bo'lib o'rganamiz:

- 1.Qiyosiy tipologiya.
- 2.Genetik tipologiya.
- 3.Morfologik tipologiya.

Qiyosiy tipologiya qarindosh bo'lgan va bo'lmagan tillarni qiyoslash orqali ularning xarakterli xususiyatlarini o'rganadi.

Genetik tipologiya butun dunyodagi tillarni qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib, tillar oilasini belgilab beradi. Bunda asosan tillarning kelib chiqish manbasiga e'tibor beriladi.

Morfologik tipologiya tillarning qarindoshlik aloqalaridan qat'iy nazar grammatik tuzilishi jihatidan turlarga ajratiladi. Bunda grammatik vositalarning ma'no to'dalariga birlashishi muhim rol o'ynaydi. Tillarning morfologik xususiyatlari, tiplari asosida muayyan guruhga birlashtirilib tasnif qilinadi. Morfologik tasnif bo'yicha tillarning kelib chiqishi, tarixi, qarindoshlik aloqalari muhim emas, ularni grammatik xususiyatlari asosida muayyan guruhlariga birlashtirilib o'rganiladi. Amorf (o'zak) tillarga maye, xitoy, bamana, annam, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlari xalqlarining ko'pgina tillari kiradi. Bu tillarning lug'at tarkibi, asosan, bir bo'g'inli so'z o'zaklardan iborat bo'lib, ularda turlanish, tuslanish xususiyatlari yo'q. Shu bois ushbu tillarda so'z yasovchi affikslar, yordamchi so'zlar vazifasini bajaruvchi yuklamalargina mavjud. O'zak tillarda so'z tartibi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tillarning morfologik tasnifida dunyo tillarini muayyan morfologik xususiyatlariga ko'ra guruhlash, ularning umumiy chizmasini yaratish jihatlari muhim, shu bois u hozir ham o'z e'tiborini yo'qotmagan.

Til doimiy taraqqiyotda bo'lgani uchun undagi barcha belgilar o'zgaruvchan ekanligini inobatga olib F. do'. Sossyur shunday deydi: Ko'plab tadqiqotchilar biror til oilasining xarakterli belgilari xususida gapirganlarida, asosan, uning bobo tili xususiyati haqida o'ylaydilar va bunday holatda muammo juda yengil tuyuladi, chunki gap ma'lum til va ma'lum davr haqida boradi. Ammo kimdir na makon na zamon ta'sirida bo'ladigan barqaror belgilar bor deb o'ylasa, u evolyusion tilshunoslikning asosiy tamoyillariga tajovuz qilgan bo'ladi. Mohiyatan o'zgarmaydigan belgilar bo'lmaydi, ular faqat tasodif tufayligina saqlanib qolishi mumkin. [F. do'. Sossyur, 2019: 267].

Dunyo tillarini qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib o'rganish XVIII asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lgan tarixiy-qiyyosiy tilshunoslikning izlanish samaralaridan biridir. Umuman qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning, tilshunoslikka qo'shgan eng katta hosilasi butun dunyodagi tillarning geniologik tasnifini yaratish imkonini berganligi bilan ahamiyatlidir. Boshqacha qilib aytsak, komporativistikaning asoslanishi butun dunyodagi tillarning geniologik tasnifini yaratish imkonini berdi. Tillarni bir-biriga qiyoslab, taqqoslab o'rganish tillardagi so'zlarning ma'nolari, grammatik xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qilishini ko'rsatdi. Bir - biridan katta farq qilgan tillar kelib chiqishiga ko'ra qardosh tillar bo'la olmaydi. Shuningdek, tillarni qiyoslash oqibatida ba'zi tillarning leksik boyligi, grammatik xususiyatlari, ulardagi so'zlarning shakllari va ma'nolari, paydo bo'lish manbai ham bir-biriga ancha yaqin ekanligi ko'rinadi. Bunday tillar bir tildan kelib chiqqan, *qardosh tillar*

hisoblanib, grammatik tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo'lgan tillar guruhi *til oilasi* deb qaraladi. Masalan, o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, gagauz, qoraqalpoq, turk, chuvash kabi tillar turkiy til oilasiga kiritiladi. Chunki, bu tillardagi o'xshashlik, yaqinlik, umuman, qardoshlik tomonlari ularning so'z boyligi, fonetik, grammatik qurilishiga bir-biriga juda o'xshaydi.

Qardosh tillar jamiyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida yo differensiya yoki integratsiya yo'li bilan paydo bo'ladigan tarixiy hodisadir. Shuning uchun tillarning qarindoshligini biologik hodisa deb qarash xatodir [I.Yo'ldoshev, O'.Sharipova, 2007: 156].

Qardosh bo'lmagan ba'zi tillarda o'xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Til ochiq tizim bo'lgani uchun, bir tildan ikkinchi bir tilga tinimsiz so'zlarning kirib kelishi yuz beradi. Ma'lu bir tilda boshqa bir qardosh bo'lmagan tildan kirgan so'zlar ham ko'plab uchraydi. Masalan, o'zbek tiliga arab tilidan: *ism, fe'l, harf, kalima, jumla, qofiya, vazn, balog'at, istiora, mantiq, falsafa, savod, ma'no, mazmun* singari, rus tilidan *mashina, stol, stul, ruchka, samovar* kabi anchagina so'zlar o'zlashgan. Lekin bunday so'zlar o'zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo'lolmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qardosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so'zning o'zi asos bo'la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so'z boyligida boshqa tildan kirgan so'zlar ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatik xususiyatlari butunlay boshqacha bo'ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan so'zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o'rganilgan etnogenez jihatdan ham qardosh bo'lib chiqmaydi, chunki til materialining kelib chiqishi jihatidan bir-biriga to'g'ri kelmaydi, qardosh emasligi ma'lum bo'ladi.

Rus, bulg‘or, chex, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo‘lganligi uchun bu tillar leksikasidagi so‘z boyligi ma’nolari, so‘larning fonetik va grammatik tuzilishlari jihatidan ham birmuncha o‘xshashlik, yaqinligi aniq sezilib turadi. Jumladan, Yevropa tillari va boshqa tillarda ham bunday xususiyatlarni qiyoslab o‘rganishda qardoshlik aloqalari aniqlandi. Bu fikrlar shuni ko‘rsatadiki, qardosh tillarda so‘z negizlari, grammatik vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo‘lib, ular bir o‘zak tildan kelib chiqqan hisoblanadi. Ulardagi biror so‘z yoki grammatik vositalardagi noo‘xshashlik ma’lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergan. Masalan, o‘zbek tilidagi g‘ tovushiga qozoq tilidagi u (w) tovushi muvofiq keladi: bog‘-bau (baw), tog‘-tau (taw); o‘zbek tilidagi t tovushiga ozarbayjon tilidagi d tovushi muvofiq keladi: temir-demir, til-dil; o‘zbek tilidagi y tovushiga qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangan hamda qardosh tillardagi so‘zlarning leksik ma’nolari va grammatik qurilishlaridagi ba’zi bir farqlar ular tilining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba’zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko‘pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so‘zlarning ma’nolari asosan o‘zaro juda yaqin bo‘ladi. Shu kabi har bir tilning boyligi inson irqining oq yoki sariq ekanligiga bog‘liq bo‘lmaydi. Shu asosda, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida bir o‘zak tildan tarqalganligini va ularning o‘zaro munosabatini, so‘z ma’nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o‘xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlariga ajratadi.

Professor N.Uluqov tillarning geniologik tasnifiy birliklari deb quyidagilarni ko‘rsatadi [N.Uluqov, 2016: 44]:

№	Tasnifiy birliklar
1	Tillar makrooilasi
2	Til oilasi
3	Til tarmoqlari (shaxobchalari)
4	Til guruhi
5	Til guruhchasi
6	Til
7	Lahja
8	Sheva

32-§. O‘lik tillar

Til ijtimoiy hodisa bo‘lgani uchun, jamiyat bilan birga yashaydi, taraqqiy qiladi, rivojlanadi, boyiydi. Jamiyat yo‘qolsa shu til ham yo‘q bo‘ladi. Nemis olimi Avgust Shleyxer “Naturalizm” oqimini yaratib tillarga ham biologik organizm sifatida qarash kerakligini aytib, tillar odamlar kabi tug‘iladi, boyiydi, qariydi, o‘ladi va nihoyat chiriydi degan edi. Ammo, bu fikr to‘g‘ri emas edi. Tillarning tug‘ilishi biologik hodisa emas, ya’ni tillar odamlar kabi tug‘ilmaydi, shevalardan paydo bo‘ladi. Tillarning o‘lishi ham tirik organizm o‘limiday bo‘lmaydi. Jamiyat yo‘qolsagina, shu jamiyat tili ham yo‘q bo‘lib ketadi. O‘lik til unsurlari ham, boshqa tillar tarkibida yashab qoladi. Demak, bugungi kunda iste’molda bo‘lgan tillar tirik tillar bo‘lsa, iste’moldan chiqib ketgan hech qaysi millat gaplashmayotgan tillar esa o‘lik tillardir. Dunyoda sof tillar 3000 tadan ziyod, lahjalar bilan 7200 tadan ko‘proq bo‘lishiga qaramay, shu tillarning juda ko‘plari himoyaga muhtoj sanaladi. Har ikki haftada bitta til o‘lik tilga aylanishi bugungi kunda kuzatilayapdi. Ba’zi tillar hali yetarli darajada tadqiq qilinmagani uchun mustaqil tilmi yoki lahjami ekanligini aniq aytolmaymiz. Shu sabab ham tillar soni aniq emas. Bu tillar ichida bir necha yuz ming aholi gaplashadigani ham, 400-500

ta kishi gaplashadigan tillar ham mavjud. Hattoki, ba'zi lahjalarida bor yo'g'i 8-10 tagina odam gaplashadi, xolos. Shu sabab ham kam sonli odamlar gaplashadigan tillarning o'lik tillarga aylanish havfi juda kuchlidir. O'lik tillar qatoriga hindistoni tillari guruhidan sanskrit, pali, prakrit tillari, eron tillari guruhidan qadimgi fors, pahlavi, so'g'd, xorazmiy tillari, slavyan tillari guruhidan qadimgi slavyan, polab, pomir tillari, boltiq tillari guruhidan prus tili, german tillari guruhidan vesgot va ostgot tillari, roman tillari guruhidan lotin, osk, umbr tillari, kelt tillari guruhidan gal va kornuol tillari, grek tili guruhidan qadimgi yunon, o'rta yunon, vizantiya tillari, arman tili guruhidan qadimgi arman tili, hind-evropa tillari oilasiga yuqorida sanalganlardan tashqari xett, toxar tillari kiradi. Shuningdek, som tillari guruhidan ossuriya-vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oromey tillari, hom tillari guruhidan liviya, numid, qadimgi misr tillari, turkiy tillari guruhidan o'rxun, pecheneg, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va hazar kabi tillar o'lik tillar hisoblanadi. Bu sanab o'tilgan tillar is'temoldan chiqqan bo'lib bugungi kunda hech kim gaplashmaydi.

33-§. Tillarning geneologik va tipologik tasnifi

Genetik tipologiya dunyo tillarini qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga ajratib, bir tildan kelib chiqqan tillarni qarindosh tillar deb ataydi. Hozirgi paytda geneologik tasnif bo'yicha tillar qiyosiy jihatdan o'rganilib, bir-biri bilan qardoshligi aniqlangan tillar oilasi 20 dan ortiq bo'lib, ularning asosiylari quyidagicha tasnif qilinadi:

- 1.Hind-yevropa tillari oilasi.
- 2.Xom-som tillari oilasi.
- 3.Kavkaz tillari oilasi.
- 4.Ugor-fin tillari oilasi.
- 5.Turkiy tillari oilasi.

- 6.Xitoy-tibet tillari oilasi.
- 7.Dravid tillari oilasi.
- 8.Malay-polineziya tillari oilasi.
- 9.Avstraliya tillari oilasi.
- 10.Papua tillari oilasi.
- 11.Sudan tillari oilasi.
- 12.Bantu tillari oilasi.
- 13.Paleoafrika tillari oilasi.
- 14.Paleoosiyo tillari oilasi.
- 15.Eskimos tillari oilasi.
- 16.Amerika hindularining tillari kabilar.

34-§. Til oilalari. Til guruhlari

I. Hind-yevropa tillar oilasi. Dunyo tillar oilalari ichida eng keng tarqalgani va ko‘p o‘rganilgani hind-yevropa tillar oilasidir. Bu oilaga slavyan, boltiq, german, roman, hind, eron, kel’t, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlari kiritilgan. Qayd etilgan har bir til oilalari yana o‘z navbatida quyidagicha tasnif etilgan:

Hindiston tillari guruhi avval ikkiga ajratilgan:

a)hind tili. b) urdu tili.

Bundan tashqari Hind tillari guruhiga yana quyidagi tillar kiritilgan:

1.Bengal tili. 2.Maratxi tili. 3.Panjob tili. 4.Rajaston tili. 5.Gujarati tili. Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi. Qadimgi hind tillari guruhiga lo‘li, sindxi tillari, shuningdek, iste’moldan chiqib qolgan (o‘lik) tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiritilgan. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo‘lib, bu tilda “Mahabxarata” (“Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston”) hamda “Xito padesha” (“Yaxshi nasihat”) kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Miloddan avvalgi IV asrda hind

olimi Paninining mashhur “Sanskrit grammatikasi” asari materiali ana shu yodgorliklar tiliga mos keladi.

Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

- a) hozirgi fors tili.
- b) pushtu-dari tillari.
- v) kurd tili.
- g) tojik tili.
- d) osetin tili.
- e) baluchi tili.

Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

- a) rus tili.
- b) ukrain tili.
- v) belorus tili.
- g) bulg‘or tili.
- d) serb-xorvat tillari.
- e) chex tili.
- j) slovak tili.
- z) polyak tili.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, iste’moldan chiqqan (o‘lik) tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

Bolتيق tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

- a) litva tili.
- b) latish tili.

Iste’moldan chiqqan (o‘lik) tillardan prus tili ham bolتيق tillari guruhiga kiradi.

German tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

- a) ingliz tili.
- b) nemis tili.
- v) daniya tili.
- g) shved tili.
- d) norveg tili.
- e) golland tili.

j) island tili.

Iste'moldan chiqqan (o'lik) qadimgi tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

a) fransuz tili.

b) italyan tili.

v) ispan tili.

g) portugal tili.

d) rumin tili.

e) moldava tili.

j) provansal tili.

z) sardin tili.

i) katalan tili.

k) reto-roman tili.

Iste'moldan chiqqan (o'lik) tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiritilgan:

a) irland tili.

b) shotland tili.

v) breton tili.

d) uel's (valli) tili.

Iste'moldan chiqqan (o'lik) tillardan gal va kornoul tillari ham kel't tillari guruhiga kiradi.

Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiritilgan. Iste'moldan chiqqan (o'lik) tillardan qadimgi yunon, o'rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

Alban tili guruhiga alban tili kiradi.

Arman tili guruhi.

Hind-yevropa tillari oilasiga yuqorida qayd etilganlar qatorida yana xett, toxar tillari singari iste'moldan chiqqan (o'lik) qadimgi tillar ham kiradi.

II.Xom-som tillar oilasi. Bu tillar oilasi avval ikki katta guruhga ajratilgan: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhi.

Som tillari guruhiga quyidagi tillar kiritilgan:

a) arab tili.

b) xom tillari guruhiga: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari hamda iste'moldan chiqqan (o'lik) tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar haligacha yaxshi tekshirilib o'rganilmagan.

III.Ugor-fin tillar oilasi. Bu tillar oilasi avval 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo'linadi. Ularning har biri yana quyidagi guruhlarga ajratilgan:

Ugor tillariga quyidagilar kiradi:

a) venger (mojar) tili.

b) mansi tili.

v) xanti tili.

Fin tillariga quyidagilar kiradi:

a) fin tili.

b) eston tili.

v) komi-permyak tili.

g) komi-ziryan tili.

d) udmurd tili.

e) mari tili.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijor tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

IV.Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari bir qancha guruhlarga, chunonchi, g'arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog'iston guruhiga bo'linadi.

1.G'arbiy guruhga quyidagi tillar kiradi:

a) abxaz tili.

b) abazin tili.

v) adigey tili.

g) kabardin-cherkes tili.

2.Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) chechen tili.

b) ingush tili.

g) basbi tili.

3.Dog‘iston guruhiga Dog‘iston Respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) avar tili.

b) dargin tili.

v) lazgin tili.

d) lak tili.

e) tabassaran tili.

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo‘lgan bir qancha tillar ham dog‘iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Dog‘iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

4.Janubiy guruhga gruzin tili kiradi.

V.Xitoy-tibet tillar oilasi. Bu oila avval ikki guruhga bo‘linadi: tay-xitoy va tibet tillari guruhlariga ajratilgan. Ular yana o‘z navbatida quyidagicha tasnif etiladi.

1. Tay-xitoy guruhi:

a) xitoy tili.

b) dungan tili.

v) vietnam tili.

g) tay (siam) tili.

2. Tibet guruhi.

a) Tibet tili.

b) birma tili.

v) Assam tili.

VI.Drauid tillar oilasi.

a) tamil tili.

b) malayalam tili.

v) kannara tili.

g) telugu tili.

d) braxun tili.

e) malay-polineziya tillari.

VII.Indonez tillar oilasi. a) indonez tili. b) madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham indonez tillar guruhiga kiradi. Bu tillarda so‘zlashuvchi kishilar soni haligacha yaxshi aniqlanmagan. Shu kabi hozirgacha yana ko‘p tillar o‘rganilmagan. Ularning ba’zilarining soni haqida ham ma’lumotlar yo‘q. Chunonchi:

a) Avstraliya guruhi tillari.

b) Papua tillari.

v) Sudan tillari.

g) Bantu tillari.

d) Paleoafrika tillari.

e) Paleoosiy tillari.

yo) Eskimos tillari guruhi.

j) Amerika hindularining tillari.

z) Austr-Osiyo tillari.

Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) yapon tili.

2) ryukyu tili.

3) quriya (koreya) tili.

4) ayn tili.

5) burjaski tili.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, geneologik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o‘zaro munosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan hali chuqur tekshirilib o‘rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi hali hal qilinmagan.

35-§.Turkiy tillar oilasi

Turkiy tillar oilasi o'ttizga yaqin tilni o'z ichiga oluvchi katta oilalardan biri hisoblanadi. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi.

a) ozarbayjon tili. Bu tilda so'zlashuvchilar Eronda, Ozarboyjonda yashaydi. Bugungi kunda bu til Ozarboyjonning davlat tilidir; b) turk (usmonli turk) tili. Bu til Turkiyaning davlat tilidir; v) turkman tili. Bu til Turkmanistonning davlat tilidir; g) o'zbek tili. Bu til O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir; d) qozoq tili. Bu til Qozog'iston Respublikasining davlat tilidir; e) qirg'iz tili. Bu til Qirg'iziston Respublikasining davlat tilidir; j) tatar (Qozon tatarlari) tili. Bu til Tataristonning asosiy xalqi tilidir; z) uyg'ur tili. Bu tilda so'zlashuvchilar Xitoy Xalq Respublikasining Sinszyan-uyg'ur avtonom rayonida yashaydi i) chuvash tili. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tilidir; k) boshqird tili. Bu til Boshqirdiston Respublikasi yashovchi xalqning tilidir; l) yoqut tili. Bu til Yakutiyada yashovchi xalqning tilidir; m) qoraqalpoq tili. Bu til Qoraqalpoq Respublikasida yashovchi xalqning tilidir; n) tuva tili. Tuvada yashovchi asosiy xalqning tili; Bundan tashqari, qumiq, qorachay, balqar, no'g'oy, oltoy, xakas, shor kamasin, qrim-tatar, gagauz, qaraim, tofalar, barabin, cho'lim-tatar, bolqon turklari tillari shuningdek, o'rxun, pecheneg, qipchoq, qadimgi uyg'ur, bulg'or va hazar kabi o'lik tillar ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

36-§. Qo'shimchali va qo'shimchasiz tillar. Qo'shimcha turlari

Qo'shimchali tillarga o'zakka qo'shimchalar erkin holatda qo'shila oladigan tillar kiradi. Bunday tillarni agglyutativ tillar ham deb ham nomlaymiz. Agglyutativ tillar (lot.

agglutino – qo‘shilish) – so‘z o‘zagi yoki negiziga qo‘shimchalar qo‘shilishi (ulashi) natijasida yangi so‘zlar hosil bo‘luvchi tillar. Agglyutinatív tillarda so‘zning o‘zak yoki asosini o‘zgartmagan holda qo‘shimchalar qo‘shish bilan ma‘lum so‘z va shakl yasaladi, har bir qo‘shimcha muayyan ma‘no va vazifa bilan qatnashadi. Masalan, *temir-chi-lik-ka*, *bog‘-bon-chilik-imiz-ga*. Turkiy tillar (xususan, o‘zbek tili), bantu, mo‘g‘ul, fin-ugor tillari agglyutinatív tillar hisoblanadi. Agglyutinatív tillarda so‘zlar o‘zak va unga birikib keladigan affikslardan iborat bo‘ladi hamda so‘zning morfologik tuzilishi (o‘zak va affiks) aniq ajralib turadi. Bunda har bir affiks bir ma‘no, vazifa bilan qatnashadi. Masalan, turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida yasama so‘zlar va so‘z shakllari asosga muayyan izchillik bilan affikslar qo‘shish orqali hosil qilinadi va bunda affikslarning har biri o‘z ma‘nosi bilan qatnashadi. Affiksal morfemalarning asosga qo‘shilish tartibi quyidagicha bo‘ladi: asos+so‘z yasovchi+lug‘aviy shakl hosil qiluvchi+sintaktik munosabat hosil qiluvchi: *ish-chi-lar-i-miz-ga*, *kitob-xon-lar-imiz-dan* kabi.

Qo‘shimchasiz tillarga o‘zakka qo‘shimchalar erkin holatda qo‘shila olmaydigan tillar kiradi. Bunday tillarni flektiv tillar ham deb nomlaymiz. Bunday tillarga hind-evropa, som-xom tillari oilalari kiradi. Flektiv tillar affikslarning o‘zak bilan birikib, unga singib ketishi bilan tavsiflanadi. Bunday tillarda grammatik ma‘nolar fleksiya yo‘li bilan ifodalanadi: masalan, arab tilida kitob (birlik) – kutub (ko‘plik) yoki rus tilida drug (birlik) – druzya (ko‘plik). Flektiv tillar sintetik va analitik tillarga ham ajratiladi. Sintetik tillarda grammatik ma‘nolar (gapda so‘zlarning o‘zaro munosabati) shakl yasovchi affikslar vositasida ifodalanadi (mas., rus, nemis tillari). Analitik tillarda esa grammatik ma‘nolar so‘z shakllari (shakl yasovchi qo‘shimchalar) vositasida emas, balki yordamchi so‘zlar, so‘z tartibi, ohang yordamida ifodalanadi

(mas., ingliz, fransuz, ispan tillari). Ingliz, nemis, rus, va fransuz, arab tillarida flektiv tillarning morfologik asoslarini yaqqol ko‘rish mumkin: ingliz tilida *find-found, foot-feet*, nemis tilida *fahren-fuhr*, rus tilida *viju (videt) –videsh (vidit)*, arab tilida *kataba-yozdi, katib-kotib* kabi.

Qo‘shimcha turlari. Mustaqil holda leksik ma‘no anglatmay, o‘zak va negizga qo‘shilib turli xil ma‘no jilolarini qo‘shadigan morfologik birliklar qo‘shimchadir. Qo‘shimcha morfemalar uchga bo‘linadi: a) so‘z yasovchi b) shakl yasovchi v) so‘z o‘zgartiruvchi. Bu haqda yuqorida to‘xtalgan edik.

Professor Azim Hojiyev “O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi” kitobida so‘z yasalishini morfologiyaning tarkibiy qismi sifatida emas, tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘rganish kerakligini ta’kidlab quyidagicha yozadi: „So‘z yasalishi”, tilshunoslikning alohida sohasi (bo‘limi) sifatida, so‘z yasash va u bilan bog‘liq birliklar, hodisalar haqidagi, umuman aytganda, so‘z yasalishi tizimi haqidagi ta’limotdir [A.Hojiyev, 2007: 6].

Qo‘shimchalar o‘zakka joylashishiga qarab oltiga bo‘linadi: prefiks, postfiks, infiks, interfiks, suffiks, transfiks.

1.Prefiks – prefiks morphemalar ko‘proq fors – tojik tillaridan kirib kelgan so‘zning olidga qo‘shiladigan *ba-, ser-, no-, be-* kabilardir.

2.Postfiks – postfiks morphemalar so‘z o‘zagidan so‘ng qo‘shiladi: *bog‘bon, oshpaz, gulchi* kabi.

3.Infiks – infiks morphemalar so‘z o‘zagining ichiga joylashadi: *kitob-kutub* kabi.

4.Interfiks – ikkita so‘zni yoki so‘z va qo‘shimchani bog‘lash uchun ishlatiladigan so‘zning bir qismi. So‘z o‘rtasiga qo‘shiladigan qo‘shimcha. Masalan: *Oynai jahon, tasviriy oina* kabi.

Kompozitsion usulda yasalgan ikkita o‘zakni bog‘laydigan vosita. Bu odatda birlashtiruvchi unlilar yoki undoshlardan iborat bo‘lishi mumkin: *vod o voz (ruscha), Übung s - platz (nemischa: o‘quv sayti)*. So‘zlarni yoki so‘zning tarkibiy qismlarini bog‘laydigan qo‘shimcha: masalan, ruscha e, o qo‘shma so‘zlarda *paroxod* kabi.

5.Suffiks – suffiks (lotincha “biriktirilgan” so‘zidan) qo‘shimchaning bir turi. So‘zning odatda o‘zakdan keyin joylashgan qismi. Aslida, postfiksning bir turi. Rus tilida so‘zning bir qismidan ikkinchisiga o‘zgarishi bilan so‘z yasalishi, qoida tariqasida, qo‘shimchaning yordamida amalga oshiriladi.

6.Transfiks – undoshlardan tashkil topgan so‘zning o‘zagiga unli tovushlarni qo‘shish orqali hosil qilinadigan affiksning bir turi. Infiksdan farqli o‘laroq, transfiks uchta to‘rtta qator kelgan undosh fonemalardan iborat o‘zak fonemalari orasiga unlining qo‘shilishidir. Ketma-ket transfiksatsiya semit tillarining morfologik xususiyatidir. Bunday tillarda so‘zning ildizi ko‘pincha uchta undoshning mavhum ketma-ketligi hisoblanadi, garchi bitta, ikki yoki to‘rtta undoshlardan tarkib topgan so‘zlarga transfiks vositasi sifatida unli qo‘shiladi. Bu holat turkiy tillar so‘z tuzilishiga xos emas, chunki turkiy tillarda bitta unli, bitta undosh, bitta undosh, bitta unli keladi. Hech qachon ikkita, uchta yoki to‘rtta undosh so‘zning bir joyida ketma-ket kelmaydi.

Nazorat uchun savollar:

1.Qanday tillar qardosh tillar hisoblanadi?

2.Qaysi jihatlariga qarab til oilalari belgilanadi?

3.Hozirgi vaqtda geneologik tarixiy-qiyosiy jihatdan o‘rganilib, bir-biri bilan qardoshligi aniqlangan tillar tasnifida necha guruh qardosh tillar ko‘rsatilgan? Ularni nomma-nom sanab bering.

4.Hind-yevropa tillari oilasiga qaysi tillar kiradi? Ularning har birining o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering.

5.Xom-som tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering?

6.Turkiy tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan?

7.Turkiy tillar oilasiga kirgan tillarning har birida gaplashuvchilar sonini aytib bera olasizmi? Jumladan, o'zbek tilida gaplashuvchilar soni qancha?

8.Ugor-fin tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering va ularda gaplashuvchilar sonini ayting?

9.Kavkaz tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering va ularda gaplashuvchilar sonini ayting?

10.Xitoy-tibet tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering va ularda gaplashuvchilar sonini ayting?

11.Drauid tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering va ularda gaplashuvchilar sonini ayting?

12.Indonezi tillari oilasiga qaysi tillar kiritilgan? Ularning o'ziga xos guruhlariga bo'linishlarini ham sanab bering va qaysilarining aholi soni ma'lum, qaysilari hali kam o'rganilgan?

14.Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillarini sanab bering va qaysilarining aholi soni ma'lum?

Tayanch so'z va birikmalar:

Qardosh tillar, til oilasi, tillar makrooilasi, til tarmoqlari, til guruhi, til guruhchasi, lahja, sheva, geneologik, Indonez tillar oilasi, Drauid tillar oilasi, Xitoy-tibet tillar oilasi, Kavkaz tillari oilasi, Ugor-fin tillar oilasi, Turkiy tillar oilasi, Xom-som tillar oilasi, Hind-yevropa tillar oilasi.

Adabiyotlar

1. Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –308 б.
2. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: “Iqtisod moliya”, 2007. –192 b.
3. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. –190 b.
4. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: „Ўқитувчи наشريёти” 2007. –168 б.
5. Кодухов В.И. Введения в языкознание.–Москва: Пресвещение, 1987. –288 с.
6. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. –256 b.
7. Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. Ярцева В.Н. –2-е изд., доп. –М.: Большая рос. Энцикл., 2002. –709 с.

MUSTAQIL ISH MAVZULARI REJALARI, ULARNI BAJARISH BO‘YICHA SAVOL VA TOPSHIRIQLAR⁴

Tilning tizim sifatidagi mohiyati (1-mavzu)

1. Til birliklari zanjiri
2. Ma'nolar tashuvchi belgilar yig'indisi haqida tushuncha
3. Tilning sistemaviy tabiati
4. Til belgilar sistemasi

Savol va topshiriqlar:

1. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati deganda nimani tushunasiz?
2. Til strukturasi elementlarini izohlang?
3. Til sathlari ierarxik munosabati deganda nimani tushunasiz?
4. Til birliklariga nimalar kiradi?
5. Til belgilar sistemasi ekanligi va uning asosiy xususiyati nimalardan iborat?

Tilshunoslik va semiotika (2-mavzu)

1. Belgi haqida tushuncha.
2. Belgi turlari.
3. Lingivistik belgi va uning xususiyatlari.
4. Til – belgilar tizimi.
5. Semiotika va u o'rganadigan masalalar.
6. Tilshunoslik va semiotika fanlari bog'liqligi.

⁴ Мустақил иш мавзулари режалари, уларни бажариш бўйича савол ва топшириқларни тузишда Н.Улуқовнинг Тилшунослик назарияси ўқув қўлланмасидаги материаллардан фойдаланилди.

Savol va topshiriqlar:

1. Belgi deganda nimani tushunasiz?
2. Belgilar vazifasi va mohiyatiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
3. Lingivistik belgi deganda nimani tushunasiz?
4. Lingivistik belgi boshqa belgilardan nimasi bilan farqlanadi?
5. Nima uchin til belgilar tizimi?
6. Semiotika qanday soha?
7. Tilshunoslik va semiotika fanlari bog‘liqligini izohlang.
8. Til mohiyatiga ko‘ra nima? Izohlang.
9. Til vazifasiga ko‘ra nima?
10. Tilning vazifalarini izohlang.
11. Tilshunoslik fanining soha va bo‘limlari haqida ma’lumot bering.

Sharq mutafakkirlarining til haqidagi qarashlari (3-mavzu)

1. Sharqda ilm-fan va til, nutq masalalari talqini.
2. Yusuf Xos Hojibning til va nutq haqidagi qarashlari.
3. Mahmud Koshg‘ariy va tilshunoslik.
4. Abu Nasr Forobiyning lingvistik qarashlari.
5. Alisher Navoiyning til va nutq haqidagi qarashlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Yusuf Xos Hojibning til va nutq haqidagi qarashlarining mazmun-maohiyati xususida fikr yuriting.
2. Mahmud Koshg‘ariyning ilmiy merosi tilshunoslik taraqqiyotida qanday ahamiyatga egaligini dalillar bilan izohlang.
3. Mahmud Koshg‘ariy va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik taraqqiyoti masalasini tushuntiring.
4. Abu Nasr Forobiyning lingvistik qarashlarini izohlang.

5. Alisher Navoiyning til va nutq haqidagi qarashlarini izohlang.

6. Alisher Navoiy tilning paydo bo'lishini qanday izohlaganligini va buning sabablarini tahlil qiling.

**Til oilalari. Hind – Yevropa tillari oilasi. Roman tillari.
(4-mavzu)**

1. Dunyo tillari.
2. Tillar tasnifi.
3. Tasnif turlari.
4. Tillarning geneologik tasnifi.
5. Til oilalari va qarindosh tillar.
6. Turkiy tillar oilasi.
7. Tillarning morfologik tasnifi.
8. Millatlararo tillar.
9. Xalqaro tillar.

Savol va topshiriqlar:

1. Tillar tasnifi deganda nimani tushunasiz?
2. Tillar tasnifining qanday turlari bor?
3. Tillar hozirda qo'llanish-qollanmasligiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
4. "Olik til" va "tirik til" terminlarini izohlang. O'lik tillar ro'yxatini tuzing. Ularni bunday tillar guruhiga kiritilishi sabablarini izohlang.
5. Tillarning geniologik tasnifi qanday tamoyillarga asoslanadi?
6. Qanday tillar qarindosh tillar hisoblanadi?
7. Til oilasi tushunchasini izohlang.
8. Dunyodagi tillar geneologik tasnifga ko'ra qanday til oilalariga ajratiladi?
9. Turkiy tillar oilasi haqida ma'lumot bering. Turkiy tillar oilasiga mansub tillarning tarqalish areallarini aniqlang. «Turkiy tillar oilasining tarqalish areallari» nomli xarita tuzing.

10. O'zbek tili qaysi tillar bilan bir guruhga kiradi? Nima uchun?

11. O'zbek tili qaysi tillar bilan qarindosh hisoblanadi? Buni izohlang.

12. *Bobotil* tushunchasini, turkiy tillar oilasi uchun asos bo'lgan bobotilning xususiyatlarini izohlang.

13. Tillarning tipologik (morfologik) tasnifi deganda nimam tushunasiz?

14. Flektiv til, agglyutinativ til, o'zak (ajratuvchi) til, polisintetik til terminlarini izohlang?

15. O'zbek tili tillarning tipologik (morfologik) tasnifiga ko'ra qanday tillar sirasiga kiradi? Dalillar asosida izohlang.

Leksemaning semantik tabiati; leksema va semema (5-mavzu)

1. Leksemaning shakl va ma'no tuzilishi.
2. Leksema va so'z.
3. Leksema mazmuni.
4. Leksema va semema.

Savol va topshiriqlar:

1. Leksema va so'z terminlarini izohlang.
2. Lug'aviy ma'no va uning tarkibi deganda nimani tushunasiz?
3. Leksema va semema terminlarini izohlang.
4. Sema nima? Semema nima? Misollar keltiring.
5. Leksemaning shakl va ma'no tuzilishi deganida nimani tushunasiz?
6. Semantika qanday soha?

Lugʻaviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari (6-mavzu)

1. Lugʻaviy sath birliklari.
2. Lugʻaviy sath taraqqiyotida, ichki manbalarning roli.
3. Tashqi manbalar.
4. Oʻz qatlam va oʻzlashma qatlam.

Savol va topshiriqlar:

1. Lugʻaviy sath tushunchasini izohlang.
2. Lugʻaviy sath birliklariga nimalar kiradi?
3. Lugʻaviy sath taraqqiyotining ichki manbalari nimalardan iborat?
4. Lugʻaviy sath taraqqiyotining tashqi manbalariga nimalar kiradi?
5. Tilning lugʻat tarkibining oʻzlashma qatlami deganda nimani tushunasiz?
6. Hozirgi oʻzbek tili lugʻaviy sathi taraqqiyotini dalillar asosida tahlil qiling.

Lugʻaviy birliklarning qoʻllanish doirasiga koʻra tasnifi (7-mavzu)

1. Tilning lugʻat tarkibi haqida.
2. Lugʻaviy birliklarning qoʻllanish doirasiga koʻra tasnifi.
3. Umumisteʼmol leksikasi.
4. Isteʼmol doirasi chegaralangan teksika.
5. Tarixiy-etimologik jihatdan oʻzbek tili leksikasini tasniflang.

Savol va topshiriqlar:

1. Til lugʻat tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Lugʻaviy birliklar qoʻllanish doirasiga koʻra qanday turlarga boʻlinadi?
3. Umumistemol leksikasi va uning xususiyatlarini izohlang.

4. Iste'mol doirasi chegaralangan leksika va uning xususiyatlarini izohlang.
5. Tarixiy-etimologik jihatdan til leksikasini tasniflang.

Terminlar mohiyati (8-mavzu)

1. Terminologiya va u o'rganadigan masalalar.
2. Termin va uning belgi-xususiyatlari.
3. So'z va termin.
4. Terminlarning qo'llanish xususiyatlari.
5. O'zbek terminologiyasi.
6. O'zbek terminologiyasining manbalari.

Savol va topshiriqlar:

1. Terminologiya qanday soha?
2. Termin qanday til birligi?
3. Terminning lisoniy belgi-xususiyatlarini izohlang.
4. Terminlar qanday yaratiladi?
5. O'zbek terminologiyasining manbalarini tahlil qiling.
6. So'z va termin tushunchalarini izohlang.

Frazemalarning semantik turlari: omonim, sinonim, antonim iboralar.

(9-mavzu)

1. Frazemalarning turlari
2. Omonimik iboralarning o'ziga xos belgi xususiyatlari
3. Sinonimik iboralarning o'ziga xos belgi xususiyatlari
4. Antonimik iboralarning o'ziga xos belgi xususiyatlari

Savol va topshiriqlar:

1. Frazologiya haqida umumiy ma'lumot bering?
2. Frazema va frazeologiya tushunchasi qanday farqlanadi?
3. Frazemalarning lisoniy belgi-xususiyatlarini izohlang?

4. Frazemalarning semantik turlari deganda nimani tushunasiz?

5. Frazema termini tushunchasini izohlang?

Grammatika – til gap qurilishini o‘rganuvchi soha sifatida. Morfologiya va sintaksis

(10-mavzu)

1. Grammatika va uning tarkibiy qismlari.
2. Morfologiya haqida umumiy ma’lumot bering.
3. So‘z turkumlari tushunchasi.
4. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari.
5. Grammatik kategoriyalar.

Savol va topshiriqlar:

1. Grammatik sath tushunchasini izohlang.
2. Morfologiya qanday soha?
3. So‘z turkumlari tushunchasini izohlang.
4. So‘zlarni turkumlarga ajratishda qaysi tamoyillarga asoslaniladi?
5. Grammatik kategoriya deganda nimani tushunasiz?

Grammatik ma’no ifodalovchi vositalar (11-mavzu)

1. So‘zning lug‘aviy va grammatik ma’nosi.
2. Grammatik ma’noni ifodalash usullari.
3. Grammatik ma’no ifodalovchi vositalar.
4. O‘zbek tilida grammatik ma’noning ifodalanishi.

Savol va topshiriqlar:

1. So‘zning grammatik ma’nosi deganda qanday ma’no tushuniladi? Misollar bilan izohlang.
2. Grammatik shakl nima? Misollar keltiring.
3. Grammatik ma’no qanday usul va vositalar bilan ifodalanadi? Dalillar bilan izohlang.

4. O‘zbek tilida grammatik ma’no qanday vositalar bilan ifodalanadi? Ot turkumi misolida izohlang.

5. Grammatik ma’no boshqa tillarda qanday vositalar yordamida ifodalanadi. O‘zbek tili bilan qiyoslang.

6. O‘zbek tilida keng va ko‘p qollanuvchi grammatik ma’no ifodalovchi vositalarni fe‘l turkumi misolida tahlil qiling.

**Fonema nazariyasi tarixidan. Fonemalar haqida turli
fonologik maktab vakillarining fikrlari.
(12-mavzu)**

1. Fonetik-fonologik sathning o‘ziga xosliklari.
2. Fonema. Fonemaning vazifasi.
3. Fonema variantlari.
- 4 Fonema nazariyasi.
5. O‘zbek tili fonologiyasi.

Savol va lopshiriqlar:

1. Fonetik-fonologik sath tushunchasini izohlang.
2. Fonema nima? Fonema qanday til birligi?
3. Fonema va tovush terminlarini izohlang.
4. O‘zbek tili fonemalar tizimini tavsiflang.
5. Fonema variantlari deganda nimani tushunasiz?
6. O‘zbek tilida qaysi fonemalarning variantlari mavjud?
Izohlang.
7. Fonologiya qanday soha?
8. Qanday fonologik nazariyalar bor?
9. O‘zbek tili fonologiyasini kimlar o‘rgangan?

TILSHUNOSLIK TERMINLARINING LUG‘ATI

Terminning o‘zbek tilidagi nomi	Terminning rus tilidagi nomi	Terminning ingliz tilidagi nomi
adabiy til	литературный язык	literary language
affiks	аффикс	affix
agglyutinativ tillar	агглютинативные языки	agglutinative languages
akkomodatsiya	аккадаматыя	akkomodation
aksentologiya	аксентология	accentology
aksidensiya	аксиденция	aksidensiya
allofon	аллофон	allofon
allomorf	алломорф	allomorf
allomorf	алламорф	allomorf
amaliy tilshunoslik	прагматик лингвистика	applied linguistics
an’anaviy tilshunoslik	традиционная лингвистика	traditional linguistics
analitik tillar	аналитические языке	analytical consensus
aralash (gibrid) til	смешанные (гибридные) язык	mixed (hybrid) language
areal lingvistika	местная лингвистика	areal linguistics
artikulyatsiya	артикуляция	articulation
apokopa	апокопа	apokopa
assotsiatsiya	ассоциация	association
assimilyatsiya	уподобление	assimilation
bilingvizm	билингвизм	bilinguizm
binar oppozitsiya	бинарная оппозиция	binary opposition
bosh ma’no	главный смысл	main meaning

bo'g'in	слог	link
degeminatsiya	дегеминация	degemination
denotat	денотат	denotate
dialekt	диалект	dialect
diaxroniya	диахрония	diachrony
diareza	диаре́за	dieresa
dinamik urg'u	динамическое ударение	dynamic accent
fleksiya	флексия (окончание)	flection
fonologiya	фонология	phonology
fonologik oppozitsiya	фонологическая оппозиция	phonological opposition
gaplologiya	гаплогия	haplology
dissimilyatsiya	диссимляция	dissimilation
epenteza	эпентеза	epenteza
proteza	протеза	protein
kombinator	сочетание	combination
metateza	метатеза	metathesis
metafora	метафора	metaphor
mentalingvistika	менталингвистика	mental lingvistics
metonimiya	метонимия	metonimiya
fleksiya	оканчание	flection
sema	сема	seme
semantik maydon	семантическое поле	semantic field
gipergiponimik	гипергипонимика	hipergeponimic
semantik valentlik	смысловой единство	semantic valents
mavhumlik	абстрактность	abstract
grammatika	грамматика	grammar
atama	термин	term

iyeroglif	иероглиф	hieroglyph
tarixiy fonetika	историческая фонетика	hystorical phonetics
lotin tili	латинский язык	latin language
arab leksikografiyasi	арабская лексикография	arab lexicography
ismun	имя	name
xabar	весть	news
harfun	буква	letter
yordamchi so‘zlar	служебные слова	auxiliary words
fanlar tasnifi	классификация предметов	the classification of sciences
qiyosiy-tarixiy	компаративистика	comparative-historical
til formasi	форма языка	the form of language
ichki forma	внутренняя форма	the inner form
shajara daraxti	генеалогическое дерево	a genealogical tree
kompendum	компендиум	compendium
affiks	аффикс	affix
leksikografiya	лексикография	lexicography
agglutinativ tillar	агглютинативные языки	agglutinative languages
agglutinatsiya	агглютинация	agglutination
bobo til	праязык	froto language
fleksiya	сгибать	inflection
flektiv tillar	руно языки	fleece languages
fon (allafon)	фон (аллафон)	background (allafone)
fonema	фонема	phoneme
fonetika	фонетика	phonetics
fraza	фраза	phraze

fuziya	фузия	fusion
infiks	инфикс	infix
infinitiv	инфинитив	infinitive
kommunikatsiya	связь	communication
leksema	символы	lexeme
lingvistika	лингвистика	linguistics
morfema	морфема	morpheme
nutqiy faoliyat	речевая деятельность	speech activity
qiyosiy-tarixiy tilshunoslik	сравнительно- историческая лингвистика	comparative- historical linguistics
sintagma	синтагма	synthesis
sintaksis	синтаксис	syntax
sintaktik aloqa	синтаксическая связь	syntactical connection
sintaktik birlik	синтаксическая единица	syntactic unit
soʻz	слово	the word
soʻz birikmasi	агрегация слов	word aggregation
tillar guruhi	группа языков	languages group
tillar oilasi	семья языков	family of languages
tillar tarmogʻi	языковая сеть	language network
tilshunoslik	лингвистика	linguistics
xususiy tilshunoslik	частная лингвистика	private linguistics
umumiy tilshunoslik	общая лингвистика	general linguistics
til strukturasi	языковая структура	language structure
tilning ichki	внутренняя	internal structure

tuzilishi	структура языка	of the language
til sistemasi	языковая система	language system
til va tarix	язык и история	language and history
til va jamiyat	язык и общество	language and society
til va tafakkur	язык и мышление	language and thinking
til va nutq	язык и речь	language and speech
til tipologiyasi	типология языка	typology language
universallik	универсальность	universality
tillarning tasnifi	классификация языков	classification of languages
tilni tadqiq qilish metodlari	методы исследования языка	language research methods
etnolingvistika	этнолингвистика	ethnolinguistics
generativ tilshunoslik	генеративная лингвистика	generative linguistics
psixolingvistika	психолингвистика	psycholinguistics
sotsiolingvistika	социолингвистика	sociology
antropolingvistika	антропологистика	anthropology
matematik tilshunoslik	математическая лингвистика	mathematical linguistics
muhandislik tilshunosligi	инженерная лингвистика	engineering linguistics
grammatik jins	грамматический род	grammatical gender
ichki fleksiya	внутренняя отделка	interior decoration
urgʻu	акцент	accent

ohang	тон	tone
polisemiya	полисемия	polysemy
onomatopediya	ономатопедия	onomatopolia
falsafiy davr	философский период	philosophical period
analogiya	аналогия	analogy
anomaliya	аномалия	anomaly
so‘z va narsa	слово и вещь	word and thing
artikel	артикуль	article
fiziologik uslub	физиологический метод	physiological method
akustik	акустический	acoustic
grammatik sistema	грамматическая система	grammar system
fiziologik uslub	физиологический метод	physiological method
akustik uslub	акустический стиль	acoustic style
grammatika san’ati	искусство грамматики	grammar
ablativ	аблятив	ablative
realizm	реализм	realism
katolik epikopi	католическая эпископия	catholic episcopate
nominalizm ta’limoti	учение номинализма	teaching of nominalism
radikal nominalistlar	радикальные номиналисты	radical nominalists
konsentualistlar	концептуалисты	conceptualists
grammatik sistema	грамматическая система	grammar system
anomalist	аномалия	anomaly
analogist	аналогист	analogist
etimologiya	этимологически	etymologically

sakkizinchi soʻz turkumi	восьмая часть речи	phrase eighth
undov	восклицание	exclamation
kelishik sistemasi	система определения	definition system
onoma	оном	onom
nomen	номен	nomen
rema	рема	rema
nomen	номен	nomen
adjektivum	adjektivum	adjektivum
epirryoma	epirryoma	epirryoma
adverbium	adverbium	adverbium
artikl	переставляя	rearranging
predlog	предлог	preposition
bogʻlovchi	союз	conjunction
unlilar	гласные	vowel
grammatik nazariya	грамматическая теория	grammatical theory
fonetik	фонетический	phonetic
morfologik	морфологический	morphological
leksik	лексический	lexical
affiksatsiya	аффиксация	affixation
fiziologik	физиологический	physiologically
ichki fleksiya	внутренняя флексия	interior decoration
original nazariya	оригинальная теория	original theory
tovushlarning chegaralanish sabablari	причины ограничения звуков	causes of sounds
tilning ichki tuzilishi	внутренняя структура языка	internal structure of the language
tovushning	волновое действие	wave action of

to'liqinsimon harakati	звука	sound
artikulyasiya	артикуляция	articulation
paradigma	парадигма	paradigm
nol ko'rsatkich	нулевая индикация	zero indication
ekvivalent	эквивалент	equivalent
chig'atoy	чигатай	chigatay
sarfi	потребление	consumption
nahvi	склонение	declension
sun'iy xalqaro tillar	искусственные международные языки	artificial international languages
mantiqiy universal grammatikalar	логическая универсальная грамматика	logical universal grammar
filologiya	филология	philology
semasiologiya	семиасиология	semasiology
formal logika	формальная логика	formal logic
formal mantiq	формальная логика	formal logics
ratsional grammatika	рациональная грамматика	rational grammar
falsafiy grammatika	философская грамматика	philosophical grammar
to'g'ri sintagma	прямой синтез	direct synthesis
sanskrit	санскрит	sanskrit
fleksiya	сгибать	flexion
til elementlari	языковые элементы	language elements
tipologik tasnif	типологическая классификация	typological classification
agglyutinatsiya	агглютинация	agglutination
biologik naturalizm	биологический натурализм	biological naturalism

logik grammatika	логическая грамматика	logical grammar
tilning mohiyati	сущность языка	language essence
psixologizm	психологизм	psychologism
sintetik qurilish	синтетическая структура	synthetic structure
flektiv tillar	флексивные языки	oscillating tongues
biriktiruvchi tillar	соединительные языки	connecting languages
qiyosiy-tarixiy fonetika	сравнительно-историческая фонетика	comparative historical phonetics
urgʻu va choʻziqlik	акцент и растяжение	accent and stretch
qiyosiy fonetika	сравнительная фонетика	comparative phonetics
qiyosiy morfologiya	сравнительная морфология	comparative morphology
tovush qonunlari	звуковые законы	sound laws
ruhiy xususiyat	психологическая особенность	psychological feature
nutqiy tafakkur	речевое мышление	speech thinking
fonema	фонема	phoneme
morfema	морфема	morpheme
morfologizatsiya	morfologizatsiya	morfologization
semasiologizatsiya	semasiologizatsiya	semasiologization
sintagma	синтагма	syntagma
leksema	символы	characters
grafema	графем	grapheme
sinxroniya	синхрония	for synchronization

diaxroniya	diaxroniya	diachrony
arxaik metod	архаичный метод	archaic method
fonetika va fonologiya	фонетика и фонология	phonetics and phonology
eksperimental-fonetika laboratoriyasi	экспериментально-фонетическая лаборатория	experimental phonetic laboratory
urgʻusiz unlilar	безударные гласные	unstressed vowel
belgi tizimi	система символов	character system
tashqi va ichki tilshunoslik	внешняя и внутренняя лингвистика	external and internal linguistics
nutqiy akt	речевой акт	speech act
akustik	акустический	acoustic
strukturalizm	структурализм	structuralism
struktural lingvistika	структурная лингвистика	structural linguistics
semiotik tizim	семиотическая система	semiotic system
belgilar tizimi	система символов	character system
semiotika	семиотика	semiotics
paradigmatik va sintagmatik munosabatlar	парадигматические и синтаксические отношения	paradigmatic and syntactic relations
til va nutq	язык и речь	language and speech
til bilan tafakkur	язык и мышление	language of thought
nutq xususiyati	речевая особенность	speech feature
til xususiyati	особенность языка	language feature
fonema	фонема	phoneme

morfema	морфеме	morpheme
leksema	символы	characters
model	модель	model
tovush	звук	sound
fon (harf)	фон (письмо)	background
bo‘g‘in	слог	link
affiks	affiks	affix
morf	морф	morph
so‘z forma	форма слова	word form
so‘z birikmasi	сочетание слов	word combination
gap	предложения	sentekse
mikrotekst	mikrotekst	mikrotext
makrotekst	makrotekst	makrotext
ochiq tizim	открытая система	open system
murakkab sintaktik qurilma	сложное синтаксическое целое	complex syntax device
abzats	абзац	paragraph
metod	метод	method
metodologiya	методология	methodology
logos	науке	logos

“TILSHUNOSLIK NAZARIYASI” FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. "Tilshunoslikka nazariyasi" fani nimalarni o'rganadi?

a) til haqidagi dastlabki ma'lumotlarni, tilshunoslikning tarkibiy qismlarini, ilmiy terminlarni, tilning paydo bo'lishi kabi muammolarni

b) morfologiya va sintaksisga tegishli muammolarni

v) tilshunoslikda qo'llanadigan lisoniy tahlil usullarini

g) tillarning geneologik tasnifini

2. Mikro va makrolingvistikalarda nimalar o'rganiladi?

a) mikrolingvistika tilning ichki tuzilishini, makrolingvistika tilning umumiy muammolarini

b) mikrolingvistika tilning fonetik tuzilishini, makrolingvistika tilning grammatik qurilishini

v) mikrolingvistika tilning ichki sistemasini, makrolingvistika nutqning qonun-qoidalarini

g) mikrolingvistika fonema, morfema singari tilning kichik birliklarini, makrolingvistika matn tahlilini

3. Imo-ishora nazariyasining asoschisi kim?

a) Vundt

b) Demokrit, Platon

v) Marr

g) Platon

4. Tovushga taqlid nazariyasining asoschisi kim?

a) Demokrit, Platon

b) Vundt

v) Marr

g) Platon

5. Tovushga taqlid nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

a) kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovozigga taqlid qilishi

b) kishilarning ichki tuyg‘ulari, qahr-g‘azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari

v) odamlar o‘zaro kelishib olishi

g) mehnatning rivojlanishi, zaruriyati

6. Imo-ishora nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

a) insonlar bir-biri bilan imo-ishora orqali aloqa qilishi

b) mehnatning rivojlanishi, zaruriyati

v) odamlar o‘zaro kelishib olishi

g) kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovozigga taqlid qilishi

7. Mehnat chaqiriqlari nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

a) mehnatning rivojlanishi, zaruriyati

b) odamlar o‘zaro kelishib olishi

v) kishilarning ichki tuyg‘ulari, qahr-g‘azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari

g) insonlar bir-biri bilan imo-ishora orqali aloqa qilishgan

8. Ijtimoiy kelishuv nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

a) odamlar o‘zaro kelishib olishi

b) mehnatning rivojlanishi, zaruriyati

v) kishilarning o‘z atrofidagi predmetlarning chiqargan ovozigga taqlid qilishi

g) kishilarning ichki tuyg‘ulari, qahr-g‘azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari

9. Undov nazariyasining mohiyati nimada?

- a) kishilarning ichki tuygʻulari, qahr-gʻazablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari
- b) insonlar bir-biri bilan imo-ishora orqali aloqa qilishgan
- v) mehnatning rivojlanishi, zaruriyati
- g) kishilarning oʻz atrofidagi predmetlarning chiqargan ovozigacha taqlid qilishi

10. Til bu....

a) nutq tuzib fikr, his-tuygʻu, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar sistemasi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli boʻlib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

b) soʻzlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

v) ruhiy-aqliy jarayon, fikrlash, oʻylash.

g) tabiiy tillarning matematik modeli.

11. Nutq bu.....

a) soʻzlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

b) nutq tuzib fikr, his-tuygʻu, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar sistemasi; kishilar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli boʻlib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

v) ruhiy-aqliy jarayon, fikrlash, oʻylash

g) tabiiy tillarning matematik modeli.

12. Tilning ijtimoiy mohiyati haqidagi fikr keltirilgan qatorni toping.

a) til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati natijasida yuzaga keladigan hodisa.

b) soʻzlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

v) nutq tuzib fikr, his-tuygʻu, istak kabilarni ifodalashda xizmat qiladigan fonetik, leksik va grammatik vositalar sistemasi; kishiar orasida asosiy va eng muhim aloqa-aralashuv, fikrlashuv quroli boʻlib xizmat qiladigan ijtimoiy hodisa.

g) nutq jarayonida yuzaga kelgan, jamiyatda, odamlar orasida mavjud boʻladigan ijtimoiy quroldir.

13. Til sistemasi

a) belgilar yigʻindisidan tashkil topadi

b) fonemalar va morfemalar muammosini taqozo etadi

v) soʻz va qoʻshma soʻzlar munosabatidan tashkil topadi

g) soʻz birikmasi va gap munosabatini taqozo etadi

14. Tilning qanday birliklari belgi sanaladi?

a) fonema va morfema

b) soʻz va qoʻshma soʻz

v) soʻz va gap

g) morfema va soʻz

15. Tilning paydo boʻlishida eng asosiy mavqyega ega boʻlgan faktorlar

a) tafakkur, mehnat, jamiyat

b) undov soʻzlari

v) ijtimoiy kelishuv

g) taqlid soʻzlari

16. Tilning paydo boʻlishini kimlar ijtimoiy kelishuv farazi bilan bogʻlaydi?

a) V.Gumboldt, A.Poyebnya

b) A. Potebnya, Ch. Darwin

v) J.J. Russo, Adam Smit

g) V. Gumboldt, J.J.Russo

17. Imo-ishoralar inson tilining paydo bo'lishida

- a) yordamchi mavqyega ega
- b) muhim ahamiyatga ega
- v) qisman ahamiyatga ega
- g) ahamiyati yo'q

18. Til voqyelikni ham o'zgartira oluvchi inson ruhiyatining mahsuli ekanligi xususidagi xato fikr kimlarga tegishli?

- a) V.Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf
- b) Bxartxari, Amara, Platon
- v) V.Lomonosov, A.Peshkovskiy, Panini
- g) M.Koshg'ariy, M.Zamaxshariy

19. Qadimgi Hindistonda tilshunoslikning vujudga kelishi

- a) Veda dini bilan bog'liq
- b) buddizm bilan bog'liq
- v) Panini va uning grammatikasi bilan bog'liq
- g) Varrachuti Katyaina va Bxartxari asarlari bilan aloqador

20.Sanskrit qanday til?

- a) qadimgi hind adabiy tili
- b) qadimgi arab adabiy tili
- v) qadimgi irland adabiy tili
- g) qadimgi fors adabiy tili

21.Analogiya nima?

- a) o'xshashlik
- b) yakkalik
- v) noo'xshashlik
- g) farqlilik

22. Anomaliya nima?

- a) noo‘xshashlik
- b) o‘xshashlik
- v) farqlilik
- g) xususiylik

23. Feruzobodiyning 60 jildlik lug‘ati qanday nomlanadi?

- a) “Qomus”
- b) “Kitobul avomil”
- v “To‘lqinlar toshqini”
- g) “Kitobul ayn”

24. “Turkiy so‘zlar devoni” asarining muallifi kim?

- a) Maxmud Qoshg‘ariy
- b) Abu Ali ibn Sino
- v) Abu Rayxon Beruniy
- g) Zamahshariy

25. Birinchi marta turkiy til va dialektlar tasnifi berilgan asar va uning muallifi keltirilgan qatorni toping.

- a) Maxmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”
- b) Abu Ali ibn Sino “Kitob lisonul arab”
- v) Abu Rayxon Beruniy “Saydana”
- g) Zamahshariy “Al-mufasssal fi san’at im-i’rob”

26. Maxmud Qoshg‘ariy so‘z turkumlarini necha turga bo‘ladi va ular qaysilar?

- a) uch: ot, fe’l, yordamchi so‘zlar
- b) ikki: ot, fe’l
- v) ikki: ism va yordamchi
- g) uch: ism, ko‘makchi va yordamchi

27. Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asari qaysi?

- a) “Muhokamat ul-lug‘atayn”
- b) “Lisonut tayr”
- v) “Nasoyim ul-muhabbat”
- g) “Xamsa”

28. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida A. Navoiy qaysi tilni ulug‘lagan?

- a) turkiy tili
- b) arab tili
- v) tojik til
- g) fors tili

29. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida nechta fe‘l izohlangan?

- a) yuzta
- b) beshta
- v) ikki yuzta
- g) yetmishta

30. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari necha qismdan iborat?

- a) ikki
- b) uch
- v) besh
- g) olti

31. Nutqning eng kichik birligi qaysi?

- a) tovush (fonema)
- b) fraza
- v) so‘z
- g) takt

32.Fonema nima?

- a) tilning eng kichik moddiy birligi tovush
- b) ma'no
- v) so'z shakllantiruvchi
- g) fikr ifodalovchi birlik

33.Nutq tovushlari talaffuz qilinayotganda qaysi nutq organlari ishtirok etishini nima o'rgatadi?

- a) fiziologiya
- b) fonetika
- v) akustika
- g) grammatika

34.Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra qanday guruhga bo'linadi?

- a) unli va undosh
- b) portlovchi va sirg'aluvchi
- v) shovqinli va sirg'aluvchi
- g) jarangli va jarangsiz

35.Suprasegment elementlariga nimalar kiradi?

- a) bo'g'in, urg'u, ohang
- b) so'z, bo'g'in, fraza
- v) ohang, takt, so'z
- g) tushuncha, urgu, tovush

36.Semema nima?

- a) ma'no
- b) tovush
- v) shakl
- g) ohang

37.Sema nima?

- a) ma'noning tarkibiy qismi, ma'noviy bo'lak
- b) semema
- v) denotat
- g) signifikat

38.So'zning leksik-semantik strukturasiga ko'ra turlari qaysi qatorda berilgan?

- a) sinonim, omonim, antonim
- b) frazeologizmlar, sinonimlar
- v) idiomatizmlar, omonimlar
- g) evfemizmlar, kokoferizmlar

39.Grammatik kategoriyalarning asosiy turlari qaysi qatorda berilgan?

- a) sintetik, analitik
- b) ko'plik, son
- v) kelishik, egalik
- g) yordamchi so'zlar, ko'makchilar

40.Morfema nima?

- a) til birligi, tilning boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik qismi
- b) tilning moddiy tomoni
- v) tilning lug'at tarkibiga xos birligi
- g) so'z ma'nosi

41.Sintaktik munosabatning qanday turlari bor?

- a) sintagmatik, paradigmatic
- b) muvofiqlashuv
- v) teng munosabat
- g) subordinativ munosabat

42.Paradigmatik munosabat qanday munosabat?

a) bir paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o‘zaro munosabati

b) til birliklarining pog‘onaviy (iyerarxik) munosabati

v) til birliklarining muayyan izchillikga kelishi

g) so‘z tarkibiy qismlarining o‘zaro aloqasi

43.Sintagmatik munosabat qanday munosabat?

a) til birliklarining ketma-ket (yonma-yon) joylashishi

b) otlarning turlanishi

v) til birliklarining vertikal joylashishi

g) fe’llarning tuslanishi

44.Sintaktik aloqa turlari qaysi javobda berilgan?

a) moslashuv, boshqaruv, bitishuv, muvofiqlashuv

b) muvofiqlashuv aloqa

v) atributiv aloqa

g) relyativ aloqa

45.Iyearxik munosabat nima?

a) nutq birliklarining o‘zaro tobelik munosabati

b) til birliklarining murakkablashish (pog‘onaviy) munosabati

v) bir paradigmaga birlashuvchi til birligining o‘zaro munosabati

g) til birliklarining yonma-yon joylashish munosabati

46.Gap aktual bo‘linishning tarkibiy qismlari qaysi javobda berilgan?

a) tema, rema

b) aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol

v) ega, kesim

g) hol, kesim

47. Sintaktik munosabatning ergashish usuliga ko‘ra tasnifi qanday?

- a) moslashuv, bitishuv, boshqaruv
- b) tobe va teng
- v) sintaktik tasnif
- g) semantik, leksik va fonetik

48. Tillarning kelib chiqishiga ko‘ra tasnifi qanday ataladi?

- a) geneologik
- b) sintaktik
- v) semantik
- g) tipologik

49. Morfologik tipologiya asosida tillar tasnifi qaysi javobda berilgan?

- a) amorf, flektiv, agglyutinatив, polisintetik
- b) eroniy tillar
- v) hind tillari
- g) flektiv tillar

50. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslarning fikricha qaysi til bobotil hisoblanadi?

- a) sanskrit tili
- b) qadimiy yahudiy tili
- v) qadimiy fors tili
- g) qadimiy slavyan tili

51. F. Bopp tilning qaysi jihati haqida nazariya yaratdi?

- a) agglyutinasiya
- b) fleksiya
- v) tilning ichki shakli haqida
- g) tilning tovushi haqida

52.Umumiy nazariy tilshunoslik asoslari kim tomonidan yaratildi?

- a) V.F.Gumboldt
- b) M.Myuller
- v) Ya.Grimm
- g) A.A.Potebnya

53.Tilning sistem xarakterga ega ekanligi haqida dastavval kim e'tibor berdi?

- a) V.F.Gumboldt
- b) F.De Sossyur
- v) A.Pott
- g) G.Kursius

54.Naturalizm oqimining mashhur vakillari kimlar?

- a) A.Shleyxer, M.Myuller
- b) G.Kursius, Ya.Grimm
- v) G.Shteyntal, A.Pott
- g) A.Potebnya, Korsh

55.Naturalizm oqimi vakillari tilga qanday hodisa sifatida qaradilar?

- a) biologik
- b) moddiy
- v) ijtimoiy
- g) ruhiy

56.Yosh grammatikachilarning nazariy qarashlari qanday konsepsiyaga asoslangan?

- a) tarixiylik
- b) qiyosiylik
- v) atomizm
- g) individuallik

57.F.do‘ Sossyurning mashhur asari qanday nomlanadi?

a) “Umumiy tilshunoslik kursi”

b) “Kratil”.

v) “To‘lqinlar toshqini”

g) “Ritorika”

58.F. do‘ Sossyur tilda nechta aspektni farqladi?

a) ikkita

b) beshta

v) yettita

g) sakkizta

59.F. do‘ Sossyurning fikricha til nutqdan qancha belgisiga ko‘ra farqlanadi?

a) beshta

b) uchta

v) yettita

g) sakkizta

60.Til va nutq masalasida qaysi olim mukammal fikr yuritgan?

a) F. do‘ Sossyur

b) G.Shteyntal

v) A.Meshe

g) M.V.Lomonosov

61. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida mustaqil so‘zlar necha turkumga bo‘linadi?

a) ikki: ism va fe‘l

b) uch: ism, fe‘l, yordamchi so‘zlar

v) to‘rt: ism, fe‘l, ravish, sifat

g) besh: ism, fe‘l, sifat, son, ravish

62. Alisher Navoiyning qaysi asarida turkiy til imkoniyatlari keng yoritiladi?

- a) “Muhokomat-ul lug‘atayn”
- b) “Mezonul avzon”
- v) “Majolisun nafois”
- g) “Lison-ut tayr”

63. Fonetikaning asosiy predmetini

a) tovushlarning akustik va artikulyasion xarakteristikolari tashkil etadi

b) tovushlarning akustik xarakteristikasi tashkil etadi

v) tovushlarning fonema tarzida asoslanishi tashkil etadi

g) tovushlarning artikulyasiyasi o‘rni va usuliga ko‘ra xarakteristikasi tashkil etadi

64. Qadimgi Hindistonda tilshunoslikning vujudga kelishi

a) Veda dini bilan bog‘liq

b) Buddizm bilan bog‘liq

v) Panini va uning grammatikasi bilan bog‘liq

g) Varraruchi Katyaina va Bxartxari asarlari bilan bog‘liq

65. Allofon deganda nimani tushunasiz ?

a) fonemaning nutqiy qo‘llanishdagi variantini

b) sifat o‘zgarishlar hosil qiluvchi tovushni

v) tovushning nutqda qo‘llanilishini

g) ikki tovush ifodasini

66. Unlilar tasnifida nimalar e’tiborga olinadi?

a) tilning gorizontal va vertikal holatlari

b) artikulyasiya o‘rni va usuli

v) tilning holati va lablarning ishtiroki

g) ovoz va shovqinning ishtiroki

67. Unlilar tarkibiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- a) monoftong, diftong va triftonglarga
 - b) monoftong va diftonglarga
 - v) diftong va triftonglarga
 - g) monoftong va triftonglarga
68. O‘zbek tilidagi undoshlar hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
- a) lab, til va bo‘g‘iz undoshlariga
 - b) bo‘g‘iz va til undoshlariga
 - v) til oldi, til orqa, til o‘rta va chuqur til orqa undoshlariga
 - g) lab va bo‘g‘iz undoshlariga
69. Sonor tovushlar qanday belgiga ega bo‘ladi ?
- a) shovqin juda kam sezilib, ovoz miqdori ko‘p bo‘ladi
 - b) faqat ovozdan iborat
 - v) ovoz va shovqin miqdori teng bo‘ladi
 - g) ovozdan shovqin miqdori ko‘p bo‘ladi
70. Supersegment unsurlar nima?
- a) ifoda materiali bo‘lmagan fonetik unsurlar
 - b) ifoda materiali mavjud unsurlar
 - v) bo‘g‘in va intonasiya
 - g) urg‘u va bo‘g‘in
71. Qanday hodisalarning progressiv turlari mavjud ?
- a) assimilyasiya va akkomodasiya
 - b) dissimilyasiya va metateza
 - v) gaplologiya va diereza
 - g) epenteza va metateza
72. Morfemaning qanday asosiy turlari mavjud?
- a) o‘zak morfema va affiks morfema

- b) soʻz shaklidagi va affiks shaklidagi
- v) grammatik va leksik maʼno beruvchi
- g) allomorf va grammatik morfema

73. Suppletivizm hodisasi nima?

- a) soʻz grammatik formalarining turli xil oʻzak va negizlardan yasalishi
- b) maʼlum bir soʻzning grammatik formalari oʻrtasidagi yaqinlik
- v) grammatik maʼno ifodalashda bir xil soʻz formalaridan foydalanish
- g) affikslarning leksik maʼnoga taʼsiri

74. Analitik shakl sintetik shakldan qanday farqlanadi?

- a) analitik shakl affikslar orqali ifodalanadi, sintetik shakl esa yordamchi soʻzlar bilan
- b) analitik shakl yordamchi feʼllar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi.
- v) analitik shakl koʻmakchi va bogʻlovchi bilan, sintetik shakl esa yordamchi feʼl bilan ifodalanadi
- g) analitik shakl koʻmakchi, bogʻlovchi, predlog, koʻmakchi feʼllar bilan, sintetik shakl esa affikslar bilan ifodalanadi

75. Grammatik rod tarixan oʻzgaruvchanmi?

- a) tarixan oʻzgaruvchan emas
- b) rod maʼosi tarixan oʻzgaruvchandir
- v) mujskoy va jenskiy rodlar tarixan oʻzgaruvchan, oraliq rod oʻzgarmaydi
- g) oraliq rod oʻzgaruvchan, mujskoy va jenskiy rodlar oʻzgarmaydi

76. Son kategoriyasi ingliz tilida

- a) ot va olmoshlarga taalluqli
- b) faqat otga taalluqli
- v) faqat sifatga taalluqli
- g) sifat va fe'llarga taalluqli

77. Kelishiklar sonining 20 dan ortiq bo'lishi qaysi tilga xos?

- a) eston tiliga
- b) rus tiliga
- v) ingliz tiliga
- g) venger tiliga

78. So'zlarning turkumlarga bo'linishida nimalar e'tiborga olinadi?

- a) leksik-grammatik ma'no, morfologik belgi, sintaktik vazifa, distributiv xususiyat
- b) leksik-grammatik ma'nolar va morfem tuzilish
- v) distributiv xususiyat, morfologik belgi va sintaktik vazifa
- g) leksik-grammatik ma'no, sintaktik vazifa

79. Leksikologiyaning qanday bo'limlari mavjud?

- a) semasiologiya, etimologiya, frazeologiya, leksikografiya, onomastika, onomasiologiya
- b) etimologiya, onomastika, onomasiologiya
- v) semasiologiya, etimologiya va leksikografiya
- g) frazeologiya, etimologiya, leksikografiya

80. Denotat deganda nimani tushunasiz?

- a) so'z anglatayotgan hodisa yoki predmetni
- b) so'zning ma'nosini
- v) so'z anglatayotgan tushunchani
- g) so'zning shakliy tuzilishini

81. Avstraliyada «Soʻz va Narsa» nomi bilan atalgan maktabni kim asoslagan

- a) Rudolf Mirenger
- b) Andre Martine
- v) Sh.Balli
- g) F.deSossyur

82. «Tabu» atamasi nimani anglatadi ?

- a) aytilgan soʻzlarni
- b) bir tushunchaning ikkinchi tushuncha bilan almashtirilishini
- v) marosimlarda qoʻllanadigan soʻzlarni
- g) sinonimik maʼnoli soʻzlarni

83. Metonimiya hodisasi nimani taqozo etadi?

- a) predmet maʼnosining vasifasiga koʻra koʻchishini
- b) predmetlarning tashqi belgilariga asoslangan maʼno koʻchishini
- v) ikki predmetning doimiy ravishda birgalikda qoʻllanishiga asoslangan maʼno koʻchishini
- g) maʼnoning butun va qismga asoslanib koʻchishini

84. Sinekdoxa hodisasida soʻz maʼnosining koʻchishi nimaga asoslanadi?

- a) butun va qism tushunchalariga
- b) predmetlar bajaradigan vazifalarning mushtarakligiga
- v) predmetlarning mudom yonma-yon qoʻllanishiga
- g) predmetlar oʻrtasidagi tashqi bergilarning oʻxshashligiga

85. Kichik sintaksisning tekshiruv obyekti qaysi javobda toʻgʻri berilgan ?

- a) yasama soʻzlar, turgʻun soʻz birikmalarida morfemalararo mikrosintagmatik munosabatlar

- b) erkin soʻz birikmalari
- v) turgʻun gap birikmalari
- g) gap va uning turlari

86. Predikativlik xodisasining ifoda obyektlari qaysi javobda toʻgʻri berilgan ?

- a) sintagma, erkin soʻz birikmalari va gap
- b) gap va uning turlari
- v) soʻz birikmasi va qoʻshma soʻzlar
- g) soʻz, soʻz birikmasi va gap

87. Presuppozisiya nimani anglatadi?

- a) maʼlum sintatik struktura ifodalayotgan real maʼnodan tashqari uning ichki strukturasida anglashiladigan maʼnoni
- b) predikat va argumentlar munosabatini
- v) predikat va aktantlar munosabatini
- g) predikat ishtirokida shakllangan semantik strukturani

88. L.Tenyerning sintaktik valentlik nazariyasi qanday atamalar orqali izohlanadi?

- a) aktant, sironstant, harakat
- b) predikat, aktant, harakat
- v) sironstant, harakat, predikat
- g) harakat, aktant va uning turlari

89. Gapning aktual boʻlaklari nazariyasini kim ilmiy asoslagan?

- a) V.Matezius
- b) Sh.Balli
- v) N.Trubeskoy
- g) L.Blumfild

90. Monemaning qanday turlari mavjud?

- a) funksional, superfunksional, avtonom, qaram va yarim funksional

- b) qaram, avtonom, superfunksional
- v) funksional, yarim funksional, qaram
- g) avtonom, qaram, funksional

91. Piktografik yozuv

- a) ideogrammalarga asoslanadi
- b) logogrammalarga asoslanadi
- v) iyerogliflarga asoslanadi
- g) piktogrammalarga asoslanadi

92. Yozuvning qaysi turi yunoncha «muqaddas yozuv» degan ma'noni anglatadi?

- a) iyeroglifik b) ideografik v) logografik g) piktografik

93. O'rta Osiyo xalqlari eramizdan avvalgi IV-VI asrlarda yozuvning qaysi turidan foydalanishgan?

- a) Mix yozuvidan
- b) Oromiy yozuvidan
- v) Urxun-Enasoy yozuvidan
- g) uyg'ur yozuvidan

94. Bilishning yuqori bosqichi –

- a) tafakkur
- b) idrok
- v) xissiy bilish
- g) tasavvur

95. Tafakkur formalari

- a) mantiqda o'rganiladi
- b) tilshunoslikda o'rganiladi
- v) falsafada o'rganiladi
- g) mantiq va tilshunoslikda o'rganiladi

96. «Kishi miyasining til bilan bog‘liq bo‘lgan butun faoliyatini tafakkur deb bilish lozim». Ushbu so‘zlar kimning qalamiga mansub?

- a) B.Ardentov
- b) L.Tenyer
- v) Aristotel
- g) V.Vinogradov

97. «Til va nutq» dixotomiyasi kim tomonidan ilmiy asoslangan?

- a) F. de Sossyur
- b) A.Potebnya
- v) V.Gumboldt
- g) B.de Kurtene

98. Tilning har bir belgisi qanday jihatlarga ega bo‘lishi shart?

- a) ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlariga
- b) ohang va tovush sistemasiga
- v) tildagi va nutqdagi o‘rinlariga
- g) paradigmatic va sintagmatic sifatlariga

99. Til...

- a) shaxsda yashaydi
- b) o‘z sistemasi doirasida yashaydi
- v) jamiyatda yashaydi
- g) nutqda yashaydi

100. Qaysi javob to‘g‘ri?

- a) til bilan nutq qarama-qarshi va shu bilan birga uzviy bog‘liq hodisalardir
- b) til bilan nutq qarama-qarshi hodisalardir
- v) til bilan nutq uzviy bog‘liq hodisalardir
- g) til bilan nutq mushtarak hodisalardir

101. Tilning paydo bo'lishi muammosini
a) tilshunoslar, tarixchilar, faylasuflar, zoopsixologlar, biologlar, etnografiya mutaxassislari o'rganadilar
b) faylasuflar va tilshunoslar o'rganadi
v) faqat tilshunoslar o'rganadi
g) psixologlar, tilshunoslar, matematiklar, antropologlar va fiziklar o'rganadilar

102. Xalqlarda imo-ishoralardan foydalanishning bir soatlik darajasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
a) meksikaliklar 180, fransuzlar 120, italiyaliklar 80, finlar 1
b) meksikaliklar 200, fransuzlar 180, italiyaliklar 140, finlandiyaliklar 20 marta
v) meksikaliklar 120, fransuzlar 80, italiyaliklar 40, finlar 6
g) meksikaliklar 160, fransuzlar 140, italiyaliklar 120, finlandiyaliklar 10 marta

103. Dastlab ikki til imo-ishoralar tili va nutq tovushlari tili bo'lganligi kim tomonidan aytilgan?
a) V.Vundt
b) L.Nuare
v) A.Potebnya
g) Aristotel

104. Qadimgi Hindistonda tilshunoslik bobida erishilgan yutuqlarga Ovro'pada XIX asrdagina erishilganligini kim ta'kidlagan?
a) V.Tomsen
b) L.Blumfild
v) V.Matezius
g) F.do' Sossyur

105. Qadimgi Hindistonda Amara tomonidan qanday lugʻat tuzilgan?

- a) sanskritning qisqacha izohli lugʻati
- b) diniy adabiyotlardagi qiyin soʻzlarning izohli lugʻati
- v) omonimlar lugʻati
- g) Panini asarlarida berilgan soʻzlarning qisqacha izohli lugʻati

106. «Kratil» asarini kim yozgan?

- a) Platon
- b) Demokrit
- v) Geraklit
- g) A.Diskol

107. Iskandariya tilshunoslik maktabi vakillari yunon adabiy tili taraqqiyoti fonetik jihatdan necha unli va necha undoshga bogʻliq ekanligini asoslab berganlar?

- a) 7 unli, 17 undosh
- b) 7 unli, 21 undosh
- v) 5 unli, 25 undosh
- g) 6 unli, 25 undosh

108. Fonetik akustikada nimalar oʻrganiladi?

- a) nutq tovushlarining eshitilishi pastligi, balandligi kuchi, qisqa yoki choʻziqligi, tembri
- b) nutq tovushlarining hosil boʻlish usuli
- v) nutq tovushlarining jarangli va jarangsiz aytilishi
- g) nutq tovushlarining hosil boʻlish oʻrni

109. Tovushning choʻziqligi darajasi qanday oʻlchanadi?

- a) aytilishiga qarab
- b) tebranish davom etgan vaqtga qarab
- v) eshitilishiga qarab
- g) ovozning choʻziqligiga qarab

110. Fonologiyanning vasifasi nimadan iborat?

- a) fonemalarning funksional qiymatini o'rganishdan
- b) fonemalar variantlarini o'rganishdan
- v) fonemalarning eshitilishini o'rganishdan
- g) fonemalarning talaffuzini o'rganishdan

111. «Vokalizm» termini nimani taqozo etadi?

- a) unlilar majmuasini
- b) undoshlar majmuasini
- v) sonor tovushlarni
- g) jarangli tovushlarni

112. Segmentasiya nima?

- a) nutqni katta va kichik bo'laklarga bo'lish
- b) nutqning takt va so'zlarga bo'linishi
- v) so'zning bo'g'inlarga bo'linishi
- g) nutqning jumla va taktlarga bo'linishi

113. Urg'u sifat jihatdan qanday turlarga bo'linadi?

- a) dinamik, musiqaviy va miqdor urg'ulariga
- b) leksik va dinamik urg'ularga
- v) so'z va ma'no urg'ulariga
- g) tonik, emfatik urg'ularga

114. Takt nima?

- a) jumlaning ikki qisqa pauzasi oralig'idagi ohang butunligi
- b) nutqning ikki katta pauzasi oralig'idagi ohang butunligi
- v) jumlaning ma'noli parchalari
- g) jumla parchalarining mustaqil urg'u olishi

115. Assimilyasiya hodisasida

- a) tovushlar biri ikkinchisiga ta'sir etib, tovush o'zgarishi

ro'y beradi

b) so'zdagi o'xshash tovushlar noo'xshash tovushlarga aylanadi

v) so'zdan biror tovush tushib qoladi

g) so'z tarkibidagi tovushlar o'rinlari almashadi

116. Gaplogiya hodisasida

a) so'z bo'g'inlarining birining talaffuzida tushib qolishi ro'y beradi

b) so'zda tovushlar soni orttiriladi

v) tovushlar o'ri almashadi

g) noo'xshash tovushlar o'xshash tovushlarga aylanadi

117. Ingliz tilida

a) tovushlar soni harflar sonidan ikki marta ko'p

b) tovushlar va harflar soni teng

v) tovushlar soni harflar sonidan deyarli 3 marta kam

g) tovushlar soni harflar sonidan ikki marta kam

118. O'zak morfemaning qanday turlari mavjud?

a) so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi

b) grammatik shakl yasovchi va grammatik ma'no yasovchi

v) leksik ma'no anglatuvchi va grammatik ma'no anglatuvchi

g) leksik ma'no o'zgartiruvchi va grammatik ma'no o'zgartiruvchi

119. So'z yasovchi affiks morfema leksik ma'noga

a) ta'sir etib, uni to'liq o'zgartiradi

b) ta'sir etmaydi

v) ta'sir etishi va etmasligi ham mumkin

g) qisman ta'sir qiladi

120. Morfema nima?

a) qismlarga bo‘linmaydigan, mustaqil holda yo leksik yoki grammatik ma’no anglatadigan tilning eng kichik birligidir

b) tilning mustaqil ma’no anglatadigan eng kichik birligidir

v) tilning qismlarga bo‘linmaydigan, mustaqil ma’no anglatishi va anglatmasligi mumkin bo‘lgan eng kichik birligidir

g) tilning qismlarga parchalanadigan va mustaqil holda ma’no anglatmaydigan eng kichik birligidir

120. O‘zbek tilida so‘z o‘zgartiruvchi affiks morfemalar jumlasiga

a) otning egalik va kelishik qo‘shimchalari, fe’ning shaxs-son qo‘shimchalari kiradi

b) otning kuchaytirish shaklini, fe’ning zamon shakllarini yasovchi qo‘shimchalar kiradi

v) otning ko‘plik shaklini yasovchi, fe’ning nisbat kategoriyasini yasovchi qo‘shimchalar kiradi

g) mavxum otlarni va fe’ning mayl shakllarini yasovchi qo‘shimchalar kiradi

122. Affiks morfemalar o‘zakka nisbatan joylashishiga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi

a) infiks, prefiks, postfiks

b) shakl yasovchi, so‘z o‘zgartiruvchi

v) so‘z o‘zgartiruvchi, so‘z yasovchi

g) so‘z yasovchi, shakl yasovchi

123. Leksik ma’no

a) voqeyilikdagi narsa va predmet, voqeya-hodisalar nomlarini yoki ular haqidagi tushunchani taqozo etadi

b) voqyelikdagi narsa va predmetlarning nomlarini taqozo etadi

v) ish-harakati ma'nosini anglatadi

g) turdosh otlar haqidagi tushunchani anglatadi

124. Reduksiya qanday ma'no ifodalaydi ?

a) grammatik ma'no

b) lug'aviy ma'no

v) leksik ma'no

g) leksik va grammatik ma'no

125. Grammatik ma'no ifodalovchi sintetik vositalar jumlasiga qanday unsurlar kiradi?

a) ichki fleksiya, suppletiv usul

b) yordamchi so'zlar

v) ohang va so'z tartibi

g) reduplikasiya

126. Qaysi tilda sifatning son kategoriyasi yo'q?

a) o'zbek tilida

b) rus tilida

v) ingliz tilida

g) nemis tilida

127. Ko'rsatilgan tillarning qaysi birida otning ko'pligi ichki fleksiya yordamida ifodalanadi?

a) arab tilida

b) ispan tilida

v) eston tilida

g) o'zbek tilida

128. Qaysi tillarda olmoshning ko‘plik shakli suppletiv usul bilan ifodalanadi

- a) hind-ovro‘pa tillarida ifodalanadi
- b) kavkaz tillarida ifodalanadi
- v) fin-ugor tillarida
- g) xitoy-tibet tillarida

129. Narsa va predmetlarga nom berish jarayonini

- a) onomasiologiya o‘rganadi
- b) etimologiya o‘rganadi
- v) onomastika o‘rganadi
- g) antroponimika o‘rganadi

130. Lug‘at maqolasi nima?

- a) har bir lug‘atda beriladigan so‘zlar izohi
- b) lug‘atlarning oxirida beriladigan matn
- v) qomusiy lug‘atlarda so‘zlarga beriladigan izoh
- g) lug‘atlarning kirish qismidagi matn

131. Ters lug‘atlardan kimlar foydalanadi?

- a) filologlar
- b) hamma
- v) ilmiy xodimlar
- g) lug‘atshunoslar

132. So‘z bilan denotat va signifikatning qanday bog‘lanishi mavjud?

- a) so‘z denotat va signifikat bilan nisbiy bog‘lanadi
- b) so‘z denotat bilan emas, balki signifikat bilan bog‘lanadi
- v) so‘z faqat denotat bilan bog‘lanadi
- g) so‘z ular bilan bog‘lanmaydi

133. Areal deganda nimani tushunasiz?

- a) tilning dialektal farqlanishini

b) ma'lum til yoki shevalarga xos xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik xaritalarning albom shaklidagi sistemali to'plami

v) mos hodisalarning u yoki bu a'zosi, bo'lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas xaritasidagi chiziq

g) mazkur til uchun ma'lum bo'lgan izoglossalar yig'indisi va ularning shu til hududida joylashish xarakteri

134. Fonetik jihatdan nutqning tarkibiy qismi qaysi javobda berilgan?

a) fraza (jumla), takt, so'z, bo'g'in, tovush

b) takt

v) so'z

g) bo'g'in

135. Nutqning eng kichik birligi qaysi?

a) tovush (fonema)

b) fraza

v) so'z

g) takt

136. Suprasegment elementlariga nimalar kiradi?

a) Bo'g'in, urg'u, ohang

b) so'z, bo'g'in, fraza

v) ohang, takt, so'z

g) tushuncha, urgu, tovush

137. Bo'g'inning fonologik jihatdan farqlanishi qaysi javobda berilgan?

a) sillabema, tonema, aksentema

b) oxang, urg'u

v) dinamik urgu

g) aksentema, fraza

138. Fonologik appozisiyalarning a'zolariga nisbatan tasnifi qaysi qatorda berilgan?

- a) privativ, gradual, ekvivalentli
- b) ko'p o'lchovli
- v) bir ulchovli
- g) proporsional

139. Klassik tillar deb nimaga aytiladi?

a) o'z yozuviga ega bo'lib, o'z davrida mukammal takomiliga yetgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar

b) adabiy til normasiga ega bo'lgan, jamiyatda davlat til, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar

v) son jihatidan ko'p bo'lmagan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar

g) mustamlakachilik natijasida dunyoning turli qit'alarida ingliz, fransuz, ispan, portugal tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar

140. Mahalliy tillar deb nimaga aytiladi?

a) son jihatidan ko'p bo'lmagan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o'z yozuviga ega bo'lmagan tillar

b) o'z yozuviga ega bo'lib, o'z davrida mukammal takomiliga yetgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar

v) adabiy til normasiga ega bo'lgan, jamiyatda davlat til, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar

g) mustamlakachilik natijasida dunyoning turli qit'alarida ingliz, fransuz, ispan, portugal tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar

141. Kreol tillar deb nimaga aytiladi?

a) mustamlakachilik natijasida dunyoning turli qit'alarida ingliz, fransuz, ispan, portugal tillari elementlari aralashuvidan tashkil topgan tillar

b) o‘z yozuviga ega bo‘lib, o‘z davrida mukammal takomiliga yetgan, buyuk asarlar yaratilgan tillar

v) adabiy til normasiga ega bo‘lgan, jamiyatda davlat til, adabiy til sifatida xizmat qiluvchi tillar

g) son jihatidan ko‘p bo‘lmagan kichik xalqlarga xizmat qiluvchi, o‘z yozuviga ega bo‘lmagan tillar

142. Mahalliy tillarning Yevropa tillari bilan chatishuvi natijasida yuzaga kelgan til qaysi?

a) pijin

b) kreol

v) lotin

g) sanskrit

GLOSSARIY⁵

ABBREVIATURA (*ital.* abbreviatura < *lot.* abbrevio – qisqartiraman). Qisqartma soʻzlar. *BMT* (*Birlashgan millatlar tashkiloti*), *Dramtoʻgarak* (*drama toʻgaragi*), *SamDChTI* (*Samarqand davlat chet tillar instituti*) kabi.

ABZATS. Matnning bir xat boshidan keyingi xat boshigacha boʻlgan qismi.

AGGLYUTINATIV. Agglyutinatsiyaga asoslangan. *Agglyutinativ tillar. Oʻzbek tili – agglyutinativ til.*

ADSTRAT. Bir hududda turli tillarning uzoq davr birga amal qilishi natijasida yuzaga kelgan ikki tillilikning turi.

AKKOMODATSIYA. Turli kategoriyadagi tovushlarning soʻz tarkibida oʻzaro moslashuvi.

AKSENTEMA. Urgʻuning soʻz yoki nutq oqimidagi fonologik-aksentologik xususiyatlariga nisbatan nomlanishi.

AKSENTOLOGIYA. Fonetikaning urgʻuni (urgʻuning tabiati, tipi, vazifasi va h.) oʻrganuvchi boʻlimi.

AKSIDENSIYA. Sezgi organlari yordamida his qilish mumkin boʻlgan belgilar.

AKSENT. Ona tilidan boshqa tilda soʻzlaganda, tovushlarni oʻsha tildagidan boshqacha holda, oʻz tili tovushlari kabi yoki unga yaqin talaffuz etish. *Oʻzbekcha aksent bilan gapirmoq.*

ALLOMORFA. Morfemaning biri oʻrnida ikkinchisini ishlatib boʻlmaydigan variantlari, uning bir koʻrinishi,

⁵Tilshunoslik terminlari lugʻatini tuzishda quyidagi ishlarga asoslanildi va foydalanildi: A.Hojiyev Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. –T., 2002. –166 b. O.C.Ахманова Словарь лингвистических терминов. – Москва, 2004. –571 с. Д.Е.Розентал ва М.А.Теленкова Справочник лингвистических терминов.–Москва, 1985. –399 с. Лингвистический энциклопедический словарь.–Москва, 1990. –688 с.

morfologik. Masalan, *-ga*, *-ka*, *-qa* joʻnalish kelishigi qoʻshimchalari kabi.

AMALIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikning lingvistik masalalarini amaliy yoʻl bilan oʻrganuvchi sohalari. Amaliy tilshunoslik mashnaviy tarjima va yozuv, imlo masalalari bilan shugʻullanadi. Amaliy tilshunoslikka eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, orfografiya kiradi.

AMORF TILLAR (yun. *amorphos* – shaklsiz). Affikslarga ega boʻlmagan, soʻzlar orasidagi grammatik aloqalar bitishuv yoʻli bilan yoki yordamchi soʻzlar vositasida ifodalanadigan tillar Masalan, *xitoy tili*.

ANALITIK TILLAR. Grammatik maʼnolar yordamchi soʻzlar, soʻz tartibi, ohang yordamida ifodalanadigan tillar. Masalan, *ingliz*, *frantsuz*, *ispan tillari* analitik tillar guruhiga kiradi.

ANALOGIYA. (yun. *analogia* – muvofiqlik, aynanlik, oʻxshashlik). Narsa va hodisalarda biror xususiyatning oʻxshashligi.

ANTONIMIK JUFTLIK. Oʻzaro qarama-qarshi maʼnoli ikki soʻz.

ANTONIMIYA. Leksemalarning bir-biriga zid maʼno anglatishi asosida guruhlanishi.

ANʼANAVIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikdagi faqat til qismlari va tuzilishining ichki munosabatlarini, bogʻliqliklarini yoritish bilan birga til va tafakkurning oʻzaro munosabati, tilning jamiyat bilan, shu tilda soʻzlashuvchi jamoa bilan aloqasi kabi masalalarini oʻrganadigan yoʻnalishi.

APOKOPA. Soʻz oxiridagi undosh tovushlarning tushib qolishi. Apokopa asosan oʻzlashma soʻzlarda roʻy beradi. Masalan, *toʻrt > toʻr*, *qirq > qir*, kabi.

ARGO (*fr.* *argot* – jargon). Yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifaning (mas., talabalar, sportchilar, oʻgʻrilar va b.)

o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug‘aviy birliklardan iborat tili.

ARGOTIZMLAR. Yashirin ma’noli so‘zlar.

AREAL LINGVISTIKA. Tilshunoslikning lingvistik areallarini o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi sohasi.

ARTIKL (*lot. articulus* – nutq qismi, bo‘lagi). Ba’zi tillarda otning oldidan qo‘shilib, unga aniqlik yoki noaniqlik va b. ma’nolarni bag‘ishlaydigan ko‘rsatkich. *Aniqlik artikli*.

ARTIKULYATSIYA. Nutq a’zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi harakati va holati.

ARTIKULATSIYA BAZASI. Til egalarida shu tilga xos artikulyatsiyani amalga oshirish uchun shakllangan psixologik va fiziologik ko‘nikmalar.

ARTIKULATSIYA O‘RNI. Talaffuzda ishtirok etuvchi asosiy nutq a’zosi yoki shu a’zoning faol ishtirok etayotgan qismi.

ARTIKULYATSIYA USULI. Nutq a’zolari hosil qilgan to‘siqdan havo oqimining portlab, sirg‘alib yoki titrab o‘tishi.

ASOS MORFEMA. Lug‘aviy ma’no anglatadigan, boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan, so‘z va so‘z shakli yasash uchun asos bo‘ladigan morfema. Masalan, *ishchi*, *suv*siz, *olmalar*, *bolacha* so‘zlaridagi *ish*, *suv*, *olma*, *bola* asos morfemalardir.

ASSIMILYATIV HOLAT. Nutq oqimida fonemalar assimilyatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

ASSIMILYATSIYA. Bir xil kategoriyadagi tovushlarning so‘z tarkibida o‘zaro moslashuvi.

ASSOTSIYATSIYA. Til birliklarining shakliy yoki mantiqiy- semantik belgisiga ko‘ra birlashuvi.

ATASH SEMALARI. Leksemaning leksik ma’nosidagi ideografik semalar (atash, nomlash ma’nosini shakllantiruvchi semalar).

ATRIBUT (*lot. attributum* – qo‘shib berilgan, ta‘minlangan, qo‘shimcha qilingan). Predmet yoki hodisaning o‘ziga xos, undan ajratib bo‘lmaydigan eng muhim xarakterli xususiyati, belgisi.

ATRIBUTIV. Atributga, aniqlovchiga oid; aniqlovchili. *So‘zlarning atributiv bog‘lanishi. Atributiv aloqa.*

AFFIKS (*lot. affixus* – birlashtirilgan, biriktirilgan). So‘zga qo‘shilib, yangi so‘z yoki so‘z shaklini hosil qiluvchi til birligi. Mac, *-chi* (gulchi), *-lar* (kitoblar).

Affikslar vazifalariga ko‘ra ikki asosiy turga bo‘linadi: 1) *so‘z yasovchi affikslar*; 2) *shakl yasovchi affikslar*. Affikslar so‘zning boshiga, o‘rtasiga yoki oxiriga qo‘shilishi mumkin. So‘zning boshiga qo‘shiladigan affikslar *prefiks*, o‘rtasiga qo‘shiluvchilari *infiks*, oxiriga qo‘shiladiganlari *suffiks* deyiladi. O‘zbek tilidagi affikslar asosan so‘zning oxiriga, ba‘zilar so‘z oldiga qo‘shiladi, ya‘ni suffiks va prefiks holda bo‘ladi.

AFFIKSOID. Affiks vazifasida qo‘llanuvchi morfema: *taklifnoma, dalolatnoma, bildirishnoma* kabi so‘zlardagi *noma*.

AFFRIKATA. Qorishiq undosh tovush; paydo bo‘lish o‘rniga va ovozning ishtirokiga ko‘ra bir xil bo‘lgan portlovchi tovush bilan sirg‘aluvchi tovushning yaxlit bitta tovush sifatida talaffuz qilinishiga teng keladi. Macalan, o‘zbek tilidagi *ajdar*, so‘zidagi *j*, *choy* so‘zidagi *ch* qorishiq undoshlardir.

BILINGVIZM. Ikki tillilik.

BINAR OPPOZITSIYA. Bir turdagi ikki hodisaning bir-biriga qarama-qarshi holda guruhlanishi. Masalan, undosh tovushlarda: *jarangli-jarangsizlik*, unli tovushlarda: *lablangan-lablanmaganlik* binar oppozitsiyani hosil qiladi.

BOBOTIL. Ma‘lum tillar oilasining kelib chiqishi va shakllanishi uchun manba, asos bo‘lgan til. Masalan, turkiy tillar oilasi uchun *qadimgi turkiy til* bobotildir.

BOSH MA'NO. Ko'p ma'noli (so'z, ibora va b.) ma'nolari tizimida markaziy o'rinda turadigan, boshqa ma'nolar unga to'g'ridan-to'g'ri yoki biror ma'no orqali bog'lanadigan ma'no. Macalan, *ko'z so'zining odamning ko'zi, derazaning ko'zi, uzukning ko'zi* birikmalaridagi ma'nosi boshqa-boshqa (mustaqil) ma'nolar bo'lib, bulardan *odamning ko'zi* birikmasidagi ma'no, ya'ni "*ko'rish a'zosi*" ma'nosi bosh ma'nodir. Keyingi ikki birikmadagi ma'nosi esa keyin yuzaga kelgan (keyin hosil bo'lgan) ma'nolardir.

BROK MARKAZI. Bosh miya qobig'idagi markaziy nerv sistemasiga kiruvchi nerv hujayralarining bir turi. U nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi.

BO'G'IN. Bir havo zarbi bilan aytiladigan tovush va tovushlar majmui. Bo'g'in qanday tovush bilan bitganligiga ko'ra ikki xil bo'ladi.

VAZIFA SEMALARI. Atash, ifodalash bilan birga leksemalarning nutqda o'zaro birika olishini (valentligini) belgilaydigan semalar.

VALENTLIK. Leksemaning birikma yoki gap tarkibida boshqa leksemalar bilan aloqaga kirisha olish xususiyatlari.

VARIANTLAR. Nutqda ishtirok etadigan til birliklarining moddiy amalga oshishi.

VARIYATSIYA. Fonema ottenkasining Moskva fonologlari maktabida qabul qilingan nomi.

VOKALIZM. Unli fonemalar tizimi.

VOLAPYUK (*ingl.* world-dunyo, speak – gapirmoq, ya'ni dunyo tili). 1880 yilda nemis ruhoniysi Shleyxer tomonidan tavsiya etilgan sun'iy xalqaro til.

VULGARIZMLAR. Haqorat ma'nosida qo'llanadigan so'zlar.

VULGAR. Dag'al, qo'pol, odobdan tashqari. *Vulgar so'z. Vulgar ibora.*

GAP PRAGMATIKASI. Gap – fikr kommunikatsiyasining asosiy birligidir va uning vaziyat bilan o‘zaro munosabatini o‘rganish talab qilinadi. Shu munosabat bilan gap tahlilida umumiy semiotikaning qoidalariga muvofiq uch aspekt: belgi tuzilmalarining sintaktikasi, semantikasi va pragmatikasiga bo‘linadi. Pragmatika til faktlarini inson faoliyati aspektida, ularning qo‘llanish planida tasvirlaydi. Agar gapning sintaktik strukturasi gapning qanday qurilganini, inson qanday gapirayotganini ko‘rsatsa, agar gap semantikasi gap nimani anglatayotganini, unda borliqning qaysi fragmenti o‘z aksini topayotganini ko‘rsatsa, gap pragmatikasi esa insonlar mazkur holatda qanday sharoitlarda, qanday maqsadda so‘zlashayotganligini aniqlashga harakat qiladi. Pragmatik sintaksisning diqqat markazida kommunikatsiya masalasi va so‘zlovchi inson – kommunikatsiya jrayonining markazi turadi.

GAP REFERENTLIGI. Lingvistikada yaxlit bir gapga nisbatan, shuningdek, alohida olingan bir so‘zga nisbatan ham, referentlik haqidagi masala, ya’ni muayyan borliq bilan o‘zaro munosabat haqida so‘z boradi.

GEMINYATSIYA. So‘z tarkibida bir xil undoshlarning qavatlanishi.

GERS. Tebranayotgan jismning (masalan, un paychalarining) tinch holatdagi nuqtadan ikki (qarama-qarshi) tomonga bir marta borib kelishi. Ovozning past yoki balandligi gerslar miqdori bilan belgilanadi.

GIPERONIM. Jins (turkum) tushunchasini ifodalaydigan leksema.

GIPONIM. Tur tushunchasini ifodalaydigan leksema.

GIPONIMIYA. Lug‘at boyligidagi leksemalarning pog‘onali aloqasidan kelib chiqadigan ma’no munosabatlari.

GRADUAL OPPOZITSIYA. Pog‘onali zidlanish.

GRADUONIMIYA. Leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishi.

GRAMMATIK DIALEKTIZMLAR. Biror shevaning o'zigagina xos (adabiy tildagidan o'zgacha) grammatik shakllari.

GRAMMATIK KATEGORIYA. Ma'lum grammatik tushunchani ifodalaydigan shakllarning umumlashgan sinfi.

GRAMMATIK MA'NO. Muayyan grammatik shakl ma'nosi.

GRAMMATIK SATH. Til ierarxiyasining morfologik va sintaktik birliklardan iborat eng yuqori pog'onasi: so'z turkumlari, grammatik ma'no va grammatik shakllar, so'z birikmalari va gap, ularning turlari va konstruksiya modellari.

GRAMMATIK TUSHUNCHA. Bu lisoniy bilishda aks etgan va grammatikaning predmeti belgilagan mantiqiy-falsafiy kategoriya.

GRAMMATIK SHAKL. Grammatik ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladigan til vositalari. Masalan, *bolalarga* oti tarkibida ko'plik, jo'nalish kelishigi ma'nolarini ifodalovchi shakllar mavjud.

GRAMMATIKA (*yun.* grammatike – harf o'qish va yozish san'ati < gramma – yozuv, harf, chiziq). Tilshunoslikning so'z shakllari, so'z birikmalarining turlari, rang turlari haqidagi bo'limi. *Qiyosiy grammatika. Tarixiy grammatika.*

GRAMMATIKALASHISH. So'zning mustaqil lug'aviy ma'nosini yo'qotib, yordamchi vazifada qo'llanishga o'tishi, yordamchi so'zga aylanishi.

GRAMMATIK KATEGORIYA. Asosida yotuvchi umumiy ma'nosiga ko'ra birlashuvchi grammatik shakllar tizimi. Grammatik kategoriyaning odatda ikki turi farqlanadi: 1) morfologik kategoriya 2) sintaktik kategoriya.

GRAFEMA. Grafik tizimning eng asosiy birligi, ifodalovchi va ifodalanuvchi tomonlari bor bo'lgan semiotik belgi.

GRAFIK ASIMMETRIYA (fonetik-grafik asimmetriya). So'z tarkibida o'zaro munosabatga kirishayotgan harf va tovushlar o'rtasidagi miqdoriy tenglikning buzilishi.

GRAFIK SIMMETRIYA (fonetik-grafik simmetriya). So'z tarkibidagi tovush va harflarning miqdoran teng bo'lishi («bir tovushga bir harf» munosabatining ta'minlanishi).

GRAFIK SINONIMIYA. Shakli har xil bo'lgan ikki grafemaning ma'lum fonetik-grafik pozitsiyalarda bitta fonemani ifodalashi.

GRAFIKA. Yozuv tizimining birinchi (yetakchi) komponenti. U harfiy va noharfiy belgilar vositasida yozuvning tovush tili bilan aloqasini ta'minlaydi.

DEGEMINATSIYA. So'z tarkibidagi geminatsiyaning yo'qolishi.

DENOTAT. Leksema orqali nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buyum.

DENOTATATIV MA'NO. Denotat bilan bevosita bog'liq, uni bevosita bildiruvchi ma'no. Leksemadan anglashiladigan voqelik, narsa-buyum va boshqalar haqidagi tushuncha.

DERIVATLAR. Hosilalar.

DERIVATSIYA (*lot.* derivatio – yasaliş). Til birliklari (so'z, so'z birikmalari va boshqa)ning yasaliş, hosil bo'lishi.

DESKRIPTIV LINGVISTIKA. (*ingl.* descriptive – tasviriy). Hozirgi tilshunoslikda amerika strukturalizmi deb nomlanuvchi yo'nalish. Bu yo'nalish til tuzilishining shakliy unsurlarini distributiv metod asosida o'rganadi.

DETERMINANT. Gapning kuchsiz sintaktik aloqali ikkinchi darajali bo'lagi.

DETERMINLASHISH. Terminlarning ommalashib, umumnutq birligiga aylanishi.

DIAKRITIK (*yun.* diakritikos – farqlovchi). Alifbodagi shakldosh harflardan birining osti yoki ustiga yoxud oʻrtasiga, yoniga qoʻyiladigan, uning qanday oʻqilishini koʻrsatadigan maxsus belgilar.

DIAKRITIK BELGILAR. Harfga qoʻshimcha ravishda biriktitirilgan ishora belgilari.

DIAKRITIK HARFLAR. Oʻz referentiga ega boʻlmagan, ammo soʻz qismlari yoki fonemalarning oʻziga xos jihatlariga ishora qiladigan harflar.

DIALEKT (*yun.* dialektos – laxja, sheva). Umumxalq tilining adabiy tildan maʼlum lisoniy xususiyatlari bilan farq qiluvchi mahalliy yoki ijtimoiy koʻrinishi; lahja.

DIALEKTAL. Dialekt– lahjaga, shevaga oid.

DIALEKTIZMLAR. Qoʻllanishi territoriyaga koʻra chegaralangan til birliklari.

DIAZEZA. Sintaktik va semantik aktantlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatning oʻzgarib turishiga bogʻliq harakatga yoʻllantirilgan har xil shakllar diazeza deyiladi.

DIAXRONIYA (*dia.* + *yun.* xronos - vaqt, davr). Ayrim til hodisalarining tarixan oʻzgargan holda izchil rivojlanish bosqichlari; davr oʻtishi bilan tilda yuz beruvchi oʻzgarishlar; til taraqqiyotini vaqt nuqtai nazaridan oʻrganish.

DIVERGENSIYA. Til strukturasidagi oʻzgarishlar taʼsirida bir fonemaning ikki fonemaga boʻlinishi. Masalan, «k»ning «k» va «q»ga ajralishi.

DIVERGENT. Divergensiya yoʻli bilan bir fonemaning ottenkalaridan oʻsib chiqqan yangi fonema.

DIGLOSSIYA. Soʻzlovchilarning aynan bir jamoasida adabiy til va mahalliy dialekt oʻrtasida sotsia-kommunikativ vazifalarning taqsimlanishi.

DIKTUM. Gapning mazmuniy informative tomoni. Diktum va modus – gap qurilishining ikki zaruriy tomoni.

DINAMIK URG‘U. Zarb urg‘usi.

DINAMIK URG‘U. Tovush kuchining o‘zgarishiga (intensivligiga) asoslanadigan urg‘u. Dinamik urg‘uda intensivlik yetakchi bo‘ladi. Qiyos. *Kvantitativ urg‘u*.

DISKURS. Bu dinamik (tadrijiy) jarayonning bir bo‘lagi bo‘lgan matn. Matn tahlili – bu diskurs tahlilning bir qismi. Diskurs matn tahlilidan tashqari matnni hosil qiladigan va qabul qiladigan, mental jarayonlar va boshqalarni oldindan mutlaq qilib oladi.

DISSIMILYATIV HOLAT. Nutq oqimida fonemalar dissimilatsiyasiga olib keluvchi vaziyat.

DISSIMILYATSIYA. So‘z tarkibidagi ikkita bir xil (yoki o‘xshash) tovushlardan birining noo‘xshash tovushga ko‘chishi.

DIFTONG (di.. + *yun.* phthongos – ovoz, tovush). Ikki unli tovushning bir bo‘g‘inda birikib, qorishib kelishi va shunday birikkan tovushlar (mas, nemis tilidagi “ai” kabi).

DIFFUZ (*lot.* diffusio – tarqalish, yoyilib ketish). **Diffuz tovushlar.** Bir-biriga singishib ketgan, qorishiq tovushlar.

DIXOTOMIYA (*yun.* diha - ikki qismga + tome – bo‘lish; kesilish) Butunning izchil ravishda ikkiga bo‘linishi va bu bo‘laklardan har birining ikkiga ajralishi.

DOMINANTA. Sinonimik qatordagi betaraf ma’noli so‘z.

DUBLETLAR. Bir xil (teng) semantik tarkibga ega bo‘lgan til birliklari. Mas., *tilchi* – *tilshunos*, *adab* – *odob*, *arziydigan* – *arzirli* va b.

EVFEMIZM. Narsa, voqeya-hodisalarni yumshoq ifodasi, qo‘pol, beodab so‘zlar va tabu o‘rnida qollanuvchi so‘z hamda iboralar. Masalan, *o‘ldi* so‘zi o‘rnida *vafot etdi*, *ko‘z yumdi*, *joni uzildi* kabi so‘z va iboralarni qo‘llash.

YOZUV. Fikrni ma'lum harf va tinish belgilari vositasida qog'ozda ifodalashga asoslangan aloqa vositasi.

EKSPERIMENTAL (INSTRUMENTAL) FONETIKA. Nutq tovushlari, urg'u kabi birliklarning fizik-akustik va artikultatsion xususiyatlarini maxsus asboblار vositasida o'rganadigan fonetika.

EKSTENSIONAL (tushuncha hajmi). Bu ko'pgina narsa-predmetlar bilan o'zaro munosabatda bo'ladigan tushuncha.

EKSTRALINGVISTIK OMILLAR. Tildan boshqa sistemalarga oid faktorlar (nolisoniy omillar). Ular til taraqqiyotiga tashqaridan (til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari jarayonida) ta'sir o'tkazadi.

EKSTRALINGVISTIKA. Tilshunoslikning etnik, ijtimoiy-tarixiy, geografik va boshqa omillarni tilning taraqqiyoti hamda vazifasi bilan bog'liq hodisalar sifatida o'rganuvchi tarmog'i.

ENANTIOSEMIYA. Bitta leksema ma'nosida nutqiy muhit taqozosi bilan zidlanishning ifodalanishi.

ENSIKLOPEDIK LUG'ATLAR. Tabiat va jamiyatdagi muhim hodisalar, tarixiy-ilmiy voqeliklar, buyuk shaxslar haqida ma'lumot beruvchi lug'at tiplari.

EPENTEZA. So'z o'rtasida tovush orttirilishi.

EPITEZA. So'z oxirida tovush orttirilishi.

ETIMOLOGIK LEKSIK MA'NO. Leksemaning kelib chiqishida uning mazmun planiga asos bo'lgan dastlabki ma'no. U ma'no etimoni deb ham ataladi.

ETIMOLOGIYA. Tilshunoslikdagi so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi bo'limi.

ETNOLINGVISTIKA. Makrolingvistikaning til bilan xalq o'rtasidagi munosabatlari, til faoliyati va taraqqiyotida lingvistik hamda etnik omillarning o'zaro ta'sirini o'rganuvchi tarmog'i.

ETNOSOTSIOLINGVISTIKA. Sotsiolingvistikaning nutqni ham lisoniy, ham etnik-etnografik xususiyatlarni hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmog‘i.

YOSH GRAMMATIKACHILAR. Tildagi alohida xususiyatlarni faqat tarixiy jihatdan qarab, fonetik qonuniyatlarning barcha tillar uchun umumiy, o‘zgarmas tarzda ekanligini talqin etgan XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi tilshunoslik oqimi. Bu maktabning namoyandalari: rus tilshunoslari: F.F.Fortunatov, A.Shaxmatov, nemis tilshunoslari: I.Shmtdt, G.Ostgof, K.Brugman, G.Paul, frantsuz tilshunosi M.Breal va boshqalar.

JARGON (*fr.* jargon – ma‘lum bir guruhga oid so‘z). Biron ijtimoiy yoki professional guruxga xos, faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar.

JARGONIZMLAR. Yashirin ma‘no bilan birga tinglovchini yoki o‘zga bir shaxsni kamsitish yoxud uning xislatini bo‘rttirib baholash xususiyatiga ega so‘zlar.

JONLI TIL. Hozirgi davrda biror xalqning aloqa quroli, so‘zlashuv vositasi bo‘lgan til.

IDEOGRAMMA (*yun.* idea - tushuncha + gramma – yozuv). Tilning ayrim tovushlarini emas, balki to‘liq tushunchalarni ifodalashga asoslangan, shartli qabul qilingan yozuv belgilari (raqamlar, matematik shakllar; shuningdek, ieroglifik yozuv belgilari).

IDEOGRAFIK. Ideografiyaga oid. *Ideografik yozuv.*

IDEOGRAFIK LUG‘AT. So‘zlar alifbo tartibida emas, balki mavzuiy (ma‘noviy-mazmuniy) tamoyil bo‘yicha joylashtirilgan lug‘at.

IDEOGRAFIYA (*yun.* idea - tushuncha + grapho – yozaman). Ideogrammaga asoslangan yozuv tizimi.

IDEOGRAFIK YOZUV. Grafik belgilar so‘zlarni emas, balki ma‘nolarni ifodalovchi yozuv.

IDIOMA (*yun.* idioma – o‘ziga xoslik, xususiyat). Ma‘nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma‘no beruvchi, ixcham ibora; frazeologizmlarning bir turi. Mac, *tomdan tarasha tushganday, og‘zingga qarab gapir.*

IDIOMATIK. Idiomaga, idiomatikaga taalluqli. *Idiomatik ibora. Tilning idiomatik boyligi.*

IDIOMATIKA. Idiomalar haqidagi ta‘limot.

IERARXIYA. Til tizimida quyidan yuqoriga qarab bosqichma-bosqich joylashgan sathlar (yaruslar) yig‘indisi: fonetik-fonologik sath (quyi yarus), morfemik sath, leksik sath (yuqori yaruslar), grammatik sath (yanada yuqoriroq yarus) kabi.

IMPLIKATURA. Bu fikrning so‘z bilan ifodalanmagan, lekin nazarda tutilgan ma‘nosi. Implikatura, matn parchasidan farqli ravishda, uning matnda borligini ko‘rsatadigan lingvistik belgilarga ega bo‘lmasligi va presuppozitsiyaga asoslanishi mumkin.

INVARIANT. Tilning qurilish birligining (fonema, morfema, leksema va sh. k.) nutqdagi muayyan voqelanishidan ajratib, mavhum olingan holati.

INVARIANTLAR. Sistema tarzidagi tilga mansub mavhum birliklar.

INVERSIYA (*lot.* inversio – o‘rin almashtirish). Nutq ta‘sirchanligini oshirish maqsadida gapda so‘zlarning odatdagi (to‘g‘ri) tartibini o‘zgartirish; teskari tartib (*bahor keldi – keldi bahor*).

INDIVIDUAL NUTQ NEOLOGIZMI. Ayrim shaxs nutqida voqe bo‘lgan neologizm.

INITSIALLAR. Boshlang‘ich bo‘g‘in unli, undoshlar.

INTEGRATSIYA. Tillar, shuningdek, dialektlarning o‘zaro noo‘xshashliklari yo‘qola borib, bir umumiy tilga birlashishi.

INTERVOKAL (inter.. + *lot.* vocalis – unli tovush). **Intervokal tovush.** Ikki unli tovush o'rtasida keladigan tovush.

INTERVOKAL HOLAT. Undosh fonemaning ikki unli orasida qo'llanishi. Bunday pozitsiyada (ko'p bo'g'inli so'zlarda) portlovchi «q» undoshi sirg'aluvi «g» tarzida (*qishloq* > *qishlog'imiz* kabi), jarangsiz «k» undoshi jarangli «g» tarzida (*telpak* > *telpagim* kabi) talaffuz qilinadi.

INTERVOKAL HOLAT. Undosh fonemaning ikki unli orasidagi holati.

INTERLINGVA. Xalqaro yordamchi tillardan biri (1950 yili Nyu-Yorkda Xalqaro yordamchi tillar assotsiatsiyasi tomonidan yaratilgan).

INTERLINGVISTIKA. Tilshunoslikning xalqaro muomalaga mo'ljallangan sun'iy tillar (volapyuk, esperanto va b.), matematik va informatsion tillar qurilishini o'rganuvchi sohasi.

INTONATSIYA. So'zlovchining nutq mavzuiga munosabatini, his-tuyg'usini ifodalovchi talaffuz uslubi; ton.

INFINITIV. (*lot.* infinitivus – noaniq). Fe'ning noaniq shakli; masdar.

INFORMATIK KATEGORIYASI. Har bir gap informatsiya tashiydi. Biroq yangi informatsiya, agar u o'zidan oldingi predmet haqidagi bilimga suyanagan holda bo'lsagina, tinglovchiga tushunarli bo'lishi mumkin. Shuning uchun gapning to'liq informativ strukturasi quyidagichadir: u tema deb ataladigan ma'lum qismi, hamda rema deb ataladigan informatsiyaning yadrosini o'z ichiga oladi. Tema va rema gapning kommunikativ bo'laklari hisoblanadi. Uning aktual bo'linishlarining komponentlari hisoblanadi. Fikr ma'lumdan noma'lumga qarab borar ekan, odatda rema temadan keyin keladi. Bu kommunikativ bo'laklarning betaraf (neytral) tartibidir. Agar rema temadan oldin kelsa, bu holda

kommunikativ boʻlaklarning emfatik (emotiv) soʻz tartibi vujudga keladi.

INFORMATSIYA. Informatsiya deganda nominativ xarakterdagi soʻz birikmasi sifatidagi har qanday xabar tushuniladi. Bu oʻzida qandaydir faktlar haqida darak beradigan gap, gaplar birikmasi (gapdan katta birlik va abzats), butun matn boʻlishi mumkin. Bu holda informatsiya odatda nominatsiya, maʼno, mazmunga toʻgʻri keladi.

INFRATOVUSH. 16 Hz dan kam chastotali tovush.

IFODA SEMALARI. Semema tarkibidagi uslubiy maʼno qirralari.

IXTISOSLASHISH,

CHEGARALANISH.

Terminlarning maʼnosi va qoʻllanishidagi oʻziga xoslik, maʼlum soha tushunchasini nomlash bilan cheklanish.

ICHKI FLEKSIYA. Soʻz shakllarining, baʼzan yangi soʻzlarning asos tarkibidagi (koʻpincha unli) tovushlarni oʻzgartirish orqali hosil qilinishi.

KALKA (*fran.* *salque* – kopya, taqlid). Oʻzga til materialidan qismma-qism nusxa olish yoʻli bilan hosil qilingan soʻz yoki boshqa bir til birligi. Kalkalar leksik, semantik, frazeologik boʻlishi mumkin.

KVANTITATIV URGʻU (miqdor urgʻusi). Choʻziqlik belgisiga ega boʻlgan urgʻu.

KOGEZIYA. Matnning formal bogʻli boʻlishligi.

KOGERENTLIK. Matnning mazmunan bogʻli boʻlishligi.

KOGNITIV TILSHUNOSLIK. Bilish nazariyasi asosida tilni ongli his qilishni oʻrganish yoʻnalishi.

KOINE (*yun.* *koinos* – umumiy). Bir necha oʻzaro yaqin, qarindosh laxjalarning aralashuvidan hosil boʻladigan va oxir-oqibat ularning barchasini almashtiradigan, ular oʻrnida qoʻllanadigan til.

KOMBINATOR OTTENKA. Fonemaning soʻz tarkibidagi tovushlar taʼsirida yuzaga kelgan koʻrinishi.

KOMBINATOR OʻZGARISHLAR. Nutq tovushlarining qoʻshni tovushlar taʼsirida miqdor va sifat belgilarining oʻzgarishi. Akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epenteza, gaplologiya, proteza, metateza kombinator oʻzgarishlar hisoblanadi.

KOMMUNIKATIV (*lot. communicatio < communicare* – umumiy qilmoq, bogʻlamoq). Kommunikatsiyaga, fikr almashuvga oid.

KONVERGENSIYA. Tarixiy taraqqiyot natijasida ikki fonemaning bir fonema holiga kelishi: qadimgi turkiy va eski oʻzbek tillarida alohida-alohida fonemalar boʻlgan «e» va «o» unlilari shu qonuniyat asosida hozirgi oʻzbek adabiy tilida bitta «oʻ» fonemasiga birlashgan.

KONSONANTIZM. Undosh fonemalar tizimi.

KONTEKSTUAL ANTONIMIYA. Tilda antonimik munosabatda boʻlmagan soʻzlarning maʼlum kontekst doirasida antonimik munosabatga kiritilishi.

KONTENSIONAL. Bu muayyan tushuncha (maʼno, nom)da aks etgan belgilar yigʻindisi, aniqrogʻi strukturasi.

KONTINUUM KATEGORIYASI. Bevosita zamon va makon tushunchalari bilan bogʻlangan. “Kontinuum” termini nimadir uzluksiz hosil boʻlishini anglatadi, yaʼni harakatning zamon va makonda boʻlinmas oqimi. Biroq uni toʻxtatib, birgalikda harakat haqidagi tasavvurni hosil qiladigan diskret xarakteristikalarni tuzib qoʻyilgan qismlarda koʻrgan holdagina harakatni tahlil qilish mumkin. Shunday qilib, kontinuumni matn kategoriyasi sifatida umumiy tarzda zamon va makonda sodir boʻladigan fakt va voealarning muayyan ketma-ketligi tarzida tasavvur qilish mumkin. Bunda voqea-hodisalarning kechishi turlicha matnlarda bir xil boʻlmaydi. Badiiy matnning

zamon va makon parametrlari boshqa turdagi matnlarnikidan tubdan farq qiladi.

KONTRASTIV. Tillarni o'rganishning qiyosiy solishtirma metodi.

KORRELYATSIYA. Bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq oppozitsiyalar qatori.

QIYOSIY-TARIXIY METOD. Nisbatan keyingi vaqtlardagi yozma manbalar va jonli tilni qiyoslab o'rganish asosida jonli til hamda yozma manbalarda qayd etilmagan qadimgi til faktlarini tiklashdan iborat lingvistik metod.

QIYOSIY-TARIXIY TILSHUNOSLIK. Tilshunoslikning qarindosh tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganuvchi tarmog'i.

QIYOSIY-TIPOLOGIK METOD. Tillarning qarindoshligidan qat'i nazar, ulardagi o'xshash va farqli alomatlarini aniqlash metodi.

LABIAL UNDOSHLAR. Lab-lab va lab-tish undoshlari.

LAHJA. Fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bir-biriga yaqin hamda o'xshash shevalar yig'indisi, guruhi.

LEKSEMA. So'zning grammatik ma'no bildiruvchi qo'shimchalarsiz qismi; tilning lug'at tarkibiga xos birlik.

LEKSIK ARXAIZMLAR. Hozirgi paytda bor bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi.

LEKSIK ISTORIZMLAR. O'tmish voqeligining nomlari.

LEKSIK QO'LLASH. Leksemaning okkazional (nutqiy) ma'noda qo'llanishi.

LEKSIK MA'NO. Leksemaning nimanidir nomlashi, atashi, anglatishi.

FONETIK SO'Z. Leksemaning fonetik qiyofasi, nomi. *Denotat* – leksema tomonidan nomlangan narsa-predmet,

voqelik. *Referent* – til birligi ifodalaydigan tushuncha, fikr predmeti.

LEKSIK MA'NO TURLARI. Leksik ma'no bir necha nuqtai nazardan yondashib turlarga ajratiladi. Jumladan: 1) yasalish munosabatiga ko'ra; 2) obektni ifoda etishiga ko'ra; 3) nutqda voqelashish holatiga ko'ra.

LEKSIK NEOLOGIZM. Yangilik bo'yog'i bor bo'lgan leksemalar.

LEKSIK SATH. Til ierarxiyasining lug'at boyligidan iborat yuqori pog'onasi: so'zlar, iboralar, ularning turli qatlamlari.

LESIKA. Biror til yoki shevada muayyan paytda mavjud bo'lgan so'zlar majmui; biror ish, faoliyat, kasb-hunar sohasida qo'llanadigan so'z va terminlar, shuningdek, biror muallif badiiy asarlarining so'z boyligi. *O'zbek tili leksikasi. Toshkent shevasining leksikasi. Kasb-hunar leksikasi.*

LEKSIKOGRAF. Leksikografiya mutaxassisi; lug'atshunos.

LEKSIKOGRAFIK. Leksikografiyaga, lug'atchilikka oid. *Leksikografik ishlar.*

LEKSIKOGRAFIYA. Tilshunoslikning lug'atchilik bilan shug'ullanuvchi sohasi.

LEKSIKOLOG. Leksikologiya mutaxassisi; so'zshunos.

LEKSIKOLOGIK. Leksikologiyaga oid. *Leksikologik tadqiqot.*

LEKSIKOLOGIYA. Tilshunoslikning tilning lug'at tarkibini (leksikani) o'rganuvchi bo'limi; so'zshunoslik. *O'zbek tilining leksikologiyasi.*

LEKSIKOLOGIYANING OBEKTI. Tilning lug'at boyligi, leksik tizimi.

LEKSIKON (*yun.* lexikon – lug'at). Ma'lum bir kishining so'z va iboralari zaxirasi; biror ijtimoiy qatlam yoki muayyan faoliyat sohasiga mansub umumiste'moldagi so'zlar zaxirasi.

LEKSIK-FONETIK ARXAIZM. Talaffuz arxaizmi. Bunda leksemaning tovush tarkibida qisman eskirishi yuz beradi.

LEKSIK-FONETIK DIALEKTIZM. Adabiy tilda bor boʻlgan soʻzning biror shevadagi fonetik tarkibi.

LEKSIK-FRAZEOLOGIK ANTONIMLAR. Soʻz va frazema orasidagi maʼno ziddiyatiga asoslangan antonimlar.

LEKSIK-FRAZEOLOGIK SINONIMLAR. Soʻz va frazemalar oʻrtasidagi maʼno birligiga asoslangan sinonimlar.

LINGVIST. Lingvistika mutaxassisi; tilshunos.

LINGVISTIK OMILLAR. Til strukturasi va sistemasiga mansub boʻlgan, shu tizim qoida-qonuniyatlaridan kelib chiqadigan omillar: fonemalarning funksional xususiyatlari, morfema tiplari, leksik va grammatik tizimlar xususiyatidan kelib chiqadigan faktorlar. Ular lisoniy omillar deb ham yuritiladi.

LINGVISTIK. Lingvistikaga, tilshunoslikka oid. *Lingvistik adabiyot. Lingvistik atlas. Lingvistik tadqiqot. Lingvistik tahlil.*

LINGVISTIKA. Til haqidagi fan, til bilimi; tilshunoslik.

LINGVISTIK-FUNKSIONAL ASPEKT. Fonetikaning yuqori bosqichi. U fonetik birliklarning til mexanizmidagi rolini, demak, ijtimoiy mohiyatini oʻrganadi.

LISONIY LUGʻATLAR. Til birliklari, til tizimiga xos kategoriyalar haqida maʼlumot beruvchi lugʻatlar.

LISONIY OMILLAR. Tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar.

LOGOGRAFEMALAR. Tushunchalarni yoki tushuncha nomi boʻlgan soʻzlarni yozuvda ifodalaydigan grafemalar (raqamlar, simvollar).

MAKROLINGVISTIKA. Makrolingvistika tilni keng doirada, “katta hajmda” olib, uni statistik usullar asosida tadqiq

qiladi. Kishilik jamiyatidagi barcha belgi sistemalarini va ularning o‘zaro bog‘lanishlarini o‘rganuvchi tilshunoslik.

MANTIQUIY MARKAZ. Ikki ma’no o‘rtasidagi oraliq tushuncha.

MATEMATIK LINGVISTIKA. Tilshunoslikning tilni tadqiq etish va o‘rganishda matematik metodlarni qoplash imkoniyatlarini o‘rganuvchi sohasi.

MATN TILSHUNOSLIGI. Tilshunoslikning turli mazmun va uslubdagi matnlarini ilmiy tadqiq qiluvchi sohasi.

MENTALINGVISTIKA. Tilshunoslikning til bilan tafakkurning aloqasini va shunga bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi bo‘limi.

METATEZA. So‘zdagi tovushlarning o‘rin almashinuvi (mas., *kiprik-kiprik, tuproq-tuproq* kabi).

METOD. Muayyan fan sohasida qoplanadigan vosita va usullar tizimi.

MODAL MA’NO. So‘zlovchining o‘zi ifodalayotgan fikrga munosabatini bildiradigan ma’no. Masalan, fikrning chin yoki gumonligi ma’nosi, afsuslanish, qoniqish, imkoniyat, mamnunlik kabi ma’nolar modal ma’nolar hisoblanadi.

MODALLIK. Modallik kategoriyasi so‘zlovchining gap mazmuniga va gap mazmunining borliqqa munosabatini ifodalaydi. Modallikda fikrning subektiv lahzasi. So‘zlovchi ongi orqali obektiv borliq bir bo‘lagining aksi o‘z ifodasini topadi. Modal unsur modusga (modus modalligi) yoki diktumga (diktum modalligi) taalluqlidir. Diktum modalligi ish-harakat bajaruvchi shaxsning muayyan harakatga munosabatini ko‘rsatadi. Modus modalligi esa so‘zlovchining faktga munosabatini aks ettiradi.

MODALLIK KATEGORIYASI. Borliqqa so‘zlovchi tomonidan belgilanadigan harakat munosabatini ifodalaydigan leksik-grammatik kategoriya.

MODEL. Biron til hodisasi (nutq birligi) tarkibiy qismlarining joylashish holatini ko'rsatuvchi sxema yoki namuna: *So'z yasash modeli*: yasash asoc + yasovchi.

MONOSEMIYA. Bir ma'nolilik; so'zning bir ma'noga ega bo'lishi (Asosan terminlar shunday xususiyatga ega bo'ladi. Mac, *leksema*, *fonema* so'zlari).

MONOSILLABIZM (mono.. + *yun.* syllabe – bo'g'in). Ba'zi tillarda so'z (leksema)larning bir bo'g'indan iborat bo'lishi (bu xususiyat xitoy-tibet tillari uchun xos).

MONOFONEMALI GRAFEMA. Mazmun planida faqat bitta fonema kodlashtirilgan fonografema.

MORFA (gr. *Morphe* – shakl). Morfemaning so'zshakl tarkibida qatnashayotgan ko'rinishi. Turli so'zshakllarda ishtirok etuvchi bunday morfemalar majmui morfemani tashkil etadi. Masalan, *ko'rgali*, *olgani* so'zshakllaridagi *-gali*, *-gani* qo'shimchalari bir morfema, ya'ni ravishdosh qo'shimchalari hisoblanadi.

MORFEM TAHLIL. U yoki bu tilning morfemalar inventlarini aniqlashdan iborat operatsiya.

MORFEMA. Morfema nutqiy zanjirning eng kichik bo'lagi bo'lib, u bo'lakka qandaydir o'ziga xos ma'no bilan bog'langan va boshqa morfemalar bilan mustahkam aloqalarda bo'ladi.

MORFEMIKA. Tilning eng kichik ma'noli birliklari – nomlanishining tuzilishi, turlari va vazifalarini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi.

MORFOGRAFEMALAR. Morfemalarni ifodalovchi belgilar.

MORFOLOGIK. Morfologiyaga oid. *Morfologik tahlil.* *So'zning morfologik tarkibi.*

MORFONOLOGIYA. Fonologiya va morfonologiya o'rtasidagi oraliq fan bo'lib, u fonologiyaning birliklari va morfologiyaning kategoriyalari bilan ish ko'radi hamda

ularning funksional aloqasini, ya'ni fonologik vositalarning morfologik qo'llanishini aniqlaydi.

NATURALISTIK OQIM. Tilni tabiiy organizm sifatida qaragan XIX asrdagi tilshunoslik oqimi. Namoyandalari: A.Shleyxer, M.Myuler.

NUTQNING FONETIK BO'LINISHI. Nutqning tovush, bo'g'in, takt va fraza kabi birliklarga bo'linishi.

NOLISONIY OMILLAR (ekstralingvistik faktorlar). Til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tuzum, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.

NOMEMA. Leksemaning tovush tomoni, nomi.

NOMINATIV BIRLIK. Nomlash xususiyatiga ega birlik.

NOMINATSIYA (lot. *nominatio* - *atash, nom qo'yish*). Tilda nomlash vazifasini bajaruvchi birliklari (so'z, so'z birikmasi kabilarni) hosil qilish.

NORMA (Me'yor). Adabiy tilga va adabiy nutqqa xos barqaror belgi-xususiyatlar. Ular ijtimoiy til amaliyotida tanlab olinadi va mustahkamlanadi.

NUTQ. Tilning voqelanishi, so'zlovchining til birliklaridan foydalanib fikr ifodalash jarayoni va shunday jarayon natijasida yuzaga keladigan hodisa.

OKKAZIONAL MA'NO. Leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim shaxsning leksik qo'llashi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nosi.

OKKAZIONALIZM (lot. *occasionalis*–tasodifiy). Umumiste'molga muvofiq, to'g'ri kelmaydigan, individual tarzda ma'no ega bo'lgan til birligi.

OPPOZITSIYA. Ikki yoki undan ortiq bir turdagi til hodisalarini qarama-qarshi qo'yish, qarama-qarshilik holati.

ORFOGRAMMA. So'zning yoki so'z formasining imlo qoidasiga mos ravishda yozilgan shakli.

ORFOGRAFIK BELGI. To‘g‘ri yozish me‘yorlarini ta‘minlashda qo‘llanadigan maxsus noharfiy belgilar (mas., defis).

ORFOGRAFIYA. Muayyan til yozuv sistemasining to‘g‘ri yozish me‘yorlarini belgilaydigan imlo qoidalari. Tilshunoslikning imlo qoidalari xususida bahs yurituvchi bo‘limi ham orfografiya deyiladi.

ORFOGRAFIYA PRINSIPLARI. Imlo qoidalarining tuzilishiga asos bo‘lgan tamoyillar: fonetik prinsip, fonematik prinsip, morfologik yoki fonematik-morfologik prinsip, grafik prinsip, tarixiy-an‘anaviy prinsip, shakliy-an‘anaviy yozuv prinsipi, semantik-uslubiy prinsip kabi.

ORFOEPIYA. To‘g‘ri (adabiy) talaffuz me‘yorlari tizimi.

PARADIGMA (*yun.* paradigma – misol, namuna). Til birliklari, grammatik shakllarning umumiy ma‘nosiga ko‘ra birlashuvchi, xususiy ma‘nosiga ko‘ra farqlanuvchi tizimi.

PARALINGVISTIKA. Tilshunoslikning o‘zaro aloqalaralashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o‘rganuvchi sohasi.

PARAFRAZEMALAR. Paronimik munosabatda bo‘lgan frazemalar.

PARONIMIYA. Ikki yoki undan ortiq leksemaning talaffuzda o‘zaro o‘xshash, ohangdosh bo‘lishi.

PARONOMAZIYA. Jonli so‘zlashuvda paronim so‘zlarni qorishtirish hodisasidan badiiy nutqda uslubiy maqsadlarda foydalanish.

PARTONIMIYA. Leksemalarning ma‘no guruhlarida butun-bo‘lak munosabatlarining ifodalanishi.

PERSEPTIV ASPEKT. Fonetikaning eshitish va his etish bilan bog‘liq jarayonlarni o‘rganuvchi aspekti.

PIKTOGRAFIK YOZUV. Nutq mazmuni rasm, shartli tasvir tarzidagi grafik shakllar asosida ifodalanadigan yozuv.

PIKTOGRAFIYA (*lot.* pictus – bo‘yoqda chizilgan, tasvirlangan + *yun.* grapho – yozaman). Narsa-buyum, voqea-hodisa, ish-harakatlarni shartli belgi-rasmlarda aks ettirishdan iborat ibtidoiy yozuv turi (bunday yozuv hozirgi kunda yo‘l harakatini tartibga soluvchi belgilarda, turli ko‘rsatkich va peshlavhalarda qo‘llanmoqda).

PLEONAZM (*yun.* pleonasmos – ortiqchalik). Bir xil yoki sinonimik til birliklarining semantik jihatdan takror holda qo‘llanishi (mas, *bosh-oyoq sarpo* birikmasidagi *forscha sarpo* so‘zi ham «bosh-oyoq» ma‘nosini ifodalaydi).

POZITSION OTTENKA. Fonemaning so‘z yoki bo‘g‘indagi pozitsiya talabiga moslashgan ko‘rinishi.

POZITSION O‘ZGARISHLAR. Tovushlarning ma‘lum holatda ro‘y beruvchi o‘zgarishlari. *Reduksiya, proteza* hodisalari pozitsion o‘zgarishlardir.

POZITSION XUSUSIYATLAR. Nutq tovushlarining so‘z tarkibidagi o‘rni (unlining urg‘uli yoki urg‘usiz bo‘g‘inda, undosh tovushning kuchli yoki kuchsiz pozitsiyada bo‘lishi), shu omil ta‘sirida yuz beradigan hodisalar.

POLIGRAF. Shaklan ikki yoki undan ortiq harflar qo‘shilmasiga teng bo‘lgan analitik grafema.

POLISEMANTIK. Ko‘p ma‘noga ega bo‘lgan; ko‘p ma‘noli.

POLISEMIYA. Ko‘p ma‘nolilik hodisasi.

PRAGMATIKA (*Yun.* pragma, pragmatos – ish, harakat). Semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini, ularning o‘zaro munosabatini o‘rganuvchi sohasi.

PREDIKATIVLIK. Har qanday gapning zaruriy xususiyatlari sifatida u gap mazmunining borliqqa fikrning nisbatan tugallangan jarayoni sifatidagi munosabatini xarakterlaydi; predikativlik gapning ayrim biror bo‘lagi bilan bog‘langan bo‘lmaydi.

PREFIKS (*lot.* – praefixum < rgae – olddan, oldindan + fixus – biriktirilgan). Soʻzning oʻzak oldidan qoʻyiladigan qismi, old qoʻshimcha (*benuqson, notoʻgʻri*).

PROKOPA. Soʻz boshidagi tovushning tushib qolishi.

PROTEZA. Soʻz boshida tovush orttirilishi.

PSIXOLINGVISTIKA. Tilshunoslikning odam nutqi faoliyatini ruhiy jihatdan oʻrganuvchi boʻlimi.

REDUKSIYA. Urgʻusiz boʻgʻindagi unlining kuchsizlanishi.

REDUPLIKATSIYA (*lot.* reduplicatio – ikkilanish). Soʻzdagi dastlabki boʻgʻinni yoki oʻzaki, butun soʻzni takror qoʻllash bilan takroriy soʻz, grammatik shakl hosil qilish usuli.

REKURSIYA. Artikulyatsiyaning uchinchi bosqichi (talaffuzning qaytishi).

REPREZENTATSIYA (*fran.* gerrepresentation–tiklash).

1.Til faktlarini eng ishonarli shart-sharoitlarda namoyish qilish.

2.Nutqda tushirib qoldirilgan soʻzga xos semantik komponentning saqlanib qolgan soʻzga yuklatilishi. Mas., *Bizning yorni koʻrgan* (odam) bormi?

SEMANTIK MAYDON. Maʼlum sema asosida birlashuvchi soʻz va iboralar majmui. Masalan, oziq-ovqat nomlari: *palov, lagʻmon, shoʻrva, mastava, qotirma, manti* kabi.

SANDXI. Soʻzning analitik shakllarida birinchi soʻz oxiridagi tovush bilan ikkinchi soʻz boshidagi tovush oʻrtasidagi singishuv natijasida sodir boʻladigan oʻzgarishlar.

SEGMENT (*lot.* *segment* – boʻlak). Nutqning fonetik jihatdan boʻlaklarga boʻlinishi (segmentlash) natijasida hosil boʻlgan boʻlak. Talaffuzdagi nutq boʻlagi. Katta nutq boʻlagi – fraza makrosegment, kichik nutq boʻlaklari: takt, boʻgʻin, tovush mikrosegment birliklardir.

SEGMENT BIRLIKLAR. Soʻz yoki morfema tarkibida (yoki nutq oqimida) gorizontaal chiziq boʻylab birin-ketin

keladigan birliklar: nutq tovushi, bo‘g‘in, fonetik so‘z, takt, fraza.

SEMA. Leksik ma‘no (semema)ni tashkil toptiruvchi komponent va ma‘no qirralari.

SEMANTIK. Semantikaga, ma‘noga oid. *So‘zning semantik tizimi. Semantik tahlil.*

SEMANTIKA (fran. *semantique* < yun. *semantikos* – ifodalovchi). Til birliklarining mazmun-ma‘no tomoni va ular bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi.

SEMASIOLOGIYA. Leksik birliklarning semantik tarkibi va u bilan bog‘liq masalalarni o‘rganuvchi soha.

SEMIOTIKA. Turli-tuman belgilar (ramzlar) tizimining umumiy xususiyatlarini o‘rganuvchi fan.

SENTENSIYA. Bu mikrochekinish. U muallif chekinishlarining ayrim ko‘rinishlariga ega bo‘lgan holda, xabar berishga to‘g‘anoq bo‘lish vazifasini bajaradi. Biroq sentensiya alohida olingan gapdan katta birlik va ayniqsa yaxlit bir bobda qaraganda sujet yo‘nalishi bilan uzviy bog‘langan. Sentensiya odatda gapdan katta birlik yoki abzatsning mazmun qobig‘iga o‘rangan bo‘ladi.

SIGNIFIKAT. Til birligi ifodalaydigan ma‘no.

SILLABIK YOZUV. Bo‘g‘inli yozuv.

SILLABIKA. Bo‘g‘in (sillabema) haqidagi ta‘limot.

SIMVOLLAR. Ilm-fanning ma‘lum sohalarida qabul qilingan maxsus ideografik belgilar.

SINGARMONIZM. So‘zning asosi va affiksi tarkibidagi unlilarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, garmoniyasi.

SINGARMONIK. Singarmonizmga oid, singarmonizm qoidalariga, talablariga bo‘ysunuvchi. *Singarmonik moslashuv.*

SINEREZIS. So‘z tarkibidagi ikki unlining diftonglashuvi.

SINKOPA. So‘z o‘rtasidagi tovushlardan birining tushib qolishi.

SINTAGMA. Ikki soʻzdan yoki soʻzlar guruhidan tashkil topgan eng sodda sintaktik butunlik.

SINTAGMA URGʻUSI. Nutq oqimining maʼno jihatidan muhim boʻlgan qismini (sintagmani) alohida taʼkidlash, ajratish uchun qoʻllanadigan urgʻu.

SINTAGMATIK MUNOSABATLAR. Tilning sintagmatik sistemasi sodir boʻlayotgan nutqning grammatik komponentlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarning koʻplab turlari yigʻindisi sifatida mavjuddir. Birinchi navbatda bunday munosabatlar bevosita bir-biri bilan chegaradosh boʻlgan komponentlar oʻrtasida vujudga keladi. Lekin koʻpgina tillarda, maʼlum darajada, ehtimol, jahonning barcha tillarida bir-biridan koʻp yoki kam distans uzoqlikda turgan sintagmatik qatorning komponentlari oʻrtasida u yoki bu munosabatlar, aloqalar mavjud boʻladi. Masalan: “I told you this.” gapida “I” va “told” komponentlari mazkur gapning egasi va kesimi sifatida bir-biri bilan juda yaqin aloqa tufayli zich bogʻlangan, biroq ular bir-biri bilan bevosita chegaralanmaydi.

SINTAGMATIK XUSUSIYAT. Soʻz yoki boʻgʻin tarkibida tovushlarning zanjirsimon joylashuvi; birin-ketin kelishi, gorizontaal chiziq boʻylab joylashuvidan kelib chiqadigan xususiyatlar.

SINTAGMATIKA. Til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti.

SINTAKSEMALAR. Elementar sintaktik birliklar – tilda bir qator variantlar bilan berilgan invariantlardir.

SINTAKSIS. Soʻzlarning birikish va gaplarning qurilish, shuningdek, gaplarning kattaroq qurilmalarga – gapdan katta birikma va matnga kirish qonuniyatlarini oʻrganuvchi grammatikaning bir boʻlimi sifatida tavsiflanadi.

SINTAKTIK POZITSIYA. Gapda fikr strukturasi va gapdagi soʻzlarning valentlik xususiyatlari bilan aniqlanadigan gap boʻlagining oʻrni.

SINTETIK GRAFEMA. Nutq oqimida bir yo‘la ikki fonemani ifodalaydigan monograf. Kirill o‘zbek yozuvidagi ye, yo, yu, ya harflari shunday grafemalardir.

SINTETIK (*yun.* synthetikos – biriktiruvchi, qo‘shuvchi, ulovchi). Sintezga, butunligicha uzviy bog‘lanishda olib tekshirishga asoslangan. *Tadqiqotning sintetik usuli.*

SINXRONIYA. Tilning hozirgi tuzilishini, holatini o‘rganish.

SITUATSIYA. Nutq akti yuz berayotganda unga ta’sir ko‘rsatuvchi sharoit.

SOTSIOLINGVISTIKA. Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashashi va ijtimoiy taraqqiyoti sharoitlarini o‘rganuvchi sohasi.

SOTSIOPRAGMATIKA. Sotsiolingvistikaning nutqning ham lisoniy, ham ijtimoiy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etuvchi tarmog‘i.

SPEKTOGRAF. Tovush formantlarini aniqlovchi maxsus apparat.

SPIRANTIZATSIYA. Portlovchi undoshning intervokal holatda sirg‘aluvchi undoshga o‘tishi.

STILISTIK MA’NO. Muloqot vaziyatini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri bo‘lib, bayonning umumiy stilistik ohangini hosil qilishda uning birinchi darajali jihati bilan bog‘langandir.

STRUKTURA. Bir butun tizim (makrotizim) tarkibidagi mikrotizimlar, ular o‘rtasidagi aloqalar mexanizmi.

STRUKTURALIZM. Tildagi ichki aloqalar va bosqichlar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni o‘rganuvchi tilshunoslik oqimi. Strukturalizmning AQSH, Daniya, Praga, Frantsiya maktablari bor.

SUBSTRAKT. G‘olib tilda yengilgan til elementlarining bo‘lishi.

SUN'IY TIL. Insonning tabiiy tilidan farq qiluvchi, biror shaxs tomonidan maxsus ishlab chiqilgan yordamchi til. Mas., *esperanto* (L.Zamengof, 1887), *volapyuk* (L.Shleer, 1870). XX asrning birinchi yarmida 400 ga yaqin sun'iy tillar ishlab chiqilgan.

SUPERSEGMENT BIRLIKLAR. Urg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalar, ular so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'lishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

SUPERSEGMENTAL FONETIUM (PROSODIKA). Nutqning bo'g'in, takt, fraza kabi birliklarini o'rganuvchi fonetika bo'limi.

SUFFIKS (*lot.* suffixus – qadalgan, biriktirilgan). So'z o'zagiga qo'shilib, uning ma'nosini o'zgartiradigan yoki boshqa so'z bilan bog'lash uchun xizmat qiladigan morfema; qo'shimcha.

TABIIY TIL. Kishilar o'rtasida aloqa, fikr almashuv vositasi sifatida qo'llanayotgan eng muhim aloqa vositasi.

TABU. Diniy e'tiqod, irim, qo'rqish ta'sirida ayrim so'zlarning qo'llanishini cheklash va man etish; ishlatilishi cheklangan so'zlar. Masalan, *chayon* so'zi o'rnida *eshak*, *oti yo'q* so'zlarining ishlatilishi.

TAVSIFIY LINGVISTIKA. Tilning holatini tavsifiy planda o'rganuvchi tilshunoslik.

TAVSIFIY FONETIKA. Xususi fonetikaning ichki bir turi. U muayyan tilning fonetik tizimini statika holatida (til taraqqiyotining oldingi bosqichlarida yuz bergan hodisalar bilan bog'lamay) o'rganadi.

TARIXIY FONETIKA. Xususi fonetikaning ichki bir turi. U muayyan til tovush tizimini diaxron planda va dinamik holatda (tarixiy taraqqiyotda) o'rganadi.

TASVIRIY (DESKRIPTIV) TILSHUNOSLIK OQIMI. Tilni formal usullar yordamida o'rganuvchi oqim. Amerika

deskriptiv tilshunosligi: L.Blumfild, Z.Xarris, G.Glisson va boshqalar.

TEZAURUS (*yun.* thesauros – xazina, boylik). Muayyan tildagi barcha soʻzlarni qamrab oladigan, ularning matnda qoʻllanish holatlarini toʻla-toʻkis aks ettiradigan lugʻat.

TERMINLAR. Fan, texnika, adabiyot, sanʼat va boshqa sohalarga oid ixtisoslashgan tushuncha nomlari.

TERMINOLOGIYA (*lot.* terminus chek, chegara *belgisi*, *logos* - soʻz, taʼlimot). 1.Maʼlum sohaga oid terminlar majmui. 2.Tilshunoslikning terminlar yaratish tamoyillari, ularni tartibga solish muammolari bilan shugʻullanuvchi, terminlarga doir ilmiy-nazariy va amaliy masalalarni oʻrganuvchi boʻlimi.

TIL SATHLARI. Tilni tekshirish jarayonida, uni tahlil etishning turli usullarida belgilanadigan qatlamlari. Tilning asosiy sathlari: 1) fonetik sath; 2) leksik sath; 3) grammatik sath.

TIL SHOXOBCHALARI. Genetik jihatdan yaqinlik belgilariga ega boʻlgan til oilalarining ichki guruhlar, shu oila ichidagi til guruhlar.

TILLAR OILASI. Kelib chiqish asosining umumiyliigi, fonetik, leksik va grammatik jihatdan oʻzaro oʻxshashligi, yaqinligi bilan izohlanadigan tillar guruhi. Mas., *turkiy tillar oilasi*.

TILLAR TASNIFI. Tillarning muayyan belgilar asosida maʼlum oila va guruhlariga ajratilishi.

TILLARNING QARINDOSHLIGI. Tillarning bir asos tildan kelib chiqqanligi va ularning fonetik, leksik va grammatik qurilishida umumiylik, izchil mosliklarning mavjudligi.

TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI. Tillarni grammatik shakl hosil qilish usullarida farq qilishga koʻra guruhlariga ajratish.

TILLARNING CHATISHUVI. O‘zaro ta’sir etuvchi ikki tildan birining g‘olib chiqishi va ikkinchi tilning esa g‘olib tilda biror fonetik, leksik, sintaktik izlar qoldirishi. Mas., *kelt tili, frank tili*.

TILLARNING SHAJARAVIY TASNIFI. Tillarni kelib chiqish manbaining birligi, umumiyligiga ko‘ra guruhlariga ajratish.

TILNING IFODA JIHATI. Tilning tashqi tomoni, strukturasi, undagi birliklar (tovushlar, morfemalar, so‘zlar, so‘z birikmalari, gaplar).

TIPOLOGIYA (*yun.* typos – belgi, iz; namuna, shakl, + logos – fan, ta’limot). Ob’ektlar tizimini qismlarga ajratish va ularni umumlashma model yoki tip yordamida guruxlashtirishdan iborat ilmiy metod.

TONIK (MUSIQIY) URG‘U. Ovoz tonining o‘zgarishi, tovlanishiga asoslangan urg‘u.

TRANSKRIPSIYA. Fonemalarning turli ottenkalarini, shuningdek, lahja va shevalarga xos fonetik xususiyatlarni yozuvda aniq ifodalash uchun shakllantirilgan maxsus grafik belgilar tizimi.

TRANSLITERATSIYA. Biror alifbo asosida yozilgan matnlar yoki alohida so‘zlarni boshqa bir alifbo vositalari bilan harfma-harf aks ettirish. *Yevropacha nomlarning o‘zbekcha transliteratsiyasi*.

UZUAL MA’NO. Leksemaning semantik tarkibida bor bo‘lgan leksik ma’no.

UZUS. Leksema, frazema, so‘z shakli va sintaktik konstruksiyalarning til egalari tomonidan qabul etilgan qo‘llanishi.

O‘LIK TIL. Hozirgi davrda so‘zlashuv vositasi sifatida qo‘llanmaydigan, jonli iste’moldan chiqqan (iste’molda bo‘lmagan) til. Mas., *lotin, eski slavyan, sankskrit*.

ULTRATOVUSH. 20000 Hz dan ortiq chastotali tovush.

UMLAUT (*nem.* Umlaut – unlini almashtirish). Soʻzdagi unlilarning grammatik shakl yasash vositasi sifatida almashinuvi. Bu hodisa, mas., nemis tilida a, o, u unlilarining yumshashida koʻrinadi. Oʻzbek tilining ayrim shevalarida, mas., Namangan viloyatidagi shevalarida umlaut hodisasi uchraydi.

FLEKSIYA (*lot.* flexio – egilish, bukilish). Soʻz oʻzgarishlarida namoyon boʻladigan grammatik kategoriyalar majmui koʻrsatkichi; qoʻshimchalar qoʻshilishi yoki asos (negiz)dagi baʼzi tovushlarning oʻrin almashinishi natijasida soʻzlarning dastlabki shaklini yoʻqotishi yoki oʻzgartirishi.

FLEKTIV TILLAR. Morfologiyada, baʼzan soʻz yasashida fleksiya hodisasi ustunlik qiladigan tillar.

FLEKTIV. Fleksiya xususiyatiga ega boʻlgan; fleksiyaga oid.

FONEMA. Soʻzlar, morfemalar va grammatik shakllarning tovush qobigʻini, binobarin, maʼnolarini ham farqlash uchun xizmat qiladigan eng kichik segment birlik. Fonetik jihatdan yaqin va funksional jihatdan oʻxshash tovushlar sinfining qisqacha ifodalanishi. Bir fonemaga aynan bir tovushning turli-tuman koʻrinishlari birlashib, muayyan tilda ushbu barcha turlar aynan bir vazifaga ega boʻladi.

FONEMA VARIANTI. Fonemaning nutqda yondosh tovushlar taʼsirida paydo boʻladigan koʻrinishi. Masalan, v fonemasining *lab-lab* variantlari.

FONEMA OTTENKALARI. Fonemalarning talaffuzdagi aniq koʻrinishlari.

FONEMALARNING DIFFERENSIAL BELGILARI. Oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanadigan belgilari.

FONEMALARNING INTEGRAL BELGILARI. Oʻzaro qarama-qarshi qoʻyilayotgan ikki fonemaning farqlanmaydigan belgilari.

FONEMATIK. Fonemaga oid. *Tilning fonematik tarkibi.*

FONETIK. Fonetikaga oid. *Fonetik qonunlar. Tilning fonetik tizimi. Fonetik transkripsiya.*

FONETIK DIALEKTIZMLAR. Dialekt yoki shevaga xos fonetik birliklar tizimi.

FONETIK SO‘Z. Nutq tovushlarining ma‘lum tartibda joylashuvidan tarkib topgan so‘zning fonetik qiyofasi, leksemaning ifoda plani.

FONETIK TAMOYIL. So‘z, asos va qo‘shimchalarni eshutilishiga muvofiq yozish. Masalan, *burun, shahar* so‘zlariga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi unli tushib qolishi: *burnim, shahrim, shahrimiz* kabi yozilishi.

FONETIK HODISALAR. Nutq jarayonida yuz beradigan kombinator va pozitsion o‘zgarishlar.

FONETIKA. Tilshunoslikning fonetik birliklar, ularning fizik-akustik va h.k. xususiyatlari haqida ma‘lumot beruvchi bo‘limi.

FONETIK-FONOLOGIK SATH. Til ierarxiasining tovush tizimidan iborat quyi pog‘onasi (quyi yarusi): nutq tovushlari, bo‘g‘in, urg‘u, ohang va boshqalar.

FONETIST. Fonetika sohasi bilan shug‘ullanuvchi tilshunos.

FONOGRAFEMA. Grafemalarning fonemalarni ifodalashga asoslangan tipi.

FONOLOGIK OPPOZITSIYA. Differensial belgilar asosida ikki fonemaning bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilishi (fonologik zidlanish).

FONOLOGIYA (fono.. + *yun.* logos – bilim, tushuncha). Tilshunoslikning nutq tovushlarini, ya‘ni fonemalarni so‘z va morfemalarning tovush qobig‘ini farqlovchi vosita sifatida o‘rganuvchi sohasi.

FONOSTILISTIKA. Fonetik-fonologik birliklarning, shu jumladan urg‘uning ham matndagi uslubiy xususiyatlariga oid ta’limot. U stilistikaning bir bo‘limi sanaladi.

FORMANTLAR. Tovush tembrini ifodalovchi va uning boshqa tovushlar tembridan farqini ko‘rsatuvchi chastotalar.

FRIKATIV (*lot. fricatio* – ishqalanish). **Frikativ undoshlar.** Nutq a’zolari bir-biriga yaqinlashib, havo tor oraliqdan sirg‘alib chiqishi natijasida hosil bo‘ladigan **v, f, z, s, j, sh, x** undoshlari.

XALQARO TILLAR. Xalqaro kengashlarda, simpoziumlarda ishlatiluvchi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan rasmiy tan olingan, xalqlararo faol qo‘llanuvch tillar. Bunga *ingliz, ispan, xitoy, frantsuz, rus, arab tillari* kiradi.

XUSUSIY FONETIKA. Fonetikaning muayyan bir til tovushlari, ularning turlari, fizik-akustik va artikulyatsion xususiyatlari xususida bahs yurituvchi turi.

CHASTOTALI LUG‘AT. So‘zlarning (so‘z shakllari, so‘z birikmalarining) nutqda qo‘llanish miqdori haqida ma’lumot beruvchi lug‘at.

EKSTRALINGVISTIKA. Tilshunoslikning etnik, ijtimoiy-tarixiy, jug‘rofiy va boshqa omillarni tilning taraqqiyoti va vazifasi bilan bog‘liq hodisalar sifatida o‘rganuvchi sohasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –T., 2010. –176 b.
2. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent:O‘qituvchi, 1996 yil, –136 b.
3. Baskakov N.A., Sodiqov A.S., Abduazizov A.A. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: O‘qituvchi, 1979. –192 b.
4. Bloomfield L. Language. –N.Y., 1933. –553 p.
5. Budagov L. Turkiy tillar qiyosiy lug‘ati 1960. 49-bet.
6. Chomskiy N. Syntactic Structures. –New York,1957. – 119 p.
7. Fozilov E. Sharqning mashhur filologoglari. –Toshkent: Fan, 1971.
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T., 2002. –16 6 b.
9. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1992. –256 b.
10. Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni. (Devoni lug‘otit turk). 3 jildlik. 1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. –T.: Fan, 1960. –500 b.
11. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Toshkent: “Ta’lim”, 2009. –160 b.
12. Nurmonov A. Tanlangan asarlar 2-jild. Lingvistik ta’limotlar tarixi –Toshkent: 2012. –232 b.
13. O‘rinboyev B. O‘zbek tilshunosligi tarixi. – Samarqand: SamDU, 1999. –80 b.
14. Rahimov A. Umumiy tilshunoslik kursi. –Samarqand, 2015. –123 b.
15. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. –312 b.
16. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2016. –190 b.

17. Xolmonova Z. Tilshunoslikka kirish. –Toshkent, 2007. –177 б.

18. Yo‘ldoshev I., Sharipova O‘. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: “Iqtisod moliya”, 2007. –192 б.

19. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. (русский перевод), –М., 1935, стр. 315-317.

20. Березин Ф.М. История лингвистических учений. – М. 1984. –319 с.

21. Бушуй Т. Язык в истории развития человеческой мысли. –Т.: Фан, 2011.–384 с.

22. Бушуй Т. Язык в системной структуризации. – Тошкент: Фан, 2014. –232 с.

23. Бушуй Т., Сафаров Ш. Тил курилиши: таҳлил методлари ва методологияси. –Тошкент: Фан, 2007. – 274 б.

24. Васильева Н. В. и др. Краткий словарь лингвистических терминов. –М.: Рус. яз., 1995. –176 с.

25. Виноградов В.В. Вопросы изучения словосочетаний, ВЯ, 1954, № 3, стр. 10.

26. Головин Б.Н. Введение в языкознание. –М., 1977. – 312 с.

27. Гречко В. А. Теория языкознания. –М.: Высшая школа, 2003. –375 с.

28. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. –Т.: “Фан”, 1988. –206 б.

29. Дў Соссюр, Фердинанд Умумий тилшунослик курси. Француз тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. – Тошкент, 2019. –308 б.

30. Дурново Н.Н. Грамматический словарь: Грамматические и лингвистические термины. –М.: Флинта, 2001. –183 с.

31. Звегинцев В.А. История арабского языкознания. – Москва: МГУ, 1958. –80 с.

32. Звегинцев В.А. История языкознания XIX-XX в веков в очерках и извлечениях. Часть 1. –Москва, 1964. стр. 88-89.

33. Звегинцев В.А. Язык и лингвистическая теория. – М.: Эдиториал УРСС, 2001.–246 с.

34. Зубкова Л. Г. Общая теория языка в развитии. –М.: РУДН, 2002. –472 с.

35. Кодухов В. И. Введения в языкознание. –Москва: Пресвещение, 1987. –288 с.

36. Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. –М.: Просвещение, 1979. –224 с.

37. Лингвистический энциклопедический словарь/ гл. ред. В.Н. Ярцева. – 2-е изд., доп. –М. : Большая рос. Энцикл., 2002. –709 с.

38. Лоя В. История лингвистических учений. – М.:Высшая школа, 1968. –308 с.

39. Малов С.Е. Енисейская письменности тюрков. –Л.: “Наука”, 1952. –114 с.

40. Марр Н.Я. Мышление и язык. –Ленинград, 1931. – С. 62.

41. Маслов Б.А. Общее языкознание. –Стерлитамак: Стерлитамакский гос. пед. ин-т, 1996. –165 с.

42. Мечковская Н.Б. История языка и история коммуникации: от клинописи до интернета: курс лекций по общему языкознанию. –М.: Флинта: Наука, 2009. –584 с.

43. Мечковская Н.Б. Общее языкознание. Структурная и социальная типология языков. 3-е изд. –М.: Флинта, 2003. –310 с.

44. Миртожиев М.М. Туркий туб сўзлар тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2017.–400 б.

45. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –30 б.

46. Норман Б.Ю. Теория языка: Ввод. курс: Учеб. пособие. –М.: Флинта; Наука, 2004. –292 с.

47. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: “Ўзбекистон”, -2002. –232 б.

48. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. –Т., 1996. –160 б.

49. Общее языкознание. Внутренняя структура языка. –М.: Наука, 1972. –560 с.

50. Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М.: Наука, 1973. –345 с.

51. Омонов Қ. “Умумий тилшунослик“ фанидан дарс етакчиси. –Тошкент, 2010.

52. Парибок А.В. Методологической основаниях индийской лингвистики // История лингвистический учений. Средневековый Восток. –Ленинград: Наука, 1981. –214 с.

53. Петерсон М.Н. Современный русский язык. – М., 1929, стр. 27.

54. Пешковский А.М. Понятие отдельного слово \\\ Сборник статей. –Л.,1925. –С.122.

55. Попова З.Д., Стернин И. А. Общее языкознание: учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. –М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. –408 с.

56. Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике.-М.: Наука, 1974. –352 с.

57. Радциг С.И. Введения в классическую филологию. –М., 1965. –519 с.

58. Реформатский А.А. Введение в языковедение. –М., 1967. –562 с.

59. Сепир Э. Язык (русский перевод). –М. –Л., 1934. – 221 с.

60. Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и мышление. –М.: Наука, 1988. –242 с.

61. Соссюр Ф. д'ю. Заметки по общей лингвистике / Пер. с фр. Б.П.Нарумова. –М.: Прогресс, 1990. –С. 44.

62. Соссюр Фердинанд ду. Курс общей лингвистики / Пер. с французского А.М.Сухотина, под редакцией и с примечаниями Р.И.Шор. –М.:Едиториал УРСС, 2004. –256 с.

63. Сравнительная фонетика тюркских языков / А.М.Щербак; Отв. ред. член-корр. –Л.: Наука. 1970. –204 с.

64. Студеникина Т.А. Теория языкознания. –М.: МЭГУ, 1995. –172 с.

65. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси. Маърузалар матни. –Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. –86 б.

66. Турниёзов Н. Тилшуносликка кириш. Маърузалар матни. –Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2002, 75 б.

67. Ёринбоев Б. Ўзбек тили сўзлашув нутқи синтаксиси масалалари. –Т.: “Фан”, 1974. –148 б.

68. Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1972. –208 б.

69. Фортунатов Ф.Ф. Сравнительное языковедение. – Москва: Издательство Юрайт, 2016. –220 с.

70. Хроленко А.Т., Бондалетов В. Д. Теория языка: учеб. пособие. –М.: Флинта; Наука, 2006. –528 с.

71. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Т., 2007. –168 б.

72. Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: 2001. – 464 б.

MUNDARIJA

Soʻzboshi	3
Tilshunoslik nazariyasi fanining maqsadi, vazifalari	5
Tilning ijtimoiy tabiati	30
Til va tafakkur.....	56
Til tafakkur – nutq munosabati.....	71
Til – ramzlar tizimi	87
Tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi	122
Dunyo tillari va ularning tasnifi	145
Mustaqil ish mavzulari rejalari, ularni bajarish boʻyicha savol va topshiriqlar.....	163
Tilshunoslik terminlari lugʻati	171
«Tilshunoslik nazariyasi» fanidan test savollari.....	182
Glossariy	213
Foydalanilgan adabiyotlar.....	247

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие	3
Цели и задачи лингвистической теории	5
Социальная природа языка	30
Язык и сознание.	56
Язык – сознание – Речевые отношения.	71
Язык – система символов	87
Становление и развитие языков	122
Языки мира и их классификация	145
Темы самостоятельных рабочих планов, вопросы и задания по их выполнению	163
Словарь лингвистических терминов.....	171
Тесты вопросы по предмету «Теория лингвистики»	182
Глоссарий	213
Литература.....	247

CONTENTS

Preface	3
Objectives, tasks of the linguistic theory	5
The social nature of the language	30
Language and mentality.....	56
Language Thinking – Speech Attitudes	71
Language – Symbols System	87
Formation and development of languages.....	122
World languages and their classification	145
Independent work plans, questions and tasks on their implementation	163
Dictionary of linguistic terms	171
Test questions on the subject "Theory of Linguistics"	182
Glossary	213
Used literature.....	247

Turobov Abdurayim Malikovich

TILSHUNOSLIK NAZARIYASI

Darslik

Muharrir: G.Rahimova

Musahhih: Z.Usmanova

Texnik muharrir: Sh.Abduraximov

© “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti,
140104, Samarqand sh., Bo’stonsaroy ko’chasi, 93

ISBN 978-9943-6998-0-9

Nashriyot tasdiqnomasi:

№ 1243-7560-5999-432c-2125-1811-8655

Bosishga ruxsat etildi: 23.11.2021-yil.

Ofset bosma qog’ozi. Qog’oz bichimi 60x84^{1/12}.

“Times New Roman ” garniturası. Ofset bosma usuli.

Hisob-nashriyot t.: 15,8. Shartli b.t.: 9,5.

Adadi: 150 nusxa. Buyurtma 08.

SamDCHTI nashr-matbaa markazida chop etildi.
Samarqand sh., Bo’stonsaroy ko’chasi, 93-uy.